




NAMANGAN
DAVLAT
PEDAGOGIKA
INSTITUTI



TA'LIM VA TARAQQIYOT

ILMIY-USLUBIY JURNAL



2022-YIL 1-SON



Bosh muharrir: Namangan davlat pedagogika instituti rektori v.v.b. M.R.Qodirxonov

Mas’ul muharrir: Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo’yicha birinchi prorektor A.A.Isoqboyev

Mas’ul muharrir o’rinbosari: Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash sektori boshlig’i J.A.Yuldashev

T A H R I R H A Y ’ A T I

Aniq va tabiiy fanlar: akad. K.Tojibayev, akad. A.To’rayev, k.f.d., prof.

Sh.Abdullayev, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, b.f.d., dots. A.Batashov, f-m.f.n., dots., T.Abdullayev.

Texnika fanlari: t.f.d., prof. A.Umarov, PhD. Sh.Xudoyqulov, PhD. A.Abdunazarov.

Ijtimoiy gumanitar fanlar: s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d, prof. A.Rasulov. f.f.d., prof. M.Ismoilov, i.f.d., dots. N.Sotivoldiyev, t.f.n., dots. A.Isoqboyev, PhD. J.Yuldashev, PhD. A.Abdullayev.

Pedagogika fanlari: p.f.d., prof. U.Inoyatov, p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. SH.J.Yusupova, p.f.d., prof. O`M.Asqarova. p.f.n., dots., Sh.Ubaydullayev, PhD. M.Asranboyeva.

Filologiya fanlari: fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, p.f.n., dots. S.Misirov, PhD.,dots. P.Lutfullayev, PhD., dots. M.Yakubbayev

Texnik muharrir: R.Tursunov

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko‘chasi, 316-uy.

Pochta indeksi: 160136, **Faks:** (0369) 227-27-21, **Email:** Info@namspi.uz

“Ta’lim va taraqqiyot” ilmiy-uslubiy jurnali elektron to’plam sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045 044 raqamli guvohnomasi asosida chop etiladi. “Ta’lim va taraqqiyot” ilmiy-uslubiy jurnali NamDPI Ilmiy-texnikaviy Kengashining 10-dekabr 2022-yildagi 4-sonli kengaytirilgan yig‘ilishida muhokama qilinib, ilmiy to’plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnoma № 4). Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma’lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.



TA’LIMNING DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

ПСИХОЛИНГВИСТИК БИЛИМ ЎҚУВЧИ ШАХСИНИ РИВОЖЛАНТИРУВЧИ ОМИЛ СИФАТИДА

Юсупова Шоҳидахон Жалолиддиновна

Андижон давлат педагогика институти

Ўзбек тили ва адабиёти кафедраси профессори

***Аннотация:** ушбу мақолада ўқувчи шахсини ривожлантиришда психолингвистик билим зарурлиги ифода этилган бўлиб, унда ахборотни нутқ бирликларидан фойдаланган ҳолда тингловчига етказиш, нутқда сўзловчи руҳиятидаги ўзгаришларнинг акс этиши, унинг тингловчига, ўқувчига таъсир этиш масалалари ҳақида фикр юритилади.*

***Калит сўзлар:** психолингвистика, мулоқот, сўзловчи, нутқ, когнитивлик, шахс омили*

Мулоқот муаммоларининг давлат сиёсати даражасида кўйила бошлаши таълим тизимига, айниқса, тилни ўқитишга катта масъулият билан қарашни такозо этади. “Биз кейинги пайтда одамлар билан мулоқот қилишни унутиб қўйдик. Уларнинг ичига кириб, очик ва самимий гаплашиш, дардини эшитиш бизнинг фаолиятимизда, афсуски, охириги ўринга тушиб қолди”. Ушбу масалани ижобий ҳал қилиш учун тил ўқитишда психолингвистик билимга эътибор қаратиш муҳим ҳисобланади.

Маълумки, психолингвистика нутқнинг шаклланиши ва уни идрок этиш қонуниятлари ҳақидаги фандир. У нутқни шакллантириш жараёнларини, шунингдек, уни тил тизимига мувофиқ равишда идрок этиш масаласини ўрғанади. Психолингвистика тадқиқот предмети бўйича тилшуносликка, тадқиқот методлари бўйича эса психологияга яқин бўлган фандир. Психолингвистика тилшунослик соҳаси сифатида тилни, асосан, психика ҳодисаси сифатида



ўрганади. Психолингвистик нуқтаи назардан, тил сўзловчи ва тингловчи, ёзувчи ва ўқувчининг ички дунёси акс этадиган даражада мавжуддир. Шунинг учун психолингвистика фақат матнлар билан танишиш имкони бўлган, уларни яратувчиларининг рухий оламини кузатиш мумкин бўлган фандир. Психолингвистикада бирор ахборотни нутқ бирликларидан фойдаланган ҳолда тингловчига етказиш, бундай нутқда сўзловчи руҳиятидаги ўзгаришларнинг акс этиши, унинг тингловчига таъсир этиш масалалари ўрганилади. Нутқда ахлоқ-одоб, сўзлашиш одоблари, нутқ ҳосил қилишдаги эҳтиёжлар, сўзловчи ва тингловчининг муносабати, уларнинг билим савияси, маданийлик даражаси кабилар ўз аксини топади ва буларнинг барчаси психолингвистиканинг, тил методикасининг тадқиқ манбаи ҳисобланади.

Сўнги йилларда тадқиқотчилар психолингвистикани ўз предмети ва методларига эга бўлган фан сифатида эмас, балки тил, нутқ, мулоқот ва когнитив жараёнлар ўрганиладиган махсус майдон (имконият) деб қараладиган нуқтаи назар кенг тарқалди. Бу имконият мақсади, назарий асослари ва методлари жиҳатидан турлича бўлган тадқиқот дастурларини юзага келтирди. Бу дастурлар, асосан, амалий характерга эга бўлиб ҳисобланади.

Психолингвистика ва тилшунослик бир бирига жуда яқин бўлган предмет бўлиб ҳисобланади. Тилшунослик анъанавий равишда тилни мулоқот воситаси сифатида ўрганувчи фан бўлса, унинг объекти нутқ фаолияти (нутқий актлар, нутқ реакциялари) бўлиб ҳисобланади. Тилшунослик предмети эса нутқий мулоқот коммуникациясида ишлатиладиган тил воситалари тизимидир. Биз биламизки, мулоқот ахборот алмашув жараёнидир. Г.В.Колшанский таъбири билан айтганда, коммуникация ҳамма вақт фикр ва ахборот алмашиш мақсадини кўзлайди ва у инсоннинг меҳнат, ижтимоий фаолият жараёнида юзага келадиган амалий ва назарий эҳтиёжларини қондиришга хизмат қилади. Мулоқотни тўлақонли амалга оширишда ўқувчининг ўзаро муносабатини, улардаги мулоқот муҳитини ҳам ҳисобга олиш лозим бўлади. Мулоқотни -коммуникацияни сифатли амалга оширишда шароит, мулоқот қилувчиларнинг муносабати, когнитив ва психолингвистик омиллар муҳим аҳамиятга эга. Нутқда матнни яратиш, уни



идрок этиш, коммуникация жараёнидаги субъектив муносабат кабилар рухият билан боғлиқ эканлигини кўрсатади.

Замонавий тилшунослик ривожланишидаги асосий талаблар психоллингвистиканинг ривожланиш талаблари билан мос келади, шундай экан, тилни ўқитишда ҳам унинг йўналиш ва талаблари унга мос бўлиб ҳисобланади. Аввалда тилшуносликда мулоқот жараёни ва уни амалга ошириш маъноси тушунилса, энди маъно тушунчасининг ўзи мулоқот доирасидан ташқарига чиқиб, когнитив бирлик сифатида, жумладан, турли-туман когнитив схемалар, типик когнитив вазиятлардан иборат бўлмоқда. Худди шунингдек, она тилини ўрганишдаги коммуникатив компетенция бу турли соҳаларда ва мулоқот жараёнида шахснинг тил воситалари орқали коммуникатив вазифаларни бажаришни кўзда тутади. Коммуникатив компетенция ўз ичига нутқ, лингвистик, психоллингвистик социоллингвистик каби тушунчаларни олади. Коммуникатив мақсад қўйишда қуйидаги вазифаларни ҳал қилиш муҳимдир:

- нутқ фаолиятининг турли шаклларида кўникма ва малакаларни шакллантириш;
- лингвистик компетенция-тил аспектларида турли назарий билимларни эгаллаш ва уни амалиётга жорий этиш;
- социоллингвистик компетенция-тил воситаларини мулоқот ҳолатига мослаб шакллантириш.
- психоллингвистик компетенция эса мулоқотда ўқувчининг руҳий ҳолатига, ёш хусусиятларига эътибор бериш, тилнинг инсонга таъсирини ўрганиш кабилар.

Албатта, ўқувчи шахсини ривожлантириш учун унга психологик жиҳатдан ёндашиш зарур бўлади. С.М.Мўминов ўз тадқиқотида психоллингвистик аспектини таҳлил қилар экан, тилнинг инсонга таъсири унинг вазифаларидан бири эканлигини тушунтиради. Мулоқот инсон психологияси ва физиологияси билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, ҳар қандай нутқ тафаккур билан, тафаккур эса рухият билан боғлиқ эканлигини айтади. Унинг таъкидлашича, “Танани руҳ бошқариб туради. Демак, руҳга таъсир этган ҳар қандай нарса танага ҳам таъсир этади. Буларнинг ҳаммаси мулоқотнинг психофизиологик аспектини ташкил этади”. Шахс омилининг асосий хусусиятларидан бири унинг психологик томони ҳисобланади. Шундай экан, тилни ўқитишда ҳар бир ўқувчининг психологик



жихатларини ҳисобга олиш, шунга кўра уларнинг интеллект даражасини ривожлантиришга эришиш муҳим ҳисобланади. Шунини айтиш лозимки, тилни ўқитиш бу-грамматик билимлар, малакалар тизимидан иборат бўлмай, у ўқувчи шахсини ривожлантиришга хизмат қилувчи, мулоқот жараёнини тўғри амалга оширувчи коммуникация жараёнидир. Шахс омилининг тадқиқи эса тилшунослик фанининг психология, фалсафа, мантиқ, маданиятшунослик каби фанлар билан бир нуқтага кесишига ҳам олиб келади. Шундай экан, тил ўқитишда ҳам ана шу фанлар билан алоқадорликда иш олиб бориш мақсадга мувофиқ бўлади.

Маълумки, она тили ўқитишда педагогик-психологик моҳиятни билиш ва когнитив фаолиятни ривожлантириш таълим ислохотларининг устувор йўналиши сифатида белгиланди. Ўқувчиларнинг когнитив фаолиятини ривожлантириш йўллари ва усулларини ўрганиш муаммоси педагогиканинг муҳим муаммоларидан биридир. Когнитив фаолиятнинг ривожлантириш мазмунини аниқлаш, авваламбор, “психологик фаолият”, “психологик жараён” каби таянч тушунчаларни таҳлил қилиш заруратини туғдиради. Психологик жараёнлар эса (идрок, ассоциация, диққат-эътибор, абстракциялаш, хотира, фикрлаш, тасаввур қилиш) инсон когнитив фаолиятининг ажралмас қисми ҳисобланади ва фаолият самарадорлигини таъминлайди. Демак, бундай жараёнлар бевосита психологик жараёнлар билан боғлиқдир. Жан Пиажетнинг когнитив ривожланиш назариясига кўра, болалар ўзининг когнитив қобилиятларини атроф-муҳитда ўз ҳаракатлари ёрдамида мустақил ҳал қилади ва тузади. Бу орқали ўқувчиларда атроф-муҳитдаги бирор ҳодиса ёки буюмни: баҳолаш (тушуниш, баҳо бериш, ўлчаш, таққослаш, хулоса қилиш), таҳлил қилиш (фарқлаш, дифференциялаш, умид боғлаш, биринчилик учун курашиш, сабаб топиш, таққослаш, тажриба ўтказиш, ўрганиб чиқиш), синтез қилиш (шакллантириш, таълим бериш, ишлаб чиқиш, ривожлантириш, қайта аниқлаш, тақлиф этиш, яратиш), билимларни қўллаш (намойиш этиш, тайинлаш, бажариш, чизиб кўриш, қўллаб кўриш, ишлатиш, шуғулланиш), мавзунини тушуниш (қайта кўриб чиқиш, идентификациялаш, муҳокама қилиш, ўзига қаратиш, тан олиш, тушунтириш, гапириб бериш, аниқлик киритиш), мавзунини билиш (эслаш, аниқлик киритиш, тасдиқлаш, айтиб ўтиш, такрорлаш, аташ, гапириб бериш, тасаввур этиш, топиш)



ривожланади. Хотирани кучли қиладиган бу ҳиссиёт. Ҳаётда ҳиссиёт билан яшаш керак. Когнитив қобилият болаларнинг асосий фаолияти бўлиб, у боланинг интеллектуал ривожланиши, унинг атрофидаги дунё ҳақидаги билимларини аниқлаштириш учун катта аҳамиятга эга. Когнитив қобилият тушунчасини фанлараро тадқиқотлардан фойдаланган ҳолда қуйидаги гуруҳга ажратилиши аниқлаштирилган. Булар: мантикий-математик қобилият (*logical-mathematical*), лингвистик қобилият (*linguistic*), визуал-фазовий фикрлаш қобилият (*visual/spatial*), мусикий қобилият (*musical intelligences*), жисмоний-кинестетик қобилият (*bodily-kinesthetic*), шахсий қобилиятлар (*individual*), табиатни англаш қобилияти (*naturalistic*).

Биз биламизки, психокөгнитив фаолият мураккаб психологик-педагогик ходисадир. Болалардаги когнитив ривожланганлик нафақат ўқув машғулотида, балки субъектив тажрибага асосланган мустақил фаолиятда ҳам намоён бўлади. Бу нафақат ўқув-меъёрий ҳужжатларда белгиланган мазмунни ўзлаштиришга, балки объектив ва ижтимоий кадриятларда, ўрганган билимларини амалий фаолиятда қўллаш ва муносабатларини ифодалашда ҳамда тарбиявий мулоқотда намоён бўлади, бундай фаолият таълим олувчиларнинг “ўрганишга бўлган табиий мойиллиги” бўлиб ҳисобланади. Шундай экан, албатта, ўқувчи шахсини ривожлантириш учун унга психологик жиҳатдан ёндашиш зарур бўлади. Шахс омилининг асосий хусусиятларидан бири унинг психологик томони ҳисобланади. Зеро, тилни ўқитишда ҳар бир ўқувчининг психологик жиҳатларини ҳисобга олиш, шунга кўра уларнинг интеллект даражасини ривожлантиришга эришиш муҳим ҳисобланади. Шунини айтиш лозимки, тилни ўқитиш бу-грамматик билимлар, малакалар тизимидан иборат бўлмай, у ўқувчи шахсини ривожлантиришга хизмат қилмоғи зарур.

Шахс омилининг тадқиқи тилшунослик фанининг психология, фалсафа, мантик, маданиятшунослик каби фанлар билан бир нуқтага кесишига ҳам олиб келади. Шунинг учун ҳам тилимизда “Тил сохиби” тушунчасига эътибор қаратиш лозимлиги уқтирилмоқда. Ушбу тушунчаси ҳозирги вақтда, асосан, қуйидаги маъноларда ишлатилмоқда: а) муайян тилда нутқий фаолиятни амалга оширувчи, яъни нутқ тузиш ва уни идрок этиш қобилиятига бўлган шахс; в) тилдан мулоқот



воситаси сифатида фойдаланувчи шахс, коммуникант; в) ўз миллатининг миллий-маданий, маънавий қадиятларини акс эттирувчи луғат таркибини эгаллаган, уни намоён этувчи шахс; муайян тил вакили [Воркачев С.Т. 2001.-№ 1.-С. 6]. Қўриниб турибдики, ўқитувчи ва ўқувчи тилни мустаҳкам эгаллаш учун “Тил соҳиби” бўлиши, психолингвистик билимни ўрганиши, ҳар томонлама билимга эга бўлиши зарурий масаладир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Мирзиёев. Ш.М Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигини таъминлаш // Халқ сўзи. –Тошкент, 2016, 8 декабрь. – №243.
2. Колшанский Г.В. Паралингвистика. –М.:Наука, 1974. – С.34.
3. Saul M. “Jean Piaget’s theory of cognitive development”. Simply Psychology. 2018. – P. 9.
4. Воркачев С.Т. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропонцентрической парадигмы в языкознании // Филологические науки.- Москва, 2001.-№ 1.-С. 6.

ЎЗБЕК ТАРЖИМАШУНОСЛИГИ: АНЪАНАЛАР; МУАММОЛАР, ЕЧИМ ВА ИСТИҚБОЛЛИ ЙЎНАЛИШЛАР

Рахимов Хуррам

ЎДЖТУ профессори, churram@mail.ru

***Аннотация:** Ушбу мақолада кутубхоналарда тўпланган 2000 дан ортиқ амалий таржималарга бир қур назар ташлаб чиқилади. Немис тилидан ўзбек тилига ва ўзбек тилидан немис тилига қилинган таржималар мисолида шу соҳада юзага келаётган муаммолар ва уларнинг ечимига оид айрим мулоҳазалар қилинади.*

***Калит сўзлар:** миллат, таржима, асарни қайта яратиш, аслият, матн, антиномик жуфтлик.*

***Аннотация:** В этой статье рассматривается более 2000 практических переводов, собранных в библиотеках. На примере переводов с немецкого на*



узбекский и с узбекского на немецкий делаются некоторые соображения относительно проблем, возникающих в этой области, и пути их решения.

Ключевые слова: *нация, перевод, воссоздание произведения, оригинальность, текст, антиномическая пара.*

Инсоният тарихида миллатларнинг пайдо бўлиши ва ривожланиши жараёнида имплицит ва ёки эксплицит тарзда таржимага нутқ фаолияти тури сифатида эҳтиёж ҳам оша борган. Дастлаб амалий ҳолда ривожланган оғзаки таржима соҳаси аста-секин ривожланиб, ёзма нутқ-матн пайдо бўлиши билан ёзма таржима тури ҳам шакллана борган. Айнан ёзма таржима жараёнида таржима вариантлари ҳам шаклланиб ва ривожланиб, бу ўз навбатида дастлабки қиёсий ёндошишларга, назарий хулосаларга туртки бўлган. Шу жараёнда пайдо бўлган муаммолар ва уларнинг ечимини топиш йўлида антиномиялар - бир-бирига зид фикр ва хулосалар шакллана борган ва бу ўз навбатида жумладан таржима антиномиялари билан боғлиқ муаммоларни юзага келтирган. “Антиномия сўзи юнонча бўлиб, anti зид, nomos қонун демакдир. Фалсафий маънода баб-баравар тўғри деб эътироф этилган икки ақиданинг бир-бирига зид келиши антиномия деб тушунилади. Булар Ғ.Саломов қайд қилган қуйидаги зиддиятлар жуфтлигидан иборат:

1. Таржима назарияси қандай булиши керак: адабиётшунослик асосига қурилиши керакми ёки тилшунослик замирида ривожланиши лозимми?

2. Таржиманинг хусусияти қандай булмоги лозим: асар ҳижжалаб, сузмасуз таржима қилиниши керакми ёки бу иш —асарни қайта яратувчи, эркин, ижодий таржима булмоги даркорми?

3. Асл нусхада акс этган миллий узига хосликни қандай бериш лозим: таржимада унинг бўлак тилга хос миллий хусусиятларини бериш керакми ёки уни ўз миллий андозамизга қўйиб қайта бичиш лозимми: асарни ва унга қўшиб авторни таржимон яшаётган мамлакатга бошлаб келиш лозимми? Бошқача айтганда: “Мен ҳам у ерда бўлдим, асал-пиво ичдим” деб бериш маъқулми ёхуд “мен ҳам қатнашдим, бол-ҳалво едим” деб бериш дурустми?



4. Tarjima b'lish ёки tarjima b'lmасlik akidasida хусусида икки бирбирига зид караш мавжуд. Чунончи, оптимистларнинг фикрича, ҳамма нарсани билиб б'лади, бинобарин, ҳамма нарсани tarjima қилиш мумкин, ёхуд, аксинча, агностикларнинг даъвосига қараганда, тил — фикрнинг қолипи эмас, балки дунёни такрорланмас бир тарзда ўзига хос идрок қилишдан иборатдирки, шунинг учун бир тилдан бошқа тилга умуман tarjima қилиш мумкин эмас. Аслида бундай антиномиялар tarjima назариясида кўп.

5. Tarjima асл нусханинг сўзларини берсин – Tarjima асл нусханинг гоёларини ифодаласин.

6. Tarjima оригинал асардай ўқилсин – Tarjima tarjимадай ўқилсин.

7. Tarjima асл нусханинг услубини акс эттирсин – Tarjima tarjимоннинг услубини акс эттирсин.

8. Tarjima асл нусхага нисбатан тарихий асар сифатида ўқиладиган б'лсин – Tarjima tarjимонга нисбатан замонавий асар сифатида ўқиладиган б'лсин.

9. Tarjимада асл нусхага ниманидир қўшиш ёки ундан ниманидир чиқариб ташлаш мумкин - Tarjимага ҳеч нарсани қўшиб ҳам, ундан ҳеч нарсани чшқариб ташлаб ҳам б'лмайди.

10. Шеърни насрга ўтказиб ўгириш лозим - Шеърни шеър билан tarjima қилиш лозим. Ушбу антиномия қаторларини XXI асрда ривожлантирган ҳолда давом эттирсак, қуйидагича антиномиялар пайдо б'лади.

11. Tarjima қилиш мумкин – tarjima қилиш мумкин эмас: /

12. Tarjima фақат чет тилдан она тилига мумкин – tarjima она тилдан чет тилга ҳам мумкин:

13. Шеър tarjima қилинмайди – шеърни ҳам tarjima қилиш мумкин:

14. Муқаддас китоблар (жумладан Қуръони Карим) tarjima қилинмайди, у тафсир қилинади – Муқаддас китоблар ҳам tarjima қилиниши мумкин:

15. Tarjимада аслиятнинг мазмуни ўгирилади – tarjимада аслият матнининг шакли ҳам қайта яратилиши керак (Саломов. 39) ва ҳ.

Немис-ўзбек tarjималари тарихига бир назар солсак, бу tarjималар дастлаб воситачи тил орқали амалга ошган б'лсада, кўпчилик tarjималарда



аслият шакли ва маъноси сақлаб қолинган. Назаримизда келтирилган антиномик жуфтликлардаги зиддиятлар замон талаби ва тараққиёт натижасида мумкин бўлмаган ҳолатлар воқеликка, машаққатли меҳнат ва ижодий қобилият ва лаёқат натижасида мумкинлик томонга ўзгармоқда. Чунончи шеърни шеър қилиб таржима қилишда катта тажриба орттирилди.

Ҳатто прозаик асарларни шеър шаклида қайта яратиш тажрибаси ривожланмоқда. Масалан Ф. Ницшенинг “Зардушт таваллоси” асли прозаик асар. Уни ўзбекчага Абдунаби Пардаев шеър шаклида қайта яратгани эса таҳсинга лойиқ иш бўлди.

Шеър асарни шеър шаклида таржима қилиниши оддий ҳол бўлиб қолган бўлса, она тилидаги шеърни чет тилига шеър шаклида қайта яратишга киришилиши натижасида Алишер Навоийнинг ғазаллари инглиз, рус, француз ва немис тилларига ўгирилиб, ҳазрат Навоийнинг бадиий ижодиёти жаҳон адабиёти мулкига айланиб бориши замон талаби ва имкониятларидан дарак бермоқда.

Қачондир мумкин бўлмаган таржима жараёни мутстақил Ўзбекистонда ҳам мумкин бўлмоқда ва аслиятга яқинлашиш йўлида бир асарнинг бир неча таржималари амалга ошиб, муаллиф яратган бадиий ҳақиқат томон яқинлашиб ва унга тенглашиб бормоқдаки, бу – замон талаби ва таржимон қобилияти туфайли амалга ошмоқда. Шу йўлда оптимистик руҳдаги мақола муаллифи Алишер Навоийнинг ғазалларини немис тилига ўгирди ва бу таржималар Ўзбекистон ва Германия нашриётларида такрор чоп этилди, Германиялик туркшунос олимларнинг эътирофига сазовор бўлди. Эндиги навбат Навоийнинг шоҳ асари бўлмиш Хамсанинг чет тилларга таржима қилишга келди. Шу ниятда муаллиф ҳамкасб таржимонларни ижодий ҳамкорликка чорлайди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Гафурова Г. Развитие перевода в Узбекистане. –Т.: Фан, 1973. – 168 б.
2. Nord K. Übersetzen als 5. Ferigkeit...1996. – 381 S.
3. Саломов Ғ.Т. Таржима назариясига кириш. – Т., 1978. – 230 б.
4. Рахимов Х. Deutsch – немисми, олмонми? –Т., 2006. – 206 б.



5. Рахимов Х. Таржима антиномиялари. – Т., 2014, – 120 б.
6. Шарипов Ж. Ўзбекистонда таржима тарихи. – Т., 1972.– 455 б.

ПЕДАГОГЛАРДА ХОРИЖИЙ ТИЛЛАР БЎЙИЧА КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Маматқулов Хушид Абдурашидович, п.ф.д (DSc), доцент

*ЎзР Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги хорижий тилларни ўрганишни
оммалаштириш агентлиги, Хорижий тилларни ўргатувчи медиа-контент
яратиш ва масофавий таълим бўлими бошлиғи*

Аннотация: *Мақола "чет тили ўқитувчисининг касбий компетенцияси" тушунчасини аниқлаш масаласига бағишланган. Муаллиф ушбу концепциянинг олимлар томонидан ўрганилганлиги ва педагогларда хорижий тиллар бўйича касбий компетентликни ривожлантириш билан боғлиқ турли хил талқинларини кўриб чиқади. Ушбу концепциянинг тузилишини белгилаб, муаллиф ўқувчиларни педагогик фаолиятга тайёрлаш стратегиясига ишора қилади.*

Калит сўзлар: *компетентлик, компетенциялар, таълимда компетенциявий ёндашув, чет тил ўқитувчисининг касбий-педагогик компетентлиги таркиби.*

Аннотация: *Статья посвящена актуальной проблеме определения понятия «профессиональная компетентность учителя иностранного языка». Автор рассматривает различные существующие трактовки данного понятия применительно к специальности учитель иностранного языка. Определяя структуру данного понятия автор указывает на стратегию подготовки студентов к педагогической деятельности.*

Ключевые слова: *компетентность, компетенции, компетентностный подход в образовании, структура профессионально-педагогической компетентности учителя иностранного языка.*



Жаҳон ҳамжамиятига интеграциялашиш ва ижтимоий жараёнларнинг глобаллашуви шароитида ахборот-коммуникация технологияларини жадал суръатлар билан ривожланиши ўзаро мулоқот воситаси сифатида чет тилларни ўрганишга бўлган эҳтиёжни янада кучайтирди. Дунё тажрибасига кўра, ахбороткоммуникация технологиялари муҳитида ўқитишнинг илғор усулларини жорий этган ҳолда педагогларнинг хорижий тиллар бўйича билим, малака ва кўникмаларини ошириш ҳамда фан-технологияларнинг сўнгги ютуқларини таълим жараёнига татбиқ этиш муҳим аҳамиятга эга.

Ўзбекистонни ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегиясида «узлуксиз таълим тизимини янада такомиллаштириш, сифатли таълим хизматлари имкониятларини ошириш, меҳнат бозорининг замонавий эҳтиёжларига мос юқори малакали кадрлар тайёрлаш» ва уларнинг рақобатбардошлигини ошириш устувор вазифалардан бири сифатида кўрсатиб ўтилган. Шунингдек, «мамлакатимизда таълим муассасаларини қуриш, реконструкция қилиш, капитал таъмирлаш, уларни замонавий ўқув-лаборатория ускуналари, компьютер техникаси ва ўқув-методик қўлланмалар билан таъминлаш орқали уларнинг моддий-техника базасини мустаҳкамлаш» юзасидан аниқ мақсадга йўналтирилган чора-тадбирларни амалга ошириш бугунги куннинг долзарб вазифалари сирасига киради.

Жаҳон амалиётида педагогларнинг хорижий тиллар бўйича касбий компетентлигини ривожлантиришда таълим жараёнига ахбороткоммуникация технологияларини қўллашга доир инновацион фаолиятга йўналтирилган илмий изланишлар олиб борилаётган бўлиб, жумладан, инглиз тилини ўқитишда ўқитувчининг касбий коммуникатив компетентлигини ривожлантириш; ўқитишда ахборот-коммуникация ва илғор педагогик технологияларни қўллаш орқали ўқувчиларнинг мавжуд ахборотлар маконида тўғри йўналиш олиши, онгли билиш кўникмалари ва мустақил ривожланиш қобилиятларини шакллантириш; глобаллашув шароитида инновация жараёнининг педагогик-психологик жиҳатлари; компетентли ёндашув асосида педагогларда хорижий тил кўникмаларининг ривожланиш даражасини диагностика қилувчи технологияларни такомиллаштириш мавзунинг долзарблигини белгилайди.



«Компетенция», «компетентлик» тушунчаларини аниқлаш масаласи ва шунга оид психологик-педагогик адабиётлар таҳлили кўплаб хорижлик ва мамлакатимиз олимлари (Д.Равен Н.Хомский, В.И.Байденко, И.А.Зимняя, Ю.Г.Татур, А.В.Хуторский, Н.Муслимов, Т.Саттаров ва бошқ.) томонидан ўрганилган. Буюк Британиялик машҳур психолог олим Джон Равен томонидан ушбу тушунчалар тўғрисидаги дастлабки фикрлар илгари сурилган бўлиб, у компетентликнинг хусусиятлари тўпламини ягона бир тизимга бирлаштиради ҳамда компетентликлар ҳам интеллектуал, ва эмоционал хусусият касб этган ҳолда, ўзаро алмашинувчанлик характерини «мотивациялашган қобилиятлар» асосида намоён қилишини таъкидлайди.

Мазкур тушунчаларнинг турлича талқин этилиш ҳолати Н.Хомский ва И.А.Зимняянинг ишларида ҳам кўриб чиқилган бўлиб, улар компетенция (ўз тилини гапириш ва тинглаш орқали билиш) ва уни ишлатиш (аниқ вазиятларда тилни қўллаш) ўртасида фаркланишлар мажудлиги ҳамда фақат идеал ҳолатларда ишлатиш (қўллаш) компетенциянинг бевосита ифодаси (акси) эканлигини таъкидлаганлар.

А.П. Акимова ўқитувчининг касбий компетенциясини тор ма'нода “ўқув жараёнида субъект томонидан эгалланган билим, кўникма ва малакалар йиғиндиси”, кенг ма'нода эса “атроф-муҳит билан ўзаро муносабатлардаги муваффақият даражаси” деб изоҳлайди.

Педагогик компетенциянинг асосий элементлари сифатида Н.В. Кузмина куйидагиларни таъкидлайди:

- ўқитиладиган фан бўйича – *махсус компетенция*;
- талабаларнинг билим, кўникма ва малакаларини шакллантириш йўллари бўйича – *услубий компетенция*;
- тингловчиларнинг қобилиятлари, мотивлар соҳасидаги – *психологик ва педагогик компетенция*;
- педагогик фаолият ёки аутопсихологик компетенцияни акс эттириш.

Олиб борилган илмий изланишлар давомида «компетентлик» ва «компетенция» тушунчаларининг мазмун-моҳияти ўрганилар экан, ушбу тушунчаларнинг айнан ўхшаш, ўзаро боғлиқ бўлган тушунчалар сифатида



қўлланилиши ҳамда бир қатор хусусиятлари билан фарқланишини қайд этиш мумкин. Тадқиқот давомида «компетенция», «компетентлик», «касбий компетентлик», «педагогик компетентлик» тушунчаларига хорижий ва мамлакатимиз олимлари томонидан берилган таърифлар тизимлаштирилди.

Педагогларда хорижий тиллар бўйича касбий компетентликни ривожлантириш ўзига хос хусусиятларга эга бўлиб, у таълим муассасалари моддий техника базасидан бошлаб, тили ўрганилаётган халқ маданиятини ўрганиш ва ушбу тилда доимий мулоқотда бўлиб туриш шарт-шароитларига бевосита боғлиқ бўлади ҳамда бошқа йўналишдаги педагоглар касбий компетентлигини ошириш масалаларидан фарқ қилади. Айниқса, мазкур муаммони ҳал этишда муҳим аҳамиятга эга бўлган замонавий ахбороткоммуникация технологияларининг ўрни беқиёс. Шу боис, педагог кадрлар ўз фаолиятларида ушбу технологияни қўллаш асосида маълумотлар устида ишлаш, таҳлил қилиш, улардан фойдаланиш бўйича маълум билим, кўникма ва малакага, яъни компетентликка эга бўлишлари лозим. Хорижий тиллар (инглиз тили)ни ўзлаштиришнинг ўзига хос хусусиятлари ва бунда ахборот-методик таъминот тизимининг аҳамиятини ҳисобга олган ҳолда, «Хорижий тиллар бўйича педагогнинг касбий компетентлиги – унинг хорижий тиллар бўйича касбий билим, кўникма ва малакаси, шахсий сифатлари, педагогик фаолиятда мақсад ва вазифаларни белгилаш, педагогик фаолият дастурини ишлаб чиқиш, қарор қабул қилиш, замонавий ахборот ҳамда педагогик технологияларни қўллай олиш каби профессионал тайёргарлигини белгиловчи кўрсаткичдир» – деган, таъриф берилди. Шунингдек, тадқиқот давомида педагоглар касбий компетентлиги муаммоларини ҳал этишда хорижий давлатларнинг мазкур жараёни амалга ошириш ва ривожлантириш механизмларини ўзаро мувофиқлигини таъминлаш борасидаги ҳамда уларнинг ушбу йўналишлар бўйича олиб бораётган илмий-тадқиқот ишларига доир илғор тажрибаларидан мамлакатимизда фойдаланиш, хорижлик мутахассисларнинг педагогларни қайта тайёрлаш ва малака ошириш курслари таълим жараёнларига жалб этилишининг мақсадга мувофиқлиги асосланди.



Адабиётлар рўйхати:

1. Безукладников К. Э. , Крузе Б. А. , Осколкова В. Р. Технология развития готовности будущего учителя к педагогической самореализации. – Пермь : Перм. гос. пед. ун-т, 2011.
2. Бредихина И. А. Формирование умений самостоятельного совершенствования методической стороны профессиональной подготовки преподавателя иностранного языка (старший этап обучения, классический университет) : дис. ...канд. пед. наук.– Екатеринбург, 2004.
3. Гиниатуллин И. А. Самостоятельная работа по практическому курсу иностранного языка // Иностранные языки в школе. 1990. №1. С. 74–76.
4. Днепров С. А. Педагогическое сознание: теории и технологии формирования у будущих учителей. – Екатеринбург : ТОО «Уникум», 1998.
5. Дубровина Т. С. К вопросу о профессиональной компетентности будущих учителей иностранных языков // Молодой ученый. 2011.–№4. Т. 2. –С. 86–89.
6. Сафонова В. В. Коммуникативная компетенция: современные подходы к многоуровнему описанию в методических целях. М: Еврошкола, 2004.
7. Соловова Е. Н. Методическая подготовка и переподготовка учителя иностранного языка: интегративно-рефлексивный подход. М. : ГЛОССА ПРЕСС, 2004.

**ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ТАЛАБАЛАРНИНГ МАЪНАВИЙ
ҚАДРИЯТЛАР ВА ТАРИХИЙ ТАФАККУРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ
МАСАЛАЛАРИ**

Абдуллаева Арофатхон Абдувахобовна

Андижон давлат университети таянч докторанти

E-mail: abdullayeva_adu@umail.uz +998902024585

Аннотация: Ушбу мақола аждодларимиз қолдирган бой маънавий мерос - миллий қадриятларимизни замонавий илм-фан ютуқлари билан бойитиш, адолат, тинчлик, аҳил қўшничилик ва инсонпарварликнинг нозик қуртакларини асрлар оша авайлаб-асраш, ёш авлоднинг тафаккури,



дунёқарашини миллий ва умуминсоний қадриятлар асосида шакллантириш мустақилликни мустаҳкамлашнинг асосий манбаи эканлиги ҳақида.

Калит сўзлар: маънавий қадрият, умуминсонойлик, ўзликни англаш, мустақиллик, халқ, қадр-қиммат, баҳолаш, тафаккур.

Аннотация: В этой статье рассказывается о богатом духовном наследии наших предков - о обогащении наших национальных ценностей достижениями современной науки, формировании мышления молодого поколения и мировоззрении национальных и общечеловеческих ценностей.

Ключевые слова: духовные ценности, универсализм, самосознание, независимость, люди, достоинство, оценка, мышление.

Abstract. This article tells about the rich spiritual heritage left by our ancestors - the enrichment of our national values with the achievements of modern science, the formation of the younger generation's thinking and world outlook on national and universal values.

Key Words: spiritual values, universalism, self-consciousness, independence, people, dignity, evaluation, thinking.

Мустақиллик йилларида Республикамизда миллий ва умуминсоний қадриятларга муносабат тубдан ўзгариши билан қадриятларни тиклаш, уларни асраб-авайлаш ва келажак авлодларга етказиш кун тартибига қўйилди. Чунки мустақилликнинг дастлабки кунларидан бошлаб Ўзбекистон Республикаси биринчи Президенти Ўзбекистонни ривожлантиришнинг маънавий-ахлокий негизлари ҳақида фикр юритар экан, Ўзбекистонни янгилаш ва ривожлантиришнинг йўли тўртта асосий негизга асосланишини таъкидлайди. Бўлардан бири умуминсоний қадриятлар бўлиб, «Мустақил Ўзбекистоннинг куч-қудрати манбаи халқимизнинг умуминсоний қадриятларга содиқлигидир. Халқимиз адолат, тинчлик, аҳил қўшничилик ва инсонпарварликнинг нозик қуртакларини асрлар оша авайлаб-асраб келмоқда. Ўзбекистонни янгилашнинг олий мақсади ана шу анъаналарни қайта тиклаш, уларга янги мазмун бағишлаш, заминимизда тинчлик ва демократия, фаровонлик, маданият, виждон эркинлиги ва ҳар бир кишини қамол топтиришга эришиш учун зарур шарт-шароит яратишдир», - деб кўрсатилади[1].



Хақиқатан ҳам аждодларимиз қолдирган бой маънавий мерос - миллий кадриятларимизни замонавий илм-фан ютуқлари билан бойитиб, ёш авлоднинг тафаккури, дунёқарашини миллий ва умуминсоний кадриятлар асосида шакллантириш мустақилликни мустаҳкамлашнинг асосий манбаидир. Лекин мустақиликгача ўтган даврда «миллий кадрият», «кадрият» тушунчалари хатто луғатларда ҳам ўз ифодасини топмаган. Гарчи қўлланилса ҳам (1976 йил «Фан» нашриётида чоп этилган «Ижтимоий-сиёсий терминлар луғати») «ценность» сўзининг тўртта маъноси алоҳида мақола тарзида берилиб, лекин «кадрият» тушунчасининг маъно-моҳияти талаб даражасида ифодаланмаган. Фақат истиқдол туфайли жуда кўп миллий тушунчалар билан бирга «Қадриятлар» тушунчаси ҳам ўзининг асл маъносига эга бўлди.

Қадриятлар тушунчаси фалсафада аксиология (юнонча «ахио» - кадрият ва «logos» - фан, таълимот) - кадриятшунослик; кадриятлар ҳақидаги фан бўлиб, XIX асрнинг иккинчи ярмида немис кадриятшуноси Э.Гартман ва франсуз олими П.Лапи томонидан киритилган. У фалсафанинг шу масалани ўрганадиган ва шугулланадиган соҳасидир. Қадриятлар фалсафаси - аксиология - шахснинг, жамоанинг, жамиятнинг моддий, маданий, маънавий, ахлокий ва психологик кадриятлари ҳақидаги фалсафий таълимот бўлиб, уларнинг моддий дунё билан муносабатда тарихий ривожланиши жараёнида кадрли меъёрий тизимидир. Яъни кадриятлар жамият, кишилар уртасида обрuga, эътиборга, нуфузга аҳамиятга эга кишилар, муносабатлар, ҳолатлар, моддий нарсалар ва маънавий бойликлар мажмуидан иборат. Қадриятлар тушунчаси воқеликдаги муайян ходисаларнинг инсоний, ижтимоий ва маданий аҳамиятини кўрсатиш учун қўлланилади.

Ҳозирги мустақиллик шароитида кадриятларга умуминсоний тамойиллар асосида ёндашилмоқда. Қадриятларга бундай ёндашиш уларнинг ижтимоий ва маънавий жихатдан янгиланиши, жамият аъзолари тафакқурининг ўзгариши, ёшлар тарбиясидаги ўрнига эътибор Президентимиз раҳбарлигида давлат аҳамиятига эга устувор соҳа сифатида қаралмоқда. Шунинг учун ҳам кадриятларга эътибор ва улардан таълим-тарбияда фойдаланиш заруриятга айланди. Энди «кадрият» тушунчаси ўзининг асл маъносига эга бўлди. «Қадрият» тушунчаси ўта сермазмун ва кўпқиррали тушунча. Шунга кўра адабиётларда унга турлича баҳо



берилади: файласуфлар Ж.Туленов, З.Ғофуровлар «Қадрият» деганда инсон ва инсоният учун аҳамиятли бўлган, миллат, элат ва ижтимоий гуруҳларнинг манфаатлари ва мақсадларига хизмат қиладиган ва шу туфайли улар томонидан баҳоланиб қадрланадиган табиат ва жамият неъматлари, ходисалари мажмуини тушунмоғимиз лозим», - деб таъриф берадилар.

Қадриятлар инсон фаолияти жараёнида шаклланади ва ривожланади. У ижтимоий хусусиятга эга бўлиб, инсон учун фойда келтирадиган нарса ва ходисаларнинг мажмуи тарзида юзага келади ва унинг эҳтиёжлари учун хизмат қилади. Инсонга, унинг манфаатига мос келмайдиган табиат ва жамият ходисалари қадрият бўла олмайди. Масалан, табиатдаги ҳар бир нарса инсон эҳтиёжларига хизмат қила бошлагандан кейин қадриятга айланади.

Файласуф олимлар В.И.Тугаринов, Ж.Туленов, Қ.Назаров, З.Ғофуровларнинг фикрларига кўра «қадрият» ва «баҳо» тушунчалари бир- биридан фарқ қилади. Зеро, қадрият реал ёки орзудаги ходиса, баҳо эса шу ходисага муносабатни билдиради. У ёки бу ходисани қадриятларга мансуб ҳисоблаш, яъни уни қадриятларга қўшиш ёки қўшмаслик ана шу муносабатга ижобий ёки салбий баҳога боғлиқ. Чунки қадриятларнинг ҳаётдаги ўрнини баҳолаш туфайли аниқланади. Демак, табиат ва жамиятдаги ходисаларни қадрият туркумига киритиш ёки киритмаслик кишиларнинг эҳтиёжлари, манфаатлари, орзу-умидлари, мақсадлари билан белгиланади.

Файласуф Қ.Назаров кундалик ҳаётда қўпчилик томонидан қўлланиладиган «қадрият» тушунчаси одамлар учун бирор зарур аҳамият касб этадиган объект, нарса, ходисаларга нисбатан ишлатилади, дейди. Табиат ва маданият буюмларининг инсон эҳтиёжини кондириш ва унинг мақсадларига хизмат қилиши таъкидланганида, асосан уларнинг фойдаси, қиммати назарда тутилади. Ҳақиқатдан ҳам буюмларнинг иқтисодий қиммати кишилар учун катта аҳамият касб этади. Буюмнинг қадри ҳисобга олинмаса, масаланинг аксиологик жихати очилмаслигини таъкидлаган ҳолда «қадрият» категорияси буюм ёки нарсаларнинг иқтисодий қимматини ифодаладиган тушунчадан фарқ қилишига урғу беради. Қ.Назаров «Шу маънода қадрият нарса ва буюмларнинг қимматига нисбатан қўлланилмасдан, балки инсон учун бирор аҳамиятга эга бўлган воқеликнинг



шакллари, холатлари, нарсалар, воқеалар, жараёнлар, холатлар, сифатлар, талаб, тартиблар ва бошқаларнинг қадрини, ижтимоий аҳамиятини ифодалаш учун ишлатиладиган фалсафий категориядир», - деб таъриф беради. Олим мазкур фалсафий категория ўзида қадрият объектининг нафақат қимматини, балки ижтимоий аҳамиятини, фалсафий-аксиологик мазмунини, жамият ва инсон учун қадрини ҳам ифодалашини алоҳида таъкидлайди.

Кўп манбаларда «қадрият» тушунчасининг «баҳо» тушунчаси билан киёсланишида уларга бир хилда караш, фарқини англамаслик сабаб бўлмоқда. Бунда рус тилидаги «оценка», «цена» тушунчаси иқтисодий тушунчаларга мос келиши ҳисобга олинмаганлигини қайд этиш мумкин. «Қадр» тушунчасининг ўзбек тилида серқирра маънога эгаллиги ва шарқона мазмун касб этиши маълум. Ана шундай ҳолда, яъни қадриятларни баҳолашда кишиларнинг талаб ва эҳтиёжлари, мақсадлари билан боғлиқ муносабатларни ҳисобга олиш, «қадрият» тушунчасини унинг қадрини англадиган тушунча сифатида караш мақсадга мувофиқ.

«Қадрият» ва «баҳо» тушунчасидаги фарқлар шундан иборатки, ижтимоий-тарихий амалиёт жараёнида вужудга келган, «баҳолаш» эса қадриятга бўлган субъектив муносабатни акс эттиради ана шу жихатдан қадрият ҳақиқий ва қалбаки бўлиши мумкин. Баҳонинг қадриятдан фарқи нафақат ижобий, балки салбий ҳам бўлади. Айнан ана шу баҳо инсон ва жамиятга зарур ва фойдали бўлган нарсаларни танлаш имконини беради. Баҳолаш табиатига кўра динамикдир ва шунинг учун ҳам инсон фаолиятининг ўзгариши билан қадриятларни қайта баҳолашга тўғри келади. Баҳолаш ҳам эмоционал, ҳам рационал даражада амалга ошади. Эмоционал баҳолаш ўз ҳолларда англаб етмаганлик билан тавсифланади ва қониқиш ёки қониқмаслик тарзида намоён бўлади. Рационал баҳолаш кўп жихатдан нарса ва ходисаларнинг фойдалилик, аҳамиятлилик томонларини англаб олиш билан боғлиқ. Демак, шахс томонидан англаб олинмаган қадрият аксиологик вазифани бажаради, яъни инсоннинг ахлоқи ва фаолиятидаги мулжал вазифасини бажаришга қодир эканлигини тушуниш айниқса, муҳим. Худди шунинг учун шахснинг баҳолаш фаолияти инсонпарвар педагогиканинг воситаси бўлиб намоён бўлади, уни ривожлантириш эса педагогик вазифадир.

Лекин инсонлар у ёки бу нарса қадрини турлича англаб оладилар, дейди



файласуф олим Қ.Назаров. Ижтимоий жараёнлар таъсирида кишиларнинг кадриятлар тўғрисидаги тасаввурлари, қарашлари ўзгариб боради, шунинг учун ҳам кадрлаш туйғуси ҳар хил бўлади. Кадриятларнинг баҳоланиши ҳаётдаги зиддиятлар ва ўзаро боғлиқлигини ифодалаш билан ҳарактерланади. Кадриятлар жамият ривожига қараб ўзгариб боради ва турли даврларда турлича аҳамият касб этади ва зарурият бўлганда гоҳ у кадрият, гоҳ бу кадрият ижтимоий тараккиётнинг олдинги поғонасига чиқиб олади ва бу кадриятнинг барқарорлиги кучаяди. Таълим-тарбиянинг муҳим воситаси саналган кадриятларнинг намоён бўлиши шакллари орасида доимийлари ҳам мавжуд. Бўларга инсон ҳаёти, умри, вужудининг тириклиги, сиҳат-саломатлиги, меҳнати, билими, муомаласи кабилар жамиятда ўз аҳамиятини сақлаб қолади. Уларнинг акси бўлган касаллик, бекорчилик, билимсизлик, таназзул каби салбий ҳолатлар ҳам ҳаётда мавжуд бўлади. Ёш авлодда, айниқса талаба-ёшларда ижобий кадриятларга муносабатда туйғуларни сақлаб қолиш ва уларни шакллантиришда аксиологик ёндашув катта аҳамият касб этади.

Кадриятлар ёш авлодга ҳаётни янада теран англаб етиш, жамиятнинг ҳуқуқий меъёрларига риоя этиш, ўзларининг ҳаёт тарзини ҳуқуқий ахлоқий меъёрларга мослаштиришга ёрдам беради. Шунга кўра ўқувчи-талабалар кадрият, кадрлаш, кадрсиэланашнинг моҳиятини чуқур англаши, кадриятларнинг аҳамиятини тўғри тушуниб олиши муҳимдир.

«Ёшлар, хусусан талабалар ва ўқувчиларнинг маънавий баркамол вакиллари сифатида тарбиялаш ва шакллантиришда кадр ва кадрлаш туйғуси, кадриятлар категорияси, уларнинг моҳияти, мазмуни, намоён бўлиш шакллари тўғрисидаги билимларнинг мажмуаси бўлган замонавий аксиология, яъни кадриятшуносликнинг асосларини ўргатиш ниҳоятда муҳим. Ана шу сабабдан ҳам умуминсониятнинг кадрлаш меъёрлари борасида тўплаган ютуқларини умумлашган билим соҳалари имкониятидан фойдаланиш таълим-тарбия самарадорлигининг асосий мезонларидан биридир», - деб кўрсатади файласуф олим Қ.Назаров. Чунки фалсафий аксиологиянинг моҳияти педагогик фаолиятнинг хусусиятлари, унинг ижтимоий роли ва шахсни шакллантиришдаги имкониятлари билан белгиланадиган аксиология педагогикада ҳам аксиологик ёндашувни талаб этади.



Педагогик жараёнда кадриятлар ҳамма вақт вояга етаётган ҳар бир ёшнинг маънавий бойлигига айланиши керак. Бунда кадриятларнинг ўқувчи хаёти учун энг фойдалилари танлаб олинади. Чунки улардан одамлар ўтмишда ҳам фойдаланганлар, ҳозирги даврда ҳам, келажакда ҳам фойдаланадилар.

Тадқиқотчиларнинг фикрига таянган ҳолда шуни айтиш мумкинки, энг муҳим кадриятлар ҳақида ўқувчилар нафақат тасаввурга эга бўлиши, балки «инсоният маданияти» тушунчаси таркибига кирувчи кадриятларни шахсда эзгуликни ривожлантиришнинг асоси сифатида одилона ўзлаштириб олишлари ҳам зарур.

Педагог олимлар Г.М.Қоджаспирова, А.Ю.Қоджаспировлар - аксиология шахс, жамоа, жамиятнинг моддий, маданий, маънавий, ахлоқий ва психологик кадрияти, уларнинг моддий дунё билан мўтаносиблиги, тарихий ривожланиш жараёнида кадрли-меъёрий тизимнинг ўзгариши ҳақидаги таълимот деб тарифлаш билан бирга ҳозирги давр педагогикасида унинг методологик асоси сифатида намоён бўлиб, инсон хаётининг кадри, ўқитиш ва тарбия, педагогик фаолият ва таълимнинг асосини ташкил этувчи педагогик қарашларни белгилайдиган тушунчалар тизими деб кўрсатадилар.

В.С.Кукушин эса аксиология - педагогиканинг бир бўлими бўлиб, шахснинг билиш, тарбия ва ривожланишини ўрганувчи кадриятлар тизими деган фикрни билдиради.

А.В.Морозова бошқалар муаллифлигида чоп этилган «Креативная педагогика» китобида ҳам аксиология - кадриятлар табиатини кўрсатувчи тушунча, таълимот деб таърифланади[3].

А.Сластенин эса педагогик аксиология асосида инсон хаётининг кадриятларини, таълим ва тарбияни, педагогик фаолият ва яхлит таълимни тушуниш ва қарор топтириш ётади, у шахснинг инсоният маданиятини ташкил этадиган моддий ва маданий кадриятларни англаб етиши, эътироф қилиши ҳамда фаоллаштириш ва яратишга бўлган ҳаракатга йўналтириш билан белгиланади. Амалий ва назарий билиш ўртасидаги алоқа механизми ролини аксиологик ёки назария билан амалиёт ўртасида ўзига хос «қўприк» саналган кадриятли ёндашув бажаради, ундаги инсонлар эҳтиёжини қондириш имкониятлари жамиятни



инсонпарварлаштириш вазифаларини бажаради деб кўрсатади. У бошқа олимлардан фарқи ўлароқ «Аксиология таълимнинг янги фалсафасининг асоси ҳамда шунга мувофиқ ҳозирги давр педагогикасининг методологияси сифатида қаралиши мумкин», - деб таъкидлайди.

Зеро, аксиологик ёндашув узвий тарзда инсонпарварлик педагогикасига хос бўлиб, унда инсон жамиятнинг олий қадрияти ва ижтимоий ривожланишининг мақсади сифатида қаралади.

Адабиётлар

1. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли.- Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 1992. Б-80.
2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимида киришиш тантанали маросимида бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи /Ш.М. Мирзиёев. - Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2016. Б-56.
3. А.В.Морозова бошқалар «Креативная педагогика» Т.: "Маънавият", 2002. Б-102.

TA'LIMNING DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Sharipova Zarnigor Zarif qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim)

yo'nalishi 2-bosqich magistranti

Anotatsiya: *Ushbu maqolada hozirgi davrda ta'lim sifatini oshirish yo'lidagi dolzarb muammolar shuningdek, ularni bartaraf etish hamda yechimlarini topish yo'lidagi fikr va mulohazalar haqida fikr yuritilgan. Jumladan, o'quv dasturlarni takomillashtirish, o'quv mashg'ulotlarini loyihalash, ta'lim oluvchilarning kasbiy sifatlari hamda ijodiy fikrlash kompetentlarni rivojlantirish kabilar haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, muammo, yechim, mutaxassis, pedagog, zamonaviy, innovatsion.*



O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida jahon hamjamiyati safidan o'rin olishi, mamlakatimizda barcha sohalarining, ayniqsa, ta'lim tizimining tubdan isloh qilinishi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning dunyoga kelishi, Davlat ta'lim standartlarining joriy etilishi muallim va ustozlar zimmasiga yuksak vazifalar yukladi. Yuqorida aytilgan davlat hujjatlarining mazmun-mohiyati, asl maqsadi ham yosh avlodni ma'naviy barkamol inson sifatida tarbiyalashga qaratilgan. Mamlakatimizda ma'naviy tarbiya, barkamol inson tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Har qanday ijtimoiy jamiyatda yosh avlod ta'lim-tarbiyasi muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Ta'lim-tarbiyaning maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, uning rivojlanish yo'nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadi komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat. O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritgach, hayotning barcha sohalarida tub islohotlar olib borilmoqda. Islohotlar respublikaning rivojlanish va taraqqiyot yo'li deb e'tirof etilgan demokratik, insonparvar, huquqiy jamiyatni barpo etish uchun xizmat qiladi. Demokratik, insonparvar, huquqiy jamiyatni barpo etish vazifasi o'sib kelayotgan yosh avlod zimmasiga yuklatilar ekan, o'z o'rnida ularning ta'lim-tarbiyasini maqsadli amalga oshirishga bevosita jamiyat, oila va ta'lim tizimi birdek ma'sul.

Barchamizga ma'lumki, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga hissa qo'shadigan malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bevosita ta'lim tizimining rivojiga bog'liq bo'lib, bu borada mustaqil fikrlaydigan, ijodkor, tashabbuskor shaxsni voyaga yetkazish bugungi kunda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasida yoshlar tarbiyasida ta'lim muxim ahamiyat kasb etadi. Vatan ostonadan boshlandi deganlaridek, bolalarimiz ta'lim-tarbiyasi oiladan boshlanadi. Demak, kelajak avlodimiz har tomonlama yetuk, sog'lom, bilimli, o'z vataniga sadoqatli bo'lib yetishishi uchun har birimiz mas'ulmiz. Bu vazifalar respublikamiz Prezidentining qator farmon va qarorlarida o'z aksini topgan. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida zamonaviy bilim va yangicha yondashuvlarga ehtiyoj mavjud. Fan va texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan



bugungi kunda ko'plab ilmiy bilim, tushuncha va tasavvurlar hajmi ham keskin ortib bormoqda. Bu bir tomondan, fan-texnikaning yangi sohalari rivojlanishi tufayli uning differensiallashuvini ta'minlayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, fanlar orasida integratsiya jarayonini vujudga keltiryapti. Bugungi kunda o'quvchilarning sifatli ta'lim olish bo'lgan talabini qondirish, ta'lim tizimini barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida bir qator yangilik va o'zgarishlar ta'lim tizimiga kirib kelmoqda. Ta'limda ilg'or yondashuvlarning qaror toptirilishi, xalqaro tadqiqotlarning yurtimizga kirib kelishi pedagog kadrlarga bir muncha zalvorli mas'uliyatni yuklamoqda. Hozirgi davrda dars jarayonida o'qitish va tarbiyalashga oid eng yaxshi an'analarni saqlab qolgan va boyitgan holda o'qituvchining ijodiy faolligini oshirishga bo'lgan talab kuchayganligiga guvoh bo'lmoqdamiz. Ta'limning asosiy roli o'quvchilarni jamiyatda muvaffaqiyatga erishishlari uchun zarur bo'lgan kompetensiyalar bilan ta'minlashdan iborat. Bunday sharoitda malakali pedagoglarga bo'lgan talab ortib, fanning fundamental asoslari, pedagogika va psixologiya metodlarini mukammal egallagan, kasbiy tayyorgarligi yuqori bo'lgan hamda zamonaviy innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini amaliyotda qo'llay oladigan ijodkor pedagoglarni tayyorlash talab etiladi. Shuning uchun ham ta'lim sifatini oshirishda o'quv jarayonini davr talablariga mos holda tashkil etish, davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlarini takomillashtirish, yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratish, zamonaviy innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish, mavjud muammolarni bartaraf qilish, ertangi istiqboldagi yutuqlarimiz kafolatidir. Ta'lim tor ma'noda o'qitish tushunchasini anglatadi. Lekin u faqat turli o'quv yurtlarida o'qitish jarayoni emas, balki oila, ishlab chiqarish va shu kabi sohalarda ham ma'lumot o'zlashtirish jarayonidir. Ta'lim ilm berish va tarbiyalashni o'ziga qamrab olib, respublikaning aql zakovat va ilm borasidagi kuch-quvvatini rivojlantirish, jamiyat, oila va davlat oldidagi o'z masuliyatini anglaydigan har jihatdan barkamol erkin shaxsni shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Shuning uchun ham u ustuvor soha hisoblanadi. Insonning ma'lum bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishida ongli maqsad bilan boshqariladigan barcha harakatlari ta'lim bilan bog'liq bo'ladi. Ta'limning mohiyati, maqsadi va mazmuni jamiyatning madaniy taraqqiyoti, fan-texnikasining



rivojlanganligi, ishlab chiqarish texnologiyalarining amalga joriy etish bilan baholanadi. Malumki, ta'lim-tarbiya insonga borliqni anglash, sir asrorlarini tushunish, tinimsiz rivojlanayotgan dunyoga moslashish, dunyoqarashini shakllantirish, jamiyatni insonparvarlantirishga hissa qo'shish imkonini yaratadi. Har qanday davlatning qudrati va rivojlanish darajasini aynan ta'lim tizimi aniqlab beradi. Ta'lim jamiyatning o'ziga xos funksiyasidir, uning yordamida avlodlar o'rtasidagi munosabatlar, muayyan jamiyatning an'analarning uzluksizligi pedagogik bilimlarning mustahkamlanishi bilan amalga oshiriladi.

Darhaqiqat, yangilanayotgan ta'lim tizimini joriy etishda har bir pedagog ta'limga oid yangiliklarni muntazam o'rganib, ularni o'z mehnat faoliyatida izchil qo'llay bilish mahoratiga ega bo'lishi muhim. Bugun fan va texnika sohasidagi yangiliklarni o'quv dasturi mazmuniga tez kiritish talab etilyapti va bu orqali zamonaviy bilimlarni shakllantirishga zamin hozirlanadi. Ta'limning sifatini oshirishda pedagoglar bilim va kasbiy mahoratining davr talablariga mosligi, o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan oqilona foydalanishi, tashkil etilayotgan darslarning samaradorligi, ta'lim oluvchi yaxshi o'zlashtirishi uchun har bir mavzuning pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llagan holda o'tilishini ta'minlash talab etiladi. O'qitishda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limni amaliyotga joriy etish, ta'lim oluvchilarda egallagan bilimlarini hayotda qo'llay olish, kasb tanlash, mustaqil ta'lim olish, o'quv bilish kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biridir. Bugungi kunda respublikamizda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, o'qitishning innovatsion texnologiyalarini joriy etish, mustaqillik, ijodkorlik, tashabbuskorlik, tadbirkorlik kabi kasbiy sifatlarga ega yoshlarni tayyorlash hamda pedagoglarni rag'batlantirish maqsadida katta ahamiyatga ega, bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Shunga qaramay, tahlil va o'rganish natijalari hozirgacha ta'lim tizimimizda saqlanib kelayotgan muammolar borligini ko'rsatmoqda. Bular quydagilardir:

- maxsus o'qitish tizimining yetishmasligi. Zamonaviy ta'limning birinchi muammosi shundaki, aksariyat ta'lim dasturlari gumanitar, aniq va tabiiy fanlarni teng ravishda o'rganishni o'z ichiga oladi. Bolaning qiziqishlari va moyilliklari hisobga olinmaydi;



- ta'lim muassasalarida malakali pedagoglarning kamligi, ularni tayyorlashda amaliyotga joriy etilgan o'quv reja va dasturlarining yaratilishida sohadagi islohotlar to'liq inobatga olinmasligi hamda ular mazmunan eskirganligi;
- ta'lim oluvchilarning nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlashda shuningdek, iqtidorli yoshlarning kreativ g'oyalarni amaliyotga tatbiq etilishida tizimli va innovatsion faoliyat to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi;
- pedagoglar tomonidan ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv mashg'ulotlari tashkil etilmaganligi;
- pedagoglar tomonidan innovatsion pedagogik texnologiya va metodlarini amaliyotga keng joriy etilmaganligi;
- ta'lim muassasalari o'rtasida o'zaro hamkorlik to'liq yo'lga qo'yilmaganligi;
- o'quv mashg'ulotida ta'lim oluvchilarga bahslashish, o'zining fikrini bayon etishda imkon juda kam berilishi;
- bilim va kasb saviyasining pastligi kompetentliklari esa yetarli darajada emasligi jiddiy muammo bo'lib qolmoqda.

Bunday muammolarni bartaraf etish uchun albatta, ko'pgina say-harakatlar yo'lga qo'yilishi kerak. Jumladan:

- pedagoglarning malakasini muntazam oshirish;
- pedagogik usullarni qo'llash hamda tinimsiz izlanishlarini yo'lga qo'yish;
- tahlil qilinayotgan mavzuga pedagogik mas'uliyat bilan yondashish;
- zamonaviy o'qitish texnologiyalari imkoniyatlari va usullaridan foydalana olish;
- axborot texnologiyalarini pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashgan holda qo'llash;
- har bir dars va mashg'ulotni bugungi kun talabi asosida tashkil etish va boshqarish;
- har bir mashg'ulot ta'lim oluvchilarda o'quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishga, o'quv adabiyotlaridan kerakli axborotlarni mustaqil topishga yo'naltirish;
- jahonda tan olingan tajribalardan foydalanish;
- ta'lim maqsad va vazifalarini, texnologiya va vositalarini to'g'ri tanlash;



- malakali mutaxassislarni tayyorlashda xorij tajribalaridan samarali foydalanish, uning asosida o'quv mashg'ulotini tashkil etishga ta'lim muassasalarida yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish zarur.
- kutilgan natijalarga erishish uchun, avvalambor, ta'lim muassasalarimizni sanitariya me'yorlariga moslashtirishimiz va ularni eng zamonaviy gadjetlar, proyektorlar, so'nggi avlod kompyuterlari, yuqori tezlikdagi internet va boshqa vositalar bilan ta'minlashimiz kerak.

2022-yildan boshlab OTM larning magistratura bosqichi yangicha tizimga o'tkazildi. Bu ham ta'lim tizimini yanada rivojlantiradi desak xato bo'lmaydi. OTM larida o'qiyotgan va dars berayotgan har bir kishi chet tillarini qanchalik yaxshi bilsa ta'lim samaradorligi ham oshib boraveradi. Bugungi kunda o'quv mashg'ulotlari sifatini oshirish masalasiga yangicha yondashish, bajarilgan ishlar bilan cheklanmasdan, uni muntazam ravishda takomillashtirish, yangi uslub va shakllarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish muhim hisoblanadi. Ta'lim maqsadlarini oydinlashtirish esa o'qitish jarayonlarida qo'llaniladigan turli texnologiya va usullardan foydalanish, ta'lim muassasalari faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirishga olib keladi. O'quv mashg'ulotining asosiy maqsad va vazifalarini amalga oshirishda asosiy e'tiborni maqsad va vazifalarni aniqlashga qaratish, pedagog va ta'lim oluvchilarning samarali hamkorligini yo'lga qo'yish, ilg'or pedagogik texnologiya va ular asosida yaratilgan interfaol usullardan foydalanish, natijalarini baholash tizimini takomillashtirish, uning barcha shakllarini yangi texnika va texnologiya yutuqlarini hisobga olgan holda tashkil etish va amalga oshirish, ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy qobiliyat hamda kasbiy mahoratlarini zamon talablari darajasida shakllantirish, o'quv mashg'ulotini noan'anaviy o'qish va ilmiy-tadqiqot ishlari bilan uzluksiz aloqasini yaratish, kasbiy, iqtisodiy qiziqishlarni uyg'otish, mustaqil tarzda kerakli ma'lumotlarni yig'ish, muammoni aniqlash, yechimlarini topish, olingan bilim, malaka va ko'nikmalarni tanqidiy tahlil etish va ularni yangi vazifalarni hal etishda qo'llashga tizimli va ijodiy yondashishga qaratish lozim.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bu vazifalarni amalga oshirish uchun malakali mutaxassislarni tayyorlashda xorij tajribalaridan samarali foydalanish,



uning asosida o’quv mashg’ulotini tashkil etishga ta’lim muassasalarida yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish zarur. Chunki, o’quv mashg’uloti jarayoni pedagogik ijodkorlikning asosiy maydoni bo’lib, uni tashkil qilish va boshqarishga o’rgatish innovatsion yondashuv, ta’lim oluvchilarni bilim olishga, mustaqillikka, ijodkorlikka, tashabbuskorlikka, hamkorlikda ishlashga, kasbiy kompetensiyalarni chuqurlashtirish orqali ta’lim sifatiga e’tibor berishga jalb qiladi. Ta’limning asosiy maqsadi esa zamon talablariga javob bera oladigan malakali, raqobatbardosh, yuksak bilimli zamon talablariga javob bera oladigan mamlakatning ilm-fan, madaniyat, iqtisod, ijtimoiy sohalarini rivojlantirishda o’z hissasini qo’shadigan, mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma’naviyatga ega bo’lgan yuqori salohiyatli mutaxassislarni tayyorlashdir.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi “O’zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-6108-son Farmoni. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 07.11.2020 y., 06/20/6108/1483-son).
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-4884-son Qarori. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 07.11.2020 y., 07/20/4884/1484-son).
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 23 сентябрдаги “Таълим тўғрисида”ги Қонун”. ЎРҚ-637-сон. (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-сон).
4. Мавлянов А. ва б.қ.лар. “Илғор педагогик технология бўйича ўқув машғулотини лойиҳалаш”. Замонавий таълим. 2016. №2. Б.25-29. 8. Мавлянов А., ва б.қ.лар. Ўқув машғулотларини ташкил этишда таълим технологиялари. Ўқув қўлланма. Тафаккур бўстони нашриёти. Тошкент, 2013. 142 б.
5. Мавлянов А. ва б.қ.лар. Педагогик технология тамойиллари асосида машғулотларини олиб бориш технологияси. Ўқув-усlubий қўлланма. - Тошкент: Ворис, 2010. - 117 б.



BOLALAR VA O'SMIRLARNING KAM JISMONIY FAOLLIKI MUAMMOSI

Xojimirzayev Shuxratjon Dedamirzayevich

Namangan davlat universiteti sport faoliyati kafedrasida o'qituvchisi

@mail.ru (Sholar.google.com); <tel:+998993927219>

***Annotatsiya.** Maqola, Bugungi yoshlarni jismoniy faolligi muammosi, yurtimizda yoshlarning sog'lom turmush tarsi to'g'risidagi islohotlar, bolalar va o'smirlarning salomatligiga bag'ishlangan.*

***Kalit so'zlar:** kompyuter o'yinlari, ta'lim-tarbiya, teskari natija, jismoniy madaniyat.*

***Аннотация.** Статья посвящена проблеме физической активности современной молодежи, реформам здорового образа жизни молодежи в нашей стране, здоровью детей и подростков.*

***Ключевые слова:** компьютерные игры, образование, контрпродуктивность, физическая культура.*

***Annotation.** The article is devoted to the problem of physical activity of today's youth, reforms on the healthy lifestyle of young people in our country, and the health of children and adolescents.*

***Key words:** computer games, education, counterproductive, physical culture.*

Nega zamonaviy jamiyatda yoshlar intizomi ijtimoiy ahamiyati kattalik bilan pasayib bormoqda?

Hech qachon bolalar va o'smirlarning kam jismoniy faolligi muammosi bugungidek keskin bo'lmagan. Bu ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ularning asosiylaridan biri maktab o'quvchilarining kompyuter o'yinlariga, ijtimoiy tarmoqlarda va messenjerlarda muloqotga bo'lgan umumiy ishtiyoqidir.

Zamonaviy bolalarning ota-onalari ko'chada o'tkazgan vaqtlarini, futbol to'pini qo'vib yoki "xopskotch" ga sakrab, "bouncers" yoki "kazak qaroqchilari" o'ynash, hozirgi yosh avlod kompyuter yoki telefon ekranlariga ko'milgan. Borgan sari ota-onalar sertifikatdan baholarni olib tashlash bo'yicha takliflarni olishni boshladilar, chunki barcha bolalar turli xil jismoniy qobiliyatlarga ega.



Xo'sh, balki maktabda "jismoniy tarbiya"ga hojat yo'qdir va bu fanni dasturdan butunlay chiqarib tashlash kerakdir? Ushbu muammoni hal qilishda bunday radikal yondashuv oqilona emas. Biror kishi bosh og'rig'i bo'lsa, ular bosh og'rig'iga davo sifatida ijtimoiy tarmoqlarni taklif qilmaydi.

Jismoniy tarbiya darsini istisno qilmaslik, balki uning maksimal foyda keltirishi va bolalar turmush tarzining ajralmas qismiga aylanishiga ishonch hosil qilish kerak. Bu fanni o'qitishga nafaqat yondashuvlarni, balki jamiyatda unga bo'lgan munosabatni ham o'zgartirish zarur.

Keling, ota-onalardan boshlaylik. Ularning ko'pchiligi, ochig'i, asabiylashib, uning xavfsizligi haqida qayg'urgandan ko'ra, bolasini hovliga chiqarib qo'ygandan ko'ra, o'z farzandini uyda kompyuterda ko'rishni afzal ko'radi.

Hamma oilalarda emas, moliyaviy ahvol bolani sport bo'limiga yuborishga imkon beradi. Agar siz buning uchun pul to'lashingiz shart bo'lmasa ham, siz maxsus forma, poyabzal, jihoz sotib olishingiz kerak, bularning barchasi hozir qimmat. Ratsionga e'tibor bering. Fast-fud, chips, soda-bu bizning hamma narsamiz! Noto'g'ri ovqatlanish bolalarning ortiqcha vazniga olib keladi. Ular odatda harakatsiz va jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish istagi bilan yonmaydilar. Ma'lum bo'lishicha, bola jismoniy rivojlanishda yanada orqada qola boshlaydi.

Ammo bolalarning jismoniy zaifligi uchun nafaqat ota-onalar aybdor. Aybning katta qismi maktabda. Maktabdagi jismoniy tarbiya darslari ko'pincha matematika, fizika, adabiyot va boshqalar bilan bog'liq holda ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan narsa sifatida qabul qilinadi.

Pedagogik muhitda ixtiyoriy, ikkinchi darajali, ahamiyatsiz narsa sifatida shakllangan jismoniy tarbiya darslariga fan o'qituvchilarining munosabatiga bo'ysunib, talabalar ko'pincha ularni e'tiborsiz qoldiradilar. Bu rad etuvchi "narsa" qaerdan kelgan.

Teskari natija

Bolalar maktabda katta ish yukiga ega. Bolalar bog'chalari va maktablarda har yili o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, maktabgacha ta'lim muassasalaridagi bolalarning atigi 50 foizi sog'lom ekani ma'lum bo'ldi. Maktabda oltinchi sinfga qadar



sog'lom bolalar ulushi ikki baravar kamayadi va 11-sinfga qadar ularning atiga 5 foizi bor. Bu falokat emasmi?

Sakkizinchi sinf o'quvchisi onasining fikri:

"Jismoniy tarbiya darslari juda zo'r, afzalliklari ko'p. Ammo eng muhimi, ular bolalarda ta'lim jarayonida yuzaga keladigan faol harakatning yetishmasligini to'ldiradi. Ammo jismoniy tarbiya darsi, birinchi navbatda, shiddatli harakat bo'lib, uning davomida terlash hammamiz uchun odatiy holdir, kechirasiz. Bu erda muammolar boshlanadi. Bolalar forma kiyishni xohlamaydilar, yuvinadigan joyi yo'q. Ma'lum bo'lishicha, uch kilometrlik kros yoki voleybol o'yinidan keyin bolaning futbolkalari va paypoqlari bor - hech bo'lmaganda uni siqib qo'yishsin. Shunday qilib, u ho'l futbolka va ho'l paypoqda bir nechta darslar uchun jismoniy tarbiyadan keyin o'tiradi. Agar u maktab tugashi bilanoq sovuqni boshlamasa, bu mo'jiza bo'lardi. Har qanday, hatto mo'jizaviy eliksir, agar noto'g'ri qabul qilingan bo'lsa, mutlaqo teskari natija beradi. Bu jismoniy tarbiya darsiga ham tegishli. Biz shifobaxsh ta'sir o'rniga kasallikka duchor bo'lamiz."

Jismoniy madaniyat xalq madaniyatining bir qismidir

Nega bolalar jismoniy tarbiya darsini yoqtirmaydilar? Biz ushbu va boshqa savollarga professionallardan javob berishni so'radik-shahar tumanidagi Olimpiya zaxiralari sport maktabining yengil atletika murabbiyi Daminov Shuxratjon va tuman 1-son maktabining jismoniy tarbiya o'qituvchisi Po'latova Durdona.

- Nega bolalar jismoniy tarbiyani sevilmaydigan dars deb atashadi?

Sh.Daminov - Buning bir qancha sabablari bor. Talabalar forma kiyishni yoqtirmaydilar. Hozirgi o'smirlar nafaqat sport formasining sifatiga, balki brendga mansubligiga ham e'tibor berishadi. Agar bolaning formasi kompaniya do'konida emas, balki bozorda sotib olingan bo'lsa, bu masxara va haqorat qilish uchun sabab bo'lishi mumkin.

Bolalar jismoniy mehnatni yoqtirmaydilar, chunki bu ko'p terlashga olib keladi. Maktablarda yo dush yo'q, yoki dush qabul qilish uchun vaqt yo'q. Ko'pchilik hech narsaga, shu jumladan jismoniy tarbiyaga qiziqmaydi. Ularni biror narsa qilishga majbur qilish, buyruqlarni bajarish va o'zlarining konfort zonasidan tashqariga chiqarish ularga yoqmaydi.



D.Po'latova - Birinchi navbatda, yigitlarning gadjetlari bor, ularda bir necha kun o'tirishga tayyor. Bolalar jismoniy tarbiya nima uchun kerakligini har doim ham tushunmaydilar, chunki ular darslardan tez natijalarga erishmaydilar. Voyaga yetganida allaqachon sportga, fitnesga bo'lgan ehtiyoj seziladi va ular yosh va sog'lom bo'lsalar ham, bunga muhtoj emaslar.

– Bolalarni jismoniy tarbiyaga jalb etishda o'qituvchi va ota-onalarning shaxsiy namunasi qanday rol o'ynaydi?

D.Po'latova- Agar bola yoshligidan otasi ertalab gantellarni ko'tarayotganini va onasi gilamchada matbuotni silkitganini ko'rsa, 100% ehtimollik bilan u o'zi ularga qo'shiladi va uni majburlashning hojati yo'q. Agar maktabda o'qituvchi skameykada o'tirib, buyruq bermasa, balki o'quvchilar bilan aylanada turib, voleybolda nayranglar va paslarni ishlab chiqsa yoki velosipedda turib, ular bilan qanday to'g'ri ishlashni amalda ko'rsatsa, u holda bolalar undan o'rnak olishadi. Ko'p yigitlar oltin nishonini olishga intilishadi, chunki bu o'qituvchining ko'kragida ko'rinadi.

- Sizingcha, maktab o'quvchilarining attestatidan jismoniy tarbiya bo'yicha baholarni olib tashlash kerakmi?

Sh.Daminov - Jismoniy tarbiya fanidan baholarni olib tashlash mumkin emas. Zero, jismoniy tarbiya dars, ma'lum dastur, talablar bor. Agar baholar bo'lmasa, bu tartibsizlikka aylanadi. Yigitlar hamma narsaga qiziqishni butunlay yo'qotadilar.

D.Po'latova - Jismoniy tarbiya darsida bolalar fikrlashni, variantlarni hisoblashni, jamoada ishlashni o'rganadilar. Men oltin nishonining mavjudligi universitetga kirishda qo'shimcha ball olib kelganidan xursandman, ammo kumush va bronza nishonlari mavjudligida bunday rag'bat yo'qligi achinarli. Ko'pgina bolalar bu tufayli motivatsiyani yo'qotadilar.

Jismoniy tarbiyaning uchinchi soati kerakmi?

D.Po'latova - yaxshi sabablarga ko'ra darslarni o'tkazib yuborgan bolalar bilan ishlatilishi mumkin. Jismoniy madaniyat nafaqat sport o'yinlari, gimnastika, yengil atletika uchun dasturiy material, balki u jamiyatning moddiy va ma'naviy qadriyatlarini yig'indisi bo'lib, xalq madaniyatidir.

Sh.Daminov - Uchinchi soatni taniqli sportchilar, mintaqa, O'zbekiston, jahon Olimpiya chempionlari sport karerasi bilan tanishtirishga bag'ishlash mumkin. Ko'p



bolalar ular haqida faqat eshitgan, lekin ular qanday qilib g'alaba qozonganini bilishmaydi. Ushbu dars o'zbek milliy xalq o'yinlarini o'rganishga bag'ishlangan bo'lishi mumkin - oyoq kiyimlari, "ovchilar", shaharchalar, bu yerda nafaqat bolalarning jismoniy tarbiyasi, balki ular xalqning tarixi, urf-odatlarini bilan tanishadilar.

– Jismoniy tarbiya fanini o'qitishdagi asosiy muammolar nimalardan iborat?

D.Po'latova - vaqt etishmasligi, moddiy-texnika bazasining yetarli darajada jihozlanmaganligi. Men har bir bolaning qo'lida to'p bo'lishini istardim, u bilan u xizmat ko'rsatishi mumkin. Suzish bazasini qaytarish kerak. Bugungi ob-havo sharoitini hisobga olsak, bolalarni suzishga o'rgatish juda yaxshi bo'lardi.

Sh.Daminov – Menimcha, butun jamiyat bu mavzuga munosabatini o'zgartirishi kerak. Afsuski, jismoniy tarbiya darsining ijtimoiy ahamiyati pasayib ketdi. Matematika o'qituvchisi, bola va ota-ona uchun muhimroqdir. Axir imtihon va universitetga kirish oldidan ular muammolarga duch kelganlarida jismoniy salomatlik haqida o'ylashni boshlaydilar. Fizika darsi nihoyat jismoniy tarbiya darsiga aylanishi kerak.

Mukofot - bu sog'liq!

Jismoniy tarbiya vazifasi, bizning fikrimizcha, bolaning jismoniy rivojlanishini baholash emas, balki rivojlanishning o'zi bo'lishi kerak. O'qimagan bolalardan standartlardan o'tishni talab qilish katta foyda keltirmaydi, faqat jismoniy va ruhiy jarohatlarga olib kelishi mumkin.

Bu muammoning yechimini har bir bolaga individual yondashishda ko'ramiz. Mashg'ulotlar salbiy his-tuyg'ularga, haddan tashqari zo'riqishlarga olib kelmasligi kerak. Faqat shunday sharoitda ulardan ijobiy dinamikani kutish mumkin.

Biz ota-onalarga maslahat bermoqchimiz: bolangizni jismoniy zo'riqishlardan xalos qiladigan (agar jiddiy sabablar bo'lmasa) qimmatbaho sertifikat olish o'rniga, bu nimaga olib kelishi mumkinligi haqida o'ylash yaxshiroqdir. Agar siz o'qituvchilar bilan birgalikda qat'iyatlilik va talaba sa'y-harakatlarni namoyon qilsangiz, yuqori sinfda ilgari jismoniy rivojlanishda orqada qolgan o'quvchi sertifikatda halollik bilan a'lo bahoga ega bo'ladi.



Ammo bu nafaqat asosiy narsa. U bilan bo’lgan bola yaxshi sog’liq va mukammal jismoniy shaklga ega bo’ladi. Bu, ko’ryapsizmi, qimmatroq mukofotdir.

Farzandlarimiz ongida axloqiy qadriyatlarni shakllantirish uchun: Jismoniy tarbiya orqali vatanga, ota-onaga, o’tgan avlodlariga hurmat, muhabbat tushunchalari va tasavvurlarini kengaytirish; burch, vijdon, insof, mas’uliyat haqidagi tasavvurlarni vujudga keltirish; do’stlik, o’rtoqlik, qo’ni-qo’shnicilik munosabatlari haqidagi tasavvurlarni kengaytirish hal qilinishi kerak bo’lgan dastlabki vazifadir. Gimnastik mashqlar orqali estetik qadriyatlar farzandlarimizning estetik sezgi va idrokini tarbiyalash, tashqi va ichki go’zalligini shakllantirishdir. Ularda estetik qadriyatlarni shakllantirish uchun: bola ongida ota-bobolarimizdan bizgacha yetib kelgan milliy harakatli o’yinlar, turli quvnoq startlar, musiqa jo’rligidagi mashqlar, shuningdek, turli xarakterdagi bayramlardagi sport chiqishlarini asrab-avaylash tuyg’usini shakllantirish; jismoniy tarbiya va sport orqali go’zallikka baho berish, haqiqiy go’zallikni soxta go’zallikdan ajrata olish; jismoniy mashqlardagi nozik, nafis go’zalliklarini ko’rish, his etishni rivojlantirish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 10-sentabr kuni axborot texnologiyalari sohasida salohiyatli kadrlar tayyorlash va iqtidorli yoshlar bilan tizimli ishlash masalalari muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishi. 10.09.2021
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 30.09.2020-yil.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisning Senati va Qonunchilik palatasiga Murojaatnomasi. 24.01.2020-yil
6. ©2002-2021. infoCOM.Uz O‘zbekiston axborot kommunikatsiya texnologiyalari “Axborotlashgan jamiyat” shakllanishining ilmiy va nazariy asoslari. 30.07.2015 Rukn: Sharh va fikr-mulohazalar. Muallif: Surayyo Otaqo‘ziyeva.
7. Abdulla Avloniy: Turkiy guliston yoxud axloq kitobi (qayta nashr www.islom.uz kutubxonasi). – Toshkent, 2008. – B. 8-9.



8. O'zbekiston musulmonlari idorasi Samarqand viloyati vakilligi. Copyright © 2015 – 2020. 10. Najmiddinova K.U. Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyatning o'rni. – Toshkent: "Adolat", 2016. – B. 224.

9. Internet to'g'risidagi qiziqarli faktlar. www.odam.uz

СИНФДАН ТАШҚАРИ СПОРТ МАШҒУЛОТЛАРИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ МИЛЛИЙ ҒУРУР ТУЙҒУСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ПЕДАГОГИК МУАММО СИФАТИДА

Бахтиёр Холмирзаев

НамДУ тадқиқотчиси

Аннотация: Ушбу мақолада синфдан ташқари спорт машғулотларида ўқувчиларни миллий ғурур туйғусини ривожлантириш педагогик муаммо сифатида ўрганилди.

Калит сўзлар: Стратегия, қадрият, анъанала, миллий ғурур, ифтихор, кадр-қиммат, обрў-эътибор, фахрланиш, технология, дастур, ташаббускорлик, фидойилик, маърифат, иттифоқ, иммунитет, анъана.

Кириш. Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 14 сентябрда қабул қилинган "Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида"ги Қонуни, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар Стратегияси тўғрисида"ги Фармони, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 7 февралдаги ПФ-3514-сонли "Ички туризмни жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида"ги, 2019 йил 5 январдаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-4095-сонли "Туризм тармоғини жадал ривожлантиришга оид чора-тадбирлар тўғрисида" ги қарорлари, ҳамда бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифаларни амалга оширишга ушбу тадқиқот иши муайян даражада хизмат қилади[1; 2; 3; 4].

Ўқувчиларнинг миллий ғурурини мустаҳкамлаш, иродасини бақувват қилиш, уларни ўз мустақил фикрига эга бўлган баркамол инсонлар этиб тарбиялаш энг катта вазифа бўлиб қолмоқда. Уларнинг тафаккурида ўзлигини



унутмаслик, ота-боболарнинг муқаддас кадриятларини асраб-авайлаш ва ҳурмат қилиш фазилатини қарор топтириш, “Мен ўзбек фарзандиман” деб ғурур ва ифтихор билан яшашига эришиш лозим. Нега деганда ўз кадрият, анъаналаримизни жой-жойига қўймас эканмиз, на илм-маърифатда, на маданият ва маънавиятда, на спортда бунданда юксак қўзғалиш қила оламиз.

“Миллий ғурур (ифтихор), – шахс ёки ижтимоий гуруҳнинг миллий ўз-ўзини англаши асосида шаклланадиган аجدодлари қолдирган моддий-маънавий мерос, ўз халқининг жаҳон цивилизациясига қўшган ҳиссаси, ўзга миллатлар олдидаги кадр-қиммати, обрў-эътиборидан фахрланиш ҳиссини ифодаловчи тушунча”[5].

Миллий ғурур - бу миллий ифтихордир. Миллий ифтихор миллат ўзини яхлит ижтимоий бирлик эканлигини онгли равишда ҳис қилишидир. Миллий ғурур ва миллий ифтихор бир кучли рухий ҳолатки, у туфайли тарихий бирлик, қон-қариндошлик, тил, маданият, маънавият, иқтисодий ҳаёт ва келажак бирлиги миллат вакилларининг қалбидан чуқур ўрин олади[6].

Муаммонинг ўрганилганлик даражаси. Миллий ғурур тарбиясининг ижтимоий, фалсафий, тарихий, психологик, педагогик ва социологик жиҳатлари файласуф, диншунос, шарқшунос, адабиётшунос, тарихчи, педагог, сиёсатшунос олимлар томонидан ўрганилган. Шунингдек ватанпарварлик тарбияси муаммо сифатида тарихий характер касб этиб, бу борада Абу Али ибн Сино, Абу Наср Фаробий, Абу Райхон Беруний, Алишер Навоий, Амир Темур, Махмуд Қошғарий, Қайковус каби мутафаккирлар томонидан яратилган илмий ва дидактик манбалар тарбияшуносликда муҳим аҳамият касб этади.

Педагог олимлардан Н.Артиков, Ш.Атаджанова, Х.Ибрагимов, З.Исмоилова, Н.Қиямов, М.Маҳмудова, М.Қуронов, Ў.Асқарова, Д. Рўзиеваларнинг илмий-тадқиқот ишларида ўқувчилар маънавий маданиятини шакллантиришнинг педагогик асослари, уларда миллий ғурур, ватанпарварлик туйғусини тарбиялашда миллий ғоя тарғиботи самарадорлигини оширишнинг назарий жиҳатлари илмий талқин қилинган.

Ўқувчиларда миллий ғурур туйғусини такомиллаштиришнинг психологик омиллари, шахс билиш психик жараёнлари ва унинг ривожланиши каби



масалалар психолог олимлар З.Абидова, В.Каримова, И.Раҳимова, М.Саипова, Д.Собирова ва бошқа олимлар томонидан тадқиқ қилинган.

Хорижий ва Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлиги (МДХ) мамлакатлари олимларидан Н.Л.Березницкая, Э.Бетти, Э.Биккерман, Клавиго Руи де Гонсалис, Конфуций, Н.В.Пивоварова ва бошқаларнинг тадқиқот ишларида ватанпарварлик тушунчасининг назарий асослари, луғавий мазмуни, бу туйғуларни таркиб тоштиришнинг ижтимоий ва маънавий қирралари ватанпарварлик тарбиясининг субъектив асослари, туризм маданиятини шакллантиришда педагогик инновациялар ўрганилган.

Умумий ўрта таълим мактаби ўқувчиларида миллий ғурур туйғусини ривожлаштиришда педагогик муаммони ўрганиш давомида қуйидаги технология ва дастурлардан фойдаланиш катта натижалар беради деб ўйлаймиз ва тавсия қиламиз:

- ✓ LOGFREIM технологияси.
- ✓ TIMSS дастури.
- ✓ PISA дастури.
- ✓ PIRLS дастури.

Умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчиларида спорт воситасида миллий ғурур туйғусини ривожлаштириш масалалари ҳукуматимизнинг ёшларни жисмоний маданий соғломлаштириш, уларга таълим-тарбия бериш тизимини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш борасида олиб бораётган қуйидаги устувор йўналишларида ўз аксини топган:

- умумий ўрта таълим мактаби ўқувчиларида спорт воситасида миллий ғурур туйғусини ривожлаштириш бўйича норматив-ҳуқуқий базани такомиллаштириш;
- спорт – туристик рекреацион ҳудудларни барпо этиш;
- маданий мерос объектлари ҳудудида миллий урф-одат ва анъаналарни намойиш этиш орқали ўқувчи-ёшларга таълим бериш, уларни спорт воситасида миллий ғурур туйғусини ривожлаштириш ва камолга етказиш;



- миллий ва умуминсоний кадриятларга содиқлик, диний бағрикенглик ва миллатлараро тотувликни мустаҳкамлаш.

Ушбу йўналишларда амалга оширилаётган ишлар натижаси таҳлиллари шундан далолат берадики, унда умумий ўрта таълим мактаби ўқувчиларида спорт воситасида миллий ғурур туйғусини ривожлаштиришнинг педагогик муаммосини бартараф қилишда қуйидаги таркибий компонентларини ишлаб чиқиш муҳим ўрин тутади:

- Ўзбекистон Ёшлар иттифоқи “Ўзбекистон ёшлари – 2025” концепциясини ишлаб чиқиши; (Худудий ҳолатдан келиб чиқиб лойиҳани тақдим этиш)

- жамиятда тинчлик ва осойишталикни таъминлашда “Ўз болангизни, ўз уйингизни, ўз Ватанингизни кўз қорачиғидек асранг!” деган шиорнинг одамларимиз қалбидан чуқур жой олиши;

- мамлакатимизда “жаҳолатга қарши – маърифат” деган эзгу ғоя асосида ислом динининг инсонпарварлик моҳиятини, тинчлик ва дўстлик каби олижаноб мақсадларга хизмат қилишини тарғиб этиши;

- ўқувчилар ижтимоий-сиёсий фаоллигини миллий маданий кадриятларимиз талабларига мос шакллантириш;

- умуминсоний ва миллий демократик кадриятларга содиқлик асосида замонавий кенг дунёқараш ва бағрикенгликни ривожлантириш;

- ўқувчиларда спорт воситасида миллий ғурур туйғусини ривожлаштириш негизда мафкуравий иммунитет ва миллий ўзликни англашни тарбиялаш педагогик жиҳатдан муҳим аҳамият касб этади.

Хулоса. Тадқиқотимиз жараёнида шу нарсага амин бўлдикки, республикаимизда ўқувчи-ёшларнинг милли ғурур савиясини доимий юксалтириш муҳим аҳамиятга эга. Шунинг учун ҳам ёшларни она юртга садоқат руҳида тарбиялаш, уларда ташаббускорлик, фидойилик, ахлоқий фазилатларни шакллантириш – ўта шарафли вазифадир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг Президентининг 2016 йил 14 сентябрда қабул қилинган “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги ПҚ-406-сон қарори // lex.uz.



2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон фармон // lex.uz.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 7 февралдаги “Ички туризмни жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-3514-сон фармон // lex.uz.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 5 январдаги “Туризм тармоғини жадал ривожлантиришга оид чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-4095-сон қарор // lex.uz.
5. Асқарова Ў. Миллий ғурур.-Т.: Ўқитувчи, 2002- 234 б.
6. Исомжоновна Д.Р. Олий таълим муассасалари талабаларида миллий ифтихор туйғусини шакллантиришнинг илмий-педагогик асослари: Пед.фанл. док ...дисс. –Т.:Ўзбекистон, 87-89 б.



ТА'ЛИМ-TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI

БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМНИНГ МАТЕМАТИКА ДАРСЛАРИДА ТАЛАБАЛАРНИНГ МУСТАҚИЛ ИШЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Т.У.Абдуллаев

Наманган давлат педагогика институти доценти

***Anotatsiya:** Ҳозирги кунда Математика фанини ўқитишда асосий фаннинг 60 фоизини мустақил таълимни ташкил этади. Бу эса яънада мустақил таълимга бўлган эътиборни оширмоқда. Асосий эътибор мустақил таълимга қаратилган.*

***Kalit so'zlar:** Мустақил таълим, турлари ва шакллари, схема, чизма, графиклар, компьютер техникаси ва дастурлаш ва математик тушунчалар.*

Маълумки, таълим соҳасида амалга оширилган ислохотларнинг максуди республикамизда жаҳон андозларига мос, рақобатбардош мутахассисларни тайёрлашга қаратилгандир. Таълим соҳасида амалга оширилган ислохотлар ичида энг муҳими "Таълим тўғрисида"ги Қонунга асосланган "Кадрлар тайёрлаш миллий дастури"нинг қабул қилинганлигидир. Қабул қилинган бу дастур республикамизда узлуксиз таълим тизимини амалга оширишни назарда тутди. Узлуксиз таълим тизимининг энг муҳим турларидан бири олий таълимдир. Чунки олий таълимда халқ хўжалигининг барча соҳаларида фаолият олиб борадиган мутахассислар тайёрланади. Бундай мутахассисларни тайёрлашда математика фанининг ўрни салмоқлидир. Ҳозирги кунда халқ хўжалигининг барча соҳаларида ахборот коммуникацион технологияларидан кенг кўламда фойдаланишга ўтилганлиги математика ўқитишни янада такомиллаштиришни тақозо этади. Математика фани ўқитишни такомиллаштиришда талабалар мустақил ишлари ва уни ташкил қилиш муҳим ўрин тутди. Ҳозирги кунда Математика фанини ўқитишда асосий фаннинг 60 фоизини мустақил таълимни



ташқил этади. Бу эса яънада мустақил таълимга бўлган эътиборни оширмоқда. Математикани ўқитиш жараёнида талабаларнинг фаоллигини ошириш ва фанга бўлган қизиқишларини ривожлантириш омиллари билан бири талабалар билан олиб бориладиган мустақил ишлардир. Мустақил ишнинг мақсади - талабаларга янги билимларни эгаллаш учун аввалдан маълум бўлган янги ахборотларни яратиш эҳтиёжи ва қобилиятини ахборотлардан фойдаланиш, улар асосида эса ривожлантиришдан иборат. Ишни мустақил бажаришда талабалар турли хил маълумотлардан, ишни бажариш ва расмийлаштириш намуналарини ўз ичига олган мустақил ишлар тарқатмалари, ишни бажариш режасига оид қисқа кўрсатмалар ва бошқалардан фойдаланадилар. Мустақил ишнинг самарадорлигини оширишнинг зарурий шarti унинг ўқитувчи томонидан ўз вақтида текширилиши ҳисобланади.

Мустақил ишларга қуйидагиларни келтириш мумкин:

1. Ўтилган мавзунини мустақамлашга қаратилган мустақил иш.
2. Ўтилган мавзунини тўлдиришга қаратилган мустақил иш.
3. Янги адабиётларни ўрганиш мақсадида ўтказиладиган мустақил иш.
4. Бугунлай янги мавзунини ўрганишга қаратилган мустақил иш.
5. Талабаларнинг билим, қўникма ва малакаларини текширишга қаратилган мустақил иш.

Мустақил ишларни шартли равишда икки кўринишда ташқил қилиш мумкин:

1. Дарс жараёнида ташқил қилинадиган мустақил ишлар.
2. Дарсдан ташқари вақтда бажариладиган мустақил ишлар.

Дарс жараёнида ташқил қилинадиган мустақил иш, дарс жараёнида ечилган мисол ва масалаларга ўхшаш шартлари бир хил, лекин шартларидаги сонлар ёки харфлари билангина фарқ қиладиган топшириқларни бажариш бўйича мустақил иш тест, оғзаки ёки ёзма ишларни ўтказиш, ўтилган мавзулар юзасидан тарқатма материалларга ёзилган топшириқлар бўйича мустақил иш, талабаларнинг доскада бажаришлари учун тавсия қилинадиган топшириқлар бўйича мустақил иш ва ҳоказолардан иборат. Дарсдан ташқари вақтларда бажариладиган мустақил ишлар, асосан, талабалар уй ишларидир. Уй ишлари



талабаларнинг дарсдан ташқари вақтларида мустақил ҳолда, яқка ишлашини ташкил қилиш шаклидан иборатдир.

Ўқитувчи уй ишларини беришда қуйидагиларни ҳисобга олиши зарур:

- уйга берилган вазифалар талабаларнинг билимларига мос бўлиши керак;
- дарсда бажарилган ишларнинг бошқарок тури бўлиб, уни аксарият талабалар бажара оладиган бўлиши ва ўқитувчи дарснинг якунида шу ишларни бажариш учун талабаларга кўрсатмалар берган бўлиши керак;
- уй вазифаларини тизимли бериб бориш керак;
- уй вазифалари ўқитувчи томонидан мунтазам текширилиб борилиши керак;
- уй вазифасининг кўриниши, бажарилиши ва талаблари турли туман бўлиши керак;
- уй ишини талаба томонидан яқка ҳолда бажарилишига эришиш керак;
- уй ишининг ичида янги адабиётни ўрганишга бағишланганлари ҳам бўлиши керак;
- уй ишлари ичида дарс жараёнида ўтилган мавзунини давом эттиришга бағишланганлари ҳам бўлиши керак ва хоказо.

Дарс жараёнидаги мустақил ишлар ўқувчи назорати остида, дарсдан ташқари вақтлардаги мустақил ишлар эса ўқитувчи назоратсиз ўтказилиб, улар мустақил таълимнинг таркибий қисмидан иборат бўлади. Математик таълимини амалга оширишда мустақил таълимнинг бугунги кундаги реал ҳолатини таҳлил қилса унинг механизмлари (ташкилий, психологик-педагогик, ўқув-услубий ахборот, моддий техник ва бошқалар деярли тўлиқ ишлаб чиқилганлигини кўрамиз.

Маълумки, ҳозирги кунда бошланғич таълим ва спорт тарбиявий иш йўналишларида Бошланғич математика курси фани ўқитилади. Бу эса математика фанини ўқитиш жараёнини ва мустақил ишларни ҳар бир йўналишда талабаларнинг келгусида эгаллайдиган мутахассисликларини эътиборга олган ҳолда ташкил қилиш кераклигини таққозо этади. Бу ўз-ўзидан ҳар бир йўналиш учун математикадан танланадиган мустақил ишлар мавзулари бир-биридан тубдан фарқ қилиши кераклигини билдиради. Масалан, хорижий тиллар



Йўналишлари талабаларига мўлжалланган мустақил иш мавзулари, биология ёки меҳнат таълими йўналишлари талабаларига мўлжалланган мустақил иш мавзулари билан бир хил бўлиши мантиқан тўғри бўлмайди. Масалан, бошлангич таълим ва спорт тарбиявий иш йўналишлари талабаларига мустақил иш учун қуйидаги мавзуларни танлаш мумкин.

1. Тўплам тушунчаси. Тўпламлар устида амаллар.
2. Мослик ва муносабатлар.
3. Комбинаторика элементлари.
4. Алгебраик амаллар, группа, ҳалқа майдон.
5. Математик мантик элементлари.
6. Натурал сонлар арифметикаси.
7. Ҳақиқий сонлар ва улар устида амаллар
8. Комплекс сонлар ва улар устида амаллар.
9. Алгебраик ифодалар, тенгламалар, тенгсизликлар,
10. Планиметрия ва стереометрия элементлари.
11. Скаляр миқдор ва уни ўлчаш тушунчалари.

Хулоса килиб айтганда, мустақил иш мазмунлари талабаларнинг ўз йўналишларидаги бошқа фанлар ўзлаштиришларида ва улар келгусида эгаллайдиган мутахассисликларида зарур бўлишини эътиборга олган ҳолда танланиши керак.

Мустақил ишни ташкил этиш талабаларда қуйидаги маҳорат ва кўникмаларни таркиб топтириш ҳам ривожлантиришни ўз ичига олади:

- мустақил ишни режалаштириш;
- интернет тармогидан фойдаланиб, зарур ўқув ва илмий ахборотни излаб топиш усулларни эгаллаш;
- илмий ва техник адабиётлардан фойдаланиш малакасини ошириш;
- рефератлар ёзиш;
- мустақил иш натижалари ижодий ёндашган ҳолда таҳлил қилиш.

Математикадан мустақил ишларни ташкил этишнинг қуйидаги турларини келтириш мумкин:



- талабаларнинг мустақиллик режаси бўйича - индивидуаллаштириш даража - дидактик мақсадлар бўйича;

- билимларнинг манбалари бўйича.

Математикадан талабалар мустақил ишларини ташкил этишда ижодий мустақил ишларда талабалар ўзлари учун янгилик очадилар.

- уларнинг стандарт бўлмаган, ғалаба учун янги усулда масалани ечиш ёки теоремани исботлаш;

- битта масалани бир неча усул билан ечиш;

- мисол ва масалаларни талабаларнинг ўзлари тузишларн математик иншолар;

- талабаларнинг маърузалари ва ҳоказо турлари мавжуд.

Мустақил ишларни уларни қўллаш мақсади бўйича қуйидаги турларга ажратиш мумкин:

- математик тушунчаларни шакллантирувчи;

- тушунчаларни шакллантиришга тайёрловчи;

- янги мавзунини мустаҳкамловчи;

- олинган билимларни масала ёки мисолларни ечишга қўллаш кўникмаларини шакллантирувчи;

- яшашга доир масалаларни ечиш кўникмаларини шакллантирувчи.

Мустақил ишларни билимлар манбаи ва усули бўйича қуйидаги турларга ажратиш мумкин:

- дарслик билан ишлаш;

- маълумотлар билан ишлаш;

- масалалар ечиш ва тузиш;

- ўқув машқлари;

- математик иншо;

- схема, чизма, графиклар бўйича топшириклар тузиш ва ечиш.

Талабалар билан ўтказиладиган мустақил ишларнинг самарадорлиги қуйидагиларга боғлиқ бўлади:

- ўқув материалининг мазмунига;

- талабаларнинг тайёргарлик даражасига;



- талабаларнинг фанга бўлган қизиқишларига;
- талабалар фаолиятини ташкил этишнинг дидактик усулларига.

Математикани ўқитиш жараёнида талабаларнинг қобилиятларини ҳисобга олган ҳолда мустақил ишларни куйидагича шаклларда ўтказиш мумкин:

- ҳисоб-график ишларни бажариш;
- тажриба ва амалий машғулотларга тайёргарлик кўриш;
- дарсликнинг алоҳида бобларини мустақил ўрганиш;
- ўқитувчи берган вазифалар бўйича мисол ва масалалар ечиш;
- ўқитувчи томонидан берилган мавзулар бўйича рефератлар ёзиш;
- даврий ва илмий адабиётларни ўрганиш;
- компьютер техникаси ва дастурлашдан фойдаланиш кўникмаларини ривожлантириш;
- олимпиада ва турли танловда иштирок этиш.

Математикани ўқитиш жараёнида мустақил ишларнинг турли хил формалари ва шаклларида фойдаланиш ўқитишнинг самарадорлигини оширади ва малакали мутахассислар тайёрлаш учун асос бўлади.

Фойданилган адабиётлар рўйхати:

1. Жумаев М. Бошланғич синфларда математика ўқитиш методикаси.- Тошкент, 2009.
2. Бикбаева Н.У. Математика.- Тошкент, 2006.
3. Алихонов.С. Математика ўқитиш методикаси. - Тошкент, 2008.

YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA SPORT TO'GARAKLARINI O'RNI

Ismoilov Turabjon

Namangan davlat universiteti dotsenti

Ismoilov G'anisher

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti tayanch doktoranti

***Annotatsiya:** ushbu maqolada yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashda sport to'garaklarining o'rne atroflicha yoritib berilgan.*



Аннотация: *данной в статье освещены проведение спортивные секции с молодими ребятами после занятий.*

Annotation: *In this article in training with mature children activity plays in the teaching process is clarified*

Kalit so’zlar: *jismoniy tarbiya, soglomlashtirish, jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik, sport to’garagi, pedagogik tajriba.*

Ключевые слова: *физическое воспитание, оздоровление, физическое развитие, физическая подготовка, спортивная секция, педагогический эксперимент.*

Key words: *physical training-healthiness, physical developing, physical readiness, physical training, pedagogical experience.*

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab respublikamizda yosh avlod tarbiyasiga alohida etibor qaratildi. Mamlakatimiz rahbariyati tamonidan “Talim to’grisida”gi “Jismoniy tarbiya va sport to’grisida”gi qonunlar hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni qabul qilinishi o’sib kelayotgan yosh avlodlarga berilayotgan etiborning yorqin ifodasidir[1,2,3].

Yosh avlodni komil insonlar qilib voyaga etkazishda jismoniy tarbiya va sportning o’rni va ahamiyati beqiyosdir. Shu boisdan ham respublikamiz rahbariyati va prezidentimiz tamonidan boshqa sohalar qatori jismoniy tarbiya va sportga ham alohida e’tibor berib kelmoqda.

Mamlakatimizda kelajagimiz egalari bo’lgan yo’sh avlodni soglom va barkamol qilib tarbiyalash masalasi eng ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Yurtimiz kelajagi bugungi kunda ta’lim-tarbiya olayotgan bolalarning har tamonlama o’sib-ulg’ayishiga bevosita bog’liqdir.

Prezidentimiz tamonidan belgilab berilgan yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularni bo’sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish buyicha 5 ta muhim tashabbus, unda belgilab berilgan vazifalar, yoshlarimizni jismoniy tarbiya va sport bilan shugullanishiga e’tiborni qaratilishi katta ahamiyatga ega bo’ldi[4,5].

Bugungi kunda o’sib kelayotgan yosh avlodni har tamonlama tarbiyalash ta’lim tashkilotlari oldida turgan asosiy vazifalardandir. Ushbu vazifalarni amalga



oshirishda ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchi-pedagoglar mehnatining o'рни va ahamiyati beqiyosdir.

O'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol insonlar qilib tarbiyalashda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'tkazilayotgan jismoniy tarbiya darslari, o'quv kun tartibidagi sog'lomlashtirish tadbirlari va o'quvchilarning bo'sh vaqlarini samarali o'tkazish uchun darsdan keyin tashkil qilinadigan sport turlari bo'yicha to'garaklarning ahamiyati kattadir[7].

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quv kun tartibidagi sog'lomlashtirish tadbirlarini va sinfdan tashqari sport ishlarni samarali amalga oshirishda maktabda tashkil qilingan jismoniy tarbiya jamoasining faoliyati katta ahamiyatga egadir[6].

Yosh avlodni harakat faolligini va jismoniy tayyorgarligini oshirishda umumiy o'rta ta'lim maktablarida darsdan keyin tashkil qilinadigan sport to'garaklarini faoliyati muhimdir. Sport to'garaklarini tashkil qilishda jismoniy tarbiya o'qituvchilari asosiy vazifani bajaradi.

Biz ilmiy tadqiqot ishlarini o'tkazishdan oldin bir qator umumiy o'rta ta'lim maktablarida pedagogik kuzatish olib bordik. Pedagogik kuzatishga asoslanib tajriba va nazorat maktablarini tanlab oldik. Tanlab olingan maktablarning sharoiti bir-biriga yaqin ekanligi pedagogik kuzatishlar orqali aniqlandi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi o'quvchilarining jismoniy rivojlanishi va tayyorgarliklarini o'rganish maqsadida bolalarning pedagogik xususiyatlarini hisobga olgan holda antropometrik ko'rsatkich va testlar ishlab chiqdik. Ishlab chiqilgan antropometrik ko'rsatkich va testlar asosida bolalarning jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligi aniqlandi. Yigib olingan ma'lumotlar matematik-statistik usulda tahlil qilindi. Tajriba-sinov va nazorat guruhi bolalarini jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligini o'zaro taqqoslaganimizda matematik-statistik jihatdan farq bo'lmadi.

Tajriba guruhi bolalari bilan o'tkaziladigan voleybol to'garagi uchun dastur, ish reja va mashg'ulotlar ishlanmalari ishlab chiqdik. Tajriba guruhida ishlab chiqilgan reja va ishlanmalar asosida voleybol mashg'ulotlarini o'quv yilining sentabr oyidan boshlab may oyigacha o'tkazdik. Mashg'ulotlar jismoniy tarbiya o'qituvchisi tamonidan olib borildi va muntazam ravishda nazorat ostida bo'ldi. Nazorat



guruhidagi bolalar bilan darsdan keyingi o'tkazilgan voleybol mashg'uloti oldin qanday bo'lsa shundayligicha olib borildi.

O'quv yilini yakunida tajriba-sinov va nazorat guruhlaridagi bolalarning jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligini aniqlash bo'yicha antropometrik ko'rsatkichlar va testlar oldik. Yig'ib olingan ma'lumotlarni matematik-statistik usulda tahlil qildik.

Tajriba-sinov va nazorat guruhidagi o'quvchilardan olingan ma'lumotlarni o'zaro taqqoslaganimizda tajriba guruhidagi bolalarda natijalar ishonchli farqga erishilganligi aniqlandi. Nazorat guruhidagi bolalarda esa o'sish bo'lsada statistik jihatdan farq bo'lmadi

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, umumiy o'rta ta'lim maktablarida darsdan keyin o'quvchilarni bo'sh vaqtini samarali tashkil etish uchun mutaxassis rahbarligida sport turlari bo'yicha to'garaklar tashkil qilinsa avvalo shug'ullanuvchilarning salomatligi mustahkamlanadi, jismoniy tayyorligi yaxshilanadi va umumta'lim fanlaridan o'zlashtirish ko'rsatkichlari ham ijobiy tamonga o'zgaradi.

O'quv yili mobaynida olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlaridan ma'lum bo'ldiki, o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson bo'lib shakllanishida umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi darsdan keyingi sport turlari bo'yicha o'tkaziladigan to'garak mashg'ulotlarining o'rni va ahamiyati katta ekanligi ma'lum bo'ldi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida darsdan keyin sport turlari bo'yicha to'garaklar tashkil qilishda quyidagilarni amalga oshirish kerak:

ta'lim muassasasidagi o'quvchilarining jismoniy rivojlanishi va tayyorgarliklarini o'rganish maqsadida bolalarning pedagogik xususiyatlarini hisobga olish;

umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya jamoasining ish faoliyati samaradorligini yanada oshirish;

sport turlarini qobiliyatli o'qituvchilarga taqsimlash va ularga uslubiy jihatdan yordam berish;

har bir sport turi bo'yicha o'tkaziladigan to'garak mashg'ulotlari uchun talab darajasida asbob-anjom va jihozlar bilan taminlash;



maktabdagi sharoitni hisobga olib sport to’garaklari sonini yanada ko’paytirish; iqtidorli sportchilarni topish va ularni bolalar va o’smirlar sport maktablaridagi to’garaklarga tavsiya etish;

darsdan keying sport to’garaklarini tashkil qilish va o’tkazishda bolalarning pedagogik hususiyatlarini hisobga olish.

sport to’garagi ishlarini ishlab chiqilgan dastur va rejaga asosan jadval asosida muntazam ravishda olib borish.

sport turlari bo’yicha darsdan keyingi mashgulotlarni o’gil va qiz bolalarga alohida qilib o’tkazish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati:

1. Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги Қонуни (1997, 29август). Туркистон.- Тошкент, 1997. 30 август.
2. Ўзбекистон Республикасининг «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури». Марифат. - Тошкент, 1998. 1 апрел.
3. Ўзбекистон Республикасининг «Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида»ги Қонуни (2015. 04.09). Халқ сўзи. –Тошкент, 2015. 5 сентябр.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони. – Тошкент: “Адолат”, 2017. -112 б.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори (2017. 3 июн). Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами № 23. -Тошкент, 2017. 12 июн.
6. Исмоилов Т.У. Бошланғич синфларда жисмоний тарбия-соғломлаштириш тадбирларининг педагогик хусусиятлари. Дис.... пед. фан. ном.–Тошкент: 2010.– 157 б.
7. Олий таълим муассасаларида «Ёш спортчи» тўғрагининг спорт турлари бўйича дастурлар мажмуаси. – Тошкент, 2013. -381 б.



БЎЛАЖАК ТАСВИРИЙ САНЪАТ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ ЭТНОМАДАНИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ ЎЛКАШУНОСЛИККА ОИД МИЛЛИЙ-ХУДУДИЙ МАТЕРИАЛЛАР АСОСИДА ОШИРИШ

Суяров Нодиржон Тахирович

Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Аннотация: *Мазкур мақолада бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларининг бадиий-эстетик компетентликни ривожлантиришда маданиятлараро интеграция этномаданий таълим жараёнининг асосий ва стратегик мақсадига доир қатор илмий изланишлар, талабаларда ватанга бўлган муҳаббат руҳида тарбиялаш масалаларига алоҳида эътибор бериш кераклиги ҳамда амалий безак санъати машғулотларини ўтказиш методикаси билан боғлиқ муҳим жиҳатлар қайд этилган.*

Калит сўзлар: *Амалий безак санъати, метод, бадиий-эстетик буюмлар, этно ва маданият, этнобадиий таълим, миллий гуруҳ, эстетик тарбия.*

Аннотация: *В данной статье проведен ряд научных исследований о главной и стратегической цели межкультурного интеграционного этнокультурного образовательного процесса в развитии художественно-эстетической компетентности будущих учителей изобразительного искусства, о необходимости уделить особое внимание вопросам воспитания учащихся в дух любви к Родине, отмечены важные аспекты, связанные с методикой обучения практическому декоративно-прикладному искусству.*

Ключевые слова: *Прикладное-декоративное искусство, метод, художественно-эстетический предметы, этнокультурное образование, этно - художественное образование, национальная гордость, эстетическое воспитание.*

Abstract: *In this article, a number of scientific studies on the main and strategic goal of intercultural integration ethno cultural education process in the development of artistic and aesthetic competence of future visual arts teachers, the need to pay special attention to the issues of educating students in the spirit of love for the motherland, and*



important aspects related to the methodology of practical decorative arts classes are noted.

Keywords: *Applied decorative art, method, artistic-aesthetic items, ethnic and cultural education, ethno-artistic education, national pride, esthetic education.*

Тасвирий санъат таълими мазмунини такомиллаштириш кўп жиҳатдан таълим-тарбия билан боғлиқ бўлиб, ўлкашуносликка оид маҳаллий материалларни дарс жараёнига тадбиқ этиш улардан самарали фойдаланиш бир қатор принципларга амал қилишни талаб этади. Жумладан: тарбиянинг маълум мақсадга қаратилганлиги; тарбиянинг инсонпарварлиги ва демократик тамойили; тарбиянинг ҳаёт билан, меҳнат билан боғлиқлик тамойили; тарбияда миллий-маданий ва умуминсоний қадриятларнинг устиворлиги тамойили; тарбияда ўқувчиларнинг ёш ва шахсий хусусиятларини ҳисобга олиш тамойили; изчиллик, тизимлилик, тарбиявий таъсирларнинг бирлиги ва узлуксизлиги тамойили ва бошқалар.

Ҳар бир маданият шу масканда яшовчиларнинг дунёқарашини шакллантирадиган миллий, ўзига хос хусусиятлар тизимини ўз ичига қамраб олади, булар эса, бизнинг фикримизча, шахс томонидан умуминсоний, универсал ва этномаданий қадриятларнинг ўзига хос талқини натижасида йиғилади.

Этномаданият атамаси икки иборадан ташкил бўлиб: этно ва маданият сўзлари қўшилмасидан ҳосил бўлиб, бирор халқнинг (масалан, ўзбек халқининг) келиб чиқиши, унинг маданияти, турмуш тарзи, маънавий-маърифий хусусиятларини тарихий жараён (давр)ларда раванқ топиб, ҳозирги кунимизгача ривожланиб келаётган маънавий ҳамда маданий меросини ўрганадиган фан ҳисобланади.

Этно – юнонча – *элат*, *халқ* демақдир ва шу билан бирга, маълум бир элат ёки халққа бўлган ишора, кўрсатув. Бу ибора бирор халқнинг келиб чиқиши (этногенез)ни ифодалайди.

Маданиятлараро интеграция этномаданий таълим жараёнининг асосий ва стратегик мақсади ҳисобланади. Агар алоҳида миллат нисбатан қисқа вақт ичида этник ўзига хосликка эриша олса, маданиятлараро интеграцияга эришиш



минтақада яшовчи барча этник гуруҳлар вакилларининг саъй-ҳаракатларини талаб қиладиган узоқ жараёнدير.

XXI асрда жаҳон миқёсида таълим барқарор тараққиётни таъминловчи асосий омил сифатида эътироф этилиб, 2030 йилгача белгиланган халқаро таълим концепциясида "сифатли таълим олиш ва ижодий қобилиятни рағбатлантириш" долзарб вазифа сифатида белгиланди. Бу эса, мактабгача таълим ёшиданок болаларни бадиийэстетик ривожлантириш, ижтимоий-маданий анъаналар воситасида этнобадиий таълимни кенг ривожлантиришни тақозо этмоқда.

"Этнобадиий таълим" тушунчаси XX асрнинг 190-йилларида илмий муомалага киритилган.

Этнобадиий таълим – этномаданий таълим турларидан бири бўлиб, унинг мазмунини халқ бадиий маданияти, яъни. халқ амалий санъати асарлари, уларни яратиш, кўпайтириш, мавжуд бўлиш, сақлаш, тарқатиш ва авлоддан-авлодга ўтказишнинг анъанавий шакллари ва усуллари мажмуи ташкил этади.

Этнобадиий таълим қуйидаги уч компонентни ўз ичига олади: (1) таълим-тарбиянинг илк босқичидан (пропедевтик) оила ва таълим муассасаларида этникмаданий муҳитни яратиш (халқ тарихи, маданияти, урф-одатлари билан танишиш); (2) таълим институционал шакли (турли таълим муассасаларида фундаментал ва этнобадиий таълим); (3) фаолиятга йўналтирилган (тўғараклар, синфдан ташқари ишлар), ижтимоий-маданий соҳа ва ижодий марказлар томонидан таъминланадиган қўшимча таълим.

Зеро, умуминсоният маданий тараққиёт жараёнларидан нисбатан мустақил миллий бадиий маданият ривожланишининг ҳар бир босқичи, жаҳон бадиий маданияти тараққиёти тажрибаларининг конкрет ижтимоий-тарихий шароитларида умумлашувини ифодалайди. Бундан ташқари, миллий бадиий асарларнинг муайян ижтимоий онг шаклларини, шу жумладан шахс экологик онги, бадиийэстетик тафаккури ва маданиятини ривожлантиришдаги роли, улар томонидан умуминсоният прогрессив янги тажрибаларнинг ўзлаштирилиши этнобадиий таълимга боғлиқ бўлади.

Ўқитиш усули – бу кўзланган натижага эришиш, мақсадга эришиш йўли. Қўйилган вазифаларга кўра усуллар оғзаки-визуал, амалий, репродуктив ва



маҳсулдор, муаммоли, эвристик ва бошқаларга бўлинади. Методик услублар методнинг бир қисми бўлиб, улар мотивацияни, хотирада сақлаб қолишнинг барқарорлигини, ақлий ва ижодий фаолликни, фанга қизиқишни таъминлайди.

Қадриятларда эса маълум бир миллат онгининг яхлитлиги, шунингдек, алоҳида шахсларнинг муносабати ўз аксини топади. Масалан, миллий онги ва дунёқарашининг ўзига хос хусусиятлари сифатида виждон, шаън, кадр-қиммат, адолат, инсонпарварлик, ҳақиқат, ирода, раҳм-шафқат асосий ахлоқий мезонлар ҳисобланади. Жамиятда инсон ва унинг ҳаёти асосий қадриятлардан бири ҳисобланади. Шунга қарамай, инсон учун энг қадрли ҳисобланган ҳаёт олий қадриятлар сирасига киритилмаган. Олий қадриятларга инсон ва жамиятнинг маънавий дунёси, масалан, маънавият билан боғлиқ қадриятлар киради. Маънавият бу шахсга, умуман жамиятга, халққа хос бўлган маънавий ва ахлоқий фазилятдир.

Маълум бир халқнинг маънавияти деганда табиий муҳит таъсири ва буюк аجدодларнинг таълимотини ёдда тутган ҳолда тарихий воқеаларидан зарурий хулоса чиқариш, ўз она тилиси орқали дунёни англаш даражаси тушунилади.

Шахс учун муҳим бўлган қадриятлар мумкин бўлган альтернатив вариантларини баҳолаб, унинг хатти-ҳаракатлар моделини танлашни олдиндан белгилаб беради, бошқача қилиб айтганда, улар шахснинг қадриятли ахлоқида самарали мотив ҳисобланади. Ижтимоий ва умумбашарий қадриятлардан шакллантирилган шахсий қадриятлар, бир томондан, шахснинг ижтимоийлашув даражасини, иккинчи томондан, ахлоқий устуворликларнинг ривожланиш даражасини кўрсатади, бу эса *танлаш, баҳолаш ва ҳаракат қилиш* муаммолари билан боғлиқ бўлган муайян вазиятда унинг қадриятли хатти-ҳаракатларини олдиндан билиш имконини беради.

Аксиология бўйича илмий адабиётларни таҳлил қилиш шуни кўрсатадики, қадриятлар ахлоқий, ҳуқуқий, илмий, тарихий, ижтимоий, фалсафий ва ҳоказоларга бўлинади. Қадриятлар табиий ва орттирилган, маданий бўлиши мумкин. Бундай ҳолатда когнитив, утилитар, ахлоқий, эстетик ва бошқа қадриятлар ҳақида гапириш мумкин. Қадриятларнинг барча турлари ўзаро боғлиқликда *эркинлик, ҳақиқат, гўзаллик, адолат, яхшилик, фойда* каби азалий



(“абადий”) кадриятларни ўз ичига олувчи асосий кадриятларга асосланган маълум бир кадриятлар иерархиясини ҳосил қилади.

Инсониятнинг мавжудлик маконига кўра ҳам кадриятлар фарқланади (ҳақиқат, эстетика, этика (ахлоқ), геодонистик ёки прагматик соҳаларда), шунингдек, моддий, мантикий, эстетик, ахлоқий кадриятлар, мавжудлик кадриятлари, истеъмол кадриятлари ҳам аниқланган. Ҳозирги вақтда уларнинг қайси турга мансублигидан ва қандай экзистенциал ва сифат хусусиятларига эга бўлишидан қатъи назар, кадриятлар классик трихотомия билан фарқланади: ижобий, нейтрал ёки салбий баҳолаш.

Кадриятларни ижобий ва салбий каби турларга бўлиш Дэвид Юм (1711-1776) таълимотининг асосини ташкил қилади, у бир кадриятнинг турли вазиятларда турлича аҳамият касб этишини, яъни бир кадрият ҳам ижобий, ҳам салбий бўла олишини асослайди. Дэвид Юмнинг фикрича, “инсон асосан фаолият учун туғилган ва ўз ҳаракатларида диди ва ҳисси билан бошқарилади, у ўз кадриятларидан келиб чиққан ҳолда бир нарсага интилади ва бошқа нарсадан қочади”.

Демак, мактаб ўқувчиларининг ўқув-билиш фаолиятини кадриятларни ўрганишнинг ўзаро узвий боғлиқликдаги ташкил этувчилардан иборат ташкилий педагогик жараён деб қараш мумкин ва ундаги ташкил этувчилар ўзига хос мақсадли бирликлардан ташкил топган бўлади. Бунда таълим жараёни – ўқитишнинг интерфаол ва инновацион шакллари, таълим мазмуни – билимнинг етарли минимуми, ўқитиш натижаси – ўқувчида мустақил ўқишга мустаҳкам эҳтиёжни, таълим истиқболи – ижтимоий амалиётни эътиборга олиб, ўқувчиларнинг ижтимоий ва шахсий мослашув қобилиятларини шакллантириш ўқувчиларнинг ўқув-билиш фаолиятини юксалтиришда асосий кўрсаткичлардан биридир.

Юқорида қайд этилган 5-7-синф ўқувчиларининг ўқув-билиш фаолияти муҳитини миллий-худудий материаллар воситасида таркиб топтириш талаблари ва эътиборли жиҳатлари ўқувчиларга замон талаблари асосида таълим бериш кераклигини кўрсатмоқда ва бугунги кунга келиб долзарб ва истиқболли масалага айланмоқда. Бу борада таклиф этилаётган ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини



шакллантириш юқори самара бериши, яъни ушбу фаолиятнинг самарали бўлиши учун мураккаб жараёнларнинг (ташкилий, педагогик, психологик, технологик, ахборотли ва ҳ.к.) ташкилий тузилмасини илмий-методик жиҳатдан асослаб чиқиш керак. Бунинг учун эса ташкилий тузилма асосида пайдо бўладиган педагогик вазиятларни тўғри англаб етиш ва улардан самарали фойдаланишнинг мақбул режаларини ишлаб чиқиш тақозо этилади. Бунга сабаб ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини мустаҳкам таркиб топтиришда махсус билимларнинг уч асосий туридан фойдаланилади: (1) ўқув жараёни (ўлка тарихи, маданияти ва амалий санъати тўғрисида маълумот бериш); (2) ўрганиш жараёнига (билим бериш усули ва стратегиялари); (3) ўқув-билиш фаолиятини баҳолаш (билим олувчи ҳақидаги маълумотлар). Бу қайд этилганлар ўқувчиларнинг ижодий фаолияти ташкилий тузилмасини ишлаб чиқишга илмий-методик асос бўла олади.

Ижодий фаолиятни шакллантириш ва бадиий-эстетик тафаккурни ривожлантириш муҳитини таркиб топтириш асосан уч босқичдан иборат бўлиб, биринчисида, ўқув жараёни (таълим жараёнининг компонентларини ўз ичига олувчи ва унда фойдаланиладиган воситалар, муайян мақсад, вазифаларни ҳал қилиш учун таълимнинг усуллари, кўргазмалар ва техник воситалар иштироки) тушунилса, иккинчисида, билиш – билимларни пухта ўзлаштириш, яъни ушбу жараёнда ўқитувчи-ўқувчи ҳамкорлиги, ўқувчи томонидан ўқув жараёнини ўз онгида акс эттира олиши ва у сезги, идрок, тасаввур, тафаккур каби психик жараёнларда фойдаланиши билан боғлиқ жараён. Учинчиси, ижодий фаолият жараёнларининг ўзаро узвий мақсадли ҳамкорликдаги режалаштирилган фаолияти маҳсули сифатида қараш мумкин.

Ўқитиш мазмуни таълим мақсадларига бўйсунishi ва ўқитиш метод ва принциплари орқали ўқув жараёнида ўрганилиши ўқувчиларнинг танишиш, машқ қилиш ва қўллаш вазифалари методика тилида ўқитиш методлари, деб юритилади. Уларни “ўқитиш жараёнида қўлланадиган методлар” номи билан ҳам аталади. Бу методлар таълим мақсадларини рўёбга чиқариш воситалари бўлиши билан бирга, уларга ўқув материални ўзлаштириш босқичлари тарзида ҳам қараш мумкин.



Фойдаланилган адабиётлар

1. Суяров Н.Т. Использование регионального компонента на уроках изобразительного искусства 5-7 классов. Jackson ville Florida, USA. December 30 th 2021. – P.1-3. <https://conferencepublication.com>.
2. Suyarov N.T., Erkaev E.T. (2021). Implementation of national-regional component in the educational process in the republic of Uzbekistan. Current research journal of pedagogics. Impact factor: 5.7. (USA), 2 (08), Volume 01, Issue 06, Avgust, 2021. –P.117-121. (ISSN 2767-3278). (Ulrich's Periodicals Directory 18)
3. Ghiasi G., Larivière V., Sugimoto C.R. On the compliance of women engineers with a gendered scientific system // PLOS ONE. 2015.
4. Ганиева Г.Ж. Гендерные исследования в Центральной Азии. ЎзР ФА Шарқшунослик институти илмий тўплами. № 16 сон. Т. 2013, Б.131-136.
5. Кулиева Ш.Х., Каримова М.Н., Давлаткулова М.Х. (2014) Организация теоретических и практических занятий в процессе подготовки учителей профессионального образования на основе системного подхода. Молодой ученый №8, стр.804-807.
6. Умумий ўрта таълим ўқув дастури. Тасвирий санъат. //А.Сулаймонов ва б. Таълим тараққиёти 6-махсус сон. – Т.: "Шарқ" НМҚ, 1999. –Б.100-168.

**ЭЛЕМЕНТАР МАТЕМАТИКАНИ ЎҚИТИШ ЖАРАЁНИДА ОЛИЙ ТАЪЛИМ
МУАССАСАЛАРИ ТАЛАБАЛАРИНИ КОГНИТИВ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ
РИВОЖЛАНТИРИШ**

Нафасов Ғанишер Абдурашидович

Гулистон давлат университети "Математика" кафедраси доценти,

Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

E-mail: gnafov87@gmail.com Тел: +998976348787

ТДПУ профессори, н.ф.д. Б.С.Абдуллаева тақризи асосида

Аннотация. Ушбу мақолада элементар математикани ўқитиш жараёнида олий таълим муассасалари талабаларини когнитив



компетенциясини ривожлантириш мазмуни баён этлган ҳамда тажрибасинов асосида олинган натижаларнинг самарадорлик даражаси анқланган.

Калит сўзлар: *когнитив компетенция, исте'дод, мотивация, ижодкорлик, танқидий фикрлаш, муаммоларни ҳал қилиш.*

Аннотация. *В данной статье описывается содержание развития когнитивной компетентности студентов высших учебных заведений в процессе преподавания элементарной математики, а также степень эффективности результатов, полученных на основе экспериментаторов.*

Ключевые слова: *когнитивная компетентность, талант, мотивация, креативность, критическое мышление, решение проблем.*

Annotation. *This article describes the content of the development of cognitive competence of students of higher educational institutions in the process of teaching elementary mathematics, as well as the degree of effectiveness of the results obtained on the basis of experimenters.*

Key words: *cognitive competence, talent, motivation, creativity, critical thinking, problem solving.*

Кириш. Жаҳонда бўлажак математика ўқитувчиларини тайёрлашга бўлган бўлган эҳтиёж янада кучайди. Замонавий шарт-шароитларда касбий мустақил таълим ва шахсий ўсишни амалга ошириш, келгуси таълим йўналиши ва касбий эришиладиган мавқени лойиҳалаштиришга кодир ўқитувчиларни тайёрлаш, когнитив компетенцияни ривожлантириш бўйича илмий тадқиқотлар олиб бориш муҳим аҳамият касб этади.

Юртимизда бўлажак ўқитувчиларни элементар математика ўқитиш жараёнида илғор хорижий тажрибаларни ўрганган ҳолда, олий таълим муассасасилари талабаларини когнитив компетенциясини ривожлантириш, дидактик шарт-шароитларини ишлаб чиқиш, педагогик жараёнининг мазмуни, ривожлантириш мезонлари ва шаклланиш даражалари, метод, восита, тузилма, модели, педагогика олий таълим муассасасида бўлажак ўқитувчиларини элементар математикани ўқитиш жараёнида когнитив компетенцияларни ривожлантиришнинг назарий ва амалий асосларини ишлаб чиқиш муҳим аҳамият касб этади.



- **Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили.** Бўлажак математика ўқитувчиларини тайёрлаш билан боғлиқ муаммоларни ҳал этиш асосий йўналишларини кўриб чиқамиз.

Математика ўқитувчисини тайёрлаш сифатини ўрганиб, Т.И.Уткина [7;], уч даражали тузилмага бўлди: 1) абитуриент тузилма, 2) мутахассис тузилма, 3) ўқитувчи-тадқиқотчи тузилма. Тадқиқот ишида математика ва методик жиҳатлар бўйича математика ўқитувчисини тайёрлаш сифати кўрсаткичлари кўрсатилган. Тадқиқот ишида илмий-тадқиқот фаолиятда математика ўқитувчиси компетентлигига муҳим ўрин ажратилган, унинг тузилмасида мотивациявий, методологик ва рефлексив каби учта асосий ташкил қилувчилар кўрсатилган. Рефлексия “бўлажак ва ишлаётган математика ўқитувчисига нафақат илмий тизимни ривожлантиришга, балки методологик билимларни ривожлантириш, маданиятни тушуниш ва ижодий мустақил ривожланишга олиб келадиган мустақил ўқув, ўқув-тадқиқот ва касбий-тадқиқот фаолиятини лойиҳалаштириш ва олдиндан айта бера олишга имкон берадиган тадқиқот фаолияти сифатида кўриб чиқилади” [5; 183-б.]. Шу билан бирга, рефлексия методологик маданиятнинг асосий таркибий қисми ҳисобланади.

Т.И.Аринбеков ижодий фикрлашни шакллантириш воситаси сифатида қуриш учун планиметрик масалаларни ечиш жараёнида педагогика ОТМ талабалари тадқиқот фаолиятини ўрганган [2;]. Унинг фикрига кўра, ўқитиш жараёнини ташкил қилишда уч гуруҳдаги қобилиятни ривожлантириш йўналишида талабаларнинг индивидуал-психологик хусусиятларини ҳисобга олиш зарур: мотивациявий, мазмунли-жараёнли ва ташкилий-коммуникатив. Мотивациявий қобилиятлар орасида мустақил таълимга интилишга эътиборни қаратади.

- **Тадқиқот методологияси.** Элементар математика курси тушунчаларини абстраккланган турли даражаси, ўрганилаётган курс бўлимига кўра махсус рамзлардан фойдаланиш, чамбарчас ички фанлараро курс боғлиқликлари талабада математик тайёргарлик даражасини оширишга имкон берадиган билим, малака, тажрибаларнинг мустақил эгалланиши бўйича ҳаракатларни ўзлаштиришга қобилиятларни ривожлантиришда зарурият юзага келтиради.



Когнитив компетенциянинг устуворлиги кўпгина муаллифда гап юритади. Умумий таълим мазмунини модернизациялаш стратегияси муаллифлари турли ахборот манбаларидан олинган билимларни эгаллаш усулларини ўзлаштиришга асосланган мустақил билиш фаолияти соҳасида компетенцияни ажратади [6].

В.А.Болотов ва В.В.Сериков «компетентлик – бу шахсий ўз мавқеини, дунёда ўз ўрнини топишга имкон берадиган билимлар, малакалар, ўқиганликнинг мавжудлиги усуслидир, бунинг оқибатида таълим юқори мотивациялашган ва асл маънода шахсга йўналтирилган, шахсий салоҳиятнинг максимал даражада талаб қилинишини таъминловчи атрофдагилар билан шахснинг тан олинishi ва ўзи томонидан аҳамиятга эгаллигининг англаниши сифатида гавдаланади» деб таъкидлайди [3;].

Европа ҳамжамияти когнитив компетенцияни “таълим даражасини мунтазам оширишга тайёргарлик, шахсий салоҳиятни долзарблаштириш ва қўллашга эҳтиёж, мустақил янги билим ва малакаларни эгаллаш, мустақил ривожланишга қобилият” сифатида аниқлайди [4; 63-б.].

Контент-таҳлил шуни кўрсатадики, когнитив компетентликни аниқлаш учун асл тушунчалар бўлиб ё таълим даражасини мунтазам оширишга тайёргарлик, шахсий салоҳиятни долзарблаштириш ва қўллашга эҳтиёж, мустақил янги билим ва малакаларни эгаллаш, мустақил ривожланиш қобилиятига тайёрликда намоён бўладиган интеграл шахс хислати; ё билиш фаолияти компетенцияларининг эгалланиши хизмат қилишини кўрсатади. Когнитив компетенцияни аниқлаш учун асл тушунчани юқорида кўрсатилган фаолиятга тайёрликнинг ўзи, ё бу тайёргарликни таъминловчи таълим натижаси ташкил қилади. Бунда кўпгина муаллифлар шахснинг салоҳиятини қўллашга нисбатан эҳтиёжи, интилиши ва тайёрлиги ҳамда мустақил ривожланишга қобилиятини мажбурий шартлар деб ҳисоблайди.

- **Таҳлил ва натижалар.** *Фан мазмунини оптималлаштириш тамойили* элементар математикани ўқитиш мазмунига ечими усули эвристик ва ноэвристик усулларни, турли ечим усулларини жадал бириктирадиган, махсус эвристикаларни ишлатадиган турли даражали эвристик математик масалаларни киритиш заруриятдан иборат. Масалалар ўрганиладиган мавзу доирасида барча



асосий ахборотни қамраб олиши керак: изоҳлар ва ўхшашликлар, тенглама ва тенгсизликларни ечишда бир-бирига тенгликнинг бузилиши, асосий махсус эвристикалар. Мисол учун, "Рационал тенгламалар" мавзусини ўрганишда қуйидаги масалаларни киритиш мақсадга мувофиқдир:

1. Тенглама рационал илдизларини $6x^4 - 7x^3 - 6x^2 + 2x + 1 = 0$ танлаш гоёсидан фойдаланиб, уни ечинг.

2. Олдиндан керакли $x^4 + 2x^3 + 5x^2 + 4x - 12 = 0$ гуруҳни бажариб, чап қисмини қўпайтувчиларга бўлиб, тенгламани ечинг.

3. Мос келадиган алмаштиришлар ёрдамида тенгламани ечинг:

$(x-1)^4 - x^2 + 2x - 73 = 0$ ($t = (x-1)^2$ алмаштирамиз), $x(x+4)(x+5)(x+9) + 96 = 0$, ($t = x^2 + 9x$ алмаштирамиз), $2x^4 + x^3 - 11x^2 + x + 2 = 0$ ($t = x + \frac{1}{x}$ алмаштирамиз), $3x^4 - 2x^3 - 31x^2 + 10x + 75 = 0$ ($t = x - \frac{5}{x}$ алмаштирамиз), $2x^4 + x^2(x+2) - 3(x+2)^2 = 0$ ($t = \frac{x^2}{x+2}$ алмаштирамиз), $\frac{2x^2+8}{x} + \frac{2x}{x^2+3x+4} + 11 = 0$ ($t = x + \frac{4}{x}$ алмаштирамиз), $(x+3)^4 + (x+5)^4 = 16$ ($t = \frac{(x+3)+(x+5)}{2}$ алмаштирамиз).

4. Олдиндан тўлиқ квадратни ажратиб, тенгламани ечинг:

$$x^2 + \frac{9x^2}{(x-3)^2} = 7$$

5. Тенгламалар бир-бирига тенгми:

а) $(x^2-1)/(x-1)=5$ ва $x+1=5$ б) $\frac{x^2-1}{x-1}=2$ ва $x+1=2$?

жавобингизни асослаб беринг. Қандай ўзгартувчилар ҳисобига бегона илдиз ўзлаштирилади?

6. Тенгламалар бир-бирига тенгми:

а) $x^2-1=5(x-1)$ ва $x+1=5$; б) $x^4-1=3(x^2+1)$ ва $x^2-1=3$? Жавобингизни асосланг.

Креативлик тамойили бўлажак математика ўқитувчиларида янги гоёларни яратиш, оқилона ечим методларини излашга тайёрликни

ривожлантириш учун шарт-шароитларни яратишдан иборат. Масалалар янги белгиларни интеграциялаш учун очиқлик (турли математик тилларда масала шартлари ва талабларини бериш, масалани бир неча усуллар билан ечиш) ёки яқунланмаганлик (таърифланмаган талаблар билан масалалар, масалалар – кўп учрайдиган ҳоллар, масалалар - умумлашишлар) билан тавсифланади.

Мисол учун, “Логарифмик тенгсизликлар” мавзусини ўрганишда масала таклиф қилинади. “ $f(x) = \log_{a+2x}(x^2 - 2x)$ функцияси берилган. Тўртта турли” талабларни ўйлаб топинг ва юзага келган масалалардан ҳар бирини ечинг”. Талабларга мисоллар сифатида қуйидагиларни келтириш мумкин: 1) $f(x) \geq -1$ бўлса, $a = -3$ тенгсизликни ечинг. 2) a га нисбатан $f(x) = 0$ тенгламаси нечта ечимга эгаллигини аниқланг. 3) $f(x) > 0$ тенгсизликни ечинг. 4) Қандай a ларда $f(x) > 0$ тенгсизлиги дан олинган барча x ларда бажарилган.

Бир қанча усуллар билан ечиш талабига мисол келтирамиз. “Тенгламалар тизими” мавзусини ўрганишда масала таклиф қилинади:

Тенгламала системаини ечинг.

$$\begin{cases} \frac{2x^2}{1+x^2} = y \\ \frac{2y^2}{1+y^2} = z \\ \frac{2z^2}{1+z^2} = x \end{cases} \text{ Ҳеч бўлмаганда учта ечиш усулини топинг.}$$

Рефлексивлик тамойили элементар математикани ўқитиш мазмунига талабаларда масала ечимини излаш жараёнида ўз қийналишларини аниқлаш, уларни қайд этиш, қийналишларнинг намоён бўлиши сабабларини таҳлил қилиш, қийинчиликдан чиқишни лойиҳалаштириш, масалани ечишда қийинчиликни бартараф этиш бўйича режани қуриш малакасини шакллантиришга ёрдам берадиган масалаларни киритиш заруриятдан иборат. Масалалар хатоларга эга ва фикрлар мантиғи тили ёки предикатлар мантиғи тили ёрдамидар уларни аниқлаш, кейин эса тўғрилашни талаб қилувчи тайёр ечимларга эга. Бу масалалар икки шаклда берилган: ўқитувчи билан берилган ёки талаба билан қурилади.



Мисол учун, “Иррационал тенгламалар” мавзусини ўрганишда қуйидаги ечимда хатоларни аниқлаш ва тўғрилаш тавсия этилади:

$$\sqrt{x^4(x-1)} + 2x^2 = 0;$$

$$x^2\sqrt{x-1} + 2x^2 = 0;$$

$$x^2(\sqrt{x-1} + 2) = 0;$$

$$x^2 = 0; \quad \text{Жавоб: } x = 0.$$

$$x = 0.$$

Хатони юзага келтирувчи масалага мисол келтирамиз. “Иррационал тенгламалар” мавзусини ўрганишда масала таклиф қилинади. “Иккала тенглама қисмини бир хил ифодага бўлишда фақат ё илдишни йўқотиш, ё бир-бирига тенглигини сақлаб қолиш мумкин деган тасдиқ тўғрими? Агар бу тўғри деб ҳисобласангиз, унда қуйидаги икки тенгламага қаранг $x^2\sqrt{x-2} = \sqrt{x-2}$ ва $x^2 = 1$. Тенгламалардан ҳар бирини ечинг ва $\sqrt{x-2}$ га бўлиш нимага олиб келганлигини изоҳланг.

Истиқболлилик тамойили элементар математикани ўқитиш мазмунга бўлажак математика ўқитувчиларида ўз ўқув-билиш фаолиятини режалаштириш, масалани ечиш жараёнидаги аҳтимол қийинчиликларни кўра олиш, ўрганиладиган мавзу доирасида эгалланадиган билимлардан фойдаланиш истиқболларини аниқлаш малакаларини шакллантиришга имкон берадиган турли даражали эвристик математик масалаларни киритишнинг мақсадга мувофиқлигидан иборат.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Абдуллаева Б.С. Фанлараро алоқадорликнинг методологик-дидактик асослари: Пед. фан. док. дисс... . –Тошкент: ТДПУ, 2006. – 263 бет.
2. Антоновская В.В. Реализация профессионально-педагогической направленности обучения элементарной математике в педвузе на примере курса "Стереометрия": Дис. ... канд. пед. наук. – Архангельск, 2004. – 199 с.
3. Болотов В.А. Компетентностная модель: от идеи к образовательной программе // Педагогика. 2003. – № 10. – С. 8-14.



4. Осипова Л.А. Информационно-образовательные проекты как средство формирования у студентов когнитивной компетентности: Дис. ... канд. пед. наук. – Брянск, 2008. – 146 с.
5. Стойлова Л.П. Бошланғич математика курси асослари: Педагогика билим юртлари ўқувчилари учун. – Т.: Ўқитувчи, 1991. – 336 б.
6. Турсункулов С. Т ва бошқалар. Ўқитувчиларнинг касбий маҳорат ва компетентлигини ривожлантириш. – Т.: Сано-стандарт, 2012. – 172 б.
7. Уткина Т.И. Теоретические основы управления качеством подготовки учителя математики: Дис. ... док. пед. наук. – Москва, 2005. – 396.

О‘QUVCHILARNING IJODKORLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

*NamDU (PhD,dotsent). **Nabiyev A.B***

*NamDU Tayanch doktoranti. **Usmonov M.A***

*Talaba: **Botirjanov A.A***

***Annotatsiya:** Insonning har qanday sohadagi, jumladan, ijodiy faoliyatdagi yutug‘i eng avvalo undagi mavjud qobiliyatlarga bog‘liq ekanligi sir emas. Chunki qobiliyat – insonning ma’lum ishlarni boshqalarga va boshqa ishlarga nisbatan tez va qulay amalga oshirishiga imkon beruvchga o‘rgatish*

***Kalit so‘z:** Ijodiy qobiliyat, pedagogik jihat, ijodkorlik, Ixtiro, Ratsionalizatorlik taklifi.*

Ijodiy faoliyat yoki **ijodkorlik faoliyati** esa ancha keng ma’nodagi tushunchadir. Bu faoliyat mehnatning ijodiy yo‘nalishi (mehnatni tashkil etish, uning mazmuni, usullarini tadqiq etish) bilan tavsiflanadi. Ijodiy faoliyat echimi ilgari ma’lum bo‘lmagan masalalarni qo‘yishni yoki fikrlarni shakllantirishni taqozo etadi. Muammoni echishga qaratilgan ijodiy faoliyat muammoning echimlarini topish, taqqoslash va tanlash – izlanuvchanlik ko‘rinishiga egadir [6].

Ma’lumki, ixtirochilik, ratsionalizatorlik taklifi – ijodiy faoliyatning, ijodkorlikning muhim ko‘rinishidir. Ixtiro deganda xalq xo‘jaligi yoki mamlakat mudofaasi uchun foydali bo‘lgan, tubdan farq qiluvchi texnik echimga ega bo‘lgan



yangilik tushuniladi. Ratsionalizatorlik taklifi esa ilgari ma'lum bo'lgan ixtirolarni ma'lum bir korxonada, muassasa faoliyatiga joriy etish bilan bog'liq bo'lgan, yuqori samara beradigan (materiallardan, vaqtdan ish kuchidan, iqtisod qilishga yoki mahsulot sifatini oshirishga qaratilgan) yangilikdan iborat [7]. SHu boisdan bo'lsa kerak ijodkorlik masalasi ko'pdan beri tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Turli vaqtlarda turli soha tadqiqotchilari, masalan, pedagoglar, psixologlar, fiziologlar, sotsiologlar va boshqalar ijodiy faoliyat jarayonining turli aspektlarini – qirralarini o'rgandilar va bu sohaning o'ziga xos qonuniyatlarini ochdilar. Masalan, rus olimlari I.P.Pavlov va I.M.Sechenovlarning ta'limotiga ko'ra, ijodkorlik fiziologik-psixologik asosga ega bo'lib, o'ziga xos murakkab psixologik jarayonni tashkil etadi. Fiziologlarning nuqtai nazaricha, ijodiy g'oya inson miya-asab faoliyatining yangi tizimi hisoblanadi. I.P.Pavlovning aniqlashicha, oliy miya-asab tizimi tashqi voqea-hodisalarni va turli narsalarni faqatgina qabul qiluvchigina emas, balki ularni analitik-sintetik tahlil etish xususiyatiga ham egadir [5]. Buning natijasida turli xil voqea-hodisalarning, buyumlarning farqini, alohida tomonlarini, o'ziga xos xususiyatlarini, shartli bog'liqlik tomonlarini ajratish imkoniyati yuzaga keladi. Bu esa o'z navbatida insonga buyum va hodisalardagi yangi o'xshashliklarni ilg'ay olish, oldindan ma'lum bo'lgan tushunchalar asosida ularga turli xil yangicha qarashlarni yuzaga keltirishda qo'l keladi. Bunday qarashlarning vujudga kelishi esa turli ob'ektlar va boshqa buyumlarni loyihalash, tayyorlash jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan ijodiy faoliyat uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Umuman olganda, ijodiy faoliyat yoki ijodkorlik nihoyatda keng tushuncha bo'lib, u ilmiy, badiiy, texnik, amaliy ijodkorlik kabi sohalarga bo'linib ketadi. Ijodiy faoliyatning bu sohalari umumiy asosga ega bo'lgan holda o'ziga xos xususiyatlarga ham egadir. Jumladan texnik ijodkorlik ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, atoqli psixolog S.L.Rubinshteyn ixtirochilarning faoliyatini tahlil etib, shunday fikr bildirgan edi: "Ixtirochilarning boshqa aqliy faoliyatlardan ajratib turadigan xususiyati shundan iboratki, bunda ma'lum muammoni hal etadigan aniq buyum, mexanizm yoki usulni yaratish turadi. Ixtirochining ijodiy ishini o'ziga xosligi voqea va hodisalar jarayoniga qandaydir yangilik kiritishi bilan aniqlanadi" [8]. Ijodkorlik jarayonida insonning asab-miya tizimiga xos bo'lgan, mavjud vaqtinchalik ma'lumotlarni umumlashtirishga va



yangilarini yaratishga imkon beradigan xususiyatlari yaqqol namoyon bo’ladi. V.S.Vasileyskiy, G.V.Kiriya, A.N.Luk, E.A.Mileryan, B.M.Teplov, P.M.YAkobson kabi psixologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko’ra ijodiy jarayon o’ziga xos ma’lum qonuniyatlar asosida yuz beradi. Jumladan P.M.YAkobson ham ixtirochilarning faoliyatini o’rganar ekan, “har qanday kutilmagan ichki chetlanishlar ma’lum qonuniyatlar asosida yuzaga keladi”, - degan fikrni bildirgan edi [9]. Akademik B.Kedrovning yozishicha, ijodkorlik – bilish jarayonida inson ongida yuzaga keladigan psixologik to’siqlarni engib o’tishdan iborat [1].

SHunday qilib, ijodiy faoliyat favqulodda murakkab psixologik jarayon bo’lib, bir qator ichki va tashqi, ob’ektiv va sub’ektiv omillar, xususiyatlari bilan ifodalanadi. Bularga ijodiy jarayonning turli bosqichlarida aqliy faoliyatning, ichki tuyg’u (intuitsiya) va hayolot (fantaziya)ning rivojlanganligi qay darajada ekanligi kabilarni ko’rsatish mumkin.

Insonning har qanday sohadagi, jumladan, ijodiy faoliyatdagi yutug’i eng avvalo undagi mavjud qobiliyatlarga bog’liq ekanligi sir emas. Chunki qobiliyat – insonning ma’lum ishlarni boshqalarga va boshqa ishlarga nisbatan tez va qulay amalga oshirishiga imkon beruvchi o’ziga xos shaxsiy psixologik xususiyatidir.

Pedagogika va psixologiya fanlaridan ma’lumki, qobiliyat insonda tug’ma holda yuzaga keladi. Keyinchalik biror faoliyat orqali bu qobiliyatlar shakllantiriladi va rivojlantiriladi. Ijodiy qobiliyat, bu qobiliyatning darajasi, uni rivojlantirish har bir insonning shaxsiy ruhiy holati, tashabbuskorligi, mustaqilligi bilan chambarchas bog’liqdir. Ayrim tadqiqotchilar ijodkorlikni axloqiy va g’oyaviy qarashlarni tez o’zlashtirish imkonini beradi, deb ta’kidlaydilar. Demak, yuqoridagilardan ko’rinadiki, o’quvchilarning ijodiy ishlarini, ijodiy faoliyatini tashkil etish murakkab jarayon bo’lib, bu jarayonning o’ziga xos pedagogik va psixologik jihatlari, tomonlari mavjuddir. Jumladan, psixologik jihat insondagi ma’lum ijodiy qobiliyatning yuzaga kelishi va rivojlanishi (masalan, biror fikrni o’zgartirish, boshqa sohada qo’llay olish; muammoni ko’ra olish va baholash; ob’ektning tuzilishini idrok qilish; ma’lum narsalarni chetlab o’tib yangicha yondashish usullarini yaratish; standart holatni yangicha ko’ra olish; hodisalardagi yangi bog’liqliklarni topish va h.) dan iborat bo’lsa, pedagogik jihat muayyan ijodiy faoliyatga jalb etish, bu faoliyatning mazmuni, uni



tashkil etish usullari va sharoitlarini ishlab chiqish, bu faoliyatning insonga ko'rsatgan ta'sirini o'rganishdan iborat. YUqorida ta'kidlanganidek, ijodkorlik tushunchasi keng qamrovli bo'lib, ijodkorlik deganda insonning ehtiyojlardan kelib chiqqan holda tabiiy va ma'naviy dunyoni o'zgartirish faoliyati tushuniladi. Demak, ijodkorlik insonning yangilik yaratish, ilgari mavjud bo'lmagan narsalarni yaratish, qonuniyatlarni ochish, ularni sifat jihatdan yangilash sohasidagi faoliyatidir. Biz o'quvchilarning ijodkorlik faoliyati deganda aynan ularning yangilik yoki uning elementlarini yaratish va uni qo'llashga oid faoliyatini ifodalashni tushunamiz [2].

Ijodkorlikka bo'lgan ehtiyoj, psixofiziologik jihatdan qaralganda, o'z rivojlanishida bir nechta bosqichlarda amalga oshadi. Bulardan birinchisi mayl bo'lib, u ehtiyojning eng sodda shakli hisoblanadi va inson tomonidan ongli boshqariladi. Ikkinchi, nisbatan yuqoriroq rivojlanish bosqichi bo'lgan havas ham inson tomonidan ongli boshqarilib, u shaxsning ma'lum buyum yoki hodisaga nisbatan munosabatlari majmuasini ifodalaydi. Uchinchi, eng murakkab bosqich bo'lgan qiziqish esa xohish va u bilan bog'liq bo'lgan tushunchalar asosida yuzaga keladi. Qiziqish hayotdagi tashqi ta'sirlar, shaxs faoliyati hamda ta'lim-tarbiya jarayoni ta'sirida shakllanib boradi. Bu holatlar psixologik omillar – diqqat, idrok, tushuncha, xotira, fikrlash, sezgi va iroda xislatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatib, shaxsning shakllanishida alohida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bir qator olimlarning tadqiqotlari natijalariga ko'ra ixtirochilik g'oyalarini ishlab chiqishdan to rasmiylashtirishgacha bo'lgan davrni amalga oshirishda, undagi jarayonlarning muhimligi, murakkabligi va ahamiyatiga bog'liq holda fikrlash jarayoni turli davrlarda amalga oshishi aniqlangan. Bu o'rinda eng katta qiyinchiliklar aniq, haqiqatda mavjud buyum va ko'rsatkichlardan abstrakt, yaratilajak mavhum modellarga o'tish va nazariy tajriba-sinov ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'ladi.

Mana shu ko'rsatmalarni bevosita o'quvchilar faoliyatiga ham tatbiq etish mumkin. O'quvchilar texnologiya fani mashg'ulotlarida materiallarga ishlov berish jarayonida buyumlarni loyihalash, konstruksiyalash, modellashtirish ishlarini bajaradi. Bunday vaziyatlarda o'quvchilardan mustaqil fikrlash, mustaqil ishlay olish, ijodkorlik talab qilinadi. O'quvchilar o'zlari yaratayotgan buyumlarni kundalik



hayotdagi o'рни, ahamiyati, yaratishdan maqsadi, uni takomillashtirish masalalari yuzasidan ham mustaqil fikr yurita olishlari lozim. Mana shu holat o'quvchilarida mustaqil fikrlash, o'z qobiliyatlarini imkon darajasida namoyon etish mehnatga ijodiy yondoshish, yaratuvchanlik ko'nikma va malakalari shakllantirilsa, keyingi sinflarda ijodiy ishlarda uchraydigan muammolarni osongina bartaraf eta oladilar. O'quvchilar yuqori sinflarda murakkab buyumlarni loyihalashda, konstruksiyalashda, modellashtirishda texnologiya darslarida 5-7-sinflarda olgan bilim, ko'nikma va malakalari yordamida mustaqil ijod qila odilar. Bu esa bozor iqtisodiyoti davrida ishlab chiqarishning asosiy talabi ekanligini anglatadi.

Mazkur muammo bo'yicha adabiyotlarni, dissertatsiyalarni o'rganar ekanmiz, ta'lim-tarbiya ishlari jarayonida o'quvchilarda ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari deyarli yuz yildan beri muhim pedagogik muammolardan biri sifatida o'rganib kelinayotganligini ko'rish mumkin. Ayniqsa, 1950-60 yillarda amerikalik olimlar tomonidan mazkur masala keng o'rganilgan. Jumladan D.J.Gilford, M.Vollach, R.Kogan, P.Torrens va boshqalar tomonidan o'quvchilarda ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha ayrim nazariyalar yaratilgan edi. O'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida o'tgan asrning 60-yillarida amerikalik tadqiqotchilar shunday xulosaga keladilar: ijodiy qobiliyatlar ta'lim olishdagi qobiliyatlarga o'xshamaydi, ya'ni sinonim emas. SHu bilan birga ta'lim olishdagi qobiliyat va ijodiy qobiliyatni insonning umumiy aqliy salohiyati bilan bog'likligi ham bir xil emas. Bundan kelib chiqqan holda Gilford ijodkorlik qobiliyatini universal qobiliyat sifatida qaraydi va uni *kreativ* degan nom bilan ataydi. Gilford insonning ijodiy fikrlash jarayonini ikkita tipga ajratadi:

1. *Konvergent fikrlash (tafakkur qilish)*. Bu faoliyat turida masala mohiyatini izchil, mantiqiy o'rganish orqali yagona echim topiladi.

2. *Divergent fikrlash (tafakkur qilish)*. Bu faoliyat turida masalaga bir necha muqobil echimlar, kutilmagan holatlar, ichki hissiyot asosida echim topiladi [12].

Gilfordning fikricha ijodkorlik faqatgina talantli, buyuk shaxslargagina emas, balki, oddiy, normal holdagi har bir insonga xos bo'lgan xususiyatdir. Bu fikrni o'zlarining ilmiy tadqiqotlarida G.YA.Bush, D.B.Bogoyaavlenskaya, L.A.Volovich, M.G.Davletshin, F.Djumaboeva, T.V.Kudryav-sev, A.N.Luk, Z.T.Nishonova kabi



tadqiqotchilar ham tasdiqlagan. Taniqli o‘zbek psixolog olimi E.G‘.G‘ozievning fikricha ijodkorlik ishlarida tafakkurning mustaqilligi katta ahamiyatga ega. “Tafakkurning mustaqilligi deganda, - deb ta’kidlaydi professor E.G‘.G‘oziev, - kishining shaxsiy tashabbusi bilan o‘z oldiga konkret maqsad, ya’ni vazifalar qo‘ya bilishi, ular yuzasidan amaliy va ilmiy xarakterdagi faraz (gipoteza)lar qilish, natijani ko‘z oldiga keltira olish, qo‘yilgan vazifani hech kimning ko‘magisiz, ko‘rsatmasisiz, o‘zining aqliy izlanishi tufayli turli yo‘l, usul va vositalar topib mustaqil ravishda hal qilishdan iborat aqliy qobiliyatini tushunish kerak” [11]. Taniqli psixolog T.V.Kudryavsevning fikricha, texnik tafakkur texnik ijodkorlikning asosini tashkil etadi. U texnik tafakkurni masala mohiyatini anglash yoki tushunish, uni hayolan tasavvur qilish va amalda bajara olish qobiliyatlaridan iborat, deb hisoblaydi [3]. Demak, yuqoridagi fikrlarga asoslanib, shuni aytish mumkinki, ijodkorlik faoliyatining natijasi bolalar va kattalardagi tafakkur doirasiga bog‘liq ekan. Tafakkur doirasi qancha keng bo‘lsa, mustaqil bo‘lsa, ijodkorlik faoliyati ham shuncha yuqori saviyada bo‘ladi.

Amerikalik yana bir tadqiqotchi Pol Torrens esa ijodkorlikni etishmovchiliklarni bartaraf etish vositasi sifatida qaraydi va ijodkorlikning quyidagi bosqichlarini ko‘rsatadi: muammoni tushunish, anglash; muammoga echim izlash; muammo echimini topishga qaratilgan g‘oyani yaratish va ifodalash; g‘oyani moslashtirish; natijani topish [16].

Mazkur g‘oyalarni ijodiy davom ettirgan holda keyingi paytlarda ham bir guruh amerikalik tadqiqotchilar tomonidan o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari o‘rganib kelinmoqda. Jumladan Kolorado davlat universiteti tadqiqotchisi M.A.Morrel o‘zining ilmiy ishida yoshlarda ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish haqida fikr yuritib, Jan Peadjetning “Kognitiv rivojlanish” nazariyasiga asoslangan holda “O‘quvchilarning ijodkorlik ko‘nikmalari ularning kognitiv rivojlanib borishiga bog‘liq” deb, hisoblaydi [15]. YA’ni Peadjetning “Kognitiv rivojlanish” nazariyasi bo‘yicha bolalar bilimlarni o‘zlarining shaxsiy tajribalarini tushunish orqali egallay boshlaydi. Bola o‘sgan sari uning o‘z tajribalaridan olgan bilim va ko‘nikmalari hamda tushunishlariga bo‘lgan qobiliyati o‘zgarib, rivojlanib boradi. Har bir bola o‘zining tajribasi bilan anglab etish qobiliyatining interfaol almashinuvi natijasida ulg‘ayib boradi.



O’quvchilar tomonidan tayyorlanadigan buyumlarni bunday oddiydan murakkabga qarab boruvchi xususiyat asosida darajalarga bo’lib olinishi ularning o’smirlik davridagi aqliy va jismoniy rivojlanish jarayonidagi o’zgarishlarga mos holda besh xil yo’nalish bo’yicha amaliy, ijodiy mashg’ulotlarni tashkil etish imkonini beradi. Bu esa o’quvchilarning zerikmay, toliqmay, o’z imkoniyatlari darajasida mustaqil va ijodiy ishlariga katta yordam beradi.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarni tahlil qilar ekanmiz, ularda yoritilgan fikrlarni XIX-asrda yashagan mashhur pedagog va ma’rifatparvar bobomiz A.Fitratning “Beriladigan bilimlarning bola yoshi va bilim darajasiga mos kelishi, bolaning bilimlarni ongli o’zlashtirishga erishishi, bilimning bolaga moddiy va ma’naviy foyda keltirishi” kerakligi to’g’risida aytgan o’g’itlari bilan hamohang ekanligini ko’rishimiz mumkin [4]. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, bolalarni o’qitish, tarbiyalash, xususan, ularni ijodkorlik ruhida tarbiyalash – umuminsoniy ish bo’lib, bu makon, millat, irq va jins tanlamaydi. U har bir insonga, har bir bolaga xos, taalluqli bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kedrov B.V. O tvorchestve nauke i texnike. M., 1989. – 172 s.
2. Karimov I. Mehnat ta’limida o’quvchilar ijodkorlik faoliyatini tashkil etishning uyg’unlashgan texnologiyalari: Monografiya. T.: Navro’z, 2015. – 172 b.
3. Kudryavsev T.V. Psixologiya texnicheskogo myshleniya. M., 1975.
4. Ma’naviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomlar, adiblar). – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001. – 320 b.
5. Pavlov I.P. Dvadsatiletniy opyt ob’ektivnogo izucheniya vysshey nervnoy sistemy jivotnyx. – M., 1973.
6. Pedagogika: Bolshaya sovremennaya ensiklopediya. /Sost. E.S.Rapatsevich. – Minsk: Sovremennoe slovo, 2005. – 720 s.
7. Politexnichekiy slovar. M.: Sov.ensiklopediya, 1989. – 656 s.



ДАРСНИНГ СИФАТИ ВА САМАРАДОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛОВЧИ СУБЪЕКТЛАР

NamDU (PhD,dotsent). Nabiyev A.B

NamDU Tayanch doktoranti. Usmonov M.A

Talaba: Botirjanov A.A

Анотация: Маколада таълим-тарбия жараёни давомида дарснинг сифати ва самарадорлигини оширишни таъминлаш масалалари ёритилган

Таянч сўз ва иборалар: таълим-тарбия жараёни, дарснинг сифати, дарснинг самарадорлигини таъминлаш, асосий субъектдир

Annotation: The article addresses the issues of improving the quality and effectiveness of the lesson during the educational process

Keywords and expressions: the educational process, the quality of the lesson, the effectiveness of the lesson, is the main subject

Аннотации: В статье рассматриваются вопросы обеспечения качества и эффективности урока в учебном процессе

Ключевые слова и выражения: учебный процесс, качество урока, эффективность урока, это основной предмет

Ҳозирги кунда дунёнинг ривожланган ва ривожланаётган мамлакатлари ўзларининг келажаги бўлган ёш авлоднинг умумий ўрта таълим даражасидаги таълим турини қамраб олиш каби муаммони ҳал қилиш бўсағасида турган бир вақтда мамлакатимизда ушбу муаммо аллақачон ўз ечимини топган. Мамлакатимизда ёш авлодни умумий ўрта таълим мактабларига таълим-тарбия олишга жалб этиш даражаси 99,7 % ни ташкил этади.

Таълим тизимида, хусусан мамлакатимизнинг таълим йўналишининг навбатдаги устувор вазифаси таълим-тарбия жараёнини ташкил этишда сифат ва самарадорликни янада юқори босқичга кўтаришдан иборат бўлган долзарб муаммо эканлиги эътироф этилган.

Ушбу долзарб муаммони изчил ҳал этиш учун салоҳиятли, ижодкор ва ташкилотчи - педагог, яъни яхши муаллим, ўқитувчи ва тарбиячининг самарали



меҳнатига боғлиқ. Ушбу ишнинг мақсади таълим тизими ходимларининг виждонан меҳнат қилиши, ёш авлодни тарбиялашда масъулиятлилик ва дарсни сифати ва самарадорлигини оширишда юксак эътибор билан фаолият кўрсатишларидан иборат.

Мамлакатимиз халқ таълими тизимида ҳам сифатли таълимни ташкил этиш ва ўқув самарадорлигини янада юқори босқичга кўтариш мақсадида “Дарс муқаддас”, “Ўрган-ўргат”, “Соғлом муҳит - соғлом жамоа”, “Узлуксизлик ва узвийлик”, “Яхши муаллим - сифатли таълим” каби инновацион тадбирлар комплекси ўқув жараёнига жорий этилган.

Халқ таълими вазирининг 2015 йил 25 мартдаги 02-655-сонли хати ва иловасида яхши муаллим қандай сифатларга эга бўлиши, жумладан ўқитувчи ўз фани бўйича Давлат таълим стандарти талаблари даражасида касбий тайёргарликка эга бўлиши, дарс жараёнида педагогик ва ахборот -коммуникация технологиялари воситаларидан ўз ўрнида самарали фойдалана олиши, дарсга қўйилган мақсадларга эришиши, ҳар бир дарсга масъулият билан ёндашиб, пухта тайёргарлик кўрган ҳолда кириши, ўқитувчи дарсини кузатишга келган компетентли комиссия аъзолари олдида ўзини йўқотиб қўймаслиги, фан тўғарақларини ташкил этиш, инсон ва устоз сифатида ўз ўқувчилари ҳамда ҳамкасбларига шахсий намуна бўлиши, яъни жамиятда ва жамоада обрў - эътиборга эга бўлиши лозимлиги баён этилган.

Сифатли таълимда эса кўп жиҳатдан қуйидаги омилларга боғлиқ бўлиб, унда ўқитувчининг дарсга пухта тайёргарлиги, ўқув йили бошланиши олдида ДТС, ўқув дастури, ўқув режа ҳамда уларга берилган тушунтириш хатларини ўрганиб чиқиши, ўқув фанига оид янги илмий ва методик адабиётларнинг мазмуни билан танишиб чиқиши лозим бўлади.

Фанига оид тегишли кўرғазмалар ва дидактик материаллар, ўқув - жиҳозларини тайёрлаш, дарс ишланмаси (конспекти) тайёрлаш, илғор ўқитувчиларнинг иш тажрибаларини ўрганиш ва таҳлил қилиш орқали ўз билимини кенгайтириш, АКТ воситаларидан фойдаланиш, электрон дарсликлар, матн муҳаррирлари, “ZiyoNet” ахборот таълим порталига жойланган



маълумотлардан самарали фойдаланиш малакаларига эга бўлишлари талаб этилади.

Сифатли таълимнинг яна бир жиҳати, ўқитувчиларнинг ўзаро тажриба алмашиш ва илғор иш тажрибаларини фаолиятларида жорий этиб боришидир.

Меҳнат таълими амалиётида кўпинча комбинациялашган (аралаш) дарслардан фойдаланилади. Бу дарснинг ўзига хос хусусиятлари шуки, унда бир вақтнинг ўзида аҳамияти ҳар хил бўлган, бир қанча таълимий вазифалар бажарилади, жумладан халқ таълими тизимида интернет ресурсларидан онлайн режимида очик ахборотлардан фойдаланишни кун тартибига қўйиш зарур. Ўқувчиларга дарс жараёнида турли хил график тасвирлар, схемалар, расмлар ва шу кабилар кўрсатилиши лозим бўлади. Масалан: график тасвирда молекулалар тузилишини уч ўлчамли шаклда тасвирлаш ва намойиш этиш кўриш имконини беради. Хулоса қилиб айтганда, шу каби мавзуларни “яхши муаллим” томонидан ўқувчиларга баён этишда деворий кўرғазмалар куруллар, техник воситалар ва ахборот коммуникация технологиялари воситаларидан унумли фойдаланиш, ўқувчиларнинг фикрлаш қобилияти ривожланишда, таълим-тарбия жараёнини янги сифат даражасига кўтаришда муҳим аҳамиятга эга бўлади. Демак, яхши муаллим таълим-тарбия жараёнида дарс сифати ва самарадорлигини таъминловчи, “сифатли таълим” берувчи асосий субъектдир.

Фойдаланган адабиётлар

- 1.Р.Жўраев, М.Юлдашев, И.Рахмонқулова, А.Бахромов, А.Зокиров. Педагог кадрлар малакасини узлуксиз ошириш механизмини такомиллаштириш. Ўқув-методик қўлланма. Тошкент: “Адабиёт учқунлари” 2014 йил 160 бет.
- 2.”Мақтаб таълимини ривожлантиришнинг замонавий аспекти” Халқ таълими вазирлигининг худудий йиғилишининг тезислар тўплами. Ноябрь-декабрь. Тошкент: 2009 йил 50 бет.
- 3.Н.Аҳмедова. Умумий ўрта таълим муассасалари фаолияти самарадорлигини ошириш технологиялари.”Наманган” нашрети. 2014 йил 124 бет.



**АВАРИЯ-ҚУТҚАРУВ ВА БОШҚА КЕЧИКТИРИБ БЎЛМАЙДИГАН
ИШЛАРНИ БАЖАРИШДА ЁНГИН-ҚУТҚАРУВ ТЕХНИКАЛАРИГА
ТАЪСИР КЎРСАТАДИГАН ФАВҚУЛОДДА ВАЗИЯТ ТУРЛАРИ**

М.Х. Тинибеков

*Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда вазиятлар вазирлиги академияси
ҳузуридаги Фуқаро муҳофазаси институти ўқитувчиси*

Д. Абдурахмонов

*Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда вазиятлар вазирлиги академияси
ҳузуридаги Фуқаро муҳофазаси институти 2-босқич магистранти*

Аннотация: мақолада республикаимиз ҳудудида содир бўлиши мумкин бўлган фавқулодда вазиятлар турлари ва уларнинг ёнгин-қутқарув машиналари фаолиятига таъсири ёритилган. Фавқулодда вазиятларнинг ҳар бир турининг ёнгин-қутқарув машиналарига эҳтимолий таъсиридан келиб чиқиб, уларни фавқулодда вазиятларнинг шикастловчи омилларига мос тарзда ишлаб чиқиш бўйича тавсиялар берилган.

Калит сўзлар: фавқулодда вазият, табиий хусусиятли фавқулодда вазиятлар, техноген хусусиятли фавқулодда вазиятлар, ёнгин-қутқарув машиналари, шикастловчи омиллар.

Аннотация: в статье освещена возможные чрезвычайные ситуации на территории республики и их отрицательное влияние на пожарно-спасательные автомашины. Указана необходимость совершенствования с целью повышения устойчивости пожарно-спасательных машин на поражающие факторы чрезвычайных ситуаций.

Ключевые слова: чрезвычайные ситуации, чрезвычайные ситуации природного характера, чрезвычайные ситуации техногенного характера, пожарно-спасательные машины, поражающие факторы.

Республикаимиз ҳудудида табиий, техноген ва экологик хусусиятли фавқулодда вазиятлар содир бўлиши мумкин. Ушбу фавқулодда вазиятларнинг ҳар бири авария қутқарув ва бошқа кечиктириб бўлмайдиган ишларга ҳамда бу



ишларга жалб этилган ёнғин-қутқарув машиналари фаолиятига қандайдир даражада ўз таъсирини кўрсатади. Бундай таъсирларни ўрганиш қутқарув ишларини олиб боришда муҳим аҳамиятга эга [1].

Табиий хусусиятли фавқулодда вазиятлар. Табиий хусусиятдаги фавқулодда вазиятлар геологик хавфли ҳодисалар, гидрометеорологик хавфли ҳодисалар ва фавқулодда эпидемиологик, эпизоотик ва эпифитотик вазиятларга бўлинади [2]. Ўз навбатида, геологик хавфли ҳодисалар қуйидагиларга бўлинади:

одамлар ўлимига, маъмурий-ишлаб чиқариш биноларининг, технологик асбоб-ускуналарнинг, энергия таъминоти, транспорт коммуникациялари ва инфратузилма тизимларининг, ижтимоий йўналишдаги биноларнинг ва уй-жойларнинг турлича даражада бузилишига, ишлаб чиқариш ва одамлар ҳаёт фаолиятининг издан чиқишига олиб келган zilzilalar;

одамлар ўлимига олиб келган ёки олиб келиши мумкин бўлган ва хавфли ҳудуддан одамларни вақтинча кўчиришни ёки хавфсиз жойларга доимий яшаш учун кўчиришни талаб қилувчи ер кўчишлари, тоғ ўпирилишлари ва бошқа хавфли геологик ҳодисалар.

одамлар ўлимига, аҳоли пунктларини, баъзи саноат ва қишлоқ хўжалиги объектларини сув босишига, инфратузилмалар ва транспорт коммуникациялари, ишлаб чиқариш ва одамлар ҳаёт фаолияти бузилишига олиб келган ва шопилинч кўчириш тадбирлари ўтказилишини талаб қиладиган сув тошқинлари, сув тўпланиши ва селлар;

Фавқулодда эпидемиологик, эпизоотик ва эпифитотик вазиятлар:

ўлат, вабо, сарғайма иситма каби сийрак учрайдиган касалликларни келтириб чиқарган алоҳида хавфли инфекциялар;

одамларда учрайдиган юқумли касалликлар риккетсиялар — эпидемик тошмали терлама, Бриль касаллиги, Ку-иситма;

зооноз инфекциялар — Сибирь яраси, қутуриш;

вирусли инфекциялар — СПИД;

эпидемия — алоҳида хавфли инфекцияларга тегишли бўлмаган, юқиш манбаи битта ёки юқиш омили бир хил бўлган одамларнинг гуруҳ бўлиб юқумли касалланиши, бир аҳоли пунктида — 50 киши ва ундан ортиқ;



аниқланмаган этиология билан гуруҳ бўлиб касалланиш — 20 киши ва ундан ортиқ;

ташхиси аниқланмаган безгак касаллиги — 15 киши ва ундан ортиқ;

ўлим ёки касалланиш даражаси ўртача статистик даражадан 3 баравар ва ундан ортиқ бўлган вазият;

захарли моддалар билан захарланиш — жабрланганлар сони — 10 киши, вафот этганлар сони — 2 киши ва ундан ортиқ;

озик-овқатдан оммавий захарланиш — жабрланганлар сони — 10 киши, вафот этганлар сони — 2 киши ва ундан ортиқ;

эпизоотия — ҳайвонларнинг оммавий касалланиши ёки нобуд бўлиши;

эпифитотия — ўсимликларнинг оммавий нобуд бўлиши.

Техноген фавқулодда вазиятлар. Техноген хусусиятли фавқулодда вазиятларга тран спорт авариялари ва ҳалокатлари, кимёвий хавфли объектлардаги авариялар, ёнғин-портлаш хавфи бўлган объектлардаги авариялар, энергетика ва коммунал тизимлардаги авариялар, бино конструкцияларининг тўсатдан бузилиши, радиоактив ва бошқа хавфли ҳамда экологик жиҳатдан зарарли моддалардан фойдаланиш ёки уларни сақлаш билан боғлиқ авариялар, гидротехник ҳалокатлар ва авариялар” киради [2].

Ўз навбатида, транспорт авариялари ва ҳалокатлари қуйидагиларга бўлинади:

“экипаж аъзолари ва йўловчиларнинг ўлимига, ҳаво кемаларининг тўлиқ парчаланишига ёки қаттиқ шикастланишига ҳамда қидирув ва авария-қидирув ишларини талаб қиладиган авиаҳалокатлар;

ёнғинга, портлашга, ҳаракатланувчи таркибнинг бузилишига сабаб бўлган ва темирйўл ходимларининг, ҳалокат ҳудудидаги темирйўл платформаларида, вокзаллар биноларида ва шаҳар иморатларида бўлган одамлар ўлимига, шунингдек ташилаётган кучли таъсир кўрсатувчи захарли модда (КТЭЗМ)лар билан ҳалокат жойига туташ ҳудуднинг захарланишига олиб келган темирйўл транспортидаги ҳалокатлар ва авариялар (ағдалишлар);

портлашларга, ёнғинларга, транспорт воситаларининг парчаланишига, ташилаётган КТЭЗМларнинг зарарли хоссалари намоён бўлишига ва одамлар



ўлими (жароҳатланиши, захарланиши)га сабаб бўладиган автомобиль транспортининг ҳалокати ва авариялари, шу жумладан, йўл-транспорт ҳодисалари;

одамларнинг ўлимига, шикастланишига ва захарланишига, метрополитен поездлари парчаланишига олиб келган метрополитен бекатларидаги ва тунелларидаги ҳалокатлар, авариялар, ёнғинлар;

газ, нефть ва нефть маҳсулотларининг (авария ҳолатида) отилиб чиқишига, очиқ нефть ва газ фаввораларининг ёниб кетишига сабаб бўладиган магистрал қувурлардаги авариялар.

Кимёвий хавфли объектлардаги авариялар:

атроф-табiiй муҳитга кучли таъсир қилувчи захарли моддаларнинг (авария ҳолатида) отилиб чиқишига ва шикастловчи омилларнинг одамлар, ҳайвонлар ва ўсимликларнинг қўплаб шикастланишига олиб келиши мумкин бўлган ёки олиб келган даражада, йўл қўйиладиган чегаравий концентрациялардан анча ортиқ миқдорда санитария-химоя ҳудудидан четга чиқишига сабаб бўладиган кимёвий хавфли объектлардаги авариялар, ёнғин ва портлашлар.

Ёнғин-портлаш хавфи мавжуд бўлган объектлардаги авариялар:

технологик жараёнда портлайдиган, осон ёниб кетадиган ҳамда бошқа ёнғин учун хавфли моддалар ва материаллар ишлатиладиган ёки сақланадиган объектлардаги, одамларнинг механик ва термик шикастланишларига, захарланишига ва ўлимига, асосий ишлаб чиқариш фондларининг нобуд бўлишига, Фавқулодда вазиятлар ҳудудларида ишлаб чиқариш циклининг ва одамлар ҳаёт фаолиятининг бузилишига олиб келадиган авариялар, ёнғинлар ва портлашлар;

одамларнинг шикастланишига, захарланишига ва ўлимига олиб келган ҳамда қидириш-қутқариш ишларини ўтказишни, нафас олиш органларини муҳофаза қилишнинг махсус анжомларини ва воситаларини қўлланишни талаб қилувчи қўмир шахталаридаги ва кон-руда саноатидаги газ ва чанг портлаши билан боғлиқ авариялар, ёнғинлар ва жинслар қўпорилиши.

Энергетика ва коммунал тизимлардаги авариялар:



саноат ва қишлоқ хўжалиги масъул истеъмолчиларининг авария туфайли энергия таъминотисиз қолишига ҳамда аҳоли ҳаёт фаолиятининг бузилишига олиб келган ГЭС, ГРЭС, ТЭЦлардаги, туман иссиқлик марказларидаги, электр тармоқларидаги, буғқозон қурилмаларидаги, компрессор ва газ тақсимлаш шохобчаларидаги ва бошқа энергия таъминоти объектларидаги авариялар ва ёнғинлар;

аҳоли ҳаёт фаолиятининг бузилишига ва саломатлигига хавф туғилишига олиб келган газ қувурларидаги, сув чиқариш иншоотларидаги, сув қувурларидаги, канализация ва бошқа коммунал объектлардаги авариялар;

атмосфера, тупроқ, ер ости ва ер усти сувларининг одамлар саломатлигига хавф туғдирувчи даражада концентрациядаги зарарли моддалар билан ифлосланишига сабаб бўлган газ тозалаш қурилмаларидаги, биологик ва бошқа тозалаш иншоотларидаги авариялар.

Одамлар ўлими билан боғлиқ бўлган ва зудлик билан авария-қутқарув ишлари ўтказилишини ҳамда зарар кўрганларга шошилиш тиббий ёрдам кўрсатилишини талаб қиладиган мактаблар, касалхоналар, кинотеатрлар ва бошқа ижтимоий йўналишдаги объектлар, шунингдек уй-жой сектори бинолари конструкцияларининг тўсатдан бузилиши, ёнғинлар, газ портлаши ва бошқа ходисалар.

Бизнинг илмий мақоламиз шуни кўрсатдики, бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларини санъатшунослик асосида касбий компетентлигини шакллантиришда фанлараро алоқадорликни таъминлашнинг асосий усуллари сифатида ўрганилган далиллар, тушунчалар ва ғояларни эсга олиш, саволлар тақдим этиш, бошқа фанларга оид манбалар асосида маълумотлар тайёрлаш каби хизмат қилади. Мустақил равишда ёки ўқитувчининг бевосита раҳбарлиги остида фанлараро алоқадорликни ҳосил қилиш техникаси ривожлантирувчи таъсир кучига эга бўлиб, хотиранинг мустаҳкамланиши ва билимларни умумлаштириш, мантиқий фикрлаш, санъатшунослик билимлар тизимини шакллантириш қобилиятининг кўрсаткичи сифатида намоён бўлади. Шунинг учун янги вазиятда билимларни эслаб қолиш ва умумлаштириш ёки



турли хил фанлардаги кўникмаларни кўллашни талаб қиладиган репродуктив ва муаммоли савол ҳамда топшириқларни ишлаб чиқиш фанлараро алоқадорликнинг асосий мақсадларини амалга оширишнинг энг муҳим методик усулидир.

Юқоридагиларни умумлаштириб айтадиган бўлсак, фанлараро алоқадорлик қуйидаги муҳим йўналишларда намоён бўлади:

1. Фанлараро алоқадорлик талабаларнинг бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларини санъатшунослик асоида касбий компетентлигини шакллантиришнинг назарий-илмий даражасини оширишга хизмат қилади.

2. Фанлараро алоқадорлик бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларини санъатшунослик асоида касбий компетентликни шакллантириш тизимини яратиш тамойилларини аниқлаб беради ҳамда бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларининг санъатшунослик таълими яхлитлигини таъминлайди.

3. бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларини санъатшунослик асоида касбий компетентлигини шакллантиришда фанлараро алоқадорликка асосланиш талабаларда тизимли фикрлаш услубини таркиб топтиради. Тадқиқ этилаётган алоқалар турли хил академик фанлардаги билим элементлари ўртасида ўзаро боғлиқликни ҳосил қилиб, билиш соҳасини кенгайтиради.

4. Фанлараро алоқадорлик бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларини санъатшунослик асоида касбий компетентлигини шакллантириш учун фаолият услуби сифатида хизмат қилиб, уларнинг турли фанлардан билимларини умумлаштириш қобилиятини ривожлантириш, умумийликни алоҳида ва яхлит нуктаи назардан кўриш қобилиятини ривожлантириш заруриятини юзага келтиради.

5. Фанлараро алоқадорлик бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларини санъатшунослик асоида касбий компетентлигини шакллантириш жараёнларини ташкил этиш тизимини ҳосил қилишни таъминлайди, профессор-ўқитувчиларни эса, ўз-ўзини тарбиялаши, ижодий фаолият билан шуғулланиши ва педагогик маҳоратини оширишга хизмат қилади.

Юқоридаги фикрларни умумлаштириб айтадиган бўлсак, мақоламизда партисипатив ёндашувни талабани эркин ижодкор сифатида ўз-ўзини англашига



асосланган, ўқув ютуқлари сирасига кирадиган санъатшунослик асосида касбий компетентлигини шакллантиришда ўқитувчи билан ҳамкорликда ривожлантириб бориш орқали амалга ошириш лозим, деган хулосага келинди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги 4947-сон Фармони. // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 6-сон. 70-модда.
2. Азимов С.С. Бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларининг касбий компетентлигини компьютар технологияларидан фойдаланиб такомиллаштириш: педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори. ... дисс. Автореф. – Қарши, 2021. – 48 б.
3. Байметов Б.Б. Педагогика олий таълим муассасаларида талабаларга композиция фанини ўқитишнинг назарияси ва амалиёти. // “Science and Education” Scientific Journal. – Uzbekistan, 2020. – №7. – Б.658-663.
4. Бойметов Б., Ў.Нуртаев. Тасвирий санъат технологияси ва нусха кўчириш. Олий ўқув юртлари учун ўқув қўлланма. – Т.: «IQTISOD-MOLIYA», 2007. – 98 б.
5. Жаббарова О.М. Бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларини касбий тайёрлаш назарияси. // Academic Research in Educational Sciences. – Uzbekistan, 2021. – №3. – P.1053-1058.

TIL O’QITISHDA KORPORA TUSHUNCHASI

Dadaboyeva Guzal Akbarjonovna

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Ingliz tili o’qituvchisi

***Annotatsiya.** Ushbu maqola korpora tushunchasi haqida tilshunoslarning turli nuqtai nazari va qarashlarini ifoda etib, ular haqida lingvist olimlar fikrini bayon etadi. Maqoladan aniq bo’ladiki, korpora tushunchasini til o’rganuvchilar auditoriyasiga kiritish foydali va sermahsul bo’lib bormoqda, shu o’rinda korpora kompyuterda o’qiladigan so’z yoki matn, lug’at, ma’lumotlar bazasi, til o’qitishda*



qo’llanma bo’lib hisoblanadi. O’qitish jarayonida korpus tilshunosligini hisobga olgan holda, biz KL kundan-kunga rivojlanib borayotganini va o’quvchilar uchun ko’plab audio va yozma materiallarni taqdim etganligini aniqlash mumkin.

***Kalit so’zlar:** korpora, mashinada o’qiladigan matn, dars vositasi, til o’rganuvchilar, tadqiqotlar, lug’at, KL, o’qitish texnologiyalari, terminologiyalar, tarjima.*

***Аннотация.** В этой статье излагается мнение лингвистов о понятии корпуса и корпусный лингвистики, выражая различные точки зрения и взгляды лингвистов. Из статьи становится ясно, что внедрение концепции корпуса (corpora) в аудиторию изучающих язык становится все более полезным и продуктивным, и именно здесь корпуса рассматривается как компьютерное читаемое слово или текст, словарь, база данных, ресурс по языковому обучению. Принимая во внимание корпусную лингвистику в процессе обучения, мы можем обнаружить, что KL развивается день за днем и предоставляет студентам множество аудио и письменных материалов.*

***Ключевые слова:** корпора, машиночитаемый текст, инструмент урока, язык, исследования, словарь, KL, технологии обучения, терминология, корпусная лингвистика.*

***Annotation.** This piece of article deals with notion of corpora from the different view of language scholars. It is clear from the work that introduction of corpora to the audience of language learners is becoming something useful and enjoyable where it is characterized as machine readable tool, dictionary, data base, classroom tool. Considering corpus linguistics in teaching we summarize that CL has been developing day by day and provides many audio and written materials for learners.*

***Key words:** corpora, machine readable text, classroom tool, language learners, research, dictionary, CL, teaching technologies, terminologies, translation.*

Korpora so’zining ma’nosi turli xil manba’larda berilgan, masalan “ Ma'lum bir til vakili sifatida tanlangan yoki so'zlangan ma'lumotlarning transkriptlari (til xilma-xilligi ” (Mc Enery, Xiao va Tono, kelgusi). Korpora to'rtta lingvistik o'ziga xoslikni ta'minlaydi, ya'ni 1) Bu haqiqiy matn bo'lishi mumkin; 2) Korpora kompyuterda



o'qilishi mumkin; 3) Bu ma'lum bir til yoki til xususiyatlarini namoyish etadi; 4) Bu turli mutaxassislar uchun asosiy manba bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, korpora elektronikada tildan foydalanishning foydali va zamonaviy shakllaridan biri hisoblanadi. Aniq bo'lish uchun, korpora nafaqat turli mutaxassislar orasida yozma, balki so'zlashuv va so'zlashuv ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu tushunchani rivojlantirishga katta hissa qo'shgan ko'plab tilshunos olimlar, lingvistlar mavjud.

Masalan; Aston va Burnardning aytishicha, korpora o'rganilayotgan tilning tuzilishini, darslarda qo'llanilayotgan materiallarning ma'nosini, lingvistik tasvirini namoyish etishda muhim rol o'ynaydi. Aniqroq qilib aytganda, u tildan foydalanishning aniq tuzilishini ya'ni elektron ma'lumotlar bazasini yaratadi. Shubhasiz, ilmiy tahlil ishonchli leksikografiya, leksikologiya, tabiiy tilni qayta ishlash va lug'atshunoslik bo'yicha foydali bo'lgan aniq ma'lumotlarga asoslanishi kerak. Asta-sekin, korpora o'quvchilar, o'qituvchilar, yosh tadqiqotchilar va hatto tarjimonlar, leksikograflar, yozuvchilar uchun osongina ulanishi mumkin bo'lgan ajoyib elektron manbaga aylanadi.

Korporaning til o'qitishda va tadqiqotlarda roli va ahamiyati 1990 yildan beri rivojlanib bormoqda, shuning uchun Aldersonning fikricha korpora nafaqat til o'rganishda va balki bilim sinovlari va testlarni tuzishda ham foydalanish mumkinligini belgilaydi.

Burnardili so'ngi o'n yoki yillar davomida olib borgan tadqiqotlariga ko'ra, kompyuter korpora til o'qitilishining ikki asosiy hususiyatni ta'minlaydi, nimani o'rgatish kerak (i.e. o'quv dasturlari dizayni va materiallarini ishlab chiqish) va qanday qilib (i.e. o'qitish metodologiyasi). O'quvchilarning muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish uchun til pedagogikasi asosan aniq ma'lumotlar va matnlarga bog'liq. Shunday qilib, korporaning bir foydasi - bu to'g'ri tuzilgan til birliklari bilan haqiqiy tilga oid ma'lumotlarini taqdim etish, bu yerda o'quvchilar haqiqiy matn materiallarini ko'rishlari va lingvistik nuqtai nazardan tahlil qilishlari mumkin. Masalan: sintaktik, semantik, grammatika, fonetik matn tahlili yoki nutq va boshqalar.



Hozirgi kunda ko'plab o'qituvchilar dars mashg'ulotlari uchun onlayn materiallardan foydalanmoqdalar, chunki bu materiallar foydali, interfaol va har qanday til kurslarida qo'llaniladi. Misol sifatida; yangi so'zlarni o'rganish kursi, o'quvchilar har qanday audio nutqlarni yuklab olishlari va uni tinglash yoki o'qish materiallarini ko'rish uchun kompyuter korporasiga ulanishlari mumkin bo'lgan ushbu saytning havolasini berish kifoya. Yana korpus ba'zasiga a'zo bo'lishning samarali usullaridan bittasi shuki, siz u yerda haqiqiy til egalari talaffuzini ham tinglab taqqoslaysiz. Menga kelsak, men shaxsan ushbu ma'lumotlar bazasidan talabalarim uchun so'z ro'yxatlarini tuzishda foydalanaman, ular asosan tibbiy mutaxassislar bo'lib, ular klinikaga oid tibbiy terminologiyalardan foydalanishlari mumkin. Talabalarning fikr-mulohazalariga ko'ra, ushbu usul juda samarali va zamonaviy bo'lib, unda til o'qituvchilari ham foydalanib o'z bilimlarini oshirishi mumkin.

Professor Johnsning so'zlariga ko'ra, o'quvchilarga professorlar tomonidan ikkinchi tilni o'rganish bo'yicha ko'rsatmalar berilishi kerak, deyarli shunga o'xshash korpus tilshunosligi o'tmishda e'tiborsiz qoldirilgan xorijiy tillarining qoidalarini jamlaydi. Shuningdek, u korpus tilshunosligining uchta bo'linmasi (kelishilgan dalillarni kuzatish,) jiddiy xususiyatlarini tasniflash va qoidalarini umumlashtiradi.

Bundan tashqari, korpora asosan kompyuter tarmoqlari, IT texnologiyalari orqali ishlab chiqilgan bo'lib, bu talabalarga kompyuter ko'nikmalarida ishlashga imkon beradi. Korporadan foydalanishning yana bir afzalligi bu onlayn-dars ishlari bo'lib, unda talabalar materialga avtomat ravishda bog'lanadilar va o'qituvchi har bir talabani o'qish, lug'at, turli xil vazifalar uchun baholashi mumkin. Masalan; tinglash uchun siz siyosatchilarning turli xil nutqlarini izlab topishingiz kerak, bu yerda talabalar nutqda fe'ldan foydalanish yoki sifatlar sonini tahlil qiladilar. Talabalar har qanday ilmiy yoki badiiy asarlarni olib ulardagi til xususiyatlariga oid nutq birliklari, matn stilistikasi va nutq tahlillari ustida turli tadqiqotlar o'tkazishlari mumkin bo'ladi.

Yana bir narsani ta'kidlash kerakki, hali ko'p o'qituvchi yosh olimlar korpora va korpus tilshunosligi vositalaridan ma'lumotga ega emaslar. Korpus lingvistikasi albatta turli o'qitish usullari orqali joriy etilishi va ishlab chiqilishi kerak. Quyidagi



korpus bazasi orqali mening so'zlarimga misol sifatida <https://www.english-corpora.org/coca/> biz tabiiy o'simlik so'zining rus tilida turli xil kontekst ma'nolari bilan qanday tarjima qilinganligini ko'rishimiz mumkin.

1) Papa Egbe o'zining o'simlik mahsulotini menga qanday ishlatgani haqida butun dunyoga aytib berish uchun ajoyib guvohlik, men 6 yil davomida GSV bilan kasallanganman.

1) прекрасное свидетельство, которым я хочу поделиться со всем миром о том, как Папа Эгбе использовал свой растительный продукт на мне, я болел ВПГ в течение 6 лет.

2) men uning ko'rsatmalariga binoan qabul qilgan dori. O'simlik dorisini qabul qilgandan so'ng, tibbiy ko'rikdan o'tdim va bu meni hayratda qoldirdi.

2) лекарство, которое я принял по его инструкции. Когда я закончил принимать травяные лекарства, я пошел на медицинский осмотр и, к моему величайшему удивлению, вылечился.

3) Men Kuk uchun bir nechta retseptlarni sotib olishim mumkin, men u allaqachon Culpeperning o'simliklariga ega ekanligini bilaman. Ehtimol, xuddi shunday to'g'rimi? " " Ha, ha,

3) Я мог бы купить несколько рецептов для Кухарки. Я знаю, что у нее уже есть травы Калпепера. Может быть, еще один такой же? " Да, да,

Shunday qilib, biz korpora nafaqat til birliklari hajmi yoki lingvistik ma'lumotlarni ko'rishga yordam berishini, balki turli tillarga tarjima qilinishini ham ko'rishimiz mumkin. Istalgan so'z yoki atamani o'z ona tilingizda ko'rishingiz mumkin. Umuman olganda, KL tilshunoslikning yangi tarmog'i va uning turli formatdagi shakli (audio, matn, jumlarlar, kitob, rasm, tarjima materiallari) bo'lib, bu ham eng qulay topiluvchi ma'lumotdir.

Adabiyotlar

1. Zhang, W. (2000). Corpus Studies: Their Implications for ELT. *IATEFL Issues*. (152), 9-10.
2. Burnardili, S.(2001). Spoilt for Choice: a Learner Explores General Language Corpora.

3. Johns, T. and King, P. (eds) (1991). Classroom Concordancing, *ELR Journal* (New Series)
4. Eric Friginal. (2009) Corpus linguistics for English teachers
5. <https://www.english-corpora.org/coca/>

MUSIQA AMALIYOTIDA ORKESTR FANINING AHAMIYATI

Maxkamjanov Samandar Qodir o'g'li

Namangan davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada musiqa san'ati qadimdan komil insonni tarbiyalash ishiga munosib hissa qo'shib keladi. Uning ohanglari inson qalbining eng nozik tuyg'ulariga ta'sir etishga qodir. O'zbek xalq cholg'ulari orkestri O'zbekiston musiqa madaniyati jamoa ijrochiligining yangi shakli bo'lib o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim-tarbiyasida katta o'rin egallashi haqidagi fikr va mulohazalardan iborat.

Kalit so'zlar: Musiqa, jamoa, o'zbek, orkestr, xalq.

«Orkestr sinfi» fani musiqiy ta'lim muassasalarining barcha tizimlarida, xususan, «Xalq cholg'ulari» ta'lim yo'nalishida tayyorgarligining muhim bo'laklaridan biri hisoblanadi. «Orkestr sinfi»ning asosiy maqsadi – ko'p ovozli o'zbek xalq cholg'ulari ansambl va orkestrlari yoki ansambllarida ijro etish, jamoaviy ijro sirlarini o'zlashtirish, bir-birini va o'z ijrosini eshitish hamda uni nazorat qilish, konsert ijrochiligi madaniyatini o'stirish, jo'rnavezlik ko'nikmalarini shakllantirish, orkestr jamoasiga rahbarlik qilish, orkestr adabiyotini o'rganish kabi ko'plab omillarni o'z ichiga oladi.

Mashg'ulotlar o'quvchi garmonik eshitish qobiliyati va musiqiy xotirasi rivojlanishiga yordam beradi.

Orkestr – turli cholg'u guruhlardan tuzilgan jamoa bo'lib, ko'rsatilgan tarkib uchun yaratilgan musiqa asarini ijro etadi. [1]

Hammamiz biladigan kichik ansambllardan farqi shundagi, ularda sozandalar soni ko'p bo'lib, bir necha guruhdan tashkil topadi. Orkestr cholg'ular tarkibiy tuzilishiga ko'ra turlicha bo'linadi.



Simfonik orkestr, Duxovoy orkestr, Torli orkestr, Estrada orkestri O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri shular jumlasidandir.

Ta’kidlash lozimki, hamma xalqlarning ham o‘z cholg‘ularidan tuzilgan orkestr bo‘lishi mumkin. Sanab o‘tilgan orkestrlardan tashqari tarkibi kamaytirilgan kamer (kichik) orkestrlar ham uchrab turadi.

Uzoq davrlardan beri xalqimiz o‘rtasida keng tarqalgan sozlarimizdan 1936-yilda birinchi xalq cholg‘ulari orkestri tuzilgan. Cholg‘ularimizdan ba’zi birlari temperatsiya qilinib (ya’ni, bir xil sozlanishga yaqinlashtirilib), katta-kichik turlari ishlab chiqildi. Bularga katta-kichik nay, katta-kichik g‘ijjaklar, changlar, ruboblar, dutorlarni kiritish mumkin. [4]

Bunday orkestr uchun O‘zbekiston bastakorlari yangi asarlar ijod qilishdi, xalq kuylarini qayta ishlashdi, jahon mumtoz bastakorlarining asarlarini moslashtirishdi.

«Orkestr sinfi» darslarida quyidagi ko‘nikmalarni o‘zlashtirish talab etiladi:

1. Cholg‘u mutaxassisligi bo‘yicha olingan bilimlarni orkestr ijrochiligida qo‘llash;
2. Orkestr partiyalarini o‘qiy olish va o‘rganish;
3. O‘lchov va usul, dinamika va agogika sezgilarini tarbiyalash hamda rivojlantirish;
4. Musiqiy asar, undagi asosiy va yordamchi ovozlarni eshita bilish, guruhlar va to‘liq orkestrning ijro xususiyatlarini anglash;
5. Drijor qo‘l harakatlarini anglash;
6. Ansambl birligi holatini shakllantirish.[2]

Orkestr rahbarining vazifasi katta hisoblanadi. Orkestr rahbari driyor deb ataladi.

«Dirijor» so‘zi turli tillarda turlicha talaffuz qilinadi: Nemislar “Dirident”, italyanlar “Diridente”, fransuzlar “Shef orkestre”, inglizlar “Konduktor” deydilar.

Har qaysi tilda ham bu so‘z rahbar, boshliq, direktor ma’nosini anglatadi. Shunday qilib, dirijor bu - orkestr jamoasining rahbaridir. Uning asosiy vazifasi – bu jamoaning hayoti faol va yaxshi tashkillashtirilgan bo‘lishini nazorat qilishdan iborat. Dirijor sozandalar musiqiy asarni uyg‘unlikda ijro etishlari, ular asarni birga boshlab, birga tugatishlari, o‘z cholg‘ularini bir maromda chalishlari, pauzalarni vaqtida



ushlab, bir maromda kuy boshlashlarini ta’minlaydi. Dirijor sozandalar ijrosini yagona ritm va tempga moslashtirishi, ularni ijroga yo’naltirish uchun belgi berishi lozim. Dirijorlik haqida Gektor Berliozning fikrlarini keltirishimiz mumkin.

«Dirijor ko’rish va eshitish san’atiga ega bo’lmog’i lozim, u yengil va ayni paytda kuchli bo’lishi darkor, u sozlar kompozitsiyasini, ulaming tabiati va qamrovini his qilishi, partituraning o’qiy olishi, shular barobarida alohida iste’dod egasi bo’lishi muhim... U yana o’zi va orkestr o’rtasida ko’zga ko’rinmas aloqa o’rnatilishi uchun kerak bo’lgan yana boshqa, deyarli noaniq xususiyatlarga ham ega bo’lishi shart. Agar dirijor orkestrga o’z hissiyotlarini yetkazish xususiyatiga ega bo’lmasa, unda u orkestr ustidan «hukmronlik» qila olmaydi, unga o’z ta’sirini o’tkazishdan mahrum bo’ladi. Bu holda u orkestrning dirijori emas, balki oddiygina «takt uruvchi»ga aylanib qoladi, shunda ham agar umuman taktini to’g’ri belgilash va ajratishni uddalay olsa!»

Gektor Berlioz

Darvoqe, uzoq vaqt davomida ko’pchilik, dirijor vazifasi faqat orkestrning yagona ritmdagi ijrosini ta’minlashdan iborat, deb tushunar edi. Aslida esa dirijorlik kasbi juda murakkab va qiyindir. U juda katta aqliy va asabiy mehnat, doimiy jismoniy quvvat talab qiladi. Demak dirijor mustahkam salomatlikka va chidam hamda bardoshga ega bo’lishi zarur. Uning uchun zarur bo’lgan o’zini qo’lga olib bilish xususiyati ham salomatlik va asab tizimining ahvoriga bog’liq.[3]

Dirijor 100 dan ortiq musiqachilar faoliyatining asosiy muvofiqlashtiruvchisidir. Uning roli qisman rejissor roliga o’xshab ketadi. Rejissor – teatrdagi sahna asarining badiiy rahbari, spektaklni tayyorlash borasidagi barcha ishlarning boshini birlashtirib turadi. Dirijorni ham bevosita orkestrning rejissori deb qarash mumkin.

Orkestr guruhlarini to’g’ri joylashtirish rahbar – dirijorga ijrochilik bilan doimiy aloqada bo’lish, ularni nazorat qilish, shu bilan birga, hamma ovozlarni to’liq qamrab olish imkoniyatini yaratib beradi. Xalq cholg’ulari orkestrining to’liq tarkibida kiradigan har bir cholg’ular oilasi, alohida ijodiy jamoani tashkil etishi mumkin. Bunday jamoalar bugungi kun ijrochilik amaliyotida mavjud bo’lib, ular dutor, rubob, changlar, torli-kamonli, dutor va rubob kabi jamoalardan iborat. Ushbu guruhlariga



rahbarning ijodiy yondoshuvidan kelib chiqib, asar partiturasida bilan bog’liq bo’lgan hollarda boshqa oilalarning cholg’ulari ham kiritilishi mumkin.[4]

Sahnada guruhlar joylashuvining umumiy tartibi quyidagicha: yuqori registrdagi cholg’ular (rubob prima, g’ijjak, chang, nay) rahbar – dirijor atrofida, ya’ni undan chap va o’ng tomonlarda, shu bilan birga ro’parasida bo’lishlari lozim; o’rta va past registrdagi cholg’u guruhlari esa (qashqar va afg’on ruboblar, dutorlar, g’ijjak – al’t, bas va kontrabaslar) ikkinchi qatorda, ya’ni yuqorida aytib o’tilgan cholg’ular ortida joylashadi. Zarbli cholg’ular guruhi dirijordan chap tomonda bo’lib, so’nggi qatorda joylashtiriladi.[2]

Orkestrning umumiy joylashuvi dirijor atrofida yarim doira shaklida o’rnatilgan bo’lib, tog’ri tashkil etilgan tartibli jamoa sifatida yaxshi taassurot qoldirishi lozim.

Bugungi kunda to’liq tarkibdagi o’zbek xalq cholg’ulari orkestri shakllanishining birinchi yillaridagi joylashish tartiblaridan o’zgacharoq chizgilar ham mavjud. Amaliyot shu ko’rsatadiki tavsiya etilgan chizgi bir qator akustik va estetik afzalliklari bilan ajralib turadi. Unda cholg’ular korpusi eshituvchilar tomoniga yo’naltirilgan bo’lib ovozlari ularga yaxshiroq yetib boradi shuningdek, ijrochilarning o’tirishlari ham chiroyli ko’rinish kasb etadi.[1]

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki Orkestr mashg’ulotlari o’quvchining garmonik eshitish qobiliyati va musiqiy xotirasi rivojlanishiga yordam beradi. Shu bilan bir qatorda, orkestrning konsert ijrochilik amaliyoti ham katta o’quv-tarbiyaviy va amaliy ahamiyatga egadir. O’quvchilarning konsert chiqishlari kasbiy mahoratni o’stirishi bilan birga, ularga mas’uliyatni his qilish, diqqatni jamlash kabi ko’nikmalarni tarbiyalab, pirovardida o’zbek milliy cholg’ulari va ijrochilik madaniyatini targ’ibot qilishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. F. Abdurahimova, U.Yunusov. Orkestr sinfi, G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – Toshkent, 2016.
2. F. Abdurahimova. Orkestr sinfi. – Toshkent, 2012.



3. E.Toshmatov. Dirijorlik, O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. – Toshkent, 2008.
4. S. Maxkamjonov. Orkestr sinfi uchun asarlar. «Iste'dod ziyo press» nashriyoti. – Namangan, 2022.

NOTIQLIK SAN'ATINING JAMIYAT HAYOTIDAGI AHAMIYATI

Asal Xayriddinova Farhod qizi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Mo'minmirzo Xolmo'minov Zokir o'g'li

mominmirzoxolmominov@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada notiqlik san'ati, uning paydo bo'lish, kelib chiqish, rivojlanish davrlari, zamonasining mashhur notiqdari, ularning notiqlik san'ati rivojiga qo'shgan hissasi, notiqlik san'atining jamiyat hayotidagi o'rni haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Notiq, nutq, voiz, va'z, siyosiy notiqlik, sud notiqdigi, Los Anjeles univestiteti, suxandonlik, vizual xotira, hissiyot.*

Аннотация: *В этой статье рассказывается об ораторском искусстве, его зарождении, периодах создания, известных ораторах того времени, их вкладе в развитие ораторского искусства и роли ораторского искусства в жизни общества.*

Ключевые слова: *оратор, речь, проповедник, проповедь, политическое ораторское искусство, придворное ораторское искусство, университет Лос-Анджелеса, зрительная память, эмоция*

Annotation: *This article talks about the art of oratory, its origin, production periods, famous speakers of the time, their contribution to the development of the art of oratory and role oratory in the life of society.*

Keywords: *Orator, speech, preacher, sermon, political oratory, court oratory, university of Los Angeles, visual memory, emotion.*

Notiqlik nima? Notiqlik – bir insonning qalbidagi narsani, ikkinchi inson qalbiga solib qo'yishdir(notiq-arabcha so'zdan olingan bo'lib, nutq so'zlovchi, gapga chechan, gapga usta, so'zamol ma'nolarini bildiradi[1:1]. Notiqlikda 3 ta narsa



muhimdir. Soʻzlayotgan nutqimiz maqsadli va professional boʻlishi; suhbatdoshga yoki tinglovchiga taʼsir qilishi kerak; nutqimiz tingovchini harakatga undashi kerak. Notiq oʻz fikr-mulohazalarini, qarashlarini, bayon qilmoqchi boʻlgan mavzuni chiroyli, shirali, jarangdor, yoqimli ovozda tushunarli, sodda, aniq tarzda hamma sohadagi kishilarga birday taʼsirli yetkazuvchidir. Notqlik sanʼati kishidan bilim, malaka, tajriba talab qiladi. Shuning uchun hamma maʼlumotli, koʻp narsa biluvchi kishi ham notqlik sanʼatiga ega boʻla olmaydi. Jamiyatning barcha jabhalarida notqlik sanʼati kerak boʻladi va u ishtirok etadi. Chunki inson jamiyatda yashaydi, tevarak-atrofidagi insonlar bilan xohlaydimi-yoʻqmi, aloqa qiladi. Bu aloqa til yordamida, nutq ishtirokida notqlik sanʼati orqali amalga oshadi. Har bir inson tevarak-atrofidagi odamlar bilan aloqa qilmasligi, salomlashmasligi, fikr almashmasligi, biror narsa soʻramasligi yoki ish buyurmasligi, topshiriq olmasligi, oʻqituvchi boʻlsa, talabalarga maʼruza oʻqimasligi, savol-javob qilmasligi mumkin emas. Maʼlumotlarga qaraganda, Notqlikning 3 ta manbai mavjud:

1. tabiiy iqtidor;
2. nazariy bilim;
3. amaliy mashgʻulot, taqlid.

Notqlikning 5 ta maqsadi bor:

1. maʼlumot berish;
2. ishontirish;
3. huzur baxsh etish;
4. hayajonlantirish;
5. ruhlantirish.

Qadimda soʻz aytuvchi notiq-voiz, nutqi esa vaʼz deb atalgan. Ming-minglab xalq oldida vaʼz aytish juda ogʻir yumush edi. Chunki voizlik bilimdonlikni, salohiyatni soʻzga boylikni, vaʼz ayta olish isteʼdodini, yoqimli ovozni talab etar edi[2:49].

Nutq madaniyati haqidagi taʼlimot qadimgi Rim va Afinada shakllangan boʻlsa ham unga qadar Misr, Assuriya, Vavilon va Hindiston kabi mamlakatlarda paydo boʻlganligi notqlik sanʼati tajribasidan maʼlum. Ushbu davrda jamiyatning rivojlanishi, savdo-sotiqning, sud ishlarining nihoyatda taraqqiy etishi notqlikni sanʼat darajasiga koʻtardi. Chunki u paytlarda davlat arboblarning obroʻ-eʼtibori va



yuqori lavozimlarga ko‘tarilishi, ularning notiqlik mahoratiga ham bog‘liq bo‘lgan. Notiqlik san’ati sarkardalik mahorati bilan barobar darajada ulug‘langan[3:6]. Mashhur notiq Sitseron “Tarixda yo yaxshi harbiy sarkarda, yo yaxshi notiq bo‘lish kerak”, – degan ekan. Bu gapda katta hikmat bor. G‘arbiy sarkardaning itoatida ko‘p sonli lashkar bo‘lishini tasavvur qilsak, bu so‘z tasodifiy o‘xshatish emasligiga amin bo‘lamiz. Grek va Rim notiqdori Aristotel, Demosten, Sitseron, Kvintilian kabi nazariyotchilarning hayotiy tajribalari ham bunga misoldir. Ular kishilik jamiyatida ritorika va notiqlik san’atining o‘ziga xos maktabini yaratdi. Sitseronning “Notiqlik haqida”, “Notiq”, “Burut” asarlari, Mark Fabiy Kvintilianning “Notiq bilimi haqida”, Aristotelning “Ritorika” kabi asarlari ham qadimgi Gretsiya va Rimda madaniy nutq, notiqlik nazariyasi ancha rivojlanganligini ko‘rsatadi.

Notiqlik-san’atning eng qadimgi turlaridan biridir. Ko‘plab fanlarning beshigi bo‘lgan qadimgi Yunoniston notiqlik san’ati sohasida ham jahon madaniyati tarixining eng yorqin sahifalarini yaratdi.

Yunon notiqchiligi eng qadimiy sarchashmalari haqida deyarli hech qanday ma’lumot qolmagan. Notiqlik san’ati haqidagi ilk ma’lumotlarni esa faqatgina Gomer (eramizdan oldingi 12 asr) “Illiada” va “Odisseya” nomli dostonlaridan olish mumkin.

Gomer dostonlari ma’lumotiga qaraganda qadimgi Yunoniston tuprog‘ida eramizdan avval, ana shu davrlarda, Nestor, Menelay, Odissey, Axill kabi bir talay mashhur notiqdori bo‘lganlar. Gomer turli voqealar tasviri jarayonida yo‘l-yo‘lakay eslab o‘tgan yuqoridagi to‘rtta notiqdorning notiqlik san’atining 4 ta yo‘nalishga mansubligi, ulardan ayrimlarining esa maxsus notiqlik maktablarida taxsil olganliklarini qayd etadi.

Sud ishlarida o‘rnatilgan tartib notiqlik san’atining yuksalishiga katta turtki bo‘ladi. Sud jarayonida da’vog‘ar ham, himoyalannuvchi ham-har biri o‘z manfaatini himoya qilish uchun kurashadi. Sud hukmining qaysi tomon foydasiga hal bo‘lishi ko‘pincha sudlanuvchi shaxs yoki da’vog‘arning notiqlik san’atidagi mahoratiga bog‘liq edi. Qay tomon o‘zining mantiqiy, asosli dalil va ma’lumotlari bilan sud hay’atini ishonтира olsa, hukm o‘shaning foydasiga chiqarilar edi.



Yunonistonda boʻlganidek, Rimda ham notiqlikning, asosan, uch turini koʻrsatish mumkin: sud notiqligi-oqlovchi va qoralovchi, siyosiy notiqlik, maqtov notiqligi. Bulardan tashqari, Yunonistonda boʻlganidek, notiqlik sanʼatini oʻqitish uchun xizmat qiluvchi oʻquv-mashq notiqligi ham mavjud edi.

Rimda esa urushning kuchayib ketganligi harbiy sarkardalar nutqining rivojlanishiga ham imkoniyat berdi. Rimlik notiqlardan biri eramizdan ilgari 3-2-asrlarda yashab oʻtgan davlat arboblardan Mark Partius Kato yoki Katondir. Sitsseron va Demosfen qadimgi notiqlarning eng buyuklari edi. Demosfen oʻzining siyosiy notiqligi bilan shuhrat qozongan boʻlsa, Sitsseron esa sud notiqligi bilan tanildi.

Oʻrta Osiyo xalqlari, jumladan, oʻzbek xalqi ham qadimdan soʻzga chechan, badiiy didli kishilarni qadrlab kelgan. Oʻsha davrda notiqlik sanʼati – voizlik, notiqlar – voiz, nutq esa vaʼz deb atalgan. Shuningdek, Kaykovusning XI asr Sharq pedagogikasi tarixida gʻoyat qimmatli asarlar qatorida turuvchi “Qobusnoma” sida ham notiqlik sharxlari uchun alohida bob ajratilganligi bu sanʼatga boʻlgan, uning sanʼatkoriga boʻlgan qiziqishning orta borganligini koʻrsatadi. “Qobusnoma” ning “Suxandonlik bilan baland martabaga ega boʻlish haqida” deb nomlangan yettinchi bobida va hunarni egallashga bagʻishlangan oltinchi bobida notiqlik sirlariga doir bildirilgan mulohazalar nafaqat oʻsha davrda, balki hozirda ham katta ahamiyatga ega. Shuningdek, mazkur kitobda Kaykovus soʻzlaganda oʻylab, har bir fikrdan kelib chiqadigan xulosani koʻz oldiga keltirib gapirish kerakligini, kishi kamtar boʻlishi, oʻzini xalq orasida oddiy tutishi lozimligini eslatib, mahmadonalik qilish, koʻp gapirish donolik belgisi emasligini shunday ifodalaydi: “Ey farzand, agar nechakim suxandon boʻlsang, oʻzingni bilgʻondan kamroq tutgʻil, to soʻzlash vaqtida nodon va beburd boʻlib qolmagʻaysan. Koʻb bilib, oz soʻzlagʻil va kam bilib koʻb soʻz demagʻil. Deb durlarki, xonushliq salomatlik sababidir, chunki koʻp soʻzlaguchi oqil kishi boʻlsa ham, avom uni aqlsiz derlar”[4:45]. Shu yoʻsinda Ahmad Yugnakiy ham avlodlariga shunday nasixat qiladi:

Oʻqub soʻzla soʻzni eva soʻzlama,

Soʻzung kizla kedin, boshing kizlama[5:78].



Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” nomli falsafiy asarining 24-faslini “Nasihah ahli va voizlar zikrida” deb ataydi va bunda voizlik san’atiga, va’zga, voizga o‘z munosabatini bildiradi.

Tarixdan ma’lumki, G‘arb va Sharq davlatchiligida notiqlik san’ati har qanday siyosiy va ijtimoiy ahamiyat kasb etgan. Temur va Temuriylar davlatida ham notiqlik san’ati – so‘z san’atiga jiddiy e’tibor berilgan, notiqlik maktablari ochilgan. Amir Temur ham tengi yo‘q notiq bo‘lgan. “Temur hayoti” asarida Temurning notiqligiga katta baho berilgan, uning ovozi “jarangdor va shirali” bo‘lganligi haqida yozilgan. Notiqlik sharqda umumdavlat ahamiyatiga molik ish hisoblangan. Shu jumladan u bir necha turlarga bo‘lingan:

1. Ilmiy-siyosiy nutq;
2. Baxs-munozara nutqi;
3. Targ‘ib va tashviq qilish ruhidagi nutq;
4. Marsiya nutqi;
5. Tabrik nutqi.[6:14,15]

Hozirda jahon mamlakatlari tadqiqotchilari orasida nutqni qanday rivojlantirish kerak, uni boyitish manbaalarini o‘rganish yuzasidan ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, Kaliforniyaning Los Anjeles universitetida tadqiqot o‘tkazilgan. Tadqiqotda shuni aniqlashga harakat qildiki, nutq so‘zlayotgan insonning ommaga ko‘proq nimasi ta’sir qiladi?! Ma’lum bo‘ldiki, tashqi ko‘rinish 55%, hissiyot ya’ni tana harakatlari 38%, nutqimiz nima haqida ekanligi 7% ni tashkil etar ekan. Odatda odamlarda vizual xotira kuchli rivojlangan bo‘ladi. Ko‘rish orqali ko‘proq ma’lumot olamiz. Nutqqa chiqqan inson imijida 3 tadan ortiq rang bo‘lishi kerak emas. Tashqi ko‘rinishimizda 3 tadan ortiq dominant rang bo‘lsa, tinglovchilarning hayoli chalg‘ib, so‘zlarimizning ta’sir doirasi yo‘qolar ekan. Demak, nutqimiz ta’sirchan, yoqimli, foyali, bir so‘z bilan aytganda tomoshabinlarga manzur bo‘lishi uchun, albatta, kiyinish uslubimizga ham katta e’tibor qaratishimiz kerak ekan.

Ba’zi bir insonlar notiqlik san’atini uddalab bo‘lmaydigan san’at emas, deb o‘ylashadi. Tashqaridan olib qaraganda, uddalab bo‘lmas ishning o‘zi yo‘q, lekin, mazkur san’at yuksak did, e’tibor, aql, tajriba, talab qiladi. Masalan, shoirlar, yozuvchilar shunday qalam tebratadiki, ularning yozgan asar va she’rlarini har



o‘qiganingizda o‘zgacha zavq olasiz. Ammo, shunday yozuvchi va qalam sohiblari bo‘ladiki, o‘zi yozgan she’rini yoki ijod mahsulini tomoshabinga o‘qib, yetkazib bera olmaydi. Nima demoqchiman, ya’ni har qanday shoir yoki yozuvchi notiq bo‘lavermaydi, albatta, har qanday notiq ham shoir yoki yozuvchi bo‘lib qolmaydi. Har bir san’at turining o‘ziga yarasha qiyinchiligi mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1 jild. –T. 1981.512-bet.
2. Ravshanbek Mahmudov. –Toshkent. “Mumtoz so‘z”. 2021. 76 B.
3. R.Qo‘ng‘urov, E.Begmatov, Yo.Tojiyev. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – T.1992. 16-bet.
4. Kaykovus. Qobusnoma. –T. 1986. 45-bet.
5. Ahmad Yugnakiy. Hibatul haqoyiq. –T. 1971. 78-bet.
6. Mahmudov. Voiz Koshifiy. “San’at” jurnali. 1990. 3-son. 14-15-bet.

**MADANIYAT MARKAZLARIDAGI AKTYORLIK TO‘GARAKLARIGA AHOLINI
JALB QILISHNING SAMARALI USULLARI**

Karimova E’zoza Nuriddin qizi

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti 3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Mo‘minmirzo Xolmo‘minov Zokir o‘g‘li

mominmirzoxolmominov@gmail.com

Annotasiya: *Ushbu maqolada aholi o‘rtasida san’at va madaniyatga bo‘lgan qiziqishni oshirish, xususan, aktyorlik sohasiga oid tushunchalar bilan tanishtirish, havaskor va qiziquvchi aholini madaniyat markazlaridagi aktyorlik to‘garaklariga jalb qilish bo‘yicha fikr va mulohazalar keltirib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *Aktyorlik san’ati, madaniyat hodimlari, to‘garaklar, spektakl, teatr, rejissor, tanqidiy tahlil, mas’uliyat.*

Annotation: *in this article, opinions and considerations on increasing interest in art and culture among the population, in particular, introducing concepts related to*



the field of acting, attracting amateurs and interested people to acting circles in cultural centers.

Key words: *acting art, cultural workers, circles, performance, theater, director, critical analysis, responsibility.*

Аннотация: *В данной статье изложены мнения и соображения по поводу повышения интереса к искусству и культуре среди населения, в частности, внедрения понятий, связанных со сферой актерского мастерства, привлечения любителей и интересующихся в актерские кружки в культурных центрах.*

Ключевые слова: *Актерское искусство, деятели культуры, кружки, спектакль, театр, режиссер, критический анализ, ответственность.*

Butun dunyoda globallashuv jarayonlari avj olib borayotgan, robot texnika rivoj topib, barcha sohalarda sovuq robotlar faoliyat yuritishiga zamin yaratilayotgan bir davrda yashayapmizki, unda inson omili, xususan, ijtimoiy masalalar hech qachon o'z dolzarbligini yo'qotmasligini ham guvohi bo'lib boryapmiz. Mana necha asrlarki inson qalbi doimo go'zallikka, san'atga oshno bo'lib kelgan. San'at insonni ezgulikka boshlovchi beqiyos kuch hisoblanadi. Qadim zamonlardanoq odamlar orasida san'atning turli yo'nalishlari shakllanib, ularning har biri o'ziga xos ahamiyat kasb etib kelgan. Ulardan biri barchamizga ma'lum aktyorlik san'ati hisoblanadi. U qadimdan nafaqat ko'ngilochar jarayon, balki undan ma'lum ijtimoiy, siyosiy vazifalar ham ko'zlangani tarixni yaxshi biladigan har bir o'quvchiga sir emas albatta.

Aktyorlik san'ati badiiy ijodning alohida turi sifatida miloddan avvalgi V asrda Hindiston va Yunonistonda paydo bo'ladi. Keyinchalik Qadimgi Rimda rivojlanadi. Ilk davlatlar va shaharlarning paydo bo'lishi natijasida Turkistonda ham aktyorlik san'atining o'ziga xos ilk ko'rinishlari shakllandi. Aktyorlik san'ati ijrochilarning dunyoqarashi, shaxsiyati, ijodiy o'ziga xosligiga tayangan holda hayotiy voqelikni aks ettiradi [1:9].

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, katta ahamiyatga ega bo'lgan bu san'at turini aholi orasida keng targ'ib qilish, yosh avlodni sohaga qiziqtirishda madaniyat



hodimlarining xizmati katta. Bunga davlatimiz tomonidan ham katta e'tibor qaratilayotganini ko'rib turibmiz.

... adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor – bu avvalo xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor ekanini, buyuk shoirimiz Cho'lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo'q [2:4].

Shunday ekan bu yo'lda tinimsiz harakat qilishimiz lozim. Barchamizga ma'lumki, davlatimiz tomonidan turli xil musiqa va san'at maktablari, san'at va madaniyat kollejlari, ixtisoslashtirilgan san'at ta'lim dargohlari tashkil qilingan va ular sohaga qiziquvchi ko'plab yoshlarni qamrab olmoqda. Ulardan farqli o'laroq madaniyat markazlaridagi aktyorlik to'garaklarini ham tilga olish ayni damda shart deb o'ylayman. Chunki maxsus maktab va kollejlarda yoshlarni professional darajagacha chiqarib berishga xizmat qilsada, ularda yosh chegarasi mavjudligini inkor etib bo'lmaydi. Ammo madaniyat markazlaridagi to'garaklar barcha yoshdagi soha havaskorlarini o'ziga chorlaydi. Shunday bo'lsada bu borada madaniyat markazlari yetarlicha ko'rsatkichlarga erisha olmayaptilar. Shaxsan to'garak rahbarlari bilan bo'lgan suhbatda ularning ko'pchiligi quyidagi bahonalarni aytishdi:

- spektakl qo'yish uchun yetarlicha mablag' yo'q
- tomoshabin yo'q
- aktyor yetarli emas
- sahna talabga javob bermaydi, kiyim kechak, grim uchun sharoit yo'q va hokazo.

Yuqoridagi ro'yxatni yana uzoq davom ettirish mumkin. Bahonalar tugamaydi, harakatdagilar esa muvaffaqiyatga erishmoqdalar. Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan badiiy havaskorlik jamoalari orasida o'z ijod namunalari bilan ajralib turadigan bir qator teatr jamoalari ham borki, ularni misol qilib keltirishimiz ayni muddao bo'ladi

Ulardan biri Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumanidagi Shahrisabz shahar madaniyat markazi qoshida tashkil etilgan Qori Zokir Sodiqov nomidagi xalq teatr jamoasi bo'lib, uning tarixi o'tgan asrning 20-yillariga borib taqaladi.



Ko'p yillar davomida o'z faoliyatini to'xtatmasdan, barakali ijod qilib kelayotgan ushbu jamoaga bugungi kunda tajribali rejissor, dramaturg Sabur Yadgarov rahbarlik qilib kelmoqda. "Bugungi texnika asrida – deydi ustoz Sabur Yadgarov, – yoshlarning san'at sohasiga qiziqishlari katta, ammo ularning otanalari, atrof muhit va jamiyat ta'sirida hayollarida ma'lum kasbni faqat moliyaviy taraflama qarash orqaligina tanlashyapti, oxir oqibatda esa ularda mavjud iste'dod ham yashirin holda saqlanib qolmoqda. Biz ana shunday aholini o'zimizga chorlaymiz, ularni bir jamoada birlashtiramiz." Darhaqiqat jamoaning shu kunlarda xalqqa taqdim etayotgan ijod namunalari haqiqatan maqtovgga arzigulik va professional darajada desak ham bo'ladi.

Tarixdan hozirga qadar Shahrisabz vohasida teatr san'ati yo'lida fidokorona xizmat qilib kelayotgan ushbu teatr keyingi yillarda yana avvalgidek o'z so'zini aytishga bel bog'lab repertuarini ketma-ket yangi, muvaffaqiyatli, yashovchan spektakllar bilan boyitmoqda. Bular – kattalar uchun "Dadajonisi, kechiring" (A.Rahmatov asari), "Uylanish" (S.Yadgarov asari); bolalar uchun – "Sportchi quyon" (S.Yadgarov asari), "O'jar o'rdakcha" (S.Yadgarov asari) spektakllari bo'lsa, yaqinda premyerasi jamoatchilik tomonidan yuksak e'tirof etilgan A.P.Chexovning "Oqqush qo'shig'i" (ikkinchi nomi "Kalxas") asaridir. Ushbu kichik dramatik etyud shaklida yozilgan bu mumtoz asar bir qarashda unchalik katta spektaklga aylanmasligi kerak edi, lekin Sabur Yadgarovning rejissorcha talqini tufayli to'laqonli bir pardali zalvorli asarga aylangan.

Yuqorida sanalgan bir qator muammolar bu jamoalarda bo'lmagan deysizmi?! Albatta bo'lgan va hozir ham mavjud. Ammo shunga qaramasdan aholi orasidan yosh iste'dodlarni kashf etish, katta yoshli qatlamni san'atga qiziqtirish, asosiy ishdan bo'sh vaqtlarini samarali tashkil qilishda hormay tolmay mehnat qilishayapti. Buning natijasi o'laroq, madaniyat markazi doim odamlar bilan gavjum. Madaniyat markazlaridagi aktyorlik to'garaklariga aholini ayniqsa yoshlarni jalb qilish bo'yicha shaxsiy taklif va tavsiyalarimni berib o'tmoqchiman.

Birinchidan, aholining ko'p qismini yoshlar tashkil qilishini hisobga olgan holda maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim muassasalari shuningdek kasb-hunar kolleji va oliy ta'lim dargohlarida madaniyat markazlaridagi to'garaklar faoliyati



haqida targ‘ibotlar olib borish lozim. Bunda faqatgina markaz hodimlarning ma’lum o‘quv muassasasiga borib “leksiya” o‘qib kelishlari bilan ish bitmaydi. Teatr jamoasining yangi spektakl bilan borishi, spektakldan so‘ng aktyor va rejissorlar bilan tomoshabinlar o‘rtasida o‘zaro ochiq suhbat bo‘lishi tomoshabinda albatta sohaga bo‘lgan qiziqishni yaxshigina oshiradi. Ikkinchidan korxonalar, tashkilotlar, dam olish maskanlari, kerak bo‘lsa shifoxonalarda ko‘ngilochar tadbirlar va bayramlar uchun shart sharoitlar yaratib qo‘yilsa maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Uchinchidan reklama bannerlarida katta ekranlarda, metro, televideniye kabi ko‘plab ommaviy axborot vositalarida teatrlar reklamasi, teatrga chorlovlar, to‘garaklar faoliyati haqida ma’lumotlar, uning afzalliklari gapirilsa aholining qiziqishi yanada ortadi. Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki agar ishga ma’suliyat bilan yondashilsa, tartib intizomga amal qilgan holda soha rivoji uchun jon kuydirishsa, hech qanday muammo bo‘lmaydi nazarimda. O‘zbek xalqida “Qalovini topsang qor ham yonadi”, degan naql bejiz tilga olinmagan. Binobarin, bahonalar hech qachon tugamaydi va ular ishdan qochadigan va mas’uliyatsiz rahbarlardan chiqadigan gaplardir. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbarni – bu bosh vazir yoki uning o‘rinbosari bo‘ladimi, hukumat a’zosi yoki hududlar hokimi bo‘ladimi, ular faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lib qolishi kerak.[3:6]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. J.Mamatqosimov. Aktyorlik mahorati. – “Fan va ta’lim poligraf” , Toshkent 2019. 209 bet.
2. Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir // O‘zbekiston ijodkor ziyolilari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi. Xalq so‘zi. 2017-yil 4-avgust.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.



Удк 53:371,3

БЎЛАЖАК ФИЗИКА ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ МАНТИҚИЙ КОМПЕТЕНТЛИЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА КЛАССИФИКАЦИЯ ОПЕРАЦИЯСИНИ ҚЎЛЛАШ

Гулноза Нафасова БАХТИЁРОВА,

Гулистон Давлат Университети "Физика" кафедраси ўқитувчиси

E-mail: gulnozanafasova544@gmail.ru, Тел: 94 1647676

ТДПУ профессори, пед.ф.д Абдуллаева Б.С тақризи асосида

Аннотация: Ушбу мақолада бўлажак физика ўқитувчиларининг мантиқий компетентлилигини ривожлантиришда классификация операциясини қўллаш методлари ўрганилади. Физикани ўқитишда талабалар ўқув фаолиятининг мантиқ қонунларидан фойдаланиш зарурати асосланди.

Калит сўзлар: таснифлаш, мезон, график, агрегат ҳолатлар, ақлий операциялар.

Abstract: This article explores the methods of applying the classification operation in the development of logical competence of future physics teachers. In teaching physics, the need to benefit from the laws of logic in students' educational activities was justified.

Key words: classification, criterion, graph, aggregate states, mental operations.

Аннотация: В данной статье рассматриваются методы применения операции классификации в развитии логической компетентности будущих учителей физики. При обучении физике обоснована необходимость использования законов логики в учебной деятельности учащихся.

Ключевые слова: классификация, критерий, граф, агрегатные состояния, мыслительные операции.

Кириш. Олий таълим муасасаларида физика фанидан талабаларни илмий дунёқарашини шакллантириш, физик ҳодиса ва қонуниятларни моҳиятини чуқур мушоҳада юритиш орқали англаб етиш, талабалар фаоллигини ошириш ва фанга қизиқишларини шакллантириш ҳамда ҳисоблаш ишларини



бажаришда масалалар ечишнинг ўрни алоҳида аҳамиятга эга. Олий таълим тизими физика ўқитиш жараёнида талабаларга физик ҳодиса, қонун ва қонуниятларни, тушунча ва катталиклар ҳақида янги билимларни шакллантириш ва мустаҳкамлашда тўғри фикрлаш қонунларига ўргатиш ва булар орқали чин хулосага эришиш масаласини, бу чинликдан четга чиқмаслик йўллариغا кўникма ҳосил қилиш орқали табиат ҳодисаларини чуқурроқ ўрганиш ва таҳлил қила олишга ўргатишда мантиқий масалалардан фойдаланиш асосий мақсад қилиб қўйилган. Бу жараёнда таснифлаш кўникмасини шакллантириш муҳим аҳамиятга эга.

Классификация -Таснифлаш-бу умумий хусусиятлар ва улар орасидаги мунтазам алоқаларни ҳисобга олган ҳолда гуруҳларга, синфларга тақсимланган ҳар қандай соҳадаги ички бўйсунувчи тушунчаларнинг (объектлар, ҳодисалар синфлари) мантиқий тизими.

Бу ақлий операциядан фойдаланганда ўқувчиларга ҳар бири умумий хусусиятга ега бўлган ҳодисалар ёки предметларни гуруҳларга тарқатиш кераклиги тушунтирилади. Таснифлаш объектларни тизимга бирлаштирадиган моҳиятан кенг тарқалган нарсани ва уларнинг ўзига хос фарқларини аниқлашга имкон беради. Таснифлаш муҳим хусусиятлар (табиий ёки асосий) ва муҳим бўлмаган (ёрдамчи) томонидан амалга оширилиши мумкин.

Бу услуб таснифлаш учун мезонни танлаш; ушбу концепция доирасига киритилган барча объектлар тўпламини ушбу мезон бўйича ажратиш; иерархик таснифлаш тизимларини қуриш каби ҳаракатларни ўз ичига олади .

Ушбу операцияни ўргатишда биз қуйидаги вазифалар турларидан фойдаландик:

- объектларни (ҳодисаларни) ўхшашлик асосида гуруҳларга ажратиш- берилган хусусият (траектория бўйлаб механик ҳаракат турларини, улардан фойдаланиш мақсадига кўра турли хил қурилмаларни таснифланг ва хоказо.);


- дарслик матнидан танланг ва мавжуд маълумотларни илмий билимлар циклига мувофиқ, назариянинг таркибий элементларига мувофиқ тақсимланг: асос, ядро, оқибатлар;

- дарслик матнидан ёки қўшимча (маълумотнома) адабиётлардан

ўрганилаётган объектлар (ҳодисалар, қонунлар) ҳақидаги асосий маълумотларни танлаб олиш ва умумлаштирилган режа тузиш;

- тавсия этилган графиклардан маълум жараёнларни тавсифлайдиганларни танланг;
- физик объектлар ёки ҳодисаларнинг муҳим хусусиятлари асосида ўрганилаётган материални гуруҳлаш бўйича жадвални тўлдириш ёки тузинг.

Масалан, таклиф қилинган графиклардан турли хил газ жараёнини турли координаталарда кўрсатадиган. Ҳар бир жараёнга умумий тавсиф беринг, идеал газнинг параметрлари ушбу жараёнда бўйсунуши қонунини кўрсатинг, жараён давомида термодинамик ишни ифодаловчи чизмани аниқланг(1-расмга қаранг.).




расм. Идеал газ босимининг ҳажмга боғланиш графиклари.

Модданинг агрегат ҳолати мавзусини ўрганишда биз талабаларга модданинг ҳолатини белгилаш мумкин бўлган белгиларни номлашни таклиф қиламиз.


Моддаларнинг турли агрегат ҳолатларидаги хоссалари бир ёки бошқа гуруҳга. Фикрлаш жараёнида ўқувчилар ҳар бир агрегат ҳолатдаги модданинг хоссалари ҳақидаги билимлар системага келтириладиган жадвални тўлдирадилар

(2-расмга қаранг):



2-расм. Модданинг агрегат ҳолати.

Яна бир мисол: ўлчаш асбобларини таснифлаш учун .(3-расмга қаранг):



3-расм. Ўлчов асбоблари

Хулоса қилиб шуни таъкидлаймизки, кўпгина ақлий операциялар ўзаро боғланган, бир-бирини тўлдирди. Ақлий операциялардан фойдаланиш усуллари ва шакллари хилма-хил эканлиги исботланган. Улардан таълим жараёнида усталик билан фойдаланиш муҳим аҳамиятга ега.

Фойдаланган адабиётлар

1. М. Хайруллаев, М. Хақбердиев. Мантиқ, 4-боб. Т.2012.-20 б
2. И. Рахимов. Логикадан амалий машғулотлар ва методик тавсиялар, 4-боб Б:2003.-14 б.
3. Расулов Э.Н., Бегимкулов У.Ш. Квант физикаси I қисм "Фан". 2006. 16-78 бет.
4. Карлыбаева Г.Е. Бўлажак Физика ўқитувчиларининг Методик Тайёргарлигини Такомиллаштириш.(Dsc) Дис.Нукус.2018
5. <https://fizika.edu.uz/>



СИНФДАН ТАШҚАРИ СПОРТ МАШҒУЛОТЛАРИДА ЎҚУВЧИЛАРНИ МИЛЛИЙ ҒУРУР ТУЙҒУСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК- ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Бахтиёр Холмирзаев

НамДУ тадқиқотчиси

***Аннотация:** Ушбу мақолада синфдан ташқари спорт машғулотларида ўқувчиларни миллий ғурур туйғусини ривожлантиришнинг педагогик-психологик хусусиятлари муаммо сифатида ўрганилди.*

***Калит сўзлар:** таълим, фан, маданият, ахборот минтақавий, субминтақавий, миллий ғурур, урф-одат, маросим, миллий анъана, туризм, ифтихор, фахрланиш, маърур, қувонч, ор-номус, миллий онг, қадрият, адолатпарвар, илм, технология.*

Кириш. Республикамизда ҳар бир ҳудуднинг анъанавий миллий ифтихор бўйича спорт маданияти хусусиятларидан келиб чиқиб, ёшлар спорти, велотуризм, таълим спорт туризми билан биргаликда туризмнинг бошқа салоҳиятли турлари бўлган спорт туризмни жадал ривожлантиришга устувор вазифа сифатида қаралмоқда. Шунингдек, кексалар ва оилавий спортни ривожлантириш орқали, ёшлар онгида ўзбекона урф-одат ва маросимларни, миллий анъаналарни тарғиб қилиш, тарихийлик тамойилига кўра глобаллашув ва техноген цивилизация шароитида умумий ўрта таълим мактаби ўқувчиларида миллий ғурур туйғусини такомиллаштириш масалаларига алоҳида эътибор берилмоқда. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 6 февралдаги “Ўзбекистон Республикаси туризми ривожлантириш давлат қўмитасининг фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3510-сонли Қарорида “Туризм хариталари, рисоалар ва китоблар, интернет видеороликлари тайёрлаш” каби долзарб вазифалар белгиланган. 2018 йил 14 августдаги ПҚ-3907-сонли “Ёшларни маънавий-ахлоқий ва жисмоний баркамол этиб тарбиялаш, уларга таълим-тарбия бериш тизимини

сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори ўқувчи-ёшларнинг бўш вақтини мазмунли ташкил этиш, туризм ва спорт билан шуғулланиш соҳасидаги манфаатларини рўёбга чиқаришлари учун дастуруламалдир[1; 2]. Юқоридаги қарорлари, ҳамда бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда илмий ишимизда белгиланган вазифаларни амалга оширишда муайян даражада хизмат қилади.

***Izoh.** Ushbu maqola shakllanishga bag'ishlangan maktab yoshidagi bolalarda jismoniy tarbiya uchun motivatsiyalar. Motivatsiyalarni shakllantirishning asosiy muammolari va ijobiy motivatsiyalarning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillar ko'rib chiqiladi.*

***Kalit so'zlar:** motivatsiya, jismoniy madaniyat, sport*

Актуальность темы состоит в том, что состояние физического воспитания школьников признано неудовлетворительным. В связи, с чем в данной статье были рассмотрены основные пути реорганизации физического воспитания школьников в следующих направлениях; формирование у учащихся надлежащих объемов современных знаний о здоровом образе жизни; о роли и месте в нем различных средств и форм организации физической культуры; привитие соответствующих мотиваций; обучение минимально необходимым методическим приемам их самостоятельной реализации и только на этой базе проведение надлежащим образом организованных практических занятий. Естественно, что действующие в настоящее время программы и планы физического воспитания школьников, основанные на старых воззрениях на предмет «физическая культура», не соответствуют современным требованиям и нуждаются в коренной перестройке. Эффективными и рациональными основаниями этой перестройки могут явиться только специально организованные научные исследования.

Цель исследования - изучить значение путей формирования у детей школьного возраста мотивации к занятиям физической культурой и спортом.



Объект исследования - общая мотивационная потребность в развитии личности детей школьного возраста.

Предмет исследования - деятельность учителя физической культуры по формированию мотивации к занятиям физической культурой и спортом.

Гипотеза исследования - предполагалось, что мотивация к занятиям физической культурой и спортом будет сформирована если:

- учитываются возрастные особенности детей школьного возраста;
- учебно-воспитательная работа осуществляется в соответствии с требованиями, предъявляемые к уроку физической культуры и спорта;
- осуществляется индивидуальный подход к ученику.

В ходе исследования необходимо было решить следующие задачи:

1. Изучить структуру мотивационной сферы личности.
2. Исследовать мнение учащихся по вопросу мотивации к уроку физической культуры в школе.
3. Выявить особенности формирования мотивации у детей школьного возраста к занятиям физической культурой и спортом.

Для решения поставленных задач были использованы следующие методы исследования:

1. Анализ и обобщение литературных данных по вопросу исследования.
2. Педагогические наблюдения.
3. Анкетирование.
4. Беседы.

Цель и задачи реализовывались поэтапно.

Мотивация - это побуждение человека к действию, комплекс мер для достижения какой-либо цели. Мотивация спортсмена играет одну из самых важных ролей в достижении результатов [9].

Важнейшая задача современного общества состоит в том, чтобы вырастить поколение граждан социально активных, образованных, физически и психически здоровых.

Здоровье и физическая подготовленность детей и подростков важнейшие слагаемые здоровья и физического потенциала всего общества. Весь этот



потенциал закладывается в школьные годы. В настоящее время физическое воспитание учащихся практически отодвинуто на последний план, и неудивительно, что уровень физической подготовленности детей и молодежи оценивается как крайне неудовлетворительный.

У большинства школьников наблюдаются функциональные отклонения в различных системах организма, которые при неблагоприятных условиях могут трансформироваться в то или иное заболевание. Большая теоретическая и практическая значимость проблемы мотивации, ее несомненная актуальность, а также недостаточно высокая мотивация к занятиям физкультурой обучающихся, выражающаяся в низкой посещаемости занятий и успеваемости, в ухудшении управляемости школьников со стороны учителей и преподавателей физкультуры, послужили поводом для проведения исследования проблем мотивации учебной деятельности и мотивации к урокам физкультуры.

Работа по формированию мотивации в школах должна вестись в соответствии с принципами здоровьесберегающей педагогики:

1. Принцип не нанесения вреда.
2. Принцип приоритета действительной заботы о здоровье учащихся и педагогов.
3. Принцип триединого представления о здоровье.
4. Принцип субъект - субъективного взаимодействия педагога с учащимися.
5. Принцип формирования ответственности учащихся за свое здоровье.
6. Принцип контроля за результатами.

Работа по формированию мотивации должна проводиться в соответствии с возрастными и индивидуальными особенностями участников образовательного процесса. Для этого необходимо обеспечение условий физического, психического, социального и духовного комфорта, способствующих сохранению и укреплению здоровья субъектов образовательного процесса, их продуктивной учебно-познавательной и практической деятельности, основанной на научной организации труда и культуре здорового образа жизни личности.

Мотивационная сфера школьника является основным компонентом в процессе организации учебной деятельности. Она отражает интерес ученика к



занятиям, его активное и осознанное отношение к осуществляемой деятельности, то есть к учебе. Поэтому так важно с началом обучения формировать у учащегося необходимые для рационализации его учебной деятельности и повышения эффективности педагогических воздействий мотивы, отличающиеся высокой степенью интереса к занятиям физической культурой и убежденностью в целесообразности этих занятий. При этом следует создавать соответствующие внешние условия для деятельности школьников [11].

К специальным средствам воспитания учебно-познавательных мотивов следует отнести наглядные пособия, учебные стенды и учебные карточки. К сожалению, эти самые эффективные средства в школах на уроках физической культуры практически не применяются [9]. В каждой школе следует иметь «Учебный стенд», на котором вывешиваются схемы, рисунки изучаемых двигательных действий. Лучше делать их цветными. Под рисунками пишутся или печатаются теоретические сведения.

Очень эффективны цветные учебные карточки. Большое значение в формировании учебно-познавательных мотивов имеет применение кинофильмов, кинокольцовок и, безусловно, яркие, убедительные разъяснения учителем всех затрагиваемых в процессе физического воспитания психофизиологических и биомеханических закономерностей.

В теории и методике физической культуры и спорта методы физического воспитания подразделяются на специфические и общепедагогические. Общепедагогические методы в свою очередь разделяют на словесные и наглядные методы [15].

В общепедагогические словесные методы входят: лекции, объяснения, они могут быть подробными, что хорошо складывается в пользу ученика усвоения им материала. Так же это может быть разбор, описание и т.д. Оно обычно применяется для изучения простых действий. А также беседы, в форме вопрос-ответ. На своей практике смело можем сказать, что это один из наилучших методов мотивации. Так, беседа помогает учащимся лучше усваивать теоретические знания в области физической культуры и спорта [15].

Специфические методы делятся на игровой и соревновательный метод.



Игровой метод обеспечивает всестороннее, комплексное развитие физических качеств и совершенствование двигательных умений и навыков. Соревновательный метод – это способ выполнения упражнений в форме соревнований [15].

Так же я бы хотела сюда отнести еще один метод. Это метод физических упражнений, как метод мотивации учащихся. Или как его еще называют в спортивной терминологии – это метод строго регламентированного упражнения. В них может входить, например, общие физические упражнения.

Каждый метод должен применяться учителем в школе, для достижения положительной мотивации у детей школьного возраста. Воздействие учителя на сознание и волю ученика может осуществляться в форме проявления внимания к учащемуся, просьбы, требования и принуждения, убеждения, внушения и другие [9].

В научной литературе достаточно накоплено материала, раскрывающего обучающую деятельность современного учителя - новатора физической культуры. Например, ряд авторов акцентирует свое внимание на личностно-ориентированные, здоровьесформирующие технологии обучения. Теоретические занятия, лекции, беседы, то есть методы убеждения, которые повышают интерес к физической культуре.

В настоящее время в практике работы учителей физкультуры используют следующие варианты интерактивных уроков:

- Урок-путешествие, построенный, как правило, на сказочной или реальной основе, где содержание двигательной деятельности согласуется с сюжетом (маршрутом путешествия);
- Тренировочный урок, направленный на закрепление определённых видов движений;
- Урок, построенный на одном движении (один из вариантов тренировочного урока);
- Круговая тренировка, используемая преимущественно для развития физических качеств;
- Урок, построенный на подвижных играх, направленный на



закрепление движений в новых (меняющихся в процессе игры) условиях; урок, построенный на музыкально-ритмических движениях и так далее [3].

Безусловно интерактивный метод дает учащимся проявить творчество и инициативу. Так же не следует отрицать, что учебные стенды, карточки, пособия и другие средства, которые применялись ранее, обладают мотивационными действиями [9].

Матковская, И. Г. указывает, что интерес самих школьников и их родителей к занятиям физической культурой находится на очень низком уровне. Учащиеся во время уроков не приобретают необходимых знаний о физической культуре и ее влиянии на организм, об основных правилах самостоятельного развития двигательных способностей и самоконтроля при этих занятиях, что сказывается на состоянии здоровья и физической подготовленности [10].

Спорт не стоит на месте, а развивается. Для подтверждения данных слов приведем в пример новые виды спорта, такие как фрироуп, слэклайн и воркаут. Это еще одно средство воспитания через новые виды спорта. [11].

Фрироуп («висячие сады», «свободная веревка») - это вид двигательной активности с элементами спорта и экстрима. Он основан на необходимости преодоления участниками полосы препятствий. Слэклайн - хождение по натянутой стропе (стопохождение). Этот развивающийся вид спорта представляет собой особую практику в балансировании, которая заключается в хождении по специальным нейлоновым или полиэфирным стропам (лентам), натянутым между стационарными объектами, так называемыми станциями. Воркаут - одна из разновидностей массовых физкультурных занятий, включающая в себя выполнение различных упражнений на уличных спортплощадках: на турниках, брусках, шведских стенках, горизонтальных лестницах и прочих конструкциях, или просто на земле. В воркауте существует множество элементов. Наиболее распространенные из них: «я» на перекладине, робостайл с утяжелителями, выходы на две руки на перекладине, отжимания от земли или пола, отжимания на брусках, передний вис [11].

Исходя из вышеизложенного, становится очевидным, что правильное



использование психолого-педагогических технологий с учетом составляющих формирования мотивации позволяет не только решать проблему ответственного отношения к своему здоровью и развитию, но и решает задачи охраны здоровья школьников, как в психологическом, так и в физиологическом аспектах. Именно благодаря использованию современных технологий оказывается возможным обеспечить наиболее комфортные условия каждому ученику, учесть индивидуальные особенности каждого ребенка, а следовательно, минимизировать негативные факторы, которые могли бы ему нанести вред.

Заклучение

Физическая культура - как общественное явление занимало важное место в жизни человека на протяжении всей истории его существования. Еще Гиппократ сказал: “Гимнастика, физические упражнения, ходьба должны прочно войти в повседневный быт каждого, кто хочет сохранить работоспособность, здоровье, полноценную жизнь”.

Хронический дефицит двигательной активности в режиме жизни современных школьников стал реальной угрозой их здоровью и нормальному физическому развитию. Негативное влияние гипокинезии на организм учащихся очень велико. У детей двигательный дефицит приводит к тому, что отмечается заметное снижение внимания, координации, точности и быстроты движений, ухудшение зрения.

Занятия физическими упражнениями в любой форме совершенствуют физическое развитие и обеспечивают устойчивость к заболеваниям простудного типа и заболеваниям, связанными с опорно-двигательным аппаратом.

Есть еще фактор, подчеркивающий необходимость физической разрядки в процессе умственного труда – это значительное количество информации, получаемой в школе. Увеличенная умственная нагрузка ускоряет утомляемость, требуя соответствующего роста физической активности. Данную роль выполняет учитель физкультуры, основной целью которого является воспитание здоровых, социально и психологически активных учеников.

Физическое воспитание определяется как целенаправленное воздействие на комплекс естественных свойств организма: стимулирование и регулирование их



развития посредством нормированных функциональных нагрузок, связанных с двигательной деятельностью (физическими упражнениями), а также путем оптимизации индивидуального использования природных условий внешней среды.

Физическое воспитание направлено на формирование двигательных навыков и физических качеств человека, совокупность которых в решающей мере определяет его физическую работоспособность.

Сегодня в нашей стране происходит формирование новой системы физического воспитания, построенной на представлениях о ценности физической культуры в гармоничном развитии личности, создании здорового образа жизни, сохранении здоровья. Физическая культура рассматривается как важнейшая часть государственной программы оздоровления населения, укрепления здоровья, формирования привычек здорового образа жизни у школьников. Разрабатываются многообразные концепции в создании новой системы физического воспитания и образования.

Формирование мотивации к занятиям физической культурой и спортом должно начинаться с младенческих лет и продолжаться на протяжении всего процесса обучения. Для этого необходимо использовать различные методики с учетом возрастного статуса, а также уровня физической и психологической подготовленности. И в дошкольном образовательном учреждении, и в средней общеобразовательной школе, и в вузе необходимо постоянно развивать и поддерживать мотивацию личности к физическому самосовершенствованию, заботе о своем здоровье.

Список использованных источников

1. Алексеев В. А. Физкультура и спорт. М.: Просвещение, 1986.
2. Антонова Л.Н. Психологические основания реализации здоровьесберегающих технологий в образовательных учреждениях / Л.Н. Антонова. - М.: МГОУ, 2014. - 100с.
3. Андронов О. П. Физическая культура, как средство влияния на формирование личности. М.: Мир, 1992.



4. Асеев В. Г. Мотивация поведения и формирования личности. М.: Мысль, 1976. 158 с.
5. Бальсевич В. К. Физическая культура для всех и для каждого. М.: Физкультура и спорт, 1988. 208 с.
6. Бестужев - Лада И.В. Прогнозирование образа жизни // Проблемы социалистического образа жизни. М.,2018. - 264 с.
7. Белорусова В. В. Воспитание в спорте. М., 1993.
8. Борисова И.П. Обеспечение здоровье сберегающих технологий в школе/ И.П. Борисова // Справочник руководителя образовательного учреждения. -2005. - №10. - 136 с.
9. Божович Л. И. Личность и ее формирование в детском возрасте. М.: Просвещение, 1968. 464 с.
10. Брейхман И. И. Валеология - наука о здоровье/ И. И. Брехман - М.: ФиС, 2016. - 217 с.
11. Бутова С.В. Оздоровительные упражнения на уроках / С.В. Бутова // Начальная школа. - 2016.- № 8.- 98 с.
12. Возрастная и педагогическая психология / под ред. А. В. Петровского. М.: Просвещение, 1973. 288 с.
13. Горбунов Г. Д. Психопедагогика спорта. М.: Физкультура и спорт, 1986. 182 с.
14. Добровольский В. К. Физическая культура и здоровье. М.: Медицина, 1967. 75 с.
15. Дуркин П. К. Формирование у школьников устойчивого интереса к занятиям спортом // Теория и практика физической культуры. 1995. № 11. С. 49.
16. Жилиев А. Спорт? Спорт! М.: Советская Россия, 1986.
17. Захарова Е. Л. Как спорт помогает оценивать себя. М., 1988.
18. Ильин Е. П. Мотивация и мотивы. СПб: Питер, 2000. 508 с.
19. Ильин Е. П. Психология физического воспитания. СПб.: Изд-во РГПУ им. А.И. Герцена, 2000. 486 с.



YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA TA'LIMNING O'RNI VA AHAMIYATI

Qo'chqarova Nodira G'olibjon qizi

Namangan davlat universiteti Musiqa ta'limi va madaniyat fakulteti

Kutubxona-axborot faoliyati yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni uchinchi Renessans poydevorini yaratish uchun muhim bo'lgan, davlatning tayanch ustunlaridan biri - ta'limning jamiyat hayotida tutgan o'rni va taraqqiyoti haqida.

Kalit so'zlar: innovatsiya, inklyuziv ta'lim, professional ta'lim, oliy ta'lim,

O'zbekiston Respublikasi mustaqil bo'lgandan so'ng mamlakatimizda turli sohalarda ko'plab o'zgarishlar va islohotlar olib borildi. Bu islohotlarning orasida eng asosiylaridan biri bu-milliy ta'lim tizimidagi tub islohotlar hisoblanadi. "Ta'lim to'g'risida"gi birinchi qonun 1992-yilda qabul qilingan bo'lib, mazkur qonun, avvalo, milliy ta'lim tizimida ilgaridan mavjud ijobiy jihatlarni, istiqbol davrida jamiyatni ma'rifiy va ta'lim-tarbiyaviy bo'shliqdan omon saqlab qoldi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, yosh avlodning jahon andozalariga mos sharoitlarda jismoniy va ma'naviy jihatdan yetuk insonlar bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlash, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallashlari, ularning qobiliyat va iste'dodi, intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, yoshlarimiz qalbida ona yurtga sadoqat va fidoyilik tuyg'ularini kamol toptirish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 -yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonida ijtimoiy soha, xususan, ta'lim va ilm-fan sohalarini takomillashtirish borasida qator vazifalar belgilangan.[1] Ushbu vazifalardan kelib chiqib, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ta'lim tizimini takomillashtirish, o'quv adabiyotlari bilan sifatli ta'minlash, shuningdek, ilg'or xorijiy tajribaga mos



ravishda ta’lim tizimini yaratish va amaldagi ta’lim tizimini isloh qilish bo’yicha bir qancha o’zgarishlar bo’ldi.

Shu jumladan, ta’lim sohasidagi munosabatlarni tartibga soladigan O’zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ta’lim to’g’risida”gi qonuni qabul qilinib, ushbu qonun 2020-yilning 23-sentabr kunidan kuchga kirdi. Mazkur qonunga ko’ra ilk bor inklyuziv ta’lim joriy etildi. Inklyuziv ta’lim - alohida ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta’lim oluvchilar uchun ta’lim tashkilotlarida ta’lim olishga bo’lgan teng imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilgan ta’lim olish shakli hisoblanadi.

Qonunga muvofiq, ta’lim turlari quyidagilardan iborat bo’ldi:

- maktabgacha ta’lim va tarbiya;
- umumiy o’rta va o’rta maxsus ta’lim;
- professional ta’lim;
- oliy ta’lim;
- oliy ta’limdan keyingi ta’lim;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- maktabdan tashqari ta’lim. [2]

Bugungi kunda yoshlarni bilim olishga bo’lgan ishtiyoqlari avvalgi yillarga qaraganda ancha oshib bormoqda. Bu esa o’z navbatida oliy o’quv yurtlarini ko’payishiga olib kelyapti. Shu bilan birga, ta’lim berish faoliyati yanada takomillashtirilib, xalqimizning asrlar davomida shakllangan ilm-fan sari olg’a intilish fazilati yana bir bor namoyon bo’lmoqda. Yoshlarimiz sog’lom hamda go’zal turmush kechirish, egallagan kasbi bo’yicha doimiy ish o’rniga ega bo’lish, mas’uliyatni o’z zimmasiga olish, insoniy qadr-qimmatini kamsitishga yo’l qo’ymaslik, qisqa qilib aytganda, komillikka erishish uchun harakat qilyapti va bu jarayonda ta’lim olishni eng asosiy shart sifatida ko’rmoqda.

Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug’aniyevich Karimov takidlaganlaridek: “Barkamol avlod O’zbekiston taraqqiyotining poydevori, kelajakda O’zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodiyoti bilangina emas, balki bilimdon, ma’naviy jihatdan yetuk farzandlari bilan ham jahonni qoyil qoldirishi lozim”. [3] Haqiqatda ham, davlatni yoshlar, ya’ni har tomonlama yetuk, barkamol, bilimli va vataniga sodiq



bo'lgan jonkuyar yoshlarga baland cho'qqilarga olib chiqishi mumkin. Shu sabab ham yurtimizda yoshlarga bo'lgan e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bugungi kunda yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirish, huquqiy ongini o'stirish va ularni qonunga hurmat-e'tibor ruhida kamol toptirish maqsadida turli yo'nalishdagi sohalarda yoshlar uchun ko'plab shart-sharoitlar yaratib kelinmoqda.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, biz keng ko'lamli demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. Bugun tobora kuchayib borayotgan talablarga javob berish maqsadida harakat qilish zarurligini chuqur his etyapmiz. Oldinga, yangilanish sari bir necha qadam qo'yish uchun esa xalqimiz asrlar davomida to'plagan bebaho tajriba, ya'ni kadrlar tayyorlash bo'yicha hamda ilmiy-ta'limiy sohada erishilgan yutuqlar, uslubiy, tuzilmaviy, moddiy va nihoyat, innovatsion rivojlanish tajribasini hisobga olish hamda undan foydalanish lozim.

Ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlik bo'yicha ham bir qancha normalar belgilanib, bunda ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari xorijiy davlatlarning tegishli vakolatli organlari, ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilishi, O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi fuqarolarni xorijiy davlatlarning ta'lim muassasalariga o'qish uchun yuborishi, pedagog xodimlar va ta'lim oluvchilar almashinuvini amalga oshirishi, rahbar hamda pedagog xodimlarning xorijiy davlatlarda tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etishi, o'z xodimlari hamda mutaxassislarini xalqaro konferensiyalarga va stajirovkalarga yuborish, ularning xalqaro loyihalar hamda ilmiy tadqiqotlarda ishtirok etishini qo'llab-quvvatlab borishlari belgilab qo'yildi. O'zgarishlar yo'lidagi islohotlarning yana bir muhim jihatiga to'xtalib o'tish joiz. Zamonaviy hayotni ayniqsa, bugungi ilm-ma'rifat va ta'limni taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Jahonning yetakchi davlatlarida ta'limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanishi ham bejiz emas. Negaki, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo'lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, har qanday davlatni yuksalishida, rivojlanib dovrug' topishida birinchi navbatda sifatli ta'lim va tarbiyaning o'рни



beqiyosdir. ta'lim muassasalarida pedagog kadrlar salohiyati va ta'lim sifatining oshirilishida, oliy ta'lim muassasalariga eng iqtidorli yoshlarning qabul qilinishida, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli hamda tizimli o'zgarishlarda ta'lim muassasalarining faol ishtirok etishini ta'minlashda hozirda qabul qilinayotgan qaror va qonunlar anchayin qo'l keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://president.uz/uz>
2. <https://lex.uz/ru/docs/-20596>
3. <https://xs.uz/uz/post/talim-tizimi-islohotlari-ozbekistonda-yangi-ujgonish-davri-pojdevorini-yaratadi>
4. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/uzbekiston-talim-tizimida-uzgarishlar-bormi>
5. <https://zamin.uz/uz/jamiyat>



ТА'ЛИМДА МЕНЕЖМЕНТ

УДК 373.3.016:74

ТАЛАБАЛАРНИ ПЕДАГОГИК ФАОЛИЯТДА МЕНЕЖЕРЛИККА ТАЙЁРЛАШ МАЗМУНИ

Тожибаева Назокатхон КОБИЛЖОНОВНА,

Низомий номидаги тошкент давлат педагогика университети
Аниқ ва табиий йўналишларда хорижий тиллар кафедраси в.б доценти,

Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

E-mail: nazokat.tojibaeva.87@inbox.ru Тел: +998935317505

Гулистон давлат университети профессори,

*п.ф.д. **Б.Рахимов** тақризи асосида*

Аннотация. *Мақолада таълим тизимини ривожлантириш йўналишида амалга оширилаётган ислохотлар барча таълим муассасаларида таълим жараёнини илмий асосда ташкил этиш ва бошқаришда фан-техника ютуқларига асосланган бошқарувнинг энг самарали, инновацион методларидан фойдаланишни, бошқарув йўналишида билим, кўникма ва малакаларни, янги шахсий ва касбий сифатларни талаб қилади, бу ўз навбатида педагоглар орасидан менежерлик кўникмасини ривожлантиришнинг зарурияти ҳисобланади ва мақолада шу ҳақида маълумот берилади.*

Калит сўзлар: *менежер, менежмент, маркетинг, лидер, мақсадли заруриятлар, жамоа заруриятлари, индивидуал заруриятлар, молиявий ва меҳнат ресурслари, ахборот, Top management, Middle management, Lower management.*

Аннотация. *В статье реформы, реализуемые в направлении развития системы образования, требуют использования наиболее эффективных, инновационных методов управления, основанных на научно-технических достижениях, в научной организации и управлении образовательным процессом*



во всех образовательных учреждениях, знаний, умений и компетенций в направлении управления, новых личностных и профессиональных качеств, что в свою очередь, необходимо для развития управленческих навыков у педагогов, и в статье представлена информация об этом.

Ключевые слова: менеджер, менеджмент, маркетинг, лидер, целевые потребности, командные потребности, индивидуальные потребности, финансовые и человеческие ресурсы, информация,

Annotation. *The article discusses the development of a seminar-training program for the formation of strategic planning, management and leadership skills of students in higher education institutions, the most effective technologies based on scientific and technological achievements and the preferred and science-based tools of teachers. thought.*

Key words: *manager, management, marketing, leader, target needs, team needs, individual needs, financial and human resources, information, Narrow management, Middle management, Lower management.*

Кириш. Маълумки, ҳар бир шахсда ўсиш ва ривожланиш мотивацияси мавжуд. Педагог шахси камолотига таъсир этувчи ижтимоий омилларнинг аҳамиятини таълим муассасаси раҳбарлари англашлари лозим. Ҳар бир раҳбар бошқарув фаолиятини педагогик жамоа таъсирида амалга оширади. Педагогларнинг фаолиятига таълим муассасида яратилган шароит ва ижтимоий буюртма талабларидан келиб чиқиб, қўйилган мақсадларни амалга оширишда педагогик жамоадаги психологик муҳит ўз таъсирини кўрсатади. Педагоглар жамоаси жамиятнинг бир бўлаги сифатида унинг барча меъёр ва қоидаларини қамраб олади. Ғоявий, ижтимоий, сиёсий, ҳуқуқий, ахлоқий ва бошқалар. Олий таълим жараёнида бўлажак мактабгача таълим ташкилотлари тарбиячиларини ўқитилаётган фанлар кесимида лидер сифатида тарбиялаш ва менежерлик сифатларини ривожлантириб бориш келажакда катта самарадорликка олиб келади.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Олий таълим тизими талабаларини лидерликка йўналтирилган турли ёндашувлар, унинг мезонларига оид



манбалар В.И.Байденко, Г.И.Ибрагимова, В.А.Кальней, А.М.Новикова, М.В.Пожарской, С.Е.Шишова Н.В.Тарасова [5] асарларида тадқиқ этилган. Уларнинг қарашларида педагогикада инсонга нисбатан ахлоқий муносабатлар, шахснинг ўзлигини намоён этувчи хусусиятлар билан уйғунлаштирилиши вазифа қилиб қўйилган. Мамлакатимизнинг бир қатор олимлари Н.М.Муслимов Б.Ходжаев М.Б.Ўразова Ў.Қ.Толипов [9]лар ўз илмий ишларида ўқувчи-ёшлар орасидаги ҳулқ ва интизом муаммоларига мурожаат қилганлар. А.Д.Держания томонидан талабаларининг ташкилий-менежерлик кўникмалари тадқиқ этилган, у қуйидаги таърифни беради: «Ташкилий-менежерлик кўникмалари ўқув жараёнини таҳлил қилиш, мақсадлар ва уларга эришишнинг муқобил усулларини таърифлаш, оптимал ечимни танлаш бўйича ҳаракатларни бажариш, қабул қилинган қарорни бажариш, жамоадаги муаммони ҳал қилишдан иборатдир».

Илмий манбалар таҳлили педагогик тажрибалар натижалари ёритилган илмий ва ўқув адабиётлари, дастурларнинг таҳлили ҳозирги вақтда мактаб интизоми муаммосига ягона ва тизимли ёндашув йўқ, деган хулоса чиқаришга асос бўлади. Яратилган айрим ўқув ва методик қўлланмалар, тавсиялар мазкур камчиликни тўлиқ бартараф этиш имконини бермайди[10].

Тадқиқот методологияси. Олий таълим ташкилоти талабаларининг менежерлик кўникмасини ривожлантиришда стратегик ёндашувлар ва уларни ташкил этиш механизмларини белгилашда педагогик кузатув, тажрибаларни ўрганиш ва умумлаштириш, тадқиқот мавзуси бўйича суҳбатлар ташкил этиш, тадқиқот натижаларини умумлаштириш.

Таҳлил ва натижалар. Тилимизда “менежер”, “менежмент”, “маркетинг”, “лидер” каби тушунчалар тез-тез қўлланилмоқда. Баъзан ташкилотлар директори ҳақида гапирганда, у яхши менежер дейишади. Бу эса, уни эски буйруқбозлик ва бюрократия тизимидаги бошқарув услубидан тубдан фарқ қилувчи замонавий раҳбар эканлигини, ташкилотдаги ишларни ташкиллаштиришда бошқарувнинг замонавий усуллари қўллашнинг англатади.

Кўплаб «менежерлар мактаби» очилаётган, «менежерлар клуби» тузилаётган, «менежерлар семинари» ўтказилаётган бўлса ҳам, инсон онгидаги



муассаса менежери ва директори ўртасидаги тафовут тўла шаклланиб улгурмаган.

“Менежер” ва “менежмент” сўзлари ўтган аср бошларидаёқ инглиз тилида муомалада бўлган. 20 асрнинг иккинчи чорагидан бошлаб эса, бошқарувнинг замонавий усуллари ёрдамида аниқ белгиланган вазифани бажарувчи шахсга нисбатан менежер сўзи қўлланила бошланган[5].

Менежер ҳар доим ҳам таълим муассасаси раҳбари ёки юқори лавозимдаги шахс бўлиши шарт эмас. Менежерлар бошқарувнинг барча соҳаларида фаолият юритишади, америкаликлар таъбири билан айтганда, менежер бу ташкилотда ўзига бириктирилган маълум миқдордаги педагоглар билан ўзига юкланган топшириқни бажарувчи шахсдир.

Ғарбда менежерларнинг қуйидаги даражалари мавжуд:

- Top management - бошқарувнинг олий даражаси, масалан, бош директор.
- Middle management - бошқарувнинг ўрта даражаси, масалан, бўлим раҳбари.
- Lower management - бошқарувнинг қуйи даражаси, масалан, кичик бўлим ёки бўлинма раҳбари[5].

Менежер томонидан амалга оширилган ҳар қандай ҳаракат, қабул қилинган ҳар қандай қарор бошқарув тусига эга бўлган воқеа саналади. Менежернинг фаолиятини эришилган ютуқлар ва кўрсаткичлар билан ўлчаш мумкин. Менежмент фандаги назариядан кўра кўпроқ амалиётга яқинроқ.

Муҳими менежментда - ўз олдига жамоа манфаатларига мос келувчи мақсад қуйиш, яъни management by objectives (мақсадли менежмент). Айнан шу жойда менежер ҳамда эски услубдаги раҳбар ўртасидаги фарқ юзага чиқади. Менежернинг вазифаларидан яна бири бу мавжуд вазиятдан оқилона фойдаланган ҳолда ташкилот рентабеллигини таъминлашдир

Бошқарувнинг асосий вазифаси—таълим муассасасининг муваффақиятли фаолияти учун шароит яратиш. Педагогик олий таълим муассасаларида талабаларнинг стратегик режалаштириш, менежмент ва лидерлик кўникмаларини шакллантириш мақсадида тадқиқот ишимиз доирасида семинар



тренинг дастури ишлаб чиқилди[5]. Дастур асосида танлаб олинган педагогик олий таълим муассасалари талабалари учун қуйидаги машғулотлар ишлаб чиқилди.

Менежмент тушунчаси тавсифлаш ва талабаларга тушунтириш.

Ҳозирда ташкилот бошқаруви шундай мураккаб ишки, буни ҳар ким ҳам бажара олмайди. Шу туфайли деярли барча йирик ғарб компанияларида раҳбарият ишчи гуруҳлари сифатида шакллантирилган ва бир киши бошқарувчи сифатида намоён бўлади. Гуруҳнинг бошқа аъзолари ҳам ушбу раҳбар билан тенг ҳуқуққа эга.

Лойиҳаларни бошқариш - лойиҳани амалга ошириш учун зарур бўлган иш тартиблар ва ёндашувлар тизими.

Лойиҳаларни бошқариш - мавжуд ресурслардан самарали фойдаланган ҳолда, режалаштириш, ташкиллаштириш, рағбатлантириш, назорат жараёнлари ёрдамида қўйилган мақсадга эришиш.

Раҳбарлик - «конунчилик» ҳарактерига эга бўлган буйрук, маслаҳат, назорат ва қоидаларни ишлаб чиқиш.

Лойиҳа - вақти чекланган ва мураккаб вазифа. Лойиҳаларнинг ташкилий формаси сифатида «лойиҳавий менежмент» хизмат қилади ва у матрицали кўринишдаги махсус штаб ёки алоҳида структуравий бирлик ёрдамида амалга оширилади.

Дастур - бирор мақсадга қаратилган лойиҳалар ва тадбирлар йиғиндиси.

Бошқарув - буйрук бериш, идора қилиш ва йўналтириш, яъни ишлаб чиқарилган қоидаларни амалда қўллаш.

Режалаштириш - мақсадга эришишга қаратилган ҳаракатлар кетма-кетлигини аниқлаш билан боғлиқ фаолият.

Ташкиллаштириш - ташкилот мақсадини мужассамлаштириш учун тошпириқ ва вазифаларни тақсимлаш, система ва унинг элементлари ўртасида боғлиқликни юзага келтириш.

Мувофиқлаштириш - ташкилотдаги бўлимлар, лойиҳалар, йўналишлар ўртасидаги ўзаро муносабатни таъминлаш.



Бошқарувнинг лойиҳавий структураси - аниқ вазифалар мажмуасини бажарилишни таъминловчи структура. Унинг моҳияти шундаки, лойиҳани белгиланган муддатда амалга ошириш учун мавжуд материал, молиявий ва меҳнат ресурслари ёрдамида энг малакали мутахассисларни жалб қилиш.

Ахборот - материал, молиявий ва меҳнат ресурсларига ўхшаган корхонанинг ташқи алоқавий ресурси.

Бўлажак тарбиячи шахсини муваффақиятли касбий шаклланиши, бўлажак раҳбар ва лидер бўлиб шаклланиши, ўз устида катта қизиқиш билан ишлаши, янги билимларни ўзлаштириши, таълим муассасаларини бошқариш ва иш фаолиятини самарали ташкил этишга қаратилган маълумотларни ўрганиши, яъни менежерлик кўникмаларни ривожлантириш жараёнларини ташкил этиш воситаларига боғлиқ.

Бўлажак мактабгача таълим муассасалари тарбиячиларида менежерлик кўникмаси ривожлантириш жараёнларини ташкил этиш механизмлари фан-техника ютуқларига асосланган энг самарали технологиялар ва ўқитувчилар ўз фаолиятида афзал билган ҳамда илмий асосланган барча воситалардан ташкил тошган тизим сифатида қаралади. Бунда бир томондан менежерлик кўникмасини ривожлантириш жараёнларидаги ҳамкорликдаги фаолият, бошқа томондан тарбиявий муносабатлар касбий кўникмаларни ривожлантириш жараёнларини такомиллаштиришда муҳим аҳамият касб этади.

Бўлажак мактабгача таълим муассасалари тарбиячиларида менежерлик кўникмаларни ривожлантириш жараёнларида ўқитувчилар билан талабаларнинг ҳамкорликдаги фаолиятини ташкил этиш, яъни субъект-субъект муносабатларини шакллантириш тарбиявий муносабатлар асосида амалга оширилади ва мазкур жараёнда менежерлик кўникмаси ривожланиб боради. Тарбиявий муносабатлар жараёнларининг ривожланиши менежерлик кўникмасини ривожлантириш муҳитида ўқитувчи ва талабаларнинг ҳамкорликдаги фаолияти самарадорлиги ҳамда интегратив ва дидактик машғулотлар билан узвий боғлиқ бўлади.

Айрим мутахассисларнинг фикрига кўра, лидерлик жамоа фаолиятининг самарадорлигини оширишда раҳбарлик тушунчасини тўлдиради. Г.Кунц ва



С.О.Даннелларнинг аниқлашича, агар бўйсунувчилар раҳбарлар томонидан ўрнатилган тартиб-қоидалар ва эҳтиёжларга кўра бошқарилса, улар ўз имкониятларининг тахминан 60 ёки 65% даражасида ишлаши мумкин, яъни ўз ишида сақланиб қолиш мақсадида, шунчаки ўз мажбуриятларини қониқарли даражада бажаради, бўйсунувчиларнинг имкониятларидан тўлиқ фойдаланиш учун, раҳбарлар лидерликни амалга ошириш билан уларда тегишли мулоҳаза шакллантириши зарур”

Менежерлик кўникмасини ривожлантириш воситаларининг назарий-методологик асослари педагогик жараёнларнинг янги шаклини вужудга келтирувчи, таълимнинг таркибий тузилишининг сифатларини белгиловчи янги ғоялар ҳисобланади.

Талабаларда педагогик фаолиятда менежерлик кўникмасини ривожлантириш воситаларини тавсифловчи интегратив хусусиятларни қуйидаги гуруҳларга ажратиш мумкин:

- инновацион тартибда фаолият кўрсатишни ташкил этишнинг умумий тамойиллари;
- бўлажак тарбиячиларнинг касбий-педагогик маҳоратини ривожлантириш ва такомиллаштириш билан боглиқ бўлган ғояларнинг мавжудлиги;
- ижтимоий организм сифатида жамоани ривожлантириш ва бўлажак тарбиячи-ихтирочилар жамоасини вужудга келтириш бўйича ташкилий-методик фаолият;
- янги таркибий тузилишга эга ва мазмунан ривожлантирилган таълим дастурларини такомиллаштириш ва амалиётга жорий этиш;
- таълим субъектларининг психологик-педагогик жихатдан қўллаб-қувватлаш;
- таълим муассасасида психологик хизматни такомиллаштиришда субъектларнинг индивидуаллигини инобатга олиш;
- таълимий ва тарбиявий вазифаларни амалга ошириш ва ривожлантириш учун ўзаро бириккан талаба, ўқитувчи ва ота-оналарнинг ҳамкорлигини вужудга келтириш. Бундай ҳолларда бошқарув функциялари сифатида тарбиячи ва тадқиқотчи функцияларини ҳам бажариши зарур.



Ташкилотнинг риважланиши, кўп жihatдан Сизнинг персонални бошқариш услубингизга боғлиқ бўлади. Педагогларга турлича раҳбарлик қилиш мумкин: умуман уларнинг ишига аралашмасликдан бошлаб, то қўл остидагиларни ҳукмронлар сингари бошқаришгача, персонал бошқарувининг табиий услуби, одатда, юқорида келтирилган ҳолатларга йўл қўймайди. Одатда, бошқарувнинг икки муҳим туридан фойдаланилади: «маъмурий буйрук» ёки «демократик». қўл остингиздагиларга бўлган муносабат, мавжуд бўлган муаммоларни бартараф этиш. Персонал бошқарувининг қайси услуби, сизга хослигини ўз ҳамкасбларингиздан, дўст ва қариндошларингиздан фикрларини билиб олинг.

- Педагогларнинг ишига умуман аралашмаслик
- ҳар хил хизмат топшириқлари орқали бошқариш
- қийинчиликларни ҳамжихатликда амал қилиш
- қандайдир масалани ечимида қўл остидагиларнинг фикрини инобатга олиш
- Бошқарувнинг маъмурий буйрукбозлик (буйрукли) услуби
- Қўл остидагилар билан муносабатда диктатор услуби

Баъзан, масалан, тезкор ишни бажаришда диктатор ҳам бўлиш керак. Бундай вазият батафсил режа ёки ихсодий ёндашувни талаб қилмайди. Гоҳида шундай вазиятлар бўладикки, бошқарувнинг диктат услубини умуман қўллаб бўлмайди. Баъзи раҳбарлар рўй бериши мумкин бўлган ноҳуш вазиятлардан ва ушбу мураккаб масалани ечимини топишдан қочиш учун онгли равишда ишларга «қўмилиб кетадилар». Эслаб кўринг, охириги бир неча ҳафта ичида педагогларингизни вазифасини ўзингиз бажарган вазиятларга учрамаганмисиз? Сиз жамоанинг оддий аъзоси ролини эмас, унинг раҳбари вазифасини бажараётганингизни англашингиз муҳим.

Бундай ҳолларда «уч заруриятлар бирлиги модели» дан фойдаланилади.

- Мақсадли заруриятлар
- Жамоа заруриятлари
- Индивидуал заруриятлар



Ушбу моделдан персонални бошқарадиган барча менежерлар эътиборини уч қисмли масалани ечиш учун фойдаланилди.

- Қўйилган мақсадга эришиш
- Педагоглар жамоасини ҳамфикрлар жамоасига ўзгартириш
- Алоҳида педагогларнинг индивидуал заруриятларини максимал тўлиқ қониқтириш учун қулай муҳит яратиш.

Педагогларнинг вазифаларни бажаришга тайёрлик даражасини ўрганиш куйидаги жадвал асосида тавсифланди(1-жадвалга қаранг):

**Педагогларнинг ишга лаёқатлилиги, лидернинг бошқарув
усули тўғрисида фикрлар**

1-жадвал

Педагог	Лидер
Тайёрлик даражаси №1	Бошқарув усули №1
Қила олмайди ва хоҳламайди, ўзига ишонмайди	Аниқ, кўрсатма тўлиқ бажарилишини назорат қилинг. Қаттиқўллик, кам гаплилик
Тайёрлик даражаси №2	Бошқарув усули №2
Қила олмайди лекин хоҳлайди ёки ўзига ишонади	Қарорларингизни тушунтиринг ва саволларга шароит яратиб беринг Қаттиққўллик, кўп мулоқотда бўлиш
Тайёрлик даражаси №3	Бошқарув усули №1
Қила олади лекин хоҳламайди ёки ўзига ишонмайди	Фикр алмашиш ва педагоглар қарор қабул қилишига ёндашиш Дўстона муносабат ва кўп мулоқотда бўлиш
Тайёрлик даражаси №4	Бошқарув усули №1
Қила олади ва хоҳлайди ёки ўзига ишонади	Қарор ишлаб чиқиш унинг ижросини таъминлаш Дўстона муносабат ва кам гап



Юқори даражали менежер кўйилган масалани уддалашга кодир. Қобилияти паст менежер ушбу масалани ҳал қилишда бир томонига аҳамият бериб, иккинчисига зарар етказиши мумкин. Бунинг оқибати нимага олиб келади? Албатта педагогларнинг вазифаларини бажаришга тайёрлик даражасини ўрганишга олиб келади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Аҳлидинов Р. Ш., Носирова Ф. А., Ражабова М. Р. Мактаб бошқарувида ички назорат. - Тошкент: "Шарқ", 1996.
2. Аҳмадхўжаев Ҳ. Т., Мирдадаев К. М., Қозоқов О.С. Менежмент ва стратегияни бошқариш. - Тошкент: "Илм Зиё", 2004.
3. Аширов Д.А. —Управление персоналом-М.: Высшее образование и наука, 2001.
4. Йўлдошев М, Назарова Н. Раҳбарлик психологиясида ахлоқ. Т.2010.190 б.
5. Кабатченко, Т. Психология управления / Т. Кабатченко. - М.: Просвещение, 1996.-264 с.
6. <http://www.pedagog.uz>

BOSHQARUVDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH

Ashiraliyeva Malikaxon Qaxramon qizi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Mo'minmirzo Xolmo'minov Zokir o'g'li

mominmirzoxolmominov@gmail.com

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi kunda boshqaruv jarayonidagi texnologiyalarni to'g'ri qo'llash usullari, ularni zamon nafasiga mos tarzda takomillastirish haqida muolazalar yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** obyekt, menejment, strategiya, konsultativ mehnat, Pablik Rileyshnz, eksperiment, nazorat, subyekt.*



Аннотация: В данной статье рассматриваются методы правильного применения технологий в процессе управления на сегодняшний день, их совершенствование в соответствии с духом времени.

Ключевые слова: объект, управление, стратегия, консультативная работа, связи с общественностью, эксперимент, контроль, субъект

Abstract: This article discusses the methods of correct application of technologies in the management process today, their improvement in accordance with the spirit of the times.

Key words: object, management, strategy, consultative work, Public Relations, experiment, control, subject.

Hayotning bu yo’sinda jadallashib ketishiga sabab, albatta, zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalarning sezilarli ravishda yuqoriga ko’tarilib borishidir. Aynan, boshqaruv va san’at sohasida ham bir qancha yangi-yangi ixtirolar qilindi. Asosiy maqsad – kelajak avlodga meros qilib qoldiriladigan boyliklar – qadriyatlar, san’at, xalq og’zaki ijodi, tarixiy va qadimiy marosimlar – kabilarni bus-butun yetkazib berishdir.

Zamonaviy boshqaruvga e’tibor berilsa, bugungi tashkilotda eng ishonchli va itoatkor boshqaruv obyekt sifatida faqatgina ofisdagi moslama va uskunalarni sanab o’tish qoldi. Bevosita boshqaruv obyekt sifatida tushuniluvchi xodimlar esa murakkab boshqaruv jarayonining “ehtimolli” elementiga aylangan. Mana shu “element” bilan o’zaro ta’sirda bo’lish, doimo uni maqsad sari undash va bir og’iz so’z bilan aytganda, bugungi boshqaruv samarasi, asosan, rahbarning psixologik uquviga bog’lik.

Boshqaruvni yanada mukammallashtirish borasidagi izlanishlarning ko’lami shunchalik kengki, ular bir qaraganda faqat bir mavzu atrofida jamlanib, ko’rinsa-da, lekin ularning rang-barangligi boshqaruv ilmida mavjud. Bu esa o’zaro ziddiyatli g’oyalarning paydo bo’lishiga olib kelmoqda. Boshqaruvning spetsifik jihatga egaligi haqidagi fikrni davom ettirish psixologiya, xususan, boshqaruv psixologiyasining predmetli sohasini aniqlab olish imkonini beradi. Qator tahlillar asosida shunday xulosaga kelamizki, boshqaruvdagi psixologik hodisalarni uch asosiy guruhga kiritish mumkin:



— boshqaruv subyekti - rahbar.

— boshqaruv obyekt - xodim.

— boshqaruv subyekti va obyekt o’rtasidagi munosabatlar[1:10]

Boshqaruv jarayonini tashkil etishda albatta obyekt va subyekt o’rtasidagi munosabatlar ularning shaxsiy manfaatlaridan ham muhimroq sanalishi, ish yuzasidan qaror qabul qilinganda ularga to’sqinlik qilmasligi lozim. Bunda asosiy shaxs – ya’ni subyekt to’g’ri buyruqlar bersagina, keyingi bo’g’in – obyekt (xodim) ga samarali ta’sir eta oladi.

Menejment ostidagi ijtimoiy boshqaruvning zamonaviy nazariyasi va amaliyotda alohida ishlovchi, ijtimoiy guruh yoki butun jamiyatni boshqarish jarayoni tushuniladi. Zamonaviy sharoitlarda boshqaruv jarayoni qiyinchiliklarni o’sishida boshqaruvga xizmat qiluvchi maxsus mehnat turi – konsultativ mehnat shakllanmoqda. Rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda ekspert baholarini ishlab chiquvchi va rahbarlarga maslahatlar beruvchi ko’pgina jamiyatlar, idoralar, tashkilotlar faoliyat yuritadi. Ko’pchilik olimlar boshqaruv bo’yicha mutaxassislar va tashkilot rahbariyati o’rtasida kommunikatsiyalar tizimini yaratish kerak degan fikrda[2:50].

Konsultativ - mutaxassisning yoki bilimdon, omil kishining biror masala bo’yicha maslahati degan ma’noni anglatadi. Ya’ni zamonaviy boshqaruvni yo’lga qo’yishdan avval fikr almashish, foyda-ziyon kabi yo’llarni ko’rib chiqishlari kerak. Aynan bu ishni rahbariyat tabaqasida o’tkazilishi lozimligi olimlarning tadqiqotlarida isbotlangan.

Masalan, PR (public relations) asoschilaridan biri Edvard Bernayz ushbu iboraning mohiyatini “jamiyat manfaatlarini yo’lidagi harakatdir” deb ta’riflagan. Demak, bundan Pablik Releyshnz “AQShda paydo bo’lgan bevosita siyosiy jarayonlar mahsuli” bo’lgani oydinlashadi. Oradan bir asr vaqt o’tib, alohida fan sifatida voqelikka aylangan PR tarixi o’sha davrdagi hodisalardan kelib chiqadi. Public Relations (PR – jamoatchilik bilan aloqalar) haqida bo’lib, uning sotsiologiya, psixologiya yoki antropologiyaga aloqasi yo’q. Shunga qaramay, PR ning o’ziga xosliklarini bilib olish va PR-usullarni amaliyotda samarali qo’llash uchun odamlar ta’sirga qanday munosabat bildirishini, ularning tashqi dalillarini tushunish,

insonning jamiyatda, ishbilarmon va madaniy muhitlarda o'zini qanday tutishini bilish kerak bo'ladi. Pablik Rileyshnz jurnalistika tarkibidan ajralib chiqqan. "Pablik Rileyshnz shaxslar, tashkilot va bir guruh kishilarning o'zaro hurmatga asoslangan munosabatlarini o'rnatish bo'lib, u turli materiallarni tarqatish, axborot almashinuvi va jamoatchilik reaksiyasini baholashga suyanadi".

Pablik Rileyshnzning (Jamoatchilik bilan aloqalarning) asosiy belgisi va uni yetkazuvchi omil zamonaviy axborot texnologiyalaridir. "Jamoatchilik bilan aloqalar" texnologiyasi orqali auditoriya, jamoa, turli guruhlar, davlatlar va xalqlar o'rtasida integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi, fikrning erkin almashinishi, axborot berish va olish omillari izohlanadi[3:137].

Hozirgi kunda axborotlarning eng tezkor tarqaladigan usuli bu ijtimoiy tarmoqlar hisoblanadi. Shu imkoniyatdan unumli foydalanish ham mumkin. Jamoatchilikka innovatsiyalarni tadbqiq qilish orqali eng tez va foydali eksperiment o'tkazilishi mumkin. Bunda internet yoki shunga o'xshash saytlarda savol-javoblar tarzda so'rovlar olib borilishi, yig'ilgan fikrlardan eng yaxshisini tanlab olinishi maqsadga muvofiq ishbilarmonlik bo'lar edi.

Zamonaviy menejment tarkibiy qismi sifatida san'at menejmenti o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

- san'at tashkilotining rivojlantirish maqsadlarini aniqlash;
- uning strategiyasini ishlab chiqish;
- muammolarni yechish uchun tadbirlar tizimini ishlab chiqish;
- vazifalarning bajarilishini nazorat qilish.

Zamonaviy menejmentning keltirilgan vazifalariga ko'ra, har bir tashkilotning belgilangan vazifalari bilan qiyoslasa bo'ladi. Muhim yo'nalishlardan hisoblangan maqsad qo'yish va unga mos strategiya ishlab chiqish uchun bir muncha mehnat talab etadi. Har bir korxonada, tashkilotlarda bo'lgani kabi muammo va ziddiyatli vaziyatlarga mo'ljallangan rejalar ham ishlab qo'yilishi lozim. Buning foydalilik tarafi shundan iboratki, har xil vaziyatda ham rahbar sarosimaga tushib qolmasligi, ishini oldindan puxta o'ylab bajarayotganligi ochiq namoyon bo'lib qoladi.

Boshqaruv uslubiga an'anaviy yondoshuvdan tashqari qator zamonaviy g'oyalar ham kirib keldiki, ularni bilish rahbarlik uslubini yanada ixtiyoriy idora etish



imkoniyatini beradi. Shu munosabat bilan situativ, ya’ni vaziyatga oid rahbarlik uslubi haqida ma’lumot berib o’tishni lozim deb topamiz. Bu g’oya boshqaruv sohasidagi olimlar P. Xersi va K. Blanded tomonidan ilgari surilgan bo’lib, boshqaruvning u yoki bu uslubini qo’llash xodimlar va jamoaning psixologik rivojlanganligiga, kasbiy barkamolligiga bog’liqdir. Mualliflarning fikricha, mutaxassisning kasbiy malakasi qanchalik yuqori bo’lsa rahbar uni shunchalik kamroq boshqarishi va hissiy jihatdan qo’llab quvvatlashi talab etiladi va aksincha. Xodim qanchalik yuqori malakaga va ruhiy yetuklikka erishgan bo’lsa, rahbarning nazorati va aralashuviga shunchalik kamroq zarurat tug’iladi. Bunday yondoshuv asosida to’rt darajali boshqaruv vaziyatlari farqlanadi va bu vaziyatlarning har biriga o’ziga xos rahbarlik uslubi talab etiladi.

Boshqaruv jarayonida rahbar muhim organ hisoblanadi. Agar u zamonaviy bilimlar va texnologiyalarni puxta o’zlashtirgan bo’lsa, nafaqat o’z tashkiloti yoki korxonasi, balki butun bir davlat uchun ham salmoqli mehnat qilgan, ter to’kkan hisoblanadi. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Bugun hayotning o’zi bizdan professional, tezkor va samarali davlat xizmati tizimini shakllantirish, yangicha fikrlaydigan, tashabbuskor, el-yurtga sadoqatli kadrlarga keng yo’l ochish bo’yicha samarali tizim ishlab chiqishni talab etmoqda”.

Xulosa o’rnida shuni aytib o’tish lozimki, ayni rivojlanish, globallashtirish jarayonlarida zamonga mos ravishda yuksalish – bugungi kunning talabi hisoblanadi. Bu jarayonlarning kechishida zamonaviy boshqaruvning ham kengayib borishi muhim masala sifatida oldimizga qo’yilgan maqsaddir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. I.Mahmudov. Boshqaruv professionalizmi va psixologik tahlil. 157-b.
2. N. Rahmatullayeva, A.Kamalov. Ijtimoiy menejment. Toshkent “Iqtisod-moliya”-2017. 288-b.
3. A.Haydarov. Ijodiy faoliyatni rejalashtirish va boshqarish. Toshkent-2019. “Kamalak” nashriyoti. 197-b.



MADANIYAT MARKAZLARINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

To'g'onboyeva Ziyodaxon

ziyodatogonboyeva@gmail.com

Ilmiy rahbar: Xolmo'minov Mo'minmirzo

mominmirzoxolmominov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada madaniyat markazlari faoliyati, ularda qo'llanilayotgan va qo'llanishi kutilayotgan yangicha innovatsiyalar, markazlar faoliyatiga doir qaror va loyihalar hamda chet el tajribalaridan namunalar keltiriladi.

Kalit so'zlar: innovatsiya, xorij tajribasi, to'garak. ijodiy jamoa, taraqqiyot strategiyasi, madaniy tadbirlar.

Annotation: In three articles, the activities of cultural centers, new innovations used and expected to be used in them, decisions on the activity of centers and examples of foreign experiences in cooperation are presented.

Key words: innovation, foreign experience, circle. creative team, development strategy, cultural events.

Аннотация: В данной статье представлена деятельность культурных центров, используемые и предполагаемые к использованию в них новшества, решения и проекты, связанные с деятельностью центров, примеры зарубежного опыта.

Ключевые слова: инновации, зарубежный опыт, круг. творческая команда, стратегия развития, культурные мероприятия.

"Ayni hayotdan qoniqmaslik insoniyatni taraqqiyotga va madaniyat rivojlanishiga undagan. Holatidan qoniqib o'tiraverish – ortga ketishdir"

Ayzbek Azimov

Bugungi fan-texnika yutuqlari rivojlanib, tobora yuksak cho'qqilarni zabt etib borayotganligi hammamizga ma'lum. Har bir sohaga yangicha innovatsiyalar joriy etilib, amalda tadqiq qilinib kelinmoqda. Xo'sh, ushbu innovatsiyalar bizning madaniyat va san'at sohamizda qanchalik mavqega ega? Sohaga doir qanday dolzarb



hamda ko'zga ko'rinarli ishlar amalda mavjud va kelgusida muammolarni bartaraf etish uchun tadbiriq etilishi ko'zda tutilgan ishlar salomog'i bormi?

Keling avval, yuqorida ta'kidlab o'tilgan innovatsiya nima ekanligini bilib olsak.

Innovatsiya bu - (ing innovationas - kiritilgan yangilik, ixtiro) - texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar; ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalari va faoliyat doiralarida qo'llanilishidir.

Yangi O'zbekistonning "Taraqqiyot Strategiyasi"da ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish asosiy yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan bo'lib, ko'zlangan maqsad hamda vazifalarga erishish madaniyat va san'at muassasalari faoliyatini innovatsion yondashuvlarga tayangan holda yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Madaniyat vazirligi tizimida bugungi kunda faoliyat ko'rsatib kelayotgan 832 ta madaniyat markazlarini innovatsion rivojlantirish dolzarb masalalardan birga aylangan. 832 ta Madaniyat markazining asosiy vazifalari quyidagilar etib belgilanganini barchamiz bilamiz:

aholiga madaniy xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, ularning madaniy ehtiyojlarini qondirish va bo'sh vaqtlarining mazmunli o'tishini ta'minlash, ijodiy jamoalarning milliy qadriyat, urf-odat va an'analarni o'zida mujassam etgan namunali dasturlarini shakllantirish;

xalq ijodiyoti va badiiy havaskorlik san'atini saqlab qolish va rivojlantirish, badiiy va amaliy ijodiy jamoalar, havaskorlik guruhlarini tashkil etish va ularning faoliyat yuritishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda ijodiy jarayonni tizimli ravishda boyitib borish;

bolalarni to'garaklarga jalb etish, xorijiy tillarni o'rganish va "nutq madaniyati" bo'yicha kurslar tashkil etish, xalq ijodiyotining barcha janr va yo'nalishlari, havaskorlik san'ati va nomoddiy madaniy merosni keng targ'ib qilish hamda ularni asl holicha kelajak avlodga yetkazish;

adabiyot hamda san'at arboblari va professional ijodiy guruhlar bilan ma'naviy-ma'rifiy, madaniy-ommaviy tadbirlar tashkil etib, ular ishtirokida aholi, xususan, yoshlar bilan bevosita badiiy uchrashuvlar va davra suhbatlari o'tkazish;



tanlovlar, xalq ijodiyoti va tomosha san'atining tuman (shahar) festivallarini o'tkazish, iqtidorli yoshlarni aniqlash, ijodkor yoshlarni qo'llab-quvvatlash;

ommaviy bayram, tomosha va xalq sayillarini tashkillashtirish, ijtimoiy-madaniy sohada yuridik va jismoniy shaxslar bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha ularga pulli xizmatlar ko'rsatish;

turli xil to'garaklar, studiyalar, kurslar, qiziquvchilar klublari, badiiy havaskorlik jamoalarini muvofiq ravishda yo'nalishlarda tashkil etish[1:324,325].

Demak, yuqorida keltirib o'tilgan vazifalar Madaniyat markazlarining asosiy vazifalaridir. Lekin muammo shundaki, madaniyat markazlarimizning hammasida ham yuqoridagi vazifalar amalda to'laqonli qo'llanilmaydi. Bunga nima sabab bo'lishi mumkin? Birinchi navbatda malakali kadrlarning yetishmasligi nazarimda. Madaniyat markazlarida 8 ming nafardan ortiq xodimlar ishlaydi, shundan 60 foizi nomutaxassis va o'rta ma'lumotli xodimlardir [2.14]. Aytish kerakki, madaniyat va san'at sohasida kadrlar tayyorlash madaniyat markazlarida hamda musiqa maktablarida hozirgi kunda muhim o'rin tutadi. Madaniyat va san'at muassasalarida nomutaxassis kadrlarning faoliyat yuritishi, sohaning faoliyatini to'liq tashkil etilmayotgani hech kimga sir emas. Ayniqsa, olis hududlarda faoliyat olib borayotgan madaniyat muassasalarining faoliyati deyarli talabga javob bermaydi. Misol tariqasida, bitta tumanda beshta madaniyat markazi mavjud bo'lsa, shundan bittasigina nisbatan faoliyat ko'rsatayotgani kishi ko'nglini g'ashlantiradi. Chekka hududlardagi madaniyat markazlarining ko'plari xo'jako'rsinga ish yuritayotgani, markazdagi to'garaklarning to'g'ri tashkil etilmayotgani, madaniyat maskani bo'lmish markazning, turli fan kurslariga, go'zallik salonlari uchun ijaraga joy berishi nazarimda xato. Madaniyat markazlari aholining, ayniqsa yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlarida sababchi bo'luvchi ma'rifat bo'lishi kerak fikrimcha.

Madaniyat markazlarining asosiy vazifasi targ'ibot-tashviqot ishlaridan iborat emas. U ta'lim-tarbiya maskani sifatida ham xalqqa xizmat qiladi. Madaniyat markazlari ta'lim-tarbiya noformal sektori provayderlaridir. Bugungi kunda madaniyat markazlari nafaqat madaniy faoliyat bilan band bo'lgan, balki yuqori sifatli ma'rifat va ta'lim berish bilan shug'ullanib kelayotgan tashkilotdir [3:82].



Bundan tashqari hammaga ma'lumki, madaniyat markazi xodimlarining maoshi boshqa ko'pgina sohalarga qaraganda kamroq. Shuning uchun ham markaz xodimlarining aksariyati oliy ma'lumotli hamda o'z sohasining mutaxassisleri emas. Sohada malakali kadrlarni ko'paytirish hamda yangicha innovatsiyalarni tadbiq etish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat markazlari faoliyatini zamon talablari asosida tubdan takomillashtirishga doir qo'shinch chora-tadbirlar" to'g'risida PQL-1869\22-2-sonli qaror loyihasi ishlab chiqib, muhokama uchun www.regulation.uz joylashtirildi. Qarorda, 2023-yil 1-apreldan madaniyat markazlari direktor (filial mudiri)lari, badiiy rahbar va badiiy, ijodiy xodimlarining bazaviy ta'rif stavkalari 2,5 baravarga oshirilishi;

2023-yil 1-sentabrdan madaniyat markazlarida faoliyat ko'rsatib kelayotgan to'garak rahbarlari uchun har besh yilda bir marotaba malaka oshirishi hamda belgilangan tartibda attestatsiyadan o'tkazib, malaka toifalar berish tartibini joriy etish, bunda to'garak rahbarlariga beriladigan malaka toifalari tegishliligi bo'yicha musiqa va san'at maktablari konsertmeysterlariga tenglashtirilishi kabi ustuvor vazifalar ko'zda tutilgan.

Agarda ushbu qaror loyihasi qabul qilinib amalda to'laqonli ta'minlansa, madaniyat markazlari hamda markaz xodimlari uchun foydali bo'lar edi hamda yoshlarimizning madaniyat markazlariga qiziqishlari yanada oshardi deb o'ylaymiz.

Ba'zi bir davlatlar madaniyat muassasalar faoliyatini o'rganishga kirishib, Qatar va bosh rivojlangan davlatlarda madaniyat markazlari faoliyati anchayin yuksak. Shu sababli ham chet el tajribalarini ham madaniyat markazlarimizda amalda qo'llash markazlar rivoji uchun foydadan holi emas, albatta. Yana bir davlatda ya'ni Finlandiyaagi madaniyat markazlaridan birini olaylik, u yerda har bir madaniyat markazi ma'lum bir vazifani bajaradi. Misol uchun, Annantalo madaniyat markazi bolalar, yoshlar va oilalar uchun badiiy ta'lim, ko'rgazmalar va turli spektakllar, tadbirlar va mahorat darslariga bag'ishlangan san'at markazidir. Annantalo milliy san'at ta'limining rivojlanishida ham rol o'ynaydi. Caisa esa Kaysaniemidagi xalqaro madaniyat markazi bo'lib madaniyatlararo tajriba va uchrashuvlarni ta'minlashga qaratilgan ko'p madaniyatli tadbirlar va kurslarga qaratilgan. Har bir madaniyat markazi ma'lum bir yo'nalish uchun qaratilgan



bo’lsada, asosiy negizda aholining san’at va madaniyatdagi ishtirokini oshiradi va madaniy huquqlarni amalga oshirishga yordam beradi. Madaniy xizmatlar va qo’llab-quvvatlash madaniyat grantlariga tayyorgarlik haqida g’amxo’rlik qiladi va shuningdek, shaharning madaniyat siyosatiga umumiy nuqtai nazarini shakllantirishda rol o’ynaydi. Madaniyat markazlari professional darajadagi ijro, ta’lim va ko’rgazma maydonlari va ishlab chiqarish muhitini ta’minlashni o’z ichiga oladi.

Yuqorida ko’rsatilgan PQL-1869\22-2 sonli qaror loyihada ham ko’plab istiqbolli rejalar ko’zda tutilgan. Xususan, madaniyat markazlaridagi faoliyat yuritayotgan to’garaklar, studiyalar va kurslardan tashqari “steam-ta’lim” (science-tabiiy fanlar, technology- texnologiyalar Art- san’at, mathematics-matematika) dasturi joriy etiladi va yangi to’garaklar faoliyati yo’lga qo’yiladi. Madaniyat va san’at yo’nalishidagi to’garak ishtirokchilarining ishlarini ommalashtirish, targ’ib qilish hamda sotuvini yo’lga qo’yish bo’yicha o’quvchi yoshlarning ijodiy ishlarini “Art shop” elektron do’konlari orqali dunyo bozoriga olib chiqilishi;

Aholining kitobxonlik madaniyati yanda oshirish bo’yicha har bir madaniyat markazlarida kutubxonalar tashkil etiladi, mos ravishda adabiyotlar va notalar to’plamlari bilan ta’minlinishi ilgari surilgan. Albatta madaniyat markazlarimizda kutubxonalarning tashkil etilishi biz yoshlar tomonidan quvonchli tarzda qabul qilishini ayni holdir.

Xulosa o’rnida shuni aytish joizki, yuqorida keltirib o’tilgan sohaga doir qaror loyihasi qabul qilinib, amalda tadbiq etilsa ko’zlangan natijaga erishishimizga ishonaman. Undagi yangicha innovatsiyalar o’z vaqtida ko’zda tutilganidek ta’minlansa, sohada faoliyat yuritayotgan mutasaddi xodimlar o’z kasbiga doir mas’uliyat va majburiyatlarni chuqur anglagan holda sidqidildan faoliyat yuritsa, davlatimiz tomonidan sohaga qaratilayotgan yuksak e’tbor o’z samarasini albatta beradi hamda Yangilanayotgan O’zbekiston taraqqiyotida sohaning o’rni beqiyos bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Haydarov A. Madaniyat – milliy yuksalish poydevori. – Toshkent: Oltin meros press. 2021. – B. 478.



2. M.Xolmo'minov. Madaniyat markazlari va ularning yangilanayotgan O'zbekiston taraqqiyotidagi asosiy vazifalari. "Yangilanayotgan O'zbekiston taraqqiyotida madaniyat va san'atning o'rni" mavzusidagi respublika konferensiya maqolalari to'plami. – Toshkent, Oltin meros press. 2020. – B. 488.
3. M.Xolmo'minov, A.Qolqanatov. Yangi O'zbekistonda madaniyat markazlarini rivojlantirish: muammolar va yechimlar. Jur. O'zDSMI xabarlari. – Toshkent:2022/1. "NISO POLIGRAF" MCHJ bosmaxonasi. 105 b

“TEMUR TUZUKLARI” ASARIDA DAVLAT VA XALQ BOSHQARUVIGA OID FIKRLAR BAYONI

Alibekova Hafiza

*O'zDSMI "Madaniyat va san'at muassasalarini
tashkil etish hamda boshqarish" yo'nalishi 1-kurs talabasi*

Ilmiy rahbar: Xolmo'minov Mo'minmirzo Zokir o'g'li

mominmirzoxolmominov@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Amir Temurning hayoti va uning "Temur Tuzuklari" asaridan davlat va xalq boshqaruviga oid fikrlari bayon etilgan. Uning fan, ta'lim hamda san'at va madaniyat sohasidagi islohotlari va farmonlari bayon mavjud. Bugungi rahbarlar uchun ushbu asar qimmatbaho qo'llanmadir. "Temur tuzuklari" da yoshlar tarbiyasi haqidagi fikrlar tafsiloti bayoni ham yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Temur Tuzuklari, rahbar, boshqaruv, qoida, davlat, islohot*

Abstract: *This article describes the life of Amir Timur and his thoughts on state and people's management from his work "Timur's Laws". There is a description of his reforms and decrees in the fields of science, education, art and culture. This book is a valuable guide for today's leaders. "Timur's Laws" also contains a detailed statement of ideas about youth education.*

Key words: *Timur Constitution, leader, management, rule, state, reform*

Аннотация: *В данной статье рассказывается о жизни Амира Тимура и его размышлениях о государственном и народном управлении из его произведения*



«Законы Тимура». Есть описание его реформ и указов в области науки, образования, искусства и культуры. Эта книга является ценным руководством для современных лидеров. «Законы Тимура» также содержат подробное изложение идей о воспитании молодежи.

Ключевые слова: Тимур Конституция, лидер, управление, правление, государство, реформа.

Puxta o’ylangan reja ming -minglab lashkardan afzaldir

Amir Temur

Hozirgi tezkor globallashuv davrida, yer yuzini cheksiz internet va yangidan yangi ma’lumotlar qamrab olgan paytda kitob o’qiydigan yoshlar alohida e’tiborga munosibdir. Har kuni har soatda fidoyi bo’lish o’zini tomchima-tomchi, zarrama-zarra buyuk maqsadlar sari charchamay, toliqmay tinimsiz safarbar etib borish bu fazilatni doimiy, kundalik faoliyat mezoniga aylantirish – haqiqiy qahramonlik aslida mana shu [1:40]. Bugungi jadal rivojlanayotgan davrda aqilli, bilimli hamda salohiyatli rahbarlar, menejerlar, ish boshqaruvchilar har yerda qadrli hamda juda kerakdir. Xalqimizda shunday gap bor, “Tarixni o’rganmay turib, kelajakka qadam bosib bo’lmaydi”. Biz tarixda o’tgan juda ko’p mashhur rahbarlarni, boshqaruvchilarni bilamiz, ularni o’rganganmiz. Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo’ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o’rganish va avlodlardan-avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo’nalishlaridan biridir. Muqaddas Turon zaminidan o’tgan shunday buyuk rahbarni bilamizki, ushbu zot, nafaqat, o’z davrining, balki, hozirgi qadar tengsiz yurt rahbari ila yod olinadi, ularning hayoti yurt boshqaruvidagi islohotlari, asarlari diqqat bilan o’rganiladi. Ushbu muhtaram zot buyuk sohibqiron Amir Temurdir. Temur davri bashariyat tarixi inkishofining eng yuksak nuqtasidir. Dunyo yaratilganidan beri bunday bir davlat qurilmagandir[2:419].

Amir Temurning “Temur tuzuklari” asari esa Temur davlatining Konstitutsiyasi vazifasini bajargan. “Temur tuzuklari”da Temurning yurt rahbarlariga, boshqaruvchilarga pand-nasihatlarini, o’gitlari jamlangan. Idrok etib



qaralganda tarixda birinchi Konstitutsiya Temur davlatida boʻlgan. Amir Temur dunyoning toʻrt qitʼasida oʻz davlatini barpo etdi, bu davlatni adolat mezonlari bilan boshqardi. Adl-u ehson bilan jahon gulshani obod boʻladi.[3:13]

Bu davlatning buyukligi hamda kattaligining siri bu davlatning Sohibqiron tomonidan adolat va birdamlik bilan boshqarganidadir. Bir kunlik adolat yuz kunlik toat-ibodatdan afzal[4:13].

Temur tuzgan davlat, jamiyat hali hanuz butun jahonni hayratda qoldirmoqda. Dunyo ahli uning hayoti va asarlarini puxta oʻrganib, katta-katta qiziqish va eʼtibor bilan zamonga moslashtirib hayotga tadbiq etishmoqda. Amir Temur asarida rahbar yakka boʻlishi kerakligini taʼkidlaydi. Temur jamiyatni yakkaboshchilik asosida, tizimda barcha boʻgʻinlarga alohida eʼtibor bilan adolat mezonlari ila boshqarish kerakligini aytadi.

Biz hozirda menejment sohasida Anri Fayol hamda Teylor kabi chet el “Ilmiy tafakkur maktabi” asoschilarining menejment haqidagi qarashlarini oʻrganmoqdamiz. Eng qizigʻi shundaki, ularning ishlagan dasturlaridan bir necha yuz yil avval yozilgan “Temur tuzuklari”dagi oʻgitlarga, fikrlarga juda oʻxshashdir. Shuning uchun men Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev aytganlaridek, “Eng avvalo, oʻzimizning tariximiz, ajdodlarimizning hayoti va asarlarini puxta oʻrganmogʻimiz darkor”, – deb oʻylayman. Avlodlar yillar, asrlar oʻtgan sari oʻz yurtiga ozodlik baxshida etgan, Oʻrta Osiyoda qudratli markazlashgan davlatni qaror topdirgan, birgina nomining oʻzi jahonning koʻpgina hukmdorlarini zirqiratgan Amir Temurga qiziqish bilan qaranglar [5:17].

Amir Temur jamiyat boshqaruvida oʻn ikki toifa insonlarga alohida eʼtibor bilan ularga tayanib oʻz mamlakatini idora etgan. Xalq, din ulamolari, aqilli kishilar, duogoʻy kishilar, amirlar, sipohlar, ishonchli kishilar, vazirlar, hakim, tabib, muhaddislar, soʻfiylar, kasb hunar egalari, sayohatchilar shular jumlasidandir. Uning davlatidagi vazirlar hozirgi kundagi davlatimizdagi vazirliklarga ham juda oʻxshashdir. Temur davlatni sakkizta vazirlikka boʻlib boshqardi: mamlakat, xalq vaziri(Bosh vazir), sipoh vaziri(harbiy vazir), egasiz qolgan mol-mulk vaziri, saltanat ishlarini yurituvchi vazir, zakot, boj va mamlakat kirim-chiqimlarini nazorat qiluvchi vazir(moliya vaziri). Temur mamlakatda ikki xil bosh vazir tayinlaydi. Birinchaisi,



xalq bilan ishlaydigan vazir, ikkinchisi xalqni ichida yurib xalq qanchalik mamlakat qonunlariga bo‘ysunmoqda, vazirlar xalqqa jabr-zulm qilishmayaptimi, adolat mezonlariga qanchalik amal qilishmoqda shularni nazorat qiluvchi vazir. Temur har bir tizimga vazirlarni tayinlab, keyin ularni ham nazorat qiluvchi vazirlarni ham tayinlaydi. Bu dastur davlatimizda hozirgi kunda ish yuritayotgan Prezident Adminstratsiyasi faoliyatiga o‘xshashdir. Amir Temur jang san’ati, jangni olib borishda qo‘shinga rahbarlik qilishda ham mohirlik bilan ish yuritgan. Amir Temur jang olib borishda yettita usuldan foydalangan. Qo‘shinlarning soniga qarab ularda alohida mudofaa va jang taktikalarini qo‘llagan. Ishbilarmon, mardlikva shijoat sohibi, azmi qat’iy, tadbirkor va hushyor bir kishi ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir[6:192].

Amir Temur doimo xalqni o‘ylagan. Temur olimlar, olimlar, shoirlar va san’atkorlarni o‘z himoyasiga olar, ularga g‘amxo‘rlik qilardi. Uning ushbu harakati ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lib, unga ilm va san’at ahli posboni yuksak darajada madaniyatli hukmdor degan shuhrat keltirdi. Sohibqiron ilm-fan muammolariga chuqur yondashgan[7:9].

Temur har qanday og‘ir va qaltis ziddiyatli vaziyatlarda ham eng oliy o‘ringa xalq manfaatlarini qo‘ygan buyuk sarkarda va yurt rahbari edi. Temur qudratli sarkarda, mohir siyosatchi, buyuk bunyodkor sifatida, barlos urug‘i vakillari oddiy xislatlarini yuksak madaniyat belgilariga mushtaraklashtirgan inson sifatida tarixda qoldi. Amir Temur, nafaqat mohir sarkarda, balki buyuk bunyodkor, ilm-u fan, madaniyat va san’at homiysidir.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ayganlaridek, “Xalq ochlikka, suvsizlikka chidashi mumkin, ammo adolatsizlikka chiday olmaydi”. Amir Temurning uzugi, muhri, hatto, qilichida ham “Rosti-rusti”, ya’ni “Kuch-adolatda” yozuvi bo‘lgan. “O‘z qudratimni saqlash uchun men bir qo‘limda adolat shamini va ikkinchi qo‘limda beg‘arazlik shamini tutib, har ikki sham bilan butun umr bo‘yi o‘z yo‘limni yoritib yurdim. Barcha ishlarimda ana shu adolat qoidalariga rioya qildim”, – deydi Amir Temur. Amir Temur ahli ilmni qadrlagan, ularni e‘zozlagan. Amir Temur barcha sohalardagi adolatli siyosati bugungi rahbarlarga o‘rnak bo‘ladi.



Amir Temur nafaqat, rahbarlarga, balki bugungi yoshlarimizning tarbiyasiga ham alohida o‘rnak bo‘ladi. “Ulamolar suhbatida bo‘l, pok, sof niyatli kishilarga talpin”, – deya nasihat qiladi, Sohibqiron. Kishining kechiruvchan bo‘lishi, gina saqlamasligi, qarindosh va yaqinlar bilan mehr-oqibatli bo‘lish, oila qurish, ilm olish, farzand tarbiyalash, kasb-hunar yuritish haqida aytgan o‘g‘itlari bugungi kundagi shaxs tarbiyasida alohida ahamiyatga molikdir. Ushbu asar kelajakda yoshlarimizning ish-faoliyati uchun muhim asar hisoblanadi. Yoshlarimiz o‘z maqsadlariga yetishish yo‘lida ushbu asr asosiy strategiya bo‘lib xizmat qiladi. Ilmni mehnatsiz egallab bo‘lmas[8:34]. “Temur Tuzuklari” asari foydalanuvchi kitobxonga beminnat maslahatchidir. Zero, “Temur tuzuklari” da aytilganidek “Ijodkorlik” mehnatda tug‘iladi. Amir Temurning hayoti “Temur Tuzuklari” asaridagi o‘g‘itlari kelajakda rahbarlikka qadam bosayotgan yosh avlodga, hozirgi mutasaddi rahbarlarimizga dastur ul-amal bo‘lishi lozim. Ilmga, ijodga, kashf etishga intilish bu – olijanob intilish [9:24].

Amir Temur bunyodkorlik faoliyatida o‘chmas iz qoldirgan narsa uning asrlar osha yetib kelgan betakror me‘moriy yodgorliklaridir. Temurning Shahrisabzdagi Oqsaroy peshtoqiga yozdirgan “Kimki bizning kuch-qudratimizga shubha qilsa, qurgan binolarimizga boqsin”- degan shiori yaqqol tasdiqlab turibdi. Shaharni obodonlashtirish va yangi-yangi binolar qurish Temur siyosiy dasturining muhim jabhasini tashkil qiladi. Temurning me‘morchilik borasidagi me‘rosi niyatning ulug‘vorligi va amaldagi mahobati bilan kishini lol qoldiradi.

Sohibqironning donishmondligi tufayli insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyotning yangi bir tarixiy bosqichiga ko‘tarildi. Fransuz olimlari Jeror Volter hamda Marsel Brionlar Amir Temur Sohibqironni bejiz “O‘n beshinchi asrning taqdirini hal qilgan buyuk inson”, – deya e‘tirof etishmagan. Jumladan, Amir Temur tarixiy taraqqiyot jarayonini o‘z izmiga bo‘ysundira olgan daholardan biri edi. U tarixiy zaruratning talablari va ehtiyojlarini dohiyona tarzda payqagan, ifoda etgan va qondirishga bel bog‘lgan bo‘lib, tarixning tub pallalalarida subektiv omilning benihoya katta ahamiyat kasb etishini amaliy faoliyati misolida isbotlab bergan edi. Birinchi Prezidentimizning tashabbusi bilan istiqlol yillarida xalqimizning ruhiyatini ko‘tarish, kelajakka bo‘lgan ishonch va umidlarini yanada mustahkamlash maqsadida Sohibqiron Amir Temur



haqiqati o'zining bo'y-basti bilan qayta tiklanadi[10:5]. Sohibqiron Amir Temur "Men o'z saltanatimni mangu barqaror qilish uchun adolatni bir qo'limga va insofni yana bir qo'limga oldim. Bu ikki chirog' shu'lasidan saltanatim sulolasi chirog'ini yondirdim Dargohimda to'rt xushmuomila vazir tayinladim. Ularga amr etdimki, menga adolatli so'zdan o'zgasini aytmanglar, yomon bo'lmanglar, yomonlikni yaxshilik bilan uzatinglar, odamlarning ahvolini tekshirib turinglar va kishi molidan ta'ma qilmanglar rost so'zlanglar, yolg'on demanglar. Men Xudoyi taoloning bandalariga shavqat ko'rguzdim, shariat, adolat va insof bilan amal qildim. Sultonlardan qaysi biri bu iltifotni ulug'lasa, davlati taraqqiy topadi", – deydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tuzuvchilar: O.Salimov, M.Bekmurodov, N.Xalilov, Q.Qurbonboyev, O.Mahmudov. Saodat yo'li. G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent. 2016. 239-bet
2. Hamdam Sodiqov. Amir Temur saltanatida xavfsizlik xizmati. "ART FLEX" nashriyoti. Toshkent. 2016. 568-bet
3. Tuzuvchilar: O.Salimov, M.Bekmurodov, N.Xalilov, Q.Qurbonboyev, O.Mahmudov. Saodat yo'li. G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent. 2016. 239-bet
4. O'sha manba: 13-bet
5. Nashrga tayyorlovchi: Poyon Ravshanov. Temurnoma. "Cho'lpon" nashriyoti. 1990. 348-bet
6. Tuzuvchilar: O.Salimov, M.Bekmurodov, N.Xalilov, Q.Qurbonboyev, O.Mahmudov. Saodat yo'li. G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent. 2016. 239-bet
7. Nashrga tayyorlovchi: Poyon Ravshanov. Temurnoma. "Cho'lpon" nashriyoti. 1990. 348-bet
8. Tuzuvchilar: O.Salimov, M.Bekmurodov, N.Xalilov, Q.Qurbonboyev, O.Mahmudov. Saodat yo'li. G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent. 2016. 239-bet
9. O'sha mana: 24-bet
10. Husan Ibrohimov Sohibqironni anglash. "Fan va texnologiya" nashriyoti. 2014. 1028-bet.



BOSHQARUV TIZIMI HAMDA RAHBARLIK JARAYONIGA FUNKSIONAL YONDASHUV

Shahbozxon Mardiev Abdusamad o'g'li

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Mo'minmirzo Xolmo'minov Zokir o'g'li

mominmirzoxolmominov@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada turlicha boshqaruv tizmlari va rahabarlik jarayonlariga funksional yondashuvlarning sohaga doir olimlar hamda taniqli shaxslarning ilmiy asosga ega fikrlari keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Faoliyat, boshqaruv, jarayon, vaqt, funksiya, maqsad, natija, xususiyat, ijtimoiy, obyekt, nazorat.*

Annotation: *The article presents the scientifically based opinions of scientists and eminent persons in the field of functional approaches to various management systems and leadership processes.*

Key words: *Activity, management, process, time, function, goal, result, social, object, control.*

Аннотация: *В статье представлены научно обоснованные мнения ученых и видных деятелей в области функциональных подходов к различным системам управления и процессам лидерства.*

Ключевые слова: *Деятельность, управление, процесс, время, функция, цель, результат, социальное, объект, управление.*

Hozirgi soniya sayin o'zgarishlar va yangiliklar ro'y berayotgan, turli sohada rivojlanishlar davrida eng quyidan to eng yuqori bo'g'ingacha bo'lgan barcha tizimlarning faoliyati to'laqonli talabga javob beradi deyolmaymiz. Sababi, turidan qat'iy nazar har qanday tashkil etilyotgan va yo'lga qo'yilyotgan faoliyat birinchi navbatda inson manfaatlari uchun xizmat qlishi lozim. Ma'lumki ayrim o'zgarish va ijtimoiy yangiliklar o'zini oqlamayapti.

Ijtimoiy tarqqiyotning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi, ijtimoiy muvozanatni buzishning asosiy sababi bo'lib, ijtimoiy boshqaruv tizimining rivojlanmagani, ijtimoiy



menejmentning samarasizligi, uning nazariya va amaliyotini o‘zlashtirishdagi yetishmovchiliklar hisoblanadi.[1:20]

Albatta, yuqoridagi fikrlar juda o‘rinli. Ba’zida amalga oshirilgan ishlar tahlil qilinganda, qaysidir joyda nazariy, qaysidir joyda esa amaliy tajribalar yetishmasligi kuzatiladi. Masalan biror tashkilot rahbari qarror qabul qiladi va ijrosini to‘laligicha xodimlariga yuklaydi yoki aksincha bo‘lishi mumkin. Har qanday boshqaruv jarayoni hamda faoliyatning ko‘zlangan darajada samara berishi uning qanday tashkil etilishi va unga qanday yodashishga bog‘liq.

1920-yilning boshlarida P.M.Kerjensev tashabbusi bilan “Vaqt” ligasi tashkil etildi. Liga o‘z e’tiborini quyidagilarga qaratdi:

- Mehnatni tashkil qilishda tartibsizliklarning nihoyatda ko‘pligiga;
- Behuda ishlarga vaqtning ko‘p sarflanyotganligiga;
- Boshqaruv tizimida fuksiyalarning nooqilona taqsimotiga;[2:33]

Liga e’tibor qaratgan tashkilot zarari uchun ishlaydigan bu jihatlar hozirgi kunda ham ko‘pgina tashkilotlar va rahbarlar faoliyatida uchrab turibdi. Chunki birgina boshqaruv funksiyalaridan noto‘g‘ri foydalanish aytib o‘tilganidek vaqt taqsimotining izdan chiqishi va mehnat unimdorligi tartibsizligiga olib keladi. Shu o‘rinda bunday vaziyatlarga duch kelmaslik uchun rahbarlar nazariy hamda amaliy bilimlarni yanada boyitishlari zarur.

Boshqaruv bilimlari ko‘p jihatdan davr ehtiyojini aks ettiruvchi manbaa bo‘lib hisoblanadi. Boshqaruv jarayoni, bir tomondan, tuzilmaning yaxlitligini ta’minlasa, ikkinchi tomondan, uni yanada takomillashtirish va rivojlantirish imkonini beradi. Shu o‘rinda boshqaruvning ikki asosiy fuksiyasi farqlanadi: maqsadga yo‘naltiruvchi va tashkiliy funksiyalar.

Maqsadga yo‘naltiruvchi funksiya tuzilmani yanada mukammallashtirish maqsadiga yo‘naltiradi. Tashkiliy funksiya esa tuzilmaning maqsadga erishishdagi ichki tartibi va uning turli qismlari o‘rtasidagi o‘zaro muvofiqlikni ta’minlaydi.[3:10]

Har bir harakat davr hamda inson ehtiyoji va sharoitidan kelib chiqadi, uni shunday tasniflaydi. Boshqaruv ham xuddi ana shunday jarayondir. Birgina farqli tomoni boshqaruvning turiga qarab boshqaruv obyektini kengayib boraveradi. Lekin jarayonga pozitsion va funksional yondashish hamisha xarakterlidir. Bejizga



maqsadga yo'naltiruvchi va tashkiliy funksiyalarni birinchi keltirilmayapti. Dastlab maqsad qo'yiladi, keyin esa shu maqsadga olib boruvchi tashkiliy funksiyalarga murojaat qilinadi. Masalan maqsadga erishish uchun qaror qabul qilish, ijroni ta'minlashda nimalarga e'tibor berish kabi omillar hisobi olinadi.

Yuqoridagi asosiy ikki boshqaruv funksiyasi qator vazifalar orqali amalga oshadi. Masalan, yo'naltiruvchi funktsiyani ado etishda faoliyat tarkibiga:

- natijani prognozlash;
- maqsad sari faoliyatni rejalash;
- amalga oshirish motivatsiyalari kiradi.[4:10]

Bu juda to'g'ri, maqsad qo'yilgandan so'ng eng avval unga erishish rejasi ishlanadi. Asosiysi maqsadga erishgandan keyingi natija jamao uchun motivatsiya rolini bajarishi kerak. Ish samaradorligining sifat jihatdan yuqori natija keltirishi esa vazifaning amalga oshish jarayonida rahbar tomonidan xodimlariga moddiy yoki ma'naviy motivatsiya berilishi hamda jamoadagi yaxlit ijobiy muhitligidir. Albatta, yaxlit ijobiy muhitning shakllanishi kadrlar jamoasi va rahbarga hamda ularning funksional uslublariga bog'liq.

Tashkilot boshqaruvining asosiy funksiyalaridan yana quyidagi xususiy funksiyalar kelib chiqadi:

- Maqsad qo'yish funksiyasi;
- Rejalashtirish funksiyasi;
- Nazorat etish funksiyasi;
- Siyosiy – huquqiy funksiyasi;
- Ijtimoiy funksiyasi;
- Rag'batlantirish funksiyasi;[5:11;12]

Funksiyalar haqida umumiy jihatdan juda ko'p to'xtaldik. Bu yerda biz uchun keraklisi va asosiylaridan siyosiy-huquqiy va ijtimoiy funksiyalardir. Gap shundaki bu ikki funktsiya bir biri bilan uzviy bog'liq. Yuqorida ta'kidlangan jamao yaxlitligi va sog'lom muhit mana shu ikki funktsiyaga bog'liq. Ikkala funktsiyaning ham tub mohiyati rahbar, xodim munosabatlar tashkilot muhiti bilan aloqador. Masalan ikki funktsiyada ham faqat vakolat yuzasida jamao a'zolar bir-birlariga bo'ysinislari yoki buyruq berishi mumkinligi insoniy jihatdan to'laonli teng huquqliligi ta'kidlanadi.



A.Fayol, I .P .Volkov, Ye.S.Kuzmin, Y.N.Yemelyanov, G.Kuns, S.Donnel va boshqalar tomonidan rahbar bajarishi lozim bulgan 12 ta professional funksiyalarni umumlashtirgan xolda sanab o'tish mumkin:

1. bilish
2. prognozlash
3. loyihalash
4. kommunikativ-informatsion - kommunikatsiya aloqalarini shakllantirish
5. motivatsiya
6. boshqaruv
7. tashkil etish
8. o'qitish
9. rivojlantirish
10. baholash
11. nazorat
12. korreksiyalash [6:35;36]

Professional funksiyalar sanalganda umumuiy xolatda deya tarif berilyotganiga e'tibor beraylik. Biz ulardan bilish, kommunikatsiya aloqalarini shakllantirish, o'qitish funksiyalariga alohida to'xtalamiz. Bilish deyilganda asosan tashkilot rahbarilarining o'z vazifalarini chuqur bilishi hamda amaliyotda qo'llay olishi nazarda tutilgan. Yana jamaoadagi ijtimoiy muhit va xodimlarning ham jismoniy-ruhiy ahvolidan xabardorlik darajasi ham taaluqli. Kommunikatsiya aloqalarini shakllantirish esa tashkilotning ichki hamda tashqi pozitsiyasi xarakterliligini oshiradi. Tashqi aloqalar kengayishi va hamkorlarning ko'payishi uchun xizmat qiladi. O'z navbatida tashkilotning ilmiy-amaliy salohiyatini oshiradi. Shuning natijasida xodimlarni o'qitish va ularning bilim va tajribasini takomillashtirish imkonini beradi. Xodimlarning amaliy va ilmiy tajribasining ortishi tashkilot sifat darajasi ko'tarilishiga olib keladi.

Hamma ham notiqlik mahoratiga ega bo'lavermaydi albatta, lekin rahbar tushunarli, ifodali va ta'sirchan, ishonarli va da'vatli qilib gapirishga o'rganishi kerak.[7:59]



Rahbarlarning notiqlik mahorati eng asosiy omil hisoblanadi. Notiqlik umumiy ma’noda tariflanyapti. Avvalo muomala madaniyati rahbar imijini belgilaydi. Muomala nafaqat rahbarlarning balki u rahbarlik qilayotgan tashkilot nufuzini ham belgilab beradi. Chunki muomalasi orqali uning xarakteri, dunyoqarashi kelib chiqadi. Bular esa tashkilot rivoji uchun xizmat qiladi. Muomalasi ajoyib, notiqlik mahorati juda yaxshi rahbargina jamoani birlashtirib ularni bir maqsad sari yo’naltira oladi.

Boshqaruv jarayonida kerak bo’ladigan va ishlatiladigan ma’lumotlar quyidagilar:

- Menejment obyekti bo’yicha;
- Ushbu kichik yoki quyi tizimga tegishli;
- Uzatish shakliga ko’ra (og’zaki va og’zaki bo’lmagan);
- Vaqt ichida o’zgaruvchanlik; Uzatish usuli bilan;
- Transfer rejimi bo’yicha; Uchrashuv bo’yicha;
- Obyektning hayot aylanish bosqichida;
- Mavzuga tegishli nazorat obyektiga nisbatan[8:71]

Boshqaruv jarayonining tizimli va funksional tashkil etilishida hamda faoliyat davomida kerakli ma’lumotlar keltirilgan. Subyektiv jihatdan bu ma’lumotlardan barcha rahbarlar xabardor bo’lishlari shart. Boshqaruv obyekti haqida ma’lumotlarni yetarlicha bilish boshqaruv faoliyatining samarali o’tishini ta’minlaydi. Rahbar o’zi boshchilik qilayotgan tizmning eng quyidan yuqorisigacha bo’lgan ichki va atashqi ma’lumotlarni bilishi ijtimoiy, siyosiy-huquqiy, nazorat fuksiyalarining yaxshi xizmat qilishini belgilaydi.

Xulosa qilib aytganda har bir yosh rahbarlar hamda tashkilot ishchi kadrlarning tashkilotdagi o’rnini belgilaydigan, ular uchun tajriba maktabi vazifasini bajaradigan asosiy harakatlar va ilmiy-amaliy ishlar yig’indisi – bu o’z vazifasiga funksional yondashishlaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Rahmatullayeva N, Kamolov A. Ijtimoiy menejment. // O’quv qo’llanma. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2017. – 288 b



2. O’sha manba:33-bet
3. Mahmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. // - Toshkent: “YUNAKS-PRINT” MCHJ bosmaxonasi, 2005, 170 bet
4. O’sha manba: 10-bet
5. O’sha manba: 11-12-betlar
6. Mahmudov I. Boshqaruv professionalizimi: psixologik tahlil. // – Toshkent: “Akademiya” nashriyoti, 2011. –304 bet
7. Boymurodov N. Rahbar psixologiyasi. – Toshkent, –“Yangi asr avlod” 2016,- 132 bet
8. To’ychiyeva S. Boshqaruv texnologiyalari.O’quv qo’llanma // Toshkent. – “Navro’z” nashriyoti, 2020. 148 bet

TEXNOLOGIYA FANIDA TEXNOLOGIK JARAYONLARNI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH

Abdullayev To’lqinali Usmonovich -

Fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent,

Siddiqova Ra’noxon Abdulkay qizi-

Stajyor-o’qituvchi NamDPI.

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada “Hayot davomida o’qish” tamoyili asosida “mavzuning innovatsion ishlanmasi”ni tayyorlash metodining didaktik o’yinlarni tashkil etish tamoyillari to’g’risida ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so’zlar: *didaktik tamoyillar, onglilik va faollik tamoyili, tafakkur. ilmiylik va tizimlilik tamoyili, ko’rsatmalilik, didaktik o’yinli texnologiyalar.*

Texnologiya fanini o’qitishning didaktik tamoyillari va ularning mohiyatini bilish mazkur jarayon borasida aniq tasavvurga ega bo’lishimizga imkon yaratadi. Shu bois biz quyida fanning asosiy didaktik tamoyillari va ularning mohiyati xususida so’z yuritmoqchimiz. Umumiy o’rta ta’lim muassasalarida texnologiya fani quyidagi tamoyillarga asoslanib o’qitiladi.



Texnologiya darslarini onglilik va faollik tamoyili asosida o'qitish - o'quvchilarda ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo'llash metodlarini ongli va faol egallab oladigan, ularda ijodiy tashabbuskorlik va o'quv faoliyatida mustaqillik, tafakkur, nutqi rivojlanadigan bo'ladi. O'qitishdagi onglilik tamoyili o'quvchilardagi ta'lim jarayonining aniq maqsadlarini tushunish, o'rganilayotgan dalil, hodisa, jarayonlar va ular o'rtasidagi bog'lanishni tushungan holda o'zlashtirib olish, o'zlashtirilgan bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llay bilish kabi me'yorlarni anglatadi:

O'quvchilardagi mavjud bilim va ko'nikmalariga tayanib, obrazli taqqoslash usulidan foydalanib, har bir so'z va gapning tom ma'nosini ochib berish qoidasi;

O'quvchilarning o'zaro o'qitish kuchidan unumli foydalanib, qo'yilgan savollarga jamoa bo'lib javob topish qoidasi. O'quv fanini hech qachon dars markaziga qo'ymay, dars markazida doimo o'quvchi turishini, uning shaxsi shakllanayotganini bilgan holda talabaga ta'limiy ta'sir o'tkazish qoidasi;

O'qitish jarayoni yanada muvaffaqiyatli o'tishi uchun, har bir tushuncha berilganidan keyin, uni bir necha misollar bilan mustahkamlash qoidasi;

Hech qachon o'qituvchi aytganlarini qaytarish, birovlardan ko'chirish va aytib turish hollariga yo'l qo'ymaslik bilan, o'quvchi talabalarni mustaqil fikrlashga va harakat qilishga o'rgatish qoidasi;

Berilayotgan bilimni har tomonlama tahlil qilib berish yo'li bilan bolalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish qoidasi.

Texnologiya darslarida ilmiylik va tizimlilik tamoyili - o'quvchilarga o'rgatish uchun ilmiy jihatdan asoslangan, amalda sinab ko'rilgan ma'lumotlar berilishini talab etadi. Ularni tanlab olishda fan va texnikaning eng so'nggi yutuqlari va kashfiyotlaridan foydalanish kerak. Ilmiy bilimlarni egallash jarayonida o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash, tafakkur rivojlanadi. Har bir darsda o'qitiladigan o'quv materialining ilmiy mazmuni keng va chuqur bo'lishi o'quvchida nafaqat bilim, balki tafakkur hosil qilishi hamda uning ijodiy qobiliyatini shakllantirishi kerak. Buning uchun esa o'qituvchi o'z ilmiy saviyasini izchil ravishda oshirib borishi zamonaviy pedagogik texnologiyalar, kashfiyotlar va ilmiy yangiliklardan xabardor bo'lishi lozim. O'quvchi o'rganayotgan bilimlar, albatta nazariy tasdiqlangan va amalda sinalgan bo'lishi kerak. Tizimlilik va izchillik tamoyili asosida o'qitish o'qitishni shunday



tashkil etishni talab etadiki, bunda o'quv fanlarini o'qitish qat'iy mantiqiy tartibda olib boriladi. O'quvchilar bilim ko'nikma va malakalarini izchillik bilan egallab boradilar va ayni paytda amaliy vazifalarni hal qilish uchun ulardan foydalanishni o'rganadilar. Tizimlilik va izchillik tamoyili pedagogik jarayonning hamma bo'g'inlarida amalga oshiriladi. Uning talablari darsliklar va dasturlarni tuzishda o'z aksini topadi. O'quv materialini to'g'ri taqsimlash ya'ni oddiydan murakkabga, oddiy operatsiyalardan qiyinroq operatsiyalarni bajarishga o'tishni talab qiladi.

Izchillik tamoyili - elementar didaktika qoidalariga amal qilishni talab etadi: Oddiydan murakkabga, ma'lumdan no'malumga. Mavzularni o'tishda yoki texnologik muammolarni yechishda o'qituvchi darsni shunday rejalashtirishi kerakki, o'quvchilarga tushunarli bo'lsin. Bunda o'quvchilarni yosh va individual xususiyatlari hisobga olinishi kerak.

Texnologiya darslarini nazariya bilan amaliyot birligi tamoyili asosida tashkil etish

-ilmiy bilimlar kishilarning ishlab chiqarish faoliyati ehtiyojlari asosida paydo bo'lib, ana shu faoliyatga xizmat qilganligi va hayot bilan bog'langanligi sababli, bu bilimlarni egallash uchun ularni mazmunan o'zlashtirish va amalda qo'llash lozim. O'quvchilarni amaliy faoliyatga tayyorlash nazariy bilimlarni egallash jarayonidan boshlanadi. Keyinchalik u tajriba va amaliy mashg'ulotlarda davom ettiriladi. Bu mashg'ulotlarda o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida tajriba sharoitida olingan bilimlarini tekshiradilar, mustahkamlaydilar, chuqurlashtiradilar. Ularni amalda qo'llanish ko'nikma va malakalarini hosil qiladilar.

Nazariya bilan amaliyot birligini bog'lashning har xil shakllari mavjuddir:

- har qanday bilimning to'g'riligi amaliyotda sinalib, tasdiqlanadi;
- amaliyot - haqiqat mezoni, bilishning manbai va tadqiqot natijalarining qo'llanish ko'lami;
- to'g'ri tashkil qilingan ta'lim-tarbiya hayotdan kelib chiqadi;
- ta'lim-tarbiyaning samaradorligi uning amaliyot bilan qanchalik bog'liqligi bilan belgilanadi;
- bilim berishning samaradorligi. uning politexnik ta'lim bilan bog'liqligi bilan belgilanadi;



- berilayotgan bilim hayot bilan qanchalik bog'lansa, bolalardagi bilim egallash shunchalik ongli kechadi.

Bularning amaliyotda qo'llanishi quyidagi qoidalar orqali kechadi:

1. Bilim va tarbiya berishda, bola ulaming, o'z hayotiga naqadar zarur ekanini bilib borishi;
2. Bilim berishda hayotdan bilimga yoki bilimdan hayotga qarab boorish;
3. Bilim berishda, bu bilim hayotda zarur bo'lgani uchun kashf qilinganligini ta'kidlash;
4. O'quvchilarni eng yangi mehnat qurollari va mehnat munosabatlari bilan tanishtirib boorish;
5. O'quvchilarning olgan bilimlarini amaliyotda albatta sinab ko'rishlarini talab qilish;
6. Maktabning ishlab chiqarish bilan bog'liqligini amalda ko'rsatish;
7. Bilim berish jarayonini ishlab chiqarish yutuqlaridan misollar keltirish yo'li orqali bilimni amaliyot bilan bog'lash;
8. Dars berishda, o'quvchilarning mehnat tajribalaridan kelib chiqish;
9. Ijtimoiy mehnat faqat dars jarayoni asosida amalga oshirilishi;
10. Aqdiy mehnatni jismoniy mehnat bilan olib borish.

Texnologiya darslarini ko'rsatmalilik tamoyili asosida tashkil etish - o'qitishning ko'rsatmaliligi shuni tasdiqlaydiki, agar o'quvchilarda o'rganilayotgan jarayonlarni narsa va hodisalarni bevosita idrok qilish bilan bog'liq muayyan hissiy amaliy tajriba bo'lgan taqdirdagina ular bilimlarni ongli ravishda o'zlashtiradilar hamda ularda ilmiy tasavvur va tushunchalar hosil qilish mumkun. Bu tamoyil o'qitish jarayonida turli sezgilardan: ko'rish, eshitish, badan bilan sezish va boshqalardan foydalanishni talab etadi. O'qitish jarayonida o'quvchilarda malaka va ko'nikmalar hosil qilish uchun mehnat usuli va operatsiyalarini ko'rsatish keng qo'llaniladi. Ko'rsatmalilik o'quvchilarni qiziqishini orttiradi va qiziqtiradi, o'tilayotgan darsni yaxshi esda saqlab qolishga yordamlashadi (plakat, diafilm).

Mustahkam va puxta o'zlashtirish tamoyili asosida tashkil etish - mustahkam va



puxta o'zlashtirish tamoyilda barcha ilg'or o'qituvchilar va pedagog olimlarning ko'p yillik izlanishlari o'z ifodasini topgan. Unda nazariy bilimlar bilan empirik bilimlar birlashib mustahkamlangan. Bilimlarni mustahkam egallash jarayoni juda murakkab bo'lib, keyingi yillardagi tadqiqotlar bu jarayonga o'zgarishlar kiritdi.

Politexnik tamoyili asosida tashkil etish - texnologiya fani bosqichlari orasidagi izchillik politexnik tamoyili katta ahamiyatga ega. Ustaxonalardagi mashg'ulotlarda o'smirlar quyi sinflarda o'zlashtirgan qator politexnik malakalarni qo'llashi va takomillashtirishi juda muhim. Qog'ozni rejalashda chizg'ich, go'niya va qalamdan foydalanish malakasini egallash va metallni rejalashda qo'llash kerak. Bu jihatdan o'quvchilarning andaza rejalash malakalari juda foydali bo'ladi. O'quvchilar qog'ozni, gazlamani va listli qaychi bilan qirqish orasida ko'pgina umumiylikni topadi.

Modellashtirish jarayonida o'quvchilar yana shu ish bo'yicha quyi sinflarda olgan bilimlarini qo'llashi va hokazolar uchun cheklanmagan imkoniyatlar vujudga keladi.

Texnologiya darslarini unumli mehnat asosida o'qitish tamoyili ayrim pedagogika nazariyotchilari o'qitishni unumli mehnat bilan qo'shib olib borib bo'lmaydi degan fikrni ilgari surgan edilar. Texnologiya ta'limi darslarida bajariladigan ishlar mashq asosida olib borilsa yetarli bo'ladi degan noto'g'ri fikrni ilgari surgan edilar. Lekin hayot shuni ko'rsatdiki bu fikr noto'g'ri ekanligini ya'ni o'quvchi o'z mehnatining yakunini ko'rgandagina unda mehnatga qiziqish hamda mehnat kishisiga hurmat ortishi isbotlangan. Shuning uchun ham texnologiya darslari unumli mehnat asosida olib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida didaktik o'yinli texnologiyalar didaktik o'yinli dars shaklida qo'llaniladi. Ushbu darslarda talabalarning bilim olish jarayoni o'yin faoliyati orqali uyg'unlashtiriladi. Shu sababli talabalarning ta'lim olish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar didaktik o'yinli darslar deb ataladi.

Didaktik o'yinli mashg'ulotlarni talabalarning bilim olish va o'yin faoliyatining uyg'unligiga qarab: syujetli-rolli o'yinlar, ijodiy o'yinlar, ishbilarmonlar o'yini, konferentsiyalar, o'yin-mashqlarga ajratish mumkin.

O'qituvchi-pedagog avval o'quvchilarni individual (yakka tartibdagi), so'ngra guruhli o'yinlarga tayyorlashi va uni o'tkazishi, o'yin muvaffaqiyatli chiqqandan so'ng esa, ularni ommaviy o'yinlarga tayyorlashi lozim. Chunki talabalar didaktik o'yinli



mashg'ulotlarda faol ishtirok etishlari uchun zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari, bundan tashqari, guruh jamoasi o'rtasida hamkorlik, o'zaro yordam vujudga kelishi lozim.

O'yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini o'quvchilarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi.

Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda o'z o'rnini barqaror qilish, o'zini-o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Axmedov M.M. //O'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalari va zamonaviy yondashuvlar//FarDU.Magistratura yo'nalishi 5A11201 – Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi (Texnologik ta'lim) mutaxassisligi o'quv rejasiga kiritilgan Tanlov fani uchun o'quv qo'llanma.
2. Ahmedov M.M., Teshaboev Z.A. Forming the competence of management activities in the course of teaching teachers. Transformatsiya sotsialno-ekonomik, lingvistik, polhtichniy ta'limi//Materjali i mhnarodnoy konferentsiy. Xarkiv, Ukraina 51-54-str. ISBN 978-617-7991-88-4 DOI 10.36074/mcnd-22.10.2021.
3. Tursunboy Axmedov, Siddikova Ranoxon Abdulxay qizi, Xusanova Lobarxon Murodovna //Basics of Wood Materials and Woodworking Technology// Texas Journal of Engineering and Technology. <https://zienjournals.com>. VOL. 9, JUNE, 2022. 100-102 page.

TA'LIM TIZIMDA MA'NAViy-MA'RIFIY ISHLAR

Qosimov Xamidullo Abduqaxxor o'g'li

Namangan Davlat universiteti talabasi.

*Ilmiy rahbar: **Temurbek Islomovich Ismoilov***

Namangan davlat universiteti dotsenti.



Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’lim tizimida olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy ishlar, tarixiy obidalarni ajdodlarimizning boy merosini ma’naviy-ma’rifiy ishlardagi o’rni, Barcha ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samarali olib borilayotganligi, Yurtimizni taraqqiyot taqdirini ma’naviy jihatdan yetuk, texnikaviy bilimlar va murakkab texnologiyani egallagan, irodasi baquvvat, iymoni butun, zamonaviy fikrlaydigan, yuksak salohiyatli yoshlar bo’lishdagi o’rni haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so’zlar: Ta’lim, ma’naviy-ma’rifiy, yoshlar, ma’naviy yetuk, ilm-fan, madaniyat, texnika, taraqqiyot, ta’lim-tarbiya, intellektual salohiyati.

Haqiqiy ilimda aniq bo’lganki, har bir narsani bilish uning sabablarini, agar shunday sabablari bo’lsa va tub asoslarini o’rganish bilan hosil bo’ladi. Agar sabablari bo’lmasa, holatiga qarab va o’ziga xos narsalarni o’rganish bilan ilm tugallanadi.

Abu Ali Ibn Sino

Bugungi kunda O’zbekiston barcha soxalarda yetakchi o’rinlarni egalab kelmoqda. Shu jumladan ta’lim tizimida ham islohotlar olib borilmoqda. Ertamiz kelajagi bo’lagan yoshlarga keng qamrovli imkoniyatlar yaratilmoqda. Barcha ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samarali olib borilmoqda. Xususan matakab, texnikum va oliy ta’lim tizimlarida ham. Shuning o’rinda ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo’yicha o’rinbosari hamda ma’naviyat targ’ibotchisi lavozimlari tashkil etilgan. Bu borda olib borilgan ishlar o’z samarasni bermoqda. Yoshlarmiz ilimli bilimi komil inson bo’lib yetishmoqda. “Yoshlarimiz haqli ravishda Vatanimizning kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo’lgan, bugungi va ertangi kunimizning xal etuvchi kuchiga aylanib borayotgani barchamizga gurur va iftixor bagishlaydi. Bu sohada olib borayotgan keng miqyosli ishlarimizni, xususan, ta’lim-tarbiya bo’yicha qabul qilingan umummilliy dasturlarimizni mantiqiy yakuniga yetkazishimiz zarur. Shu maqsadda hukumatning, tegishli vazirlik va idoralar hamda butun ta’lim tizimining, hurmatli domlalarimiz va professor-o’qituvchilarning eng muhim vazifasi - yosh avlodga puxta ta’lim berish, ularni jismoniy va ma’naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir”.[1] Yoshlarni tarbiyasi ularni ma’naviy kalom topishi



Аннотация: Ушбу мақоланинг мазмунида мамлакатимиз таълим-тарбия тизимида илм-фаннинг ривожланиши асосида ўқувчи ёшларнинг дунёқарашини шакллантиришда уларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда маҳалла эзгулик бешиги ва таълим муассасаси чинакам тарбия ўчоғи эканлиги ҳамда маҳаллаларнинг ўзига хос жиҳатлари, жумладан ўқувчи ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда маҳалланинг нақадар катта аҳамиятга эга эканлиги баён этилади.

Калит сўзлар: Ёш авлод, ўқувчи ёшлар, илм-фан, таълим, тарбия, ватан, ватанпарварлик, одоб-ахлоқ, оила, мактаб, маҳалла, ота-она,

Аннотация: В содержании данной статьи, исходя из развития науки в системе образования нашей страны, констатируется, что махалля является



колыбелью добра и настоящим очагом воспитания в формировании мировоззрения школьников в духе патриотизма, и уникальные аспекты махаллы, в том числе большое значение махалля в воспитании молодых школьников в духе патриотизма.

Ключевые слова: Молодое поколение, студенческая молодежь, наука, воспитание, воспитание, Родина, патриотизм, нравы, семья, школа, соседство, родители,

Annotation: *The content of this article, based on the development of science in the education system of our country, states that the mahalla is the cradle of goodness and a real center of education in the formation of the worldview of schoolchildren in the spirit of patriotism, and the unique aspects of the mahalla, including the great importance of the mahalla in educating young schoolchildren in spirit of patriotism.*

Key words: *The younger generation, student youth, science, upbringing, upbringing, motherland, patriotism, morals, family, school, neighborhood, parents.*

Тадқиқот ишининг долзарблиги: Ўқувчи ёшлар онги ва тафаккурида ватанпарварлик ҳис-туйғуларини шакиллантириш ва юксак маънавиятли ёшлар қилиб тарбиялашда, бошқа миллат вакилларига нисбатан ҳурмат эътибор билан қарайдиган, инсонийлик қадр-қимматни эъзозлайдиган ўқувчи ёшларни вояга етказишда маҳаллани эзгулик бешиги ва чинакам тарбия ўчоғларидан бирига айлантириш бугунги янги Ўзбекистон жамиятининг энг муҳим вазифаларидан бири бўлиб қолмоқда. Ҳар бир ўқувчи ёшни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш янги Ўзбекистон жамиятининг энг асосий вазифаси ҳисобланади. Шундай экан биз танлаган “Ўқувчи ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда маҳалла эзгулик бешиги ва таълим муассасаси чинакам тарбия ўчоғи сифатида” мавзуси бугунги кун учун энг долзарб мавзулардан бири ҳисобланади.

Муаммони ҳал қилиш йўллари: Учунчи Реннесанс остонасида турган Янги Ўзбекистонда ўқувчи ёшлар онги ва тафаккурида ватанпарварлик ҳис-туйғуларини шакиллантириш, тарбиялаш, ёшларимиз орасида турли хил салбий кўринишдаги иллатларнинг олдини олиш ва уларни маънавий етук инсонлар бўлиб шакилланишида маҳалла фаолиятини тўғри йўлга қўйиш бугунги кун учун энг муҳим вазифаларидан бири бўлиб қолмоқда. Инсоният XXI асрга қадам



кўйганидан кейин жаҳон миқёсида глобал ахборот алмашинуви шиддат билан ривожланиб бораётган бугунги кунда юртимиз ўқувчи ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда уларнинг маънавий оламида бўшлиқ (ваакум) вужудга келмаслиги учун, ёшларимизнинг қалби ва онгида соғлом ҳаёт тарзини, миллий ва умуминсоний, диний қадриятларимизга ҳурмат-эъҳтиром туйғуларини болаликларидан бошлаб шакиллантиришимиз зарур бўлади. Бугунги кун ўқувчи ёшларимиз маънавиятига қарши қаратилган, бир қарашда арзимас бўлиб туюладиган ҳар қандай кичик салбий хабар ҳам ахборотлашган оламда глобаллашув жараёнларининг шиддатидан куч олган ҳолда кўзга кўринмайдиган, аммо маънавий зарарини ҳеч бир нарса билан қоплаб бўлмайдиган улкан маънавий зарарни келтириб чиқариши мумкин. Бундай салбий ҳолатларнинг олдини олиш учун юртимиздаги ҳар бир маҳалла ва оила вакиллари бўлмиш ота-оналаримиз ўз фарзандларининг бахту-камолини кўришлари учун ёшликларидан бошлаб тўғри тарбия беришга ҳаракат қилишади, албатта бу жараёнлар ўз-ўзидан амалга ошиб қолмайди.

Таклиф ва тавсиялар: Ўзбек халқимизда яхши бир нақл бор: “Нима эксанг, шуни ўрасан”, келинг шу нақлни бугунги кун нуқтаи назаридан бошқача бир талқинда айтиб кўрайлик: “Нима ўришни хохласанг, шунга яраша меҳнат қил”. Мустақиллик шарофати билан юртимиз фуқаролари тинч-тотув, тўқчилик замонида яшаб келишмоқда. Бугунги тинчлик замонда юртимиздаги ҳар бир ота-она ўз фарзандига молу-мулк, уй-жой, имконияти кўтарса автомобиль ва бошқа бир қанча қимматбаҳо моддий бойликларни таъминлаб беришлари мумкин, аммо лекин тўғри тарбия ва бардавом бахтни топиб бера олишадими? Бу нарсаларни топиб беришлари учун ҳар бир ота-онанинг ўзлари қандай тарбия кўрганлик даражаларига боғлиқ бўлади. Қадимда бир ота ўғлини етаклаб кета туриб шундай дебди “Ўғлим ҳар бир босган қадамнингни ўйлаб бос” деб айтса, ўғли отасига қараб шундай жавоб берибди: “Ота сиз қайси йўлдан қандай қадам босиб юрсангиз мен ҳам шундай қадам босиб юраман, чунки мен сизга эргашаяпман” деб жавоб берган экан. Ёки яна бир мисол “Қуш уясида кўрганини қилади” “Хўрозқанд” чет элники деса ётиб олиб ялайдиганлар ҳам халқимиз орасида, айниқса ёшларимиз орасида афсуски топилади. “Дарахтнинг бўшини қурт ейди” [1], доим деган



халқ мақоллари бежиз айтилмаган. ва ҳокозо... бундай мисолларни кўплаб келтиришимиз мумкин. Педагогик адабиётларда педагогиканинг луғавий маъноси “бола етакламоқ” деб айтилади. Биз ота-оналар барибир болаларимизни етаклаб юрамиз, демак биз ўзимиз қандай қадам боссак, фарзандларимиз ҳам ана шундай қадам босишади. Бу нарса педагогик тарбиянинг ибрат-намуна усулига мос келади.

Қадим замонлардан токи бугунги доруломон кунимизгача таълим-тарбия масаласи ҳар доим кун тартибидаги асосий масалалардан бири бўлиб келган. Таълим-тарбия масаласида ўз даврида мустақил Ўзбекистон Республикасининг биринчи Президенти Ислон Абдуғаниевич Каримов -шундай деб ёзган эди, - Мен, - Абдулла Авлонийнинг “Тарбия биз учун ё ҳаёт – ё мамот, ё нажот – ё ҳалокат, ё саодат – ё фалокат масаласидир” [2] деган фикрини кўп мушоҳада қиламан. Буюк маърифатпарварнинг бу сўзлари асримиз бошида миллатимиз учун қанчалар муҳим ва долзарб бўлган бўлса, ҳозирги кунда биз учун ҳам шунчалик, балки ундан ҳам муҳим ва долзарбдир

Шу ўринда давлатимиз раҳбари Ўзбекистон Республикасининг президенти Ш.М.Мирзиёевнинг қуйидаги фикрларини мисол қилиб олишимиз мумкин. “Агар катта авлоднинг билими ва тажрибасини, узокни кўра олиш фазилатларини ёшларимиздаги ғайрат-шижоат, мардлик ва фидоийлик билан бирлаштира олсак, кўзлаган марраларга албатта етамиз. Янги Ўзбекистонни ана шундай билимли ва бунёдкор ёшларимиз билан биргаликда барпо етамиз”. [3] Чунки ҳаёт давом этар экан, янгидан-янги авлодлар туғилади, ҳаётда камол топишлари учун эса таълим-тарбияга эҳтиёж сезади. Президентимиз Ш.М.Мирзиёевнинг ушбу фикрларга ҳамоҳанг сифатида биринчи президентимиз И.А.Каримовнинг айтиб ўтган қуйидаги фикрларини уйғунлаштириш айна муддаодир “Ҳар қайси миллатнинг ўзига хос маънавиятини шакиллантириш ва юксалтиришда, ҳеч шубҳасиз, оила ва маҳалланинг ўрни ва таъсири беқиёсдир. Чунки инсоннинг энг соф ва покиза туйғулари, илк ҳаётий тушунча ва тасавурлари биринчи галда оила бағрида шакилланади. Боланинг характерини, табиати ва дунёқарашини белгилайдиган маънавий мезон ва қарашлар – яхшилик ва эзгулик, олийжаноблик ва меҳр-



окибат, ор-номус ва андиша каби муқаддас тушунчаларнинг пойдевори оила шароитида қарор топиши табиийдир” [4]

Қутилаётган ижтимоий самара(натига) : Мақсадимиз ўқувчи ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаб камол топтириш экан, бу борада иймон-этиқоди бутун, иродаси бақувват эркин фуқаро маънавиятини шакиллантириш билан бирга мустақил дунёқарашга эга, ўтмиш аجدодларимиз бўлган ота-боболаримизнинг бебаҳо мероси ва замонавий тафаккурга таяниб яшайдиган баркамол шахс – комил инсонларни тарбиялашдан иборат бўлиб, бу вазифаларни амалга оширишда кенг жамоатчилик билан, яъни маҳалла билан ҳамкорлик ишларини амалга ошириш мақсадга мувофиқдир.

Кадрлар тайёрлаш миллий дастурининг “4.4 Маънавий – ахлоқий тарбия ва маърифий ишлар” деб номланган бандида “Ўзбекистон мустақиллиги принципларига садоқатли ҳамда жамият тараққиётига муносиб ҳисса қўшишга кодир шахсни шакиллантириш мақсадида таълим муассасалари, ота-оналар, оила, маҳалла қўмиталари, Республика Маънавият тарғибот маркази, Миллий ғоя ва мафкура илмий-амалий маркази, жамоат ташкилотлари, фондлар билан ўзаро пухта ҳамкорлик қиладилар” [5] деб кўрсатилган ва тегишли тизим ишлаб чиқилган.

Илм-фаннинг ривожланиши асосида ўқувчи ёшларимизни ватанпарварлик руҳида тарбиялаб камол топтиришда ҳамда маънавий-ахлоқий тарбия ва маърифий ишлар тизимини мунтазам амалга ошириб бориш борасида ҳар бир муассаса ва ташкилотнинг ўз вазифалари мавжуд. Бугунги кунда бу борада Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги тизими қошида бир қатор қуйидаги вазифалар (функция)лар амалга ошириб келинмоқда. Жумладан: Таълим муассасаларининг ота-оналар, оилалар, фуқароларнинг ўзини-ўзи бошқариш органлари, жамоат ташкилотлари, жамғармалар билан ижодий фаол, Ўзбекистон мустақиллиги ғояларига садоқатли ва жамиятимиз тараққиётига муносиб улуш қўшишга лаёқатли ўқувчи ёшларни камол топтириш бўйича ўзаро яқин ҳамкорликни амалга оширади. Ўқувчи ёшларда ватанпарварлик ҳис-туйғуларини шакиллантириш билан бир қаторда уларни маънавий-ахлоқий тарбиялаш, ўз Ватани ва халқига содиқ фуқарони шакиллантириш бўйича



мактабларнинг ота-оналар, оилалар, маҳалла кўмиталари, Республика Маънавият тарғибот маркази бўлинмалари жамоат ташкилотлари ва жамғармалар билан мустахкам ўзаро ҳамкорлиги амалга оширилади.

Илм-фаннинг ривожланиши асосида ўқувчи ёшларни ватанпарварлик руҳида камол топтиришда ҳамда бўлажак фуқароларимизни маънавий баркамол шахс ва жисмоний соғлом бўлишларида оиланинг ҳам бир қатор вазифалари мавжуд. Улар қуйидагилардан иборат: Оилада ҳар бир ота-она соғлом ижтимоий муҳитни яратиш, миллий руҳиятни ва турмуш тарзини ҳисобга олган ҳолда фарзандларда ота-онага, ака-укага, опа-сингилга, қариндош-уруғларга ва Ватанга бўлган меҳр-муҳаббат туйғусини шакиллантириш, фарзандларнинг кизиқишлари, иқтидори ва эҳтиёжларини ҳисобга олган ҳолда турли хил касбларга йўналтириш, ҳар бир ота-она ўз фарзандини мустақил фикрлашга ўргатиш, ватанимиз миллий истиқлол ғоялари ва миллий мафкурамизга садоқат руҳида тарбиялаш, фарзандларнинг бўш вақтларини тўғри ташкил этиш ва уларнинг қўшимча таълим олишлари учун тўла-тўқис шарт-шароит яратишдан иборат бўлишлари керак.

Илм-фаннинг ривожланиши асосида ўқувчи ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда маҳаллаларнинг ҳам бир қатор вазифалари мавжуд ва улар қуйидагилардан иборат бўлиш керак: Таълим муассасалари билан биргаликда таълим-тарбия жараёнида амалга оширилиши керак бўлган масалаларни муҳокама қилишда қатнашиб, оқилона ечимлар топишда фаол иштирок этиш ва фаоллик ва ташаббускорлик кўрсатиш, ўқувчи ёшлар орасида ўз фарзандлари тарбияси билан етарлича шуғулланмайдиган баъзи бир ота-оналарни маҳалла фуқаролар йиғинларида қаттиқ муҳокама қилиш, уларга жамоатчилик таъсирини ўтказиш, керак бўлган ҳолларда бундай ота-оналар билан тегишли профилактик ишларни олиб бориш ва тадбирларни белгилаш мақсадида ҳурмат ва эътиборга сазовор бўлган маҳалла фаолларини бириктириш ёки қонун доирасида белгиланган бошқа чораларни кўриш, ўқувчи ёшларни диний мазҳаблар ва секталар, ақидапарастликнинг салбий таъсирини тўғри англаб етишларида уларга ота-оналар орқали таъсир кўрсатиш, улуғ аллома ва мутафаккир аждодларимизнинг тарбиявий ўғитларини сингдириб боришга кенг



жамоатчиликни сафарбар қилиш, маҳалла ҳудудидаги нотинч оилаларни аниқлаш ва уларга содир этилиши мумкин бўлган келишмовчилик ва низоларнинг олдини олишдан иборат бўлиши керак.

Илм-фаннинг ривожланиши асосида таълим муассасаларининг ўқувчи ёшлар онгида ватанпарварлик ҳис-туйғуларини шакиллантириш борасида олиб борадиган вазифалари қуйидагилардан иборат бўлишлари керак: Ўқувчи ёшларга таълим ва тарбия беришда илғор педагогик технологиялар, ахборот-коммуникация воситаларидан кенг ва ўринли фойдаланишга тўла-тўқис шарт-шароит яратиш, ўқувчи ёшларнинг таълим-тарбия олиш жараёнида турли хил чалғитувчи воситаларнинг зарари ва уларнинг оқибатларининг олдини олиш бўйича кенг қамровли тарғибот-ташвиқот ишларини йўлга қўйиш ва олиб бориш, бугунги глобаллашув жараёнлари шиддат билан ривожланиб бораётган бир даврда ўқувчи ёшлар онги ва шуурига таъсир этишга қаратилган маънавий таҳдидларга қарши улар онгида мафкуравий иммунитет ва унинг элементларини ҳосил қилиш, таълим муассасалари қошида ўқувчи ёшларнинг бирон-бир касб-ҳунарни эгаллашлари учун дастлабки пойдевор яратиш, ўқувчи ёшларни мустақил фикрлашга ўргатиш, уларни истиқлол ғоялари ва миллий мафкурага садоқат руҳида тарбиялаш, ўқувчи ёшларнинг спорт тўғарақларига қатнашишлари ва спорт турлари билан шуғулланишларига шарт-шароитлар яратиш, уларнинг бўш вақтларини тўғри ва мазмунли ташкил этиш ва ҳокозолардан иборат бўлиши керак.

Илм-фаннинг ривожланиши асосида ўқувчи ёшларнинг онгида ватанпарварлик ҳис-туйғуларини шакиллантиришда оила, маҳалла, таълим муассасалари ҳамкорлигида қуйидаги тамойиллар ва босқичларга амал қилинганда таълим-тарбия жараёнининг самарадорлиги янада юқори бўлади: Таълим ва тарбия жараёнида ҳамкорлик ҳаракатларининг уйғунлиги, таълим олувчига ҳурмат ва талабнинг уйғунлиги, ҳамкорлик жараёни субъектларининг тенг ҳуқуқлиги ва юксак масъулиятлилиги, фаолият жараёнида миллат ва давлат манфаатлари устуворлиги, ҳамкорлик ишларининг илмийлиги ва ҳокозолар.



Ватанимиз вилоятлардан, вилоятлар туманлардан, туманлар маҳаллалардан, маҳаллаларимиз оилалардан, оилаларимиз ота-она, фарзандлардан иборат. Демак, аввало ҳар бир ота-онанинг дунёкараши, иймон-этиқоди ва мафқураси мустаҳкам бўлса, оила, маҳалла, туман, шаҳар, вилоятлар, яъни халқимизнинг мафқураси мустаҳкам бўлади. Халқаро майдонда мафқуравий, ғоявий ва информацион курашлар кучайиб бораётган бугунги мураккаб ва таҳликали замонда маънавий-маърифий ишларни замон талаблари асосида ташкил этиш, ўқувчи ёшларимизни турли-туман кўринишдаги мафқуравий хуружлардан ҳимоя қилиш, фуқароларимизнинг, жумладан ўқувчи ёшларимизнинг ҳаётга онгли муносабатини шакиллантириш, ён-атрофимизда юз бераётган воқеа ва ҳодисаларга дахлдорлик ҳиссини ошириш асосий вазифамиздир. Бу ҳақида Ўзбекистон Республикасининг биринчи президенти И.Каримов ўз даврида ўзининг “Юксак маънавият енгилмас куч” асарида жумладан шундай деб айтиб ўтган эди: “Бугунги кунда ёшларимиз нафақат ўқув даргоҳларида, балки радио-телевидение, матбуот, Интернет каби воситалар орқали ҳам ранг-баранг ахборот ва маълумотларни олмоқда. Жаҳон ахборот майдони тобора кенгайиб бораётган шундай бир шароитда болаларимизнинг онгини фақат ўраб-чирмаб, уни ўқима, буни кўрма, деб бир томонлама тарбия бериш, уларнинг атрофини темир девор билан ўраб олиш, ҳеч шубҳасиз, замоннинг талабига ҳам, бизнинг эзгу мақсад муддаоларимизга ҳам тўғри келмайди”

Адабиётлар

- 1.Ўзбек халқ мақоллари.
2. Каримов.И.А. “Жамиятимиз мафқураси халқни – халқ, миллатни – миллат қилишга хизмат этсин”.Т.: “Ўзбекистон”,1998, 17 – бет.
3. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга ва Ўзбекистон халқига мурожаатномаси. Тошкент. 2020 йил 29 декабрь
- 4.Каримов И.А.”Юксак маънавият – енгилмас куч”.-Тошкент.: “Маънавият”, 2008 йил,52-бет
5. Барқамол авлод Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори,-Тошкент.: “Шарқ”, 1998,-55-бет.



AHOLI SALOMATLIGINI SAQLASHDA SKANDINAVIYA USULIDA YURISHNING AHAMIYATI

Azizov Mirzohid Mirzaolim o'g'li

*Namangan davlat pedagogika instituti, Amaliy va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi
kafedrasi katta o'qituvchisi, p.f.b.f.d., PhD.*

Tel: +998942761303, e-mail: mirzohid.azizov@bk.ru

***Anotatsiya:** Mazkur maqolada Skandinaviya usulida yurishning aholi salomatligini saqlashdagi ahamiyati, inson organizmiga ijobiy ta'siri xamda mashg'ulotlar olib borishning qonun – qoidalari haqida so'z borgan.*

***Kalit so'zlar:** Skandinavcha yurish, harakatlarni muvofiqlashtirish, moslashuvchanlik, jismoniy kuchlanish, tayoqchalar, jismoniy mashqlar, skandinavcha yurish texnikasi.*

ЗНАЧЕНИЕ СКАНДИНАВСКОЙ ХОДЬБЫ В СОХРАНЕНИИ ЗДОРОВЬЯ НАСЕЛЕНИЯ

Азизов Мирзоҳид Мирзолим угли

Наманганский государственный педагогический институт, старший преподаватель кафедры методики преподавания прикладных и естественных наук, п.ф.б.ф.д., PhD. Тел: +998942761303, Gmail: mirzohid.azizov@bk.ru

***Аннотация:** В данной статье рассказывается о значении ходьбы по-скандинавски в сохранении здоровья населения, ее положительном влиянии на организм человека, а также о юридических правилах проведения упражнений.*

***Ключевые слова:** Скандинавская ходьба, координация движений, гибкость, физическое напряжение, палки, физические упражнения, техника скандинавской ходьбы.*

THE SIGNIFICANCE OF NORDIC WALKING IN PRESERVING THE HEALTH OF THE POPULATION

Azizov Mirzokhid Mirzaolim o'g'li

Namangan State Pedagogical Institute, Senior Lecturer of the Department of Methods of Teaching Applied and Natural Sciences, p.f.b.f.d., PhD.



Tel: +998942761303, Gmail: mirzohid.azizov@bk.ru

Abstract: *This article talks about the importance of Scandinavian walking in maintaining the health of the population, its positive effect on the human body, as well as the legal rules for conducting exercises.*

Key words: *Nordic walking, coordination of movements, flexibility, physical tension, sticks, physical exercises, Nordic walking technique.*

Kirish. Bugungi kunda yosh avlod tarbiyasi, salomatligiga berilayotgan e'tibor ertangi kunimizga berilayotgan e'tibordir. Mamlakatimizda bu borada misli ko'rilmagan ishlar amalga oshirilmoqda, jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 – yil 14 – avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy – axloqiy va jismonan barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3907-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora – tadbirlari to'g'risida 2020 – yil 24 – yanvardagi PF-5924-son Farmonlari ijrosini ta'minlash hamda aholini bo'sh vaqtdan unumli foydalanish va sog'lomlashtirish maqsadida skandinaviya usulida yurish metodikasini ishlab chiqildi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, faol bo'lmagan turmush tarzi jamoat salomatligi uchun global muammodir.

Har yili yurak - qon tomir kasalliklari, semizlik, yassi oyoq, Umurtqa pog'onasidagi qiyshayishlar, nutq, ko'rish, nafas olish organlari faoliyati bilan og'rikan bolalar soni ortib bormoqda va bu o'z navbatida bolalarning turli xil kasalliklarga qarshilik qilish qobiliyatini kamaytirmoqda.

Shuning uchun, bola salomatligini mustahkamlashning samarali yo'llarini topish, jismoniy rivojlanish kamchiliklarini tuzatish, kasalliklarning oldini olish va harakat faolligini oshirish masalasi bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu muammolarning eng oddiy yechimi, aholining barcha yosh qatlamlari uchun skandinaviya yurishni qo'llash xisoblanadi.

Adabiyotlar taxlili. Mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy-uslubiy adabiyotlarini o'rganish va tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, sog'lomlashtirish

yo'nalishidagi jismoniy tarbiya muammolariga bag'ishlangan ko'plab ilmiy tadqiqotlar mavjud, xususan, G.V.Julin, I.A.Koshbaxtieva, D.D.Sharipov, L.I.Lubishov, T.S.Usmanxodjaev va boshqalar.

Sog'lomlashtirish yo'nalishidagi jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish muammolari M.V.Zvereva, A.M.Kozin, L.V.Smurigina, I.A.Sennikova, A.G.O'edrin, T.A.Daminova, B.T.Xalmatova va boshqalar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligida yosh xususiyatlarini tahlil qilish O.V.Goncharova, V.I.Lyax, V.A.Ermakov, A.N.Kainov, T.G.Sulimova, A.Y.Farraxova, I.G.Dukalskiy, V.P.Guba, A.A.Gujalovski va boshqalar asarlari asosida amalga oshirildi.[3,4]

➤ **Skandinavcha tayoq bilan yurish**

Skandinaviyada tayoq bilan yurish (Shimoliy yurish, Nordic yurish, fin yurish) - chang'ichilarga o'xshash maxsus tayoqlarga tayangan xolda yurishning bir turi hisoblanadi. Skandinavcha yurish nisbatan yangi va bugungi kunda eng rivojlanayotgan sport turlaridan biriga aylanmoqda.

➤ **Skandinavcha yurishning foydali taraflari**

Skandinavcha yurishning boshlang'ich sinf o'quvchilariga qo'llashga qaror qilganimizning bir necha sabablari bor:

- * yilning istalgan vaqtida shug'ullanish mumkin;
- * barcha bolalar uchun javob beradi;
- * har qanday hududda yurish mumkin;
- * nafas olish, qon aylanishi, organizmning yurak – qon tomir va asab tizimlarini rivojlantirish va funktsional takomillashtirishga yordam beradi;
- * mushak kuchini, moslashuvchanligini, chidamliligini, tezlikni kuchaytirish va muvofiqlashtirish qobiliyatlarini rivojlantiradi;
- * muvozanat tuyg'usini o'rgatadi;
- * oddiy yurish bilan solishtirganda energiya sarfini 5-10 % ga oshiradi.

Skandinavcha tayoq bilan yurish deyarli universaldir – har qanday yoshdagi, jinsdagi va jismoniy tayyorgarlik darajasi turli xil bo'lgan bolalar uchun mos keladi.

Skandinavcha yurishga qarshi ko'rsatmalar mavjud emas. Albatta, bu yurish (o'tkir yuqumli kasalliklar, jiddiy og'iq sindromi bo'lgan har qanday surunkali

kasallikning kuchayishi va h.k.) ko'rsatilgan hollarda tavsiya etilmaydi.

Sog'liq holati qanday bo'lishidan qat'iy nazar, mashg'ulotlarda yukni oshirish asta-sekin bo'lishi kerak. Skandinavcha yurish mashg'ulotlari ijobiy ta'sir ko'rsatadi va yoqimsiz his-tuyg'ularni keltirib chiqarmaydi, yangi boshlovchilar uchun xam qiziqarli mashg'ulot hisoblanadi.

➤ **Skandinaviya yurish uchun uskunalalar**

Skandinaviyada yurish uchun asbob-uskunalarining majburiy elementi maxsus tayoqlardir. Shuni ta'kidlash kerakki, noto'g'ri tanlangan uzunlikdagi tayoqlar muskullar sistemasidagi yukni, ayniqsa, orqa, tizzalar va oyoq muskullariga yukni oshiradi.

Tayoqlarni qor, muz, yo'llar va boshqa, nisbatan yumshoq sirt ustida yurishga yordam beradigan uchki qoplamalari mavjud. Asfalt va betonda yurish uchun maxsus kauchuk uchi ishlatiladi. Skandinavcha yurish uchun maxsus poyabzal va kiyim-kechak belgilanmagan. Shug'ullanuvchilar yengil kiyim va qulay poyabzal kiyishlari mumkin.

Bizning fikrimizcha mashg'ulotlarni boshlash uchun eng maqbul vaqt – kuz davri. Sog'lom turmush tarzi – 20-25 daqiqadan (haftasiga ikki, uch marta). Qish mavsumida Skandinaviyada yurish mashqlari havo haroratida 15-18°C da o'tkaziladi.

➤ **Tayoqlarning uzunligini to'g'ri sozlash**

Biz Skandinavcha yurish uchun tayoqni qo'laymiz va uchini oyoq barmoqlariga qo'yamiz. Bunday holda, tayoqni ushlab turga qo'l tirsagi to'g'ri burchak ostida egilishi kerak.

Shuni ta'kidlash kerakki, tayoq uzunligi o'zgarishi bilan yurish paytida jismoniy kuchlanishning intensivligini sozlash mumkin: tayoqning uzunligi oshishi bilan yuk ortib boradi.

➤ **Skandinavcha yurish texnikasi**

Skandinaviyada tayoq bilan yurish usuli odatiy yurishga juda o'xshaydi: qo'llar, oyoqlar erkin va sinxron tarzda harakat qiladi: chap qo'l va o'ng oyoq oldinga, keyin keyingi qadam o'ng qo'l va chap oyoq oldinga, va hokazo. Yurish paytida siz avval tovonni, keyin esa oyoqni kaft qismini so'ngra uchini qo'yishingiz kerak, xarakatlar



yengil bajarilishi lozim.

Skandinaviya yurishida asosiy narsa birinchi qadamni qo'yishdir: avval qo'l tirsakda bir oz egilib, oldinga cho'ziladi, tayoqning burchak ostida ekanligiga ishonch hosil qilinadi, ikkinchisi tirsakda egilib, tos suyagi darajasida saqlanadi va orqaga qarab yo'naltiriladi, shoshilmang. O'ng qo'lni uzatishda chap oyoq ishlaydi va aksincha.

Skandinaviyada yurish tezligi odatda oddiy yurishdan ko'ra ancha kuchli. Shu bilan birga, qo'l harakatining amplitudasi qadamning kengligini va shunga mos ravishda tananing mushaklaridagi umumiy yukni aniqlaydi. Qo'llarning yuk hajmini kamaytirganda, qadam kichikroq bo'ladi va yuk kamayadi va agar yurish yanada qizg'in bo'lishi kerak bo'lsa, qo'l harakati amplitudasi oshadi. Skandinavcha yurish usuli turli xil variantlarni taqdim etadi: sekin va tez yurish, keng va kichik qadamni almashtirishingiz mumkin. Bundan tashqari, qisqa yurish va dam olish yoki yurish tayoqchalari bilan mashq qilish mumkin. Yuqori jismoniy faoliyatni yaxshi ko'radiganlar uchun tayoqlar uchun maxsus og'irliklar mavjud.

Skandinaviya yurishida nafas olish usullariga kelsak, aniq qoidalar va cheklovlar yo'q. Yurish paytida nafas olishni boshlash odatdagidek, ya'ni burun orqali tavsiya etiladi. Yurishni tugatganingizdan so'ng, siz bir necha bor chuqur nafas olishni amalga oshirishingiz kerak.

➤ **Xulosa**

Skandinaviyada tayoq bilan yurish deyarli universaldir – har qanday yoshdagi, jins va jismoniy tayorgar darajasiga mos keladi. Skandinaviya yurishlariga qarshi ko'rsatmalar mavjud emas.

Biz ishonamizki, Skandinavcha yurish mashg'ulotlari boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun sog'lig'ini mustahkamlash, jismoniy rivojlanish kamchiliklarini tuzatish, kasalliklarning oldini olish va xarakter faolligini oshirish uchun eng samarali sport turi bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy - axloqiy va jismonan barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jixatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ



3907-sonli qarori. <http://lex.uz/471132>

2. S.O. Averin, L.P. Sobyana, E.B. Shishina, Murakkab davolash dasturida Skandinavcha yurishdan foydalanish tajribasi «Академия дорового образа жизни» «Сибирь» / - 2016. - Т.93, №2-2. - В. 24-25.
3. Church, T.S. Field testing of physiological responses associated with Nordic Walking / T.S. Church [et al.] // Res Q Exerc Sport. – 2002. – № 73(3). – P. 296-300
4. F.A.Kerimov Sportda ilmiy tadqiqotlar. T.: Ilmiy texnika axboroti-press nashriyoti, 2018 -348 B
5. Skandinavcha yurish / М.М. Илий, Е.В. Шишина, С.О. Аверин // М.: Ridero, 2018. - 148 b.
6. Claire W. Nordic Walking : The Complete Guide to Health, Fitness, and Fun / W. Nordic Claire. - Hatherleigh Press, 2009. - 208 p.
7. Hagen, M. Lower and Upper Extremity Loading in Nordic Walking in Comparison with Walking and Running // Journal of Applied Biomechanics. – 2011. – № 27(1). – P. 22-31.

**BOSHLANG‘ICH TA‘LIM SIFATINI BAHOLASH VA
TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO TADQIQOT DASTURLARINING
O‘RNI: MUAMMO VA YECHIMLAR**

Nuriddinova Azizaxon Bahromjon qizi

Namangan davlat universiteti

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limdagi baholash tizimi, mavjud muammolar, xalqaro tadqiqot dasturining o’rni hamda ularning yechimlari haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** PIRLS, PISA, TIMSS, TALIS, xalqaro baholash dasturi, milliy ta’lim tizimi, o’qish savodxonligi.*

***Annotation.** This article discusses the system of assessment in primary education, the existing problems, the role of international research programs and their solutions.*

***Keywords:** PIRLS, PISA, TIMSS, TALIS, international assessment program, national education system, reading literacy.*



***Аннотация.** В этой статье обсуждаются исследования в области повышения квалификации, текущие вопросы, роль международной исследовательской программы и судебные решения.*

***Ключевые слова:** PIRLS, PISA, TIMSS, TALIS, международная программа оценки, национальная система образования, грамотность чтения.*

Boshlang'ich ta'lim – ta'limning poydevori deb bejiz aytilmagan. O'quvchilarning kelajakda komil inson bo'lib voyaga yetishini ta'minlovchi muhim bosqich hisoblanadi. Yurtimizda boshlang'ich ta'limni rivojlantirish borasida qator yutuqlarga erishildi. Jumladan, boshlang'ich ta'lim bosqichi uchun zamon talablariga javob beradigan yangi davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturi, shu jumladan, darsliklarning multimedia ilovalari, darsliklar va o'quv qo'llanmalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi. Ilg'or pedagogik texnologiyalar va o'qitishning interfaol usullaridan keng foydalanilmoqda. Modernizatsiyalashgan ta'lim talablariga muvofiq tarzda yangilangan.

“Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi”da ta'kidlanishicha, “Shaxsga yo'naltirilgan hamda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan boshlang'ich ta'lim jamiyat taraqqiyoti bilan baravar rivojlanib, takomillashib boruvchi ta'lim nazariyasiga tayangan holda muntazam tarzda rivojlantiriladi va shaxsni jamiyat talablari asosida yuksaltirishga xizmat qiladi”. Shuningdek, mazkur konsepsiyaning 6-bandida ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni va axborotkommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etishning mexanizmlari ko'rsatilib, boshlang'ich ta'limni takomillashtirishda ilg'or pedagogik va mediata'lim texnologiyalarining o'rne ko'rsatib o'tilgan. Shunga ko'ra maqsadimiz - boshlang'ich ta'limning sifatini jahon talablari darajasiga ko'tarishga erishish, bo'shliqlarni aniqlash va to'ldirishdir. Bu ishlarni samarali amalga oshirishda boshlang'ich sinf o'qituvchisining yuqori kasbiy salohiyati va ma'lumot darajasi, bolalar psixologiyasi hamda hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim metodikasini chuqur bilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchi, dars jarayoni - ta'lim-tarbiyaga uzluksiz, muayan maqsadga yo'naltirilganligi, unda barkamol shaxsni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilganligi hamda pedagogik jarayonning asosiy maqsadi barkamol inson shaxsini



tarbiyalab voyaga yetkazishdan iboratligini unutmasligi kerak. Bugun yurtimiz zamonaviy taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lgan yoshlarning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llabquvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lda xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.

Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish yo'lida xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega. Bu borada O'zbekiston Respublikasida qo'yilayotgan amaliy qadamlarga xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarning tashkil etilishi to'g'risida hukumat qarorining qabul qilinishi Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasidek (IEA-International Association for the Evaluation of Educational Achievement) nufuzli tashkilot bilan hamkorlik aloqalarining yo'lga qo'yilishini misol sifatida keltirish mumkin. So'ngi yillarda mamlakatimiz ta'lim tizimida xususan boshlang'ich ta'limda keng qamrovli ijobiy ishlar amalga oshirildi. Ta'lim sifatini oshirish uchta eng asosiy tarmoqlarning birdek takomillashuviga bog'liq bo'lib, ular umumta'lim muassasalarining moddiy texnika bazasini rivojlantirish, uni o'quv metodik adabiyotlar bilan ta'minlash, o'quv jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni tadbiq etishdan iborat.

Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llashda o'qituvchining didaktik o'quv material, dars ishlanmalari kabilar kiradi. Ta'lim tizimida ilg'or xalqaro tajriba va jamiyatning zamonaviy talablariga muvofiq sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini yaratish, xalq ta'limi muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va byudjetdan mablag' bilan ta'minlashning samaradorligini oshirish, yoshlar ta'limtarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan choratadbirlarni amalga oshirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga umumiy o'rta ta'lim muassasalarining mavjud holati ularning faoliyatidagi tizimli muammolar va kamchiliklarni tezkor bartaraf



etish mexanizmlarini yaratish, qishloq va shahar maktablarining moddiytexnik ta'minoti va ta'lim berish sifatidagi tafovutni qisqartirish hamda o'quvchi-yoshlarning ta'lim olishlari uchun teng sharoitlar yaratish zarurligini ko'rsatmoqda. **PISA** - o'quvchilarni ta'limiy yutuqlarini baholash xalqaro dasturi; **PIRLS** - matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot; **TIMSS** - maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring; **TALIS** - turli mamlakatlarda tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarning xalqaro qiyosiy tahliliga asoslangan tadqiqot - kabi bir qator xalqaro dasturlar mavjud bo'lib, ular rivojlangan davlatlardagi ta'lim sifatini yanada oshirishdagi mezon sifatida keng qo'llanilmoqda.

PISA- (inglizcha - Programme for International Student Assessment) – turli davlatlarda 15 yoshli o'quvchilarning savodxonligini (o'qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini baholovchi dastur. Bu dastur 3 yilda bir marotaba o'tkaziladi. Dastlab 1997-yilda ishlab chiqilgan va 2000-yilda birinchi marta qo'llanilgan. PISAda o'quvchilarning bilim sifati monitoringi 5 ta yo'nalish bo'yicha aniqlanadi. Har besh yilda o'tkaziladigan PIRLS dasturi 4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini xalqaro darajada baholaydi. 2016-yildan boshlab qo'shimcha tanlov asosida PIRLS tizimi joriy qilingan bo'lib, u o'quvchilarning onlayn o'qish savodxonligini baholashga mo'ljallangan. Internet o'quvchilar uchun ma'lumotlar olishning boshlang'ich yo'li hamda maktab fanlari doirasida izlanishlar olib borish uchun markaziy manba hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5712-son Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan.

PIRLS - dasturida qatnashuvchi mamlakatlar soni yildan yilga ko'payib bormoqda. Masalan, dasturda 2001-yilda 35 ta mamlakat qatnashgan bo'lsa, 2006-yilda 40 ta, 2011-yilda 45 ta, 2016-yilda 50 ta mamlakat va navbatdagi 2021-yilda



o'tkaziladigan tadqiqotda 60 ta mamlakatning ishtirok etishi rejalashtirilgan. 2016-yilda tadqiqotga Rossiya Federatsiyasining 42 ta hududidan 206 ta umumiy o'rta ta'lim maktabi va 4577 ta boshlang'ich sinf o'quvchilari jalb etilgan bo'lib, tadqiqot natijalariga ko'ra Rossiya Federatsiyasi dunyo bo'yicha birinchi o'rinni egallagan. O'qish savodxonligi o'quvchilarning ilmiy va shaxsiy muvaffaqiyatini o'sishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi, shuningdek, PIRLS ta'lim sohasida olib borilayotgan siyosatning muvaffaqiyatga ta'sirini baholash uchun qimmatli vosita hisoblanadi. Butun dunyo bo'ylab o'qish savodxonligining rivoji odamlarning nima sababdan o'qishlari bilan bevosita bog'liq. Umuman olganda, bu sabablar zavqlanish va shaxsiy qiziqish uchun o'qishni yoki ta'lim va jamiyat hayotida munosib ishtirok etishni o'z ichiga oladi. Ko'pgina yosh o'quvchilarning dastlabki mutolaasi aksariyat hollarda hikoya (masalan, hikoya to'plamlari yoki rasmiy kitoblar) yoki o'quvchilarga atrofidagi dunyo haqida ma'lumot beradigan va savollarga javob beradigan ma'lumotli matnlardan iborat bo'ladi. Yosh o'quvchi uchun o'qish savodxonligining har ikki maqsadi ham muhim hisoblanadi. Bundan tashqari, PIRLS o'qish maqsadlarining har birida to'rtta keng tushunish jarayonini birlashtiradi. Bular: diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish, to'g'ridan to'g'ri xulosalar chiqarish, g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish, kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilishdan iborat. Shuning uchun PIRLS har bir o'qish turini baholashda matnlarni teng bo'lishni asosiy maqsad qilib olgan.

TIMSS - Matematika va tabiiy fanlarni o'zlashtirish sifatini Xalqaro monitoring qilish va baholash tizimi. Bu tadqiqot o'quvchilarning matematika va tabiiy fanlar bo'yicha boshlang'ich maktabning 4 sinfi va tayanch maktabning 8 sinf o'quvchilarining o'zlashtirish darajasini dunyoning turli mamlakatlarida qiyosiy o'rganishni maqsad qilib qo'ygan va olingan natijalarga muvofiq har bir mamlakatning ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari va yutuqlarini e'tirof etadi.

O'quvchilarning erishgan yutuqlarini o'rganishda barcha o'quvchilardan emas, balki ushbu qatlamning vakillari sifatida tanlab olingan o'quvchilardan obyektiv testlarni o'tkazish orqali baholanadi. Shuningdek, maktab direktorlari, o'qituvchilar, o'quvchilar, hattoki ota-onalardan so'rovnomalar o'tkazilib, maktabdagi ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, jumladan, maktab resurslari, o'quvchilarning ta'lim olishga



oid qarashlari, o'qitish usullari hamda uy sharoitida o'quvchilarning bilim olishi qanchalik darajada qo'llab-quvvatlanayotganligiga doir qimmatli ma'lumotlar to'planadi. Ushbu tadqiqotlar yuqori texnik va ilmiy talablar asosida o'tkaziladi. Shuningdek, o'rganilayotgan holatlarning xususiyatidan kelib chiqib, amaliy tadqiqotlar bilan birga kuzatuv kabi samarali usullardan ham foydalaniladi. Ushbu dasturning ko'p yillar davomida muvaffaqiyatli faoliyat olib borayotganiga 2021-yilda 20 yil to'ladi.

Xalqaro tadqiqotlar ta'lim sohasidagi milliy tadqiqotlarni sifatli o'tkazishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassilarga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'limtarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi. Yuqoridagi talablarning ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi. Boshlang'ich ta'lim pedagoglari oldida turgan dolzarb muammolardan biri, o'quvchilarni xalqaro baholash dasturiga psixologik tayorlashdir. Ularning ota-onalar ongini o'stirish va bu haqida tushunchalar berishdir. Bugungi kunda, qayd etilgan ishlarning davomi sifatida, qo'shimcha o'quv-metodik qo'llanmalar, topshiriqlar to'plami, axborotnoma, videodars va videoroliklar yaratish, shuningdek, tajriba-sinov jarayonlari uchun maxsus nazorat materiallarini tayyorlash ishlari olib borilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 iyundagi "Yoshlar - kelajagimiz" Davlat dasturi to'g'risida"gi PF-5466-son Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi 15.08.2018 y., 07.18.3907/1706- son.
2. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash. (Boshlang'ich sinf o'qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma) «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. Toshkent-2019.



Internet manbalari:

1. <https://www.gazeta.uz/oz/2020/09/14/education/>
2. <https://lex.uz/docs/-4097073>

**INTEGRATED LEARNING: INTEGRATION OF FOREIGN LANGUAGE,
HISTORY AND FINE ARTS**

Ubaydullayev Shukhrat Narzullayevich (PhD),

Suyarov Nodir Takhirovich (PhD),

Yuldashev Javokhir Abdurakhim ugli (PhD)

Namangan State Pedagogical Institute

Annotation: *The authors of this article focus on the fact that interdisciplinary integration in teaching a foreign language is one of the conditions for the successful acquisition and application of a foreign language in professional, social and cultural activities. This article demonstrates that the correct and skillful use of interdisciplinary courses, as well as the educational potential of academic disciplines, is of great importance in the modern educational process.*

Key words: *interdisciplinary integration, university student, foreign language, history, fine arts, language features.*

The main task of the modern education system is the formation and development of an educated, creative, competent and competitive personality capable of living in a dynamically developing environment. Human education has always been a difficult task. Today's problems make this process even more difficult.

Integrated learning in the educational process is one of the important and modern problems. Its relevance is dictated by the new social demands presented to the school, secondary specialized educational institutions (colleges) and higher educational institutions (university). The modern education system is aimed at the formation of a highly educated, intellectually developed personality with a holistic view of the picture of the world [1]. The development of the education system is greatly influenced by changes in political, economic and social life. The society simultaneously faces the problem of preparing students for cultural, professional and personal communication



both within their own country and (in the context of a globalized world) with representatives of other countries, when culture, traditions, and language are not identical. And one of the reasons for the fragmentation of the worldview of students is seen in subject disunity, while in the modern world tendencies towards economic, political and cultural integration prevail.

Integration [lat. *integration* – connection] is the unification of disparate parts into a whole, deep interpenetration, merging in one educational material of generalized knowledge in a particular area [4].

The dictionary of modern pedagogical terms gives the following interpretation: integration is a natural way of knowing oneself and the world around, which is expressed in a combination of aesthetic, cognitive, historical-genetic, social and functional aspects [10].

An integrated lesson is one of the innovations of modern methodology. An integrated lesson is a special type of lesson that combines learning simultaneously in two (or more) disciplines while studying one topic, in which the leading discipline is distinguished, acting as an integrator, and an auxiliary discipline that contributes to deepening, expanding, clarifying the material of the leading discipline [2; 3;9;13].

The concept of "integration" can have two meanings: (1) the creation of a holistic view of the world around schoolchildren; (2) finding a common platform for convergence of knowledge.

The integration of subjects in general education schools and universities is one of the areas of active search for new pedagogical solutions that contribute to the improvement and development of the creative potential of teaching staff and teachers in order to more effectively and reasonably influence students.

Integrated lessons can combine a variety of disciplines, both in their entirety, and including only certain components of the content and methods. Teachers resort to integrated lessons in the following cases:

- if duplication of the same material is found in curricula and textbooks;
- with a time limit for studying the topic and the desire to use ready-made content from a parallel discipline;
- in the study of interscientific and generalized categories, laws, principles;



- when demonstrating a wider field of manifestation of the phenomenon under study, which goes beyond the scope of the subject under study;
- when creating a problematic, developing methodology for teaching a subject [9].

At each stage of education, integration helps to solve certain educational tasks: (1) the formation of the student's cognitive interest and broadening their horizons; (2) knowledge of the world in its diversity and unity; - development of the potential of students, logic, thinking, communication skills; (3) formation of abilities for active cognition of the surrounding reality; (4) the formation of a socially active creative personality [5].

A foreign language is open to the use of knowledge from other fields and sciences, so it has many "points" of contact with fine arts and history. Acquaintance with the culture of the country of the language being studied (holidays, traditions, costumes, life of the people, etc.) can be successfully combined with the development of artistic and creative skills in compiling hand-made magazines, colorful collages, creating toys and paintings. You can develop speech and language skills in the process of designing holiday cards, posters, studying paintings by artists, architectural landmarks and other types of fine art. Thus, students strengthen language knowledge and skills in the field of graphics and painting, spelling and phonetics, vocabulary and grammar of the English language. For the purpose of a deeper and more creative mastering of speech skills, a teacher of fine arts can provide methodological support to a foreign language teacher in selecting works of fine art for lessons. In short, through integrated learning, it is possible to form a certain style of thinking in students so that they feel confident in the modern world and can realize their abilities.

Recently, teachers often use non-traditional or non-standard forms of the lesson. These are, for example, seminar lessons, lectures, competitions, travel, theatrical lessons, conference classes, fairy tale lessons and more. In such a lesson, students learn to understand the relationship of all types of arts, history, linguistics and other subjects that sometimes do not overlap with each other [4].

From the point of view of research, interdisciplinary integration is the complementarity of one academic subject with another, and the purpose of this process

is the synthesis of interrelated ideas about various phenomena of social life and the material world [3].

Interdisciplinary integration in teaching foreign languages allows you to form, develop and educate a versatile personality. The integration of knowledge from various fields of knowledge in the organization of training allows you to link into a single chain all the knowledge, skills and abilities acquired in the process of studying various disciplines, which allows students to form an algorithm for obtaining new knowledge that allows them to subconsciously identify these connections [5].

The purpose of interdisciplinary integration in the study of a foreign language (history, art) is to form in students an algorithm for obtaining new knowledge (related to other sciences) in the study of a foreign language.

We consider interdisciplinary integration in two aspects: as internal (intra-subject) and external (connection of a subject - a foreign language with another subject, for example, history and fine arts).

A more accurate and voluminous definition of integration is given in the work of S.V. Kulnevich and T.T. Lakotsenina "Analysis of the modern lesson": "Integration is a deep interpenetration, merging, as far as possible, in one educational material of generalized knowledge in a particular area." There are three levels of integration: (1) intra-subject - integration of concepts within individual academic subjects; (2) interdisciplinary - the synthesis of facts, concepts, principles, etc. two or more disciplines, which should be used by the teacher when preparing an integrated lesson; (3) transdisciplinary - synthesis of components of the main and additional content of education.

The use of techniques that allow the formation of both such methods of integration in foreign language lessons are very relevant, since they allow the use of laws, theories, methods of one academic discipline when studying another. Such a structure of systematization of the material leads to the formation of a general picture of the world among students, interdisciplinary connections lead to an increase in practical and scientific-theoretical training of students, form communication skills [1].

When analyzing an integrated lesson, you can use the following scheme:

1. The object of integration (culture, science, local history, people, technology, etc.).



2. Content and integration components. What academic disciplines are in it included? What is the mix of old, classic, and new, basic and additional, disciplines in the process of integration?
3. The direction and volume of integrable objects, in what way it is expressed: in creation of a new academic subject; in the creation of a cycle (block) periodically repeated lessons; creating single integrative lessons?
4. Level (stage) of content integration in a course or lesson: an organically unified, holistic new structure; parallel existence in one lesson or program of various layers of material; stage of transition from a parallel connection of material to an integral new structure?
5. Theme of the integrative lesson, problem, goal. novelty level. Has the systematization of students' knowledge, the formation of a holistic view of the subject been achieved?
6. The activities of the teacher and students in preparation for the integrative lesson. Is this lesson spontaneous or is it the result of careful student and teacher preparation? What independent work should the students have done before the lesson; its purpose, scope, character? Do these lessons make it easier for students to learn, or do they make life difficult for students?
7. Forms of conducting an integrative lesson, types of activities of teachers and students. Do they combine reasonably, do they lead to the goal?
8. Cooperation of teachers at the integrative level.
9. The results of students' activities in the integrated lesson. Did they create a single (integrated) idea of the problem; the breadth of their horizons; culture of judgments, their argumentation; the degree of confidence in the outcome of the discussion of the problem; a culture of speech; emotional involvement.

If we are talking about internal integration, it is important to note that any language is a unique, unique national or international system of signs. The way of life, cultural heritage, traditions of different nations are reflected in the structure of languages. Each society has certain norms of behavior, rules that are reflected in the structure of the language, which are accepted by a certain people, this is the ethnocultural model of self-expression [1]. It is different within the cultural and



territorial national units. Linguistic features of all peoples reflect national and cultural differences, the history of the nation, the stages of development. Comparing the cultural and linguistic norms of different ethnic groups, one can see the singular (special) and the general in their application. The language culture mastered by a person makes it possible to accept norms, orders, and even a specific model of behavior, misunderstanding of which leads to misunderstanding in verbal and non-verbal communication. The external integration of knowledge of various sciences is based on the fact that familiarizing students with the culture and knowledge of another people is the main principle of teaching foreign languages. It makes learning a foreign language more interesting. The use of literary, journalistic, scientific and folklore material helps to quickly comprehend the language on the example of scientific and cultural knowledge.

Forms of the educational process in which various levels of integration are manifested:

1. Structures in which several items are combined.
2. Blocking of different sections.
3. The study of one topic based on two or more subjects.
4. A course that combines knowledge based on generalized operations of thinking.

Integration levels:

Thematic - two or three subjects reveal one topic. The character is illustrative and explanatory.

Problematic - students solve one problem with the possibilities of a number of subjects.

Conceptual - the concept is considered by various subjects in the aggregate of all their means and methods.

Theoretical - philosophical interpenetration of various theories.

Dialectical level - involves the use of concepts and principles borrowed from different fields of knowledge, the synthesis of competing theories.

Implementation of integrated links in the lesson.



Integrated lessons require the mandatory development of students' creative activity, develop the potential of students, encourage active knowledge of the surrounding reality, to comprehend and find cause-and-effect relationships, to develop their personality and communication skills.

The structure of integrated lessons differs from classical ones in clarity, compactness, conciseness, logical interdependence of educational material at each stage of the lesson, and a large informative capacity of the material.

The structure of the integrated-synchronized course allows teachers of different subjects to unite in creative groups to work together on related topics. Thus, introducing students to geometric activity, through integration with the subject of fine arts, in the process of which students master the skills of spatial, constructive, metric, intuitive, logical, symbolic activity and develop the creative potential of the individual, her ability to self-realization.

Integration results for students:

1. Increases the space for the development of creative and cognitive activity.
2. Allows you to implement an individual educational trajectory of learning.
3. Expands the subject of the studied material.
4. Demonstrates abilities not required by mainstream education.
5. Increases the range of the studied material.
6. Increases the role of independent work.
7. Realizes the best personal qualities.

Integration results for an educational institution:

1. Adequacy to modern requirements of education and upbringing;
2. Combining the efforts of different specialists in solving common problems;
3. Wide range of activities;
4. Emergence of new development prospects;
5. Obtaining a high-quality pedagogical result.

Recommendations:

To successfully conduct integrated classes, you must:

- systematic implementation of integrated classes once a week;
- the teacher's enthusiasm and awareness of the importance of the problem;



- incubation of the idea, in the process of which the further development of the content takes place;

– selection of technical equipment;

- systematic analysis of the integrated lesson in order to track the result for planning work in joint activities with children and in work with parents on this topic.

The idea of integration is most successfully implemented in the lessons of literature and fine arts: a text in a foreign language about the history and culture of the language being studied contributes to a vivid and imaginative perception of reality, and artistic creativity makes it possible to express one's attitude to a literary work in an accessible form for the student, developing attention and imagination . At present, three main forms of student organization have been established in the classroom:

The frontal form of organization of learning is expressed in the fact that all students perform the same tasks.

The group form of organizing the work of schoolchildren involves dividing the work into groups of several people, where each group performs its task.

An individual form of organization of work is the fulfillment by each student of a different task.

In the methodology of teaching integrated lessons, collective activity is defined as a method of summarizing the knowledge of students obtained during a cycle of lessons united by a single topic. The inclusion of an integrated lesson of collective activity in the calendar-thematic plan can be caused by preparations for the holiday. If the collective activity is aimed at decorating the interior of the school, then the main requirement in the work is quality and fast deadlines. In these lessons, as a rule, joint-sequential work, or joint-individual work. The main reason is the development of an objective assessment of one's abilities, dissatisfaction with the low results of creative activity.

If the result of individual activity does not satisfy some children, then the result of collective work exceeds his expectations. Unlike individual creativity, collective creativity, as a rule, has a practical and socially significant result.



The use in practice of integrated lessons with various forms of collective activity enables students to realize their social significance, spiritual beauty and nobility of actions, and school "obligation", as in a fairy tale, turns into a process of collective search, collective creativity and the formation of the child's personality.

Students become more active in the classroom, more confident in their abilities, their interaction with peers improves, more and more often they take the initiative to decorate the school for the holidays and participate in regional and city exhibitions.

The format of the game played is synthetic not only from a formal point of view. Including elements of the communicative-ethnographic and socio-cultural approaches, nevertheless, we bring to the fore the linguistic and cultural approach. Firstly, the class receives basic information on the study area of the student. The game uses a large amount of illustrative material (maps, photographs, pictures) to form a clear idea of the country of the language being studied. Secondly, the game format combines several forms of work: team work (oral answers to questions) and individual work (filling in tables); lecture (representation of the countries-teams by the teacher) and independent (solving crossword puzzles); intellectual (performing grammar and vocabulary exercises) and physical (a task related to an outdoor game). Thirdly, students are given the opportunity to practice the language in writing and orally, as well as training in the perception of English speech by ear, which is focused on developing the speaking and understanding skills necessary for learning a foreign language. Thus, such a lesson or extracurricular activity can serve as an example of studying the culture of a country in the format of an educational game, the main value of which is fair to consider that children learn to extract the necessary information on their own, in this case, answers to questions. The use of cultural material in the study of a foreign language, history and fine arts is necessary. With its help, if I may say so, the "territory" or "space" where the language is realized is demonstrated. Without a doubt, students are aware that a foreign language, like a native language, belongs to a certain country, and it is used, first of all, for communication between people. But the tongue cannot be touched. It, in comparison with objects of culture, is intangible. It is difficult for a person to feel and understand something alien if it cannot be seen or felt



tactilely. National culture is that element that represents the country, which helps to "touch" the language, acting as its material carrier.

LITERATURE:

1. Vereshagin E.M., Kostomarov V.G. Linguistik and Country Studying Word Theory. – Moscow, 1980. – 320 p. Available at: <https://books.google.ru/books> (Accessed 22 April 2022).
2. Grischenko N.V. Integrirovannye uroki - odno iz sredstv privitiya interesa k uchebnym predmetam. – M.: Nachalnaya shkola, 1995. – No.11. – S.21-28.
3. Dumina I.V. Pedagogicheskie tekhnologii v obuchenii geografii // Sovremennyj urok geografii. – M.: Shkola-press, 2001. – Ch.2. – S. 48-56.
4. Kuzmina L.G., Kavnatskaya E.B. Modern Country Studying Approaches to Foreign Languages Didactics. Vestnik VGU. Linguistics and Intercultural Communication Volume. Voronezh, 2001. – P.108-117. Available at: http://elibrary.lt/resursai/Uzsienio%20leidiniai/Voronezh/lin/2001-02/lin0102_13. (Accessed 21 April 2022).
5. Kolesina K.Yu. Building the learning process on an integrated basis. Disscand.ped.sci. – Rostov-on-Don, 1996. – 220 s.
6. Leontiev D.A. Value as an interdisciplinary concept: the experience of multidimensional reconstruction // Questions of Philosophy, 1996. -No5. –S.15-26
7. Mitter V. Monocultural education and interdisciplinary approach. – M.: Prospects, 1993. – No. 1. – S.45-47.
8. Nevmerzhitskaya E.V. Ethno-oriented methodology of teaching a foreign language in the system of secondary vocational education: diss doctor of pedagogical sciences. – M., 2011. – 715 p.
9. Puzankova E.N., Bochkova N.V. Sovremennaya pedagogicheskaya integratsiya, ee kharakteristiki // Obrazovanie i obschestvo. 2009. – No.1. –S. 9-13.
10. Slovar sovremennykh pedagogicheskikh terminov. [Electronic resources]. Rezhim dostupa: <http://www.maam.ru/detskijasad/slovar-sovremenyh-pedagogicheskikh-terminov.html> (data obrascheniya: 04/21/2022).
11. Tolkovyj slovar russkogo yazyka nachala XXI century. Aktualnaya leksika / Pod red. G.N. Sklyarevskij. – M.: Eksmo, 2007.



12. Fakhrutdinova A.V. Actualization of the educational component of the subject in the conditions of international integration (on the example of teaching a foreign language) // Collection of materials of the 6th International scientific and practical conference: Foreign languages in the modern world. – Kazan: Center for Innovative Technologies, 2011. – P. 392-396
13. Shevchenko L.I. Integration of subjects in elementary school / [Electronic resource]. Access mode: <http://www.metod-kopilka.ru/doklad-na-temu-integraciya-predmetov-v-nachalnoy-shkole65959.html> (data obrascheniya: 04/21/2022).
14. Suyarov N.T., Ubaydullaev Sh.N. Use of national-regional component in art Lessons. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). Volume 10, Issue 8, August 2021. – P. 222-227. SJIF, India. <https://www.tarj.in>. (Global Impact Factor: 7.7. (CrossRef 35).
15. Yuldashev J. A. Some methodological issues of development of axiological worldview in students // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – Great Britain, 2020. – №12. – P. 221–224.

УДК 681.3.06:012.44

**ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ВИРТУАЛ НАЗОРАТ ТИЗИМИНИНГ ЎРНИ ВА
АМАЛИЙ АХАМИЯТИ**

Нафасов Фанишер Абдурашидович,

Гулистон давлат университети “Математика” кафедраси доценти,

E-mail: gnafasov87@gmail.com

Абдураимов Достонбек Эгамназар ўгли,

Гулистон давлат университети катта ўқитувчиси

E-mail: abduraimov.dostonbek@mail.ru

Саитмуратов Ўлмасбек Нурулло ўгли,

Гулистон давлат университети “Математика” кафедраси ўқитувчиси

. E-mail: osaitmuratov95@gmail.com

Низомий номидаги ТДПУ профессори, п.ф.д. Б.С.Абдуллаева тақризи асосида



Аннотация: Мақолада таълим тизимида замонавий компьютер технологиялари имкониятларидан фойдаланган ҳолда ўқув жараёнини виртуаллаштиришнинг асосий компонентлари, математик модели ва дастурий таъминотини яратиш масаласи кўриб чиқилган.

Таянч сўзлар: таълим тизими, виртуаллаштириш, ўқув жараёни, математик модел, дастурий таъминот.

Аннотация: В статье рассматривается задачи формализации основных компоненты, математические модели и разработка программного обеспечения виртуализации учебных процессов в системе образования.

Ключевые слова: системе образования, виртуализации, учебных процессов, математические модель, программного обеспечения.

Abstract: In article is considered the problems of formalization of the cores a component of the mathematic model and working out of the software virtualization educational processes in education system.

Key words: education system, virtualization, educational processes, mathematic model, software.

Кириш. Таълим тизимида ахборот-коммуникация технологияларининг қўлланилиши натижасида ўқув жараёни янги таълим воситалари билан таъминланади ва ўқув жараёнининг сифат ҳамда самарадорлиги оширилишига олиб келади. Ўқув жараёнига ахборот-коммуникация технологияларининг жорий қилиниши натижасида таълим тизими қатнашчилари виртуал олам орқали бири-бири билан мулоқот қилади. Ўқув жараёнини виртуаллаштиришда асосий масала виртуаллаштиришнинг математик моделлари ва дастурий таъминотини ишлаб чиқишдан иборат.

- **Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили.** Таълим тизимидаги барча электрон-ўқув ресурслар, жумладан электрон дарсликлар, электрон қўлланмалар, виртуал лаборатория ва амалий машғулотлари, тақдимот материаллари, виртуал стентлар, виртуал тест-назорат тизимлари ўқув жараёнини виртуаллаштиришнинг асосий ташкил этувчилари ҳисобланади. Ўқув жараёнида виртуал тест-назорат тизимларидан фойдаланиш алоҳида аҳамият касб этади. Шунинг учун виртуал тест-назорат тизимларининг оптимал вариантларини



ишлаб чиқиш, яъни уларнинг математик модели ва дастурий таъминотини яратиш муҳим тадқиқотлардан ҳисобланади.

Виртуал тест-назорат тизимлари виртуал ўқув жараёнининг ажралмас қисми бўлиб, у таълим олувчиларнинг маълум босқичда олган билимларини объектив баҳолаш, унинг таҳлили натижалари бўйича таълим берувчи учун тегишли тавсиялар тақдим этиш имконини беради.

Виртуал тест-назорат тизимини ишлаб чиқишда тест ва топшириқларнинг қийинлик даражасини баҳолаш, фанларни ўқитиш босқичларига мослаштириш, ҳар бир баҳонинг ахборот ўлчовини динамик ҳолатда аниқланиши баҳолаш натижаларини объективлигини таъминлайди. Бу ҳолат виртуал тест-назорат тизимининг архитектураси, фаолият қонунлари, қўлланиш сценарийларини фундаментал усуллар-таснифларни аниқлаш назарияси, эксперт тизимлар, математик ва компьютерли моделлаштириш ва оптималлаш усулларидадан фойдаланиш орқали амалга оширилади.

Тадқиқотнинг мақсади таълим тизимида олинган билимларни баҳолаш ва назорат қилишнинг виртуал тест-назорат тизимининг математик модели, алгоритмлари ва дастурий таъминотини ишлаб чиқиш бўйича тавсиялар беришдан иборат.

- **Тадқиқот объекти ва қўлланиладиган методлар.** Ахборот-коммуникация технологияларининг таълим жараёнида қўлланилишининг негизда ўқув жараёнини виртуаллаштириш, мультимедия ва тармоқ тизимлари ёрдамида ўқув жараёнини ташкил этиш ётади. Ахборот-коммуникация технологиялар ўқув жараёнини ташкил этиш ва бошқаришда, ўқув режалар, ўқув дастурлари ва ўқув материалларини яратишга тавсиялар ишлаб чиқишда, тестлаштириш ва назорат қилишда педагогик ходимларга кўмакчи вазифасини бажаради.

Ўқув жараёнини виртуаллаштириш, таълим тизимида олинган билимларни баҳолаш ва назорат қилишнинг виртуал тест-назорат тизимини яратиш, шакллантириш, структураси ва мазмунини ишлаб чиқиш масалалари Майоров А.Н. (1994), Антонов Ю.С. (2000), Минин М.Г. (2000) лар томонидан таклиф қилинган методикадан фойдаланилди.



Тадқиқот ишлари Гулистон давлат университетида олиб борилди. Тадқиқот объекти сифатида барча бакалаврият таълим йўналишларида ўқитиладиган Информатика фанини ўқитиш, таълим жараёни, талабанинг таълим тизимида олган билимларини баҳолаш ва назорат қилишнинг виртуал тест-назорат тизимидан фойдаланиш жараёни олинди. Тадқиқотни ўтказишда муаммога оид педагогик, психологик ва услубий адабиётларни таҳлил этиш, олий таълим тизимидаги мавжуд ҳолатни ўрганиш, педагогик кузатиш, суҳбат, педагогик тажириба, тўпланган маълумотларни таққослаш ва солиштириш методларидан фойдаланилди.

- **Олинган натижалар ва уларнинг таҳлили.** Республикамизнинг барча таълим муассасаларида ўқув жараёнининг самарадорлигига эришиш мақсадида бир қанча амалий ишлар ва илмий тадқиқотлар олиб борилмоқда. Таълим тизимига замонавий компьютерлар тадбиқ этилса ўқув жараёнларини ташкил қилиш ва олиб бориш янада такомиллашиб, таълим олувчиларнинг чуқурроқ билим эгаллашлари учун кенг имкониятлар яратилади. Бу ўқув жараёнини виртуаллаштиришга олиб келади. Ўқув жараёнларини виртуаллаштириш мураккаб жараён бўлиб, унда асосан компьютернинг дастурий ва техник имкониятларидан фойдаланилади.

Виртуаллаштириш жараёнининг марказида маълумотлар базаси жойлашган бўлиб, унда виртуаллаштирилаётган ўқув жараёнларида фойдаланилган барча ресурслар мажмуаси жойлаштирилади. Ўқув жараёнида фойдаланиладиган ахборот ресурслар маълумотлар билан таъминловчи, ўргатувчи ва назорат қилувчи каби қисмлардан ташкил топади (Тоштемиров, Хидирова, 2010).

Виртуаллаштирилаётган ўқув жараёнларининг назорат қилиш қисми фаолияти, унинг математик модели, алгоритми ва дастурий таъминоти ҳақида фикр юритамиз.

Бизда $\{T_k\}$, $k = \overline{1, n}$ бир нечта тест топшириқлари тўплами бўлиб, бу ерда n – топшириқларнинг умумий сони. Ҳар бир T_k - топшириқ учун бир нечта мос $\{A_{k,j}\}$, $j = \overline{1, m_k}$ - жавоб вариантларига эгамиз, бунда m_k – T_k топшириқнинг жавоб

вариантлари сони. T_k - топшириғидаги тўғри жавоблар тўпламини тегишлилик функцияси $\omega^k(A_{k,j})$ ва универсал кўплик $\{A_{k,j}\}$, $j = \overline{1, m_k}$ билан бирга ноаниқ тўплам R_k кўринишида ифодалаймиз. Олайлик, тегишлилик функцияси чекли бўлиб, R_k тўпламнинг юқори даражаси - $\omega^{k,\max} = \max(\omega^k(A_{k,j}))$ бўлсин. $\omega^k = \{0,1\}$ бўлган ҳолатда тўғри ва нотўғри бўлган иккита турдан иборат “оддий” тест топшириқлари билан иш кўрамиз.

Энди тест топшириқларининг таҳлилини кўриб чиқамиз. Тестларнинг оддийроқ таҳлили аниқ топшириқнинг тўғри жавобларини ҳисоблаб чиқишдан бошланади (Антонов, Хохлов, 2000; Майоров, 1994). Олайлик, $S_k - T_k$ топшириқнинг тест олинганда $A_{k,j}$ жавоблари орасидан тўғри бўлиб чиққан вариантлари ёки тест натижасида ҳеч бир жавоб тўғри бўлмаган ҳолатда $S_k = III$. T_k топшириғига жавоб беришга уринишлар сонини P_k деб олиб, иккита катталиқни ҳисоблашимиз мумкин бўлади:

$$x_{k,1} = \sum_{i=1}^{P_k} \begin{cases} \frac{\omega_i^k}{\omega_i^{k,\max}}; & \omega_i^{k,\max} \neq 0 \\ 0; \omega_i^{k,\max} = 0, S_{k,i} \neq III \\ 1; \omega_i^{k,\max} = 0, S_{k,i} = III \end{cases} \quad (1)$$

$$x_{k,2} = \sum_{i=1}^{P_k} \begin{cases} \frac{\omega_i^{k,\max} - \omega_i^k}{\omega_i^{k,\max}}; & \omega_i^{k,\max} \neq 0 \\ 1; \omega_i^{k,\max} = 0, S_{k,i} \neq III \\ 0; \omega_i^{k,\max} = 0, S_{k,i} = III \end{cases} \quad (2)$$

Бунда – T_k топшириғига берилган тўғри жавоб вариантлари коэффиценти, $x_{k,2}$ – T_k топшириғига берилган нотўғри жавоб вариантлари коэффиценти. $\omega^{k,j} = \{0,1\}$ бўлган ҳолда бу катталиқлар берилган тўғри ва нотўғри жавоблар миқдори мос келганлигини белгилайди. Келгусида ҳисоблашларни соддалаштириш мақсадида R_k ни нормаллаштирамиз. Бунда тегишлилик функцияси ω^k ни чекли деб олиб, қуйидагича $\tilde{\omega}^k = \frac{\omega^k}{\omega^{k,\max}}$ алмаштиришни амалга оширамиз ва берилган жавоблар орасида тўғри жавоб мавжуд бўлмаса (1) ва (2) вариантларни ҳисобга олмаймиз (тест топшириқларининг бундай тури кўпроқ кенгайтирилган ҳисобланади). Бундай ҳолда $x_{k,1}$ ва $x_{k,2}$ коэффицентларни ҳисоблашни иккита оддий формулага алмаштирамиз:

$$x_{k,1} = \sum_{i=1}^{P_k} \tilde{\omega}^k \quad (3)$$

$$x_{k,2} = \sum_{i=1}^{P_k} (1 - \tilde{\omega}^k) \quad (4)$$



Биз, $N_k = x_{k,1} + x_{k,2}$ деб олган ҳолда икки муҳим хусусиятни: $y_{k,1} = x_{k,1}/N_k$ – тўғри жавоблар тўплами ва $y_{k,2} = x_{k,2}/N_k$ – нотўғри жавоблар тўпламини ҳисоблашимиз мумкин. Бу катталикларнинг кўпайтмасини вариациянинг стандарт ўлчови – T_k топшириқ дисперсияси сифатида ифодалаш мумкин:

$$d_k = y_{k,1} * y_{k,2} \quad (5)$$

$x_{k,1}$ ва $x_{k,2}$ катталиклар билан мужассамлашган T_k топшириқ дисперсияси тест топшириғининг мураккаблик ва дискриминативлиги кўрсаткичи бўлиб ҳисобланади. Топшириқнинг дискриминативлиги деганда – тестдан юқори балл тўплаган синалувчилардан паст балл тўплаганларини ажратиш хусусияти кўзда тутилади (Минин, 2000). Тест топшириқларининг сифатини таҳлил қилиш тизимини тузишда d_k ва P_k катталикларга боғлиқлигини ҳисобга олиш лозим (T_k топшириқда жавобни топишга уринишлар сони қанча кўп бўлса, дисперсия шунчалик аниқ бўлади). Шу тарзда, маълум бир вақт оралиғида d_k қийматларини ёки берилган топшириқ ечимини топишга уринишлар миқдорини аниқлаш имконияти яратилиши учун дисперсиялар ўзгариши тарихини сақлаб қолиш ёки натижаларни ўзида сақловчи жадвалларни лойиҳалаш мақсадга мувофиқ. Бироқ, бизнинг мақсадимиз фақатгина муайян бир тест топшириғини таҳлил қилишдан иборат бўлибгина қолмай, асосан бизни қандайдир бир бутунликни ифодаладиган бир нечта тест топшириқлари тўпламининг таҳлили кизиқтиради. Шундай қилиб биз тестни аниқлаб олишга киришамиз. $\{T_k | \psi^i(T_k) = 1\}$ тест топшириқлари тўпламини – Q^i тест деб атаймиз, бунда $\psi^i(T_k)$ - $\{T_k\}$ кўпликни аниқлаш соҳасига эга бўлган Q^i тестдаги тест топшириқларининг тегишлилик функцияси бўлиб, у иккита қийматни қабул қилади: агар T_k топшириқ Q^i тестига мансуб бўлса - 1, акс ҳолда - 0. Тестларни ифодалашни берилган формал схемасига асосан билимни баҳолаш тизимларида ахборотларни сақлаш усулига тегишли баъзи бир хулосаларни чиқарамиз. Тегишлилик функцияси ψ^i ни иккита Q^i идентификатор ва T_k идентификатор майдонлардан ташкил топган жадвал кўринишида амалга ошириш мумкин. Тестлар тўплами $\{Q^i\}$ тўғрисидаги ахборотни сақлаш жадвали, тест топшириқлари жадвали ва муайян бир тестдаги

тест топшириқларининг алоқадорлик (тегишлилик) жадвалларини ажратиб олиб, тест ўлчамини ихтиёрий равишда ўзгартириш имконига эга бўламиз, шунингдек, маълумотлар базасининг ўлчамини жиддий катталаштирмаган ҳолда бир тест топшириқидан бир неча тестларда фойдаланиш мумкин бўлади. Тестларнинг ишончлилигини таҳлил қилишга янада батафсил тўхталамиз. Агарда, ҳар бир синалувчини қайтадан тестлаштирилганда бир хил натижаларга эришилса, бу тест ишончли ҳисобланади (Майоров, 1994). Тест ишончлилиги деганда, даражаси яқин бўлган синалувчиларни тестлаштириш натижалари ўхшашлигини кўрсатиб бериш хусусияти кўзда тутилади. Ишончлиликни аниқлашнинг кенг тарқалган усуллари – айнан бир хил хусусиятларни ўлчаш учун яратилган икки “параллел” тестларнинг корреляциялашдир (Антонов, Хохлов, 2000) ёки билим даражаси яқин бўлган синалувчиларга бир тестдан фойдаланиб тестлаштириш натижаларини корреляциялашдир.

$\{X_l\}$, $l = \overline{1, h}$ (бу ерда, h – тестлаштирилувчилар сони) танланган учун икки “параллел” тестлар учун Пирсон корреляциялари коэффициентларини ҳисоблашга мисол келтираемиз. Олайлик, $Q^i = \{T_k | \psi^i(T_k)\} = 1$ ва $Q^j = \{T_k | \psi^j(T_k)\} = 1$ – икки “параллел” тестлар бўлиб, $x_{k,1}^l$ – аниқ бир X_l (бунда $P_k \equiv 1$) синалувчига (1) ёки (3) формулаларга асосан ҳисобланадиган катталиқ. Шунда корреляция коэффициентини қуйидагича ҳисобланади:

$$r_{i,j} = \frac{SP_{ij}}{\sqrt{SS_i * SS_j}}; \quad (6)$$

бу ерда,

$$SS_i = \sum_{l=1}^h \left(\left(\sum_{\forall k | \psi^i(T_k)=1} x_{k,1}^l \right)^2 \right) - \frac{\sum_{l=1}^h \left(\left(\sum_{\forall k | \psi^i(T_k)=1} x_{k,1}^l \right)^2 \right)}{h}; \quad SS_j = \sum_{l=1}^h \left(\left(\sum_{\forall k | \psi^j(T_k)=1} x_{k,1}^l \right)^2 \right) - \frac{\sum_{l=1}^h \left(\left(\sum_{\forall k | \psi^j(T_k)=1} x_{k,1}^l \right)^2 \right)}{h};$$

$$SP_{ij} = \sum_{l=1}^h \left(\left(\sum_{\forall k | \psi^i(T_k)=1} x_{k,1}^l \right) * \left(\sum_{\forall k | \psi^j(T_k)=1} x_{k,1}^l \right) \right) - \left(\left(\sum_{l=1}^h \left(\sum_{\forall k | \psi^i(T_k)=1} x_{k,1}^l \right) \right) * \left(\sum_{l=1}^h \left(\sum_{\forall k | \psi^j(T_k)=1} x_{k,1}^l \right) \right) \right) / h.$$

Шунингдек, кўрсаткичлар қаторини ҳисоблаш учун тест ўтказиш тарихидан фойдаланилади, бундан натижаларни сақлаш зарурлиги аниқлашади. Бу бизга истаган пайтда бўлиб ўтган тестлаштиришлар тўғрисида ахборотга эга бўлиш, ҳамда апелляциялар ўтказиш имконини беради. Берилган схема тестдан тўпланган балларни ҳисоблаб берадиган янада мукамал тизимни тақдим этади. B_k^{\max} - T_k топшириқнинг жавоби сифатида $A_{k,s}$ жавоб вариантларини танлаш натижасида, синалувчи олиши мумкин бўлган балл бўлиб, $\omega^k(A_{k,s}) = \omega^{k,\max}$. Бу ҳолда, қуйидаги формула асосида T_k топшириқдаги $A_{k,i}$ жавоб вариантини танлашда олинган баллни ҳисоблаш мумкин бўлади:

$$B_k^i = B_k^{\max} * \frac{\omega^k(A_{k,i})}{\omega^{k,\max}}. \quad (7)$$

Аммо, бу, берилган модел асосида балларни ҳисоблашни амалга ошириш мумкин бўлган ягона усули эмас. Хулоса қилиб шунни айтиш мумкинки, ушбу схема асосида ёпиқ жавоб вариантларидан иборат тест топшириқларининг етарлича кенг синфини ишлаб чиқиш мумкин. Энди биз ушбу модел асосида яратилган виртуал назорат тизимини кўриб чиқамиз. Махсус фанлар бўйича юзтадан тест топшириқлари ва ҳар бир топшириқ учун тўртта жавоб вариантларидан иборат тестнинг маълумотлар базаси (МБ) ни Access МББТда тузилган бўлиб, тестдан фойдаланиш интерфейси, юқоридаги моделлар асосида тестларни таҳлил қилиш жараёни, ҳамда тестлаштириш натижалари ва улардан олинган натижалар таҳлили ҳисоботларини C++ Builder 6.0 дастурлаш тили муҳитида қурилган (Сэдживик, 2001).

Access да тузилган маълумотлар базаси C++ Builder 6.0 дастури билан MSJet 4.0 OLE DB ёрдамида, ADOTable ва DataSource компоненталаридан фойдаланган ҳолда боғланган бўлиб, дастур ишга тушиши билан МБ юкланади. Тизимдан фойдаланиш ва тест топшириш учун рўйхатдан ўтиш лозим бўлиб, бунда ADOConnection компонентасидан фойдаланилди:

```
void__fastcall TForm3::FormCreate(TObject *Sender)
{ ADOConnection1->Connected=true;
Form1->ADOTable1-> Connection=ADOConnection1;
Form1->ADOTable1-> TableName="test"; }
```

```
void __fastcall TForm1::NatijaClick(TObject *Sender)
{ Form2->Label1->Caption="Siz"+IntToStr(tjavob)+"ta to'g'ri topdingiz!";
Form2->ShowModal();
}
```

Натижалар таҳлилини чоп этиш (ҳисобот) учун QuickReport компонентасидан фойдаланилди:

```
void __fastcall TForm1::ShowPreview()
{ Form2->ShowModal();}

void __fastcall TForm1::Button1Click(TObject *Sender)
{ QRPrinter->OnPreview=ShowPreview;
Form4->QuickReport1->Preview(); Form2->ShowModal();
}
```


Юқорида айтилганидек МБ – тестлар тўплами $\{Q^i\}$ тўғрисидаги ахборотни сақлаш жадвали, тест топшириқлари жадвали, муайян бир тестдаги тест топшириқларининг ўрганиб чиқилган мавзуларга тегишлилик жадвали, ҳамда тестлаштириш натижаларини сақлайдиган жадваллардан ташкил топган.



1-расм. Виртуал назорат тизими дастурий таъминоти тузилмаси

“Виртуал тест” дастурининг фойдаланувчи интерфейси содда ва қулай тузилган бўлиб, бунда тест топширувчи тестга киришидан олдин рўйхатдан ўтади ва ўз номи билан тест тизимига кира олади. Бу эса синалувчилар тўғрисидаги

маълумотлар базага сақланиб қолиш имконини беради ва тест якунида барча ҳисоботларни кўриш мумкин.



2-расм. Тестдан фойдаланиш интерфэйсининг кўриниши.

Виртуал назорат тизимининг сўнгида тест натижалари кўрсатилади, унда барча топшириқларга берилган жавоблар 1 (тўғри) ва 0 (нотўғри) кўринишида кўрсатилади (1-жадвал). Тест якунида олинган натижалар юқоридаги модуллар асосида таҳлил қилинади.

1-жадвал

Таълим олувчиларнинг тест назорати натижалари

h \ n	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	
1. Жумаев К.	1	0	1	0	1	1	1	0	1	0	1	1	0	1	1	0	1	0	1	0	
2. Кенжаев А.	0	1	1	1	0	1	0	0	0	0	1	0	1	0	1	1	1	1	0	0	
3. Мусаева М.	1	1	1	1	1	1	1	1	1	0	1	1	1	1	1	1	0	1	1	1	
4. Норбекова В.	1	1	1	0	1	1	0	1	1	1	1	0	0	1	0	0	0	1	1	1	
5. Норматова М.	1	0	0	0	0	1	1	1	1	1	1	0	1	0	0	0	0	1	0	1	
6. Рахмонова Ж.	1	0	1	0	1	1	1	0	1	0	1	1	0	1	1	0	1	0	1	0	
7. Рустамова И.	0	1	1	1	0	1	0	0	0	0	1	0	1	0	1	1	1	1	0	0	
8. Ражабова У.	1	1	0	1	1	0	1	1	1	1	0	0	1	0	0	0	0	1	1	1	0
9. Султонова З.	1	1	1	0	1	1	0	1	1	1	1	0	0	1	0	0	0	1	1	1	

10. Усмонов Ф.	1	1	1	0	1	1	0	1	1	1	1	0	0	1	0	0	0	1	1	1
11. Хусанов И.	0	0	1	0	1	1	1	0	1	0	1	1	0	1	1	0	1	0	1	0
12. Шокирова Д.	1	1	1	1	0	1	0	0	0	0	1	0	1	0	1	1	1	1	0	0
13. Абдурахмонов С.	1	1	1	0	0	1	0	0	0	1	1	1	0	1	1	1	0	1	1	1
14. Артиқбоев Ш.	1	1	1	1	0	1	0	1	1	0	1	1	0	1	1	1	0	0	1	0
15. Ахмедов З.	0	0	1	0	1	1	1	0	1	0	1	1	0	1	1	0	1	0	1	0
16. Бекмуродов А.	1	1	1	1	0	1	0	0	0	0	1	0	1	0	1	1	1	1	0	0
17. Зокиров Н.	1	1	1	0	1	1	0	1	1	1	1	0	0	1	0	0	0	1	1	1
18. Искандаров С.	1	0	1	0	1	1	1	0	1	0	1	1	0	1	1	0	1	0	1	0
Тўғри жавоблар - $Y_{k,1}$	14	12	16	7	11	17	8	8	13	7	17	8	7	12	12	7	10	12	13	7

*Бу ерда, 1 - тўғри жавоблар, 0 - нотўғри жавоблар.



3-расм. Q^i тестидаги тўғри жавобларни кўрсатувчи схема



Юқорида келтирилган графикда (3-расм) Q^i тестидаги $\{T_i\}=4,7,8,10,13,16,20$ топшириқларига энг кам тўғри жавоб берилганлиги кўрсатилган. Таҳлил натижасига кўра шу $\{T_i\}$ саволлар олинган мавзуларни талабалар яхши ўзлаштирмаганлиги аниқланади, шунинг учун ушбу мавзуларга кўпроқ соат ажратиш тавсия этилади. Умуман, таҳлил натижалари маълум бир фанни ўрганишдаги соатларни тақсимлашда ёрдам беради.

ХУЛОСА

- Таълим тизимида ўқув жараёнини виртуаллаштириш натижасида ўқув жараёнининг сифат ва самарадорлиги оширилади;
- Виртуал тест-назорат тизими талабалар билим ва кўникмаларини объектив баҳолашдаги афзалликлари, унинг алгоритмик ва дастурий таъминотини яратиш тамойиллари бўйича тавсиялар ишлаб чиқилди;
- Виртуал тест-назорат тизимининг математик модели, алгоритмик ва дастурий таъминоти ишлаб чиқилди ва жорий этиш тамойиллари яратилди;
- Виртуал тест-назорат тизимидаги топшириқларнинг ахборот вазнларини баҳоловчи математик моделлар тадқиқ этилди ва уларни ҳисоблаш алгоритмлари, тегишли дастурий таъминотлари шакллантирилди.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Ш.М.Мирзиёев. Эркин ва фаровон, демократик ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз.– Тошкент : Ўзбекистон, 2016. - 56 б.
2. Раджабов Б.Ш., Хидирова Ч.М. Ўқув жараёнини виртуаллаштириш тизимининг компоненталари ва дастурий таъминоти. //ТАТУ хабарлари, –Тошкент, 2009, №3, - 83-85 б.
3. Антонов Ю.С. Хохлов А.М. Тестирование (теория и практика). Якутск, 2000.
4. Майоров А.Н. Тесты школьных достижений: конструирование, проведение, использование. Спб. Образование и культура. 1994.
5. Минин М.Г. Диагностика качества знаний и компьютерные технологии обучения. Томск: Изд-во ТГПУ, 2000.
6. Культин Н.Б. С++Builder в задачах и примерах.-СПб.: БХВ-Петербург, 2005.-336 с.



TALIM JARAYONIDA YANGI PEDAGOGIK TEXNALOGIYALAR VA INNOVATSIYALARNI QO'LLASH

D. Mamadjonov, A. Xolmurodov, K. Murodov, A. Botirjonov

***Аннотация.** Ushbu ishda Ta'lim mazmunini isloh qilib, uni jahon ta'lim standartlariga muvofiqlashtirishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etishga alohida etibor berilgan. Xususan, kadrlar tayyorlash milliy dasturida "O'quv-tarbiyaviy jarayonini ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash" zarurligi ham alohida ko'rsatilgan.*

***Tayanch so'z va tushunchalar:** Texnologiya, o'qitish texnologiyalari, pedagogik texnologiya, komp'yuter texnologiyasi, ta'lim.*

Hozirgi kundagi ilmiy-texnikaviy taraqqiyot nafaqat ishlab chiqarishning ko'p sonli tarmoqlariga, balki madaniy, ijtimoiy-gumanitar bilimlar, ta'lim soxasiga ham yangi texnologiyalarni joriy etishni taqqozo etmoqda. Shu boisdan ham keyingi yillarda diqqatni jalb etgan masalalardan biri pedagogik texnologiya hisoblanadi.

Birinchi prezidentimiz Islom Karimov alohida takidlaganidek, "Biz mamlakatimizning iqboli yosh avlodlarimiz qanday tarbiya topishiga, qanday ma'naviy fazilatlarga ega bo'lib voyaga yetishlariga, farzandlarimizning hayotida nechog'li faol munosabatda bo'lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog'liq ekanligini hamisha yodda tutishimiz kerak" Shu sababli ham birinchi navbatda ta'lim mazmunini hamda uni tarkibini kengaytirish va chuqurlashtirish, xususan, bu mazmunga nafaqat bilim, ko'nikma va malaka, balki umuminsoniy madaniyatni tashkil qiluvchi ijodiy faoliyat tajribasi, atrof -muhitga munosabatlarni ham kiritish kerak.

Muxtasar qilib aytganda, yangi ta'lim tizimi, mazmuni, Davlat ta'lim standartlariga, darslik va o'quv qo'llanmalari asosida ta'lim jarayonini loyixalashtirishga yangicha yondashish lozim.

Ta'lim mazmunini isloh qilib, uni jahon ta'lim standartlariga muvofiqlashtirishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etishga alohida etibor berilgan. Xususan, kadrlar



tayyorlash milliy dasturida "O'quv-tarbiyaviy jarayonini ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash" zarurligi ham aloxida ko'rsatilgan.

"Texnologiya so'zi fanga 1872-yilda kirib kelgan bo'lib, grekcha: texnos"-san'at, xunar va "logos"- fan so'zlaridan tashkil topgan bo'lib "xunar fani ma'nosini anglatadi, yoki "texnologiya" so'zi san'at, uddalash, mahorat ma'nolarida ham kelishi mumkin.

O'qitishga texnologik yondashuv, yani o'quv jarayonini ham ishlab chiqarish jarayoni kabi takrorlanuvchi xarakterga ega bo'lishini ta'minlashga oid dastlabki qiziqishlar xx-asrning 50-yillarida Amerikalik pedagog olimlar tomonidan olib borilgan. Xususan, "ta'lim texnologiyasi" iborasi ham birinchi marta Amerikalik olim B.Skinner tomonidan ishlatilgan.

Xozirgi kunda "Pedagogik texnologiya" tushinchisi "Yangi", "Ilg'or", "Progressiv" kabi so'zlarni qo'shib aytilishi ham nisbiy mazmunga ega, bu tushinchaning yagona talqini ishlab chiqilmagan. Xozirgi kunda jahon pedagogikasida "pedagogik texnologiyalar" tushinchasiga turlicha ta'rif berilgan. Xalqaro UNESCO tashkiloti pedagogik texnologiya tushinchasiga quyidagicha ta'rif beradi:

"Pedagogik texnologiya"- ta'lim shakllarini maqbullashtirish uchun inson va texnik resurslarni hamda ularning o'zaro ta'sirini e'tiborga olgan xolda, o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yaratish, qo'llash va aniqlashning sistemaviy metodidir. Oddiy qilib aytadigan bo'lsak, pedagogik texnologiya bu o'qitishning o'ziga xos bo'lgan yangicha yondashuvi, y'ani ta'lim shakllarini qulaylashtirishdir.

Pedagogik texnologiya shakllanishida o'rgatuvchi mashinalarning qo'llanila boshlaganligi turtki bo'ldi. Jahon pedagogikasida texnik vositalarni rivojlantirish, ularning xonadagi barcha o'quvchilarni qamrab olishi, axborot sig'imi va axborot o'tkazish qobiliyatining oshirilishi, o'quv axborotini uzatish individuallasuvi ta'lim berish imkoniyatlarini yanada oshirdi. Ta'lim tizimiga televideniya, radio o'rniga EXM, axborot shaklining kompyuterlashgan tizimi, "Internet" tarmog'i, lazerli aloqa kanali, mikro elektron qurilmalar va boshqa yangi axborot vositalarining qo'llanila boshlanishi "Kompyuterli texnologiya" kabi tushinchalarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, "Pedagogik texnologiya"ni "O'qitish texnologiyasi" tushinchasi bilan uyg'unlashtirmaslik lozim. Chunki, pedagogik texnologiyada o'quv jarayoning aniqlashtirilgan o'quv maqsadlarini belgilashdan boshlab, to yakuniy o'quv



natijalariga erishilganlikni nazorat qilishgacha bo'lgan jarayonni loyihalasadi. "O'qitish texnologiyalari" (muammoli o'qitish, rivojlantiruvchi ta'lim, modulli o'qitish, didaktiv o'yinlar va boshqalar) pedagogik texnologiya bo'yicha loyixalangan o'quv jarayonining didaktik konstruktsiyalari sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagogik texnologiyalarning tub mohiyati, o'qitishning an'anaviy og'zaki bayon qilish usulidan vos kechib, o'quvchilarni ko'proq mustaqil ta'lim olishga undashdan iborat. Bunda o'qituvchi o'quvchilar bilish faoliyatining boshqaruvchisi maslahatchisi, yakuniy natijaga yo'llovchi vazifasini bajaradi.

Hozirgi kunda o'qituvchilar metodikani ko'p xollarda texnologiyadan ajrata olishmayaptilar.

Metodika – O'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yich tavsiyalar majmuasidan iborat. Metodikadan ko'zlangan maqsad fan mavzulariga oid nazaryalarni aniq xodisalar tekksligiga ko'chirish va qo'llashdir.

Pedagogik texnologiya – O'qitish jarayonining o'zaro bog'liq qismlarini tashkiliy jixatdan tartibga keltirish, bosqichlarni qurish, ularni joriy etish shartlarini aniqlash, mavjud imkoniyatlarnixisobga olgan xolda belgilangan maqsadga erishishni ta'minlashdir, yoki pedagogik texnologiya o'qtuvchini kasbiy faoliyatini yakunlovchi va ta'limda yakuniy natijani kafolatlaydigan muolajalar yig'indisidir.

Texnologiya – O'zining egiluvchanligi, natijalarini turg'unligi, samaradorligi, oldindan loyixalanish zarurati bilan metodikadan farqlanib turadi.

Hozirgi davrda respublikamizda va chet davlatlarda ilg'or pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqarishga va ta'lim tizimiga tatbiq etishga katta ahamiyat berilmoqda, turli yangi pedagogik texnologiyalar loyixalari yaratilmoqda. Quyidagi loyihalar istiqbolli yangi pedagogik texnologiya loyihalari sifatida tan olinmoqda.

Adabiyotlar

- 1.A.S.No'monxo'jayev va boshqalar. «Fizika.II-qism» ma'ruzalar matni .Toshkent "O'qituvchi" 2003 .
- 2.K.Tursunmetov ,A.Xudayberganov. «Fizikadan praktikum» 2-nashri . Toshkent. «O'qituvchi» 2004.
- 3.M.H.O'lmasova.«Fizika»2-kitobAkademik litseylar uchun o'quv qo'llanma Toshkent«O'qituvchi» 2004.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIM TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR

Meliboyeva Ozoda Toxir qizi

Namangan Davlat Pedagogika instituti

Ilmiy rahbar: Siddiqov Azamat Muhammadjon o'g'li

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimining yangi tahriri, unga kiritilgan o'zgarishlar, Oliy va o'rta maxsus ta'limga kiritilgan yangiliklar va o'zgarishlar haqida asosiy ma'lumotlar berilgan.*

***Kalit so'zlar :** Oliy va o'rta maxsus ta'lim, "Ta'lim to'grisida"gi qonun, professional ta'lim, dual ta'lim, inklyuziv ta'lim, intellektual meros.*

O'rta Osiyo, xususan, yurtimiz azal-azaldan ilm-ma'rifat o'chog'i jahon sivilizatsiyasi markazlaridan biri deb e'tirof etilgan. O'rta asrlardan xalqimiz ta'lim sohasida yuksak marralarga erishgan bo'lib, umumjahon madaniyatida o'z o'rniga ega xalq sifatida shakllanib kelmoqda. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ham bejizga ushbu fikrlarni aytib o'tmaganlar: "Bizni savodsizga chiqarganlarning ajdodlari oyog'iga mato bog'lab yurganda bizning bobolarimiz yulduz sanagan." Inson, uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlari va ta'sirchan mehanizimlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohatlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir. Hozirgi yangi O'zbekistonda ham ta'lim tizimiga juda katta e'tibor berilmoqda. Chunki ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish bugungi kundagi davr talabiga aylanib bo'lgan va bugungi kunda ulkan islohatlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan ulardan biri bu 2020 yil 23-sentabrda Oliy Majlis tomonidan tasdiqlangan 11 bob 75 moddadan iborat bo'lgan "Ta'lim to'grisida"gi qonunning yangi tahriri hisoblanadi.



Mazkur qonun jahon standartlari talablaridan kelib chiqqan holda ta’lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishning qamrovi kengligi va o’ziga xos xususiyatiga ega ekanligi bilan 1997-yil qabul qilingan “Ta’lim to’g’risida”gi qonundan tubdan farq qiladi.

Mazkur qonunning 7-moddasiga muvofiq ta’lim turlari quyidagilar iborat:

- Maktabgacha ta’lim va tarbiya
- Umumiy o’rta va o’rta maxsus ta’lim
- Professional ta’lim
- Oliy ta’lim
- Oliy ta’limdan keying ta’lim
- Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish
- Maktabdan tashqari ta’lim.

Ta’lim tizimidagi eng ajoyib yangiliklardan biri bu abiturentlar uchun oliy o’quv yurtlariga kirish imkoniyati oldingi yillarda bitta oliygohga imkoniyat bo’lgan bo’lsa, 2019-yildan uchta oliygohga 2020-yildan esa bu imkoniyat beshtaga yetganligi abitruntlar uchun katta yangilik bo’ldi. Albatta bu tadbirlar abitruntlarni o’ylab, ularning imkoniyatini oshirish va jadallashtirishga turtki bo’ldi. Yangi ta’lim to’g’risidagi qonunda ko’rsatilgan yana bir o’zgarish bu bolalarning maktabga chiqish yoshi 6-7 yoshdan qat’iy 7 yosh deb belgilanishini ko’rsatish mumkin. “Ta’lim to’g’risida”gi qonunning 8-moddasida ko’rsatilib o’tilgandek “Maktabgacha ta’lim” so’zining yoniga tarbiya so’zining qo’shilganligi esa har bir ta’lim turiga berilayotgan imkoniyatdan darak beradi. Respublikada 6742 ta maktabgacha ta’lim muassasasida 610 mingga yaqin kichkintoylar ta’lim-tarbiya olmoqdalar. Maktabgacha ta’lim sohasida uylarda tashkil etiladigan bolalar bog’chalari hamda “Bolalar bog’cha-maktab” majmui tarmog’i rivojlanib bormoqda.

Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek: “Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo’lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi. Shunday ekan, yangi O’zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o’ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo’llab-quvvatlaydi.” Umumiy o’rta ta’lim 1-11 sinflarni o’z ichiga oladi. O’rta maxsus ta’lim akademik litseylarda to’qqiz yillik tayanch o’rta ta’lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi. Professional ta’lim



boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus ta'lim darajalariga ajratiladi. Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida 9-sinf bitiruvchilari negizida kunduzgi ta'lim shaklida 2 yillik integratsiyalashgan asosda amalga oshiriladi. O'rta professional ta'lim esa kollejlarda davlat buyurtmaasi yoki to'lov shartnomasi asosida davomiyligi 2 yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi. Qonunga ko'ra davlat oliy ta'lim, o'rta maxsus, professional ta'lim tashkilotlari va ularning fillialari Prezident yoki hukumat qarorlari bilan tashkil etiladi. Nodavlat ta'lim tashkilotlariga litsenziya Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan beriladi. Nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etish ularning ta'sisчилari tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Bugungi kunda jahondagi nufuzli oliy ta'lim muassasalari ilm-fanning yirik o'choqlari hisoblanishi hech kimga sir emas. Hozirda yangidan yangi oliy o'quv yurtlari, dunyodagi yetakchi universitetlarning filliallari tashkil etilmoqda. Misol uchun so'ngi 5 yilda mamlakatimizda 47 ta yangi oliy ta'lim muassasasi, jumladan, xorijiy universitetlarning filliallari tashkil etilib, oliy o'quv yurtlarining soni 125 taga yetdi. Davlat-xususiy sheriklik tizimi asosida nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyati yo'lga qo'yilmoqda. Aholi fikrini o'rgangan holda sirtqi va kechki ta'lim shakllari qayta tiklandi, qabul kvotalari oshirilmoqda. Maktab bitiruvchilarini oliy ta'limga qamrab olish darajasi 2016-yilgi 9 foizdan 2020yilda 25 foizga yetdi. Oliygo'harlar va ta'lim tizimining quyi bo'g'inlari orasidagi uzviylikni kuchaytirish maqsadida akademik litsey oliy o'quv yurtlari taasarrufiga o'tkazilishi, shuningdek, 187 ta texnikum ham o'z yo'nalishi bo'yicha turdosh oliygo'har va tarmoq korxonalariga biriktirilishi bo'ldi. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning yangi tahririda ta'lim sohasidagi asosiy prinsplar ta'lim tizimi turlari va shakllari aniq belgilab qo'yildi. Qonunning 16-moddasida belgilangan masofaviy ta'lim haqidagi qoidalar o'quv rejalar va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, ko'nikma va malakalarni axborot kommunikatsiya texnologiyalardan hamda Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan. Shuningdek qonunning 17-moddasida dual ta'limga oid qoidalar belgilanib, u ta'lim oluvchilar tomonidan zarur malaka va ko'nikmalar olishga qaratilgan bo'lib, ularning nazariy qismi ta'lim tashkilotida, amaliy qismi esa ta'lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi. Bundan tashqari qonunning

20-moddasiga inklyuziv ta’lim to’g’risidagi qoidalar kiritilib, unga binoan inklyuziv ta’lim alohida ehtiyojlari va individual imkoniyatlarining xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta’lim oluvchilar uchun ta’lim tashkilotlarida ta’lim olishga bo’lgan teng imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsoni bo’lgan bolalar (shaxslar) uchun ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’limni tashkil etadi.

Prezidentimizning “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagogik kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to’g’risida”gi qaroriga muvofiq: 2022-2023 o’quv yilidan boshlab kunduzgi ta’lim shaklida tahsil olayotgan ikkinchi, uchinchi va to’rtinchi bosqich talabalari uchun haftalik o’quv mashg’ulotlari “4+2”, jumladan darslarning 4 kuni OTMda, 2 kuni umumiy o’rta ta’lim muassasalarida amaliyot o’tash tartibida olib boriladi.

Shuningdek, jahonda ta’lim sifatini nazorat qilish va baholash bo’yicha bir qancha baholash dasturlari mavjuddir. Shular qatorida PISA xalqaro baholash dasturi hisoblanadi. PISA bu o’quvchilarning o’qish, matematika va tabiiy fanlardan savodxonligini baholashga qaratilgan xalqaro baholash dasturi bo’lib, uning natijalari asosida dunyo mamlakatlari o’quv dasturlarida mavjud talablar doirasida o’quvchilarning bilim va ko’nikmalarini hayotiy vaziyatlarda qo’llash, fikrlash va muloqot qilish qobiliyatlarini aniqlashga qaratilgan. Mamlakatimizda ta’limni isloh qilish ustuvor vazifalardan biriga aylangan bugungi kunda mamlakatimiz ham 2021-yil o’tkazilgan PISA baholash dasturida 85 ta davlat qatorida O’zbekiston ham ilk marotaba ishtirok etdi. (1 rasm)



O`zbekiston Respublikasi Umumta’lim muassasalari milliy reytingi -2022

Mamlakatimizda 2019-yilning oktabrida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi. Konsepsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi. Unda oliy o'quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta'lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ijtimoiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqot natijalarini tijratlashtirish, xalqaro e'tirofga erishish hamda boshqa ko'plab aniq yo'nalishlar belgilab berilgan. Bularning barchasi ta'lim jarayonini yangi bosqichga ko'tarish uchun xizmat qiladi .



2017 yildan boshlab har yili O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan oliy ta'lim tashkilotlari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini yaratish, ta'lim sifatini yanada yuqori bosqichga olib chiqish va ularni xalqaro reytinglarga kirishiga har tomonlama ko'maklashish maqsadida oliy ta'lim muassasalarining Milliy reytingi e'lon qilib borilmoqda va aynan 2021 yilda quyidagicha reyting aniqlandi. **(2-rasm)** Bu

ko’rsatkichlar professor-o’qituvchilarning yuqori impakt-faktorli jurnallarda maqolalar chop etishi, iqtiboslik ko’rsatkichlari oshishi, investisiyaviy jozibadorlikni oshirish, xorijiy ta’lim va ilm-fan texnologiyalarini jalb etish, ta’lim-fan-ishlab chiqarishning o’zaro manfaatli hamkorligini yo’lga qo’yish orqali amalga oshiriladi.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich aytganlaridek: “Agar mendan “Sizni nima qiynaydi?” deb so’rasangiz, farzandlarimning ta’lim-tarbiyasi deb javob beraman” Eng samarali investitsiya bu ta’limga qilingan investitsiyadir. Chunki jamiyat taraqqiyotini, uning ertangi kunini yetuk malakali kadrlar belgilab beradi. Ta’lim tizimini takomillashtirish, ularning bilimini oshirish, sifat darajasini ko’tarishdir. Shu bois Prezidentimiz “Jamiyatda o’qituvchi kasbi eng nufuzli va obro’li kasb bo’lishi lozim ” deya uqtirib, mamlakatimizda 2021-yilda o’qituvchi va pedagoglarga ustama haq to’lash tizimi yo’lga qo’yilishini ta’kidladi. Bu tashabbus yaqin to’rt yildagi o’qituvchi va murabbiylarning ijtimoiy nufuzi va mavqeini oshirish borasidagi amaliy faoliyat va harakatlarining izchil davomi deyish o’rinlidir.

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash mumkinki, ta’lim sohasidagi islohatlar bugungi kunda o’zining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohadagi islohatlardan aslo qolishmaydi. Chunki ushbu sohadagi islohatlarni yanada keng ko’lamda davom ettirish davr talabidir. Shu o’rinda muhtaram Prezidentimizning yana bir gaplarini keltirib o’tish o’rinlidir: “Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan ham bu ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz Vatanimizning yorug’ istiqboli, birinchi navbatda, ta’lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog’liq.” Maqola so’ngida shuni misol qilib keltirish mumkinki, ilm o’rgangan kishi hech qachon yutqazmagan yutqazmaydi ham. Zero, xalqini, jonajon Vatanini ardoqlagan inson aslo kelajagi uchun qayg’urmay qolmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

- 1.X.A.To’raqulov, N.O’.Usmanov-“Pedagogika” Tosh. 2016 yil
2. E.A.Migranova, Sh.X.Pozilova, “Kasbiy pedagogik faoliyatga kirish” Tosh.2018 yil
3. A.Musurmanova, X.Ibragimov, O.Jamoliddinova “Umumiy pedagogika” Tosh.2020 yil



NOFILOLOGIK YO'NALISHI TALABALARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI PEDAGOGIK ATAMALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Mavlanov Shavkat Yusupovich

Namangan davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

Tel: 93 498-22-66 E-mail: shavkatmavlyanov1972@gmail.com

Аннотация: *Maqolada nofilologik yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini pedagogik atamalar asosida rivojlantirish va pedagogikada «atama» tushunchasi, uning ilmiy-amaliy ma'noda aniq ifodalanishi, pedagogik atamalarning kashf etilishi, dastlabki darslik va qo'llanmalarining tarjima qilinishi va yaratilishiga oid manbalar qayd etilgan. Pedagogik atamalarning sharh va izohlari pedagogik ensiklopediya tarzida tizimlashtirilishi hamda ularning vazifalari ta'kidlab o'tilgan.*

Калит so'zlar: *atamalar, sharh, izohlar, pedagogik ensiklopediya, pedagogika.*

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ- НЕФИЛОЛОГОВ НА ОСНОВЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ

Мавланов Шавкат Юсупович

Исследователь Наманганского государственного педагогического института

Tel: 93 498-22-66 E-mail: shavkatmavlyanov1972@gmail.com

Аннотация: *В статье развитие профессиональной компетентности студентов-нефилологов на основе педагогических терминов и рассматривается происхождение термина в педагогике, его научное и практическое определение, возникновение педагогических терминов, перевод и создание первых учебников и учебных пособий. Подчеркнуто толкование педагогических терминов в форме педагогической энциклопедии и их функции.*

Ключевые слова: *термины, комментарии, аннотации, педагогическая энциклопедия, педагогика.*



DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF NON-PHILOLOGY STUDENTS ON THE BASIS OF PEDAGOGICAL TERMS

Mavlanov Shavkat Yusupovich

Researcher of Namangan State Pedagogical Institute

Tel: 93 498-22-66 E-mail: shavkatmavlyanov1972@gmail.com

***Annotation.** The article development of professional competence of non-philology students based on pedagogical terms and discusses the origin of the term in pedagogy, its scientific and practical definition, the emergence of pedagogical terms, the translation and creation of the first textbooks and teaching aids. The interpretation of pedagogical terms in the form of a pedagogical encyclopedia and their functions are emphasized.*

***Key words:** terms, comments, annotations, pedagogical encyclopedia, pedagogy.*

Hozirgi davrda oliy ta'lim muassasalarida nofilologik yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonida pedagogik atamalar va ularni iste'mol qiluvchilarning ham soni ortib bormoqda. «Atama» – termini har bir xalq o'z tilidagi nom, atama bilan yuritib kelingan. Termin so'zi ma'lum bir sohada qo'llansa, atama so'zining ma'nosi termin so'zining ma'nosidan kengroq bo'lib, u barcha narsalar va hodisalarning nomi sifatida tushuniladi. Termin va atama so'zlari bir-biriga yaqin tushuncha sifatida ifodalanishiga qaramay, ular aynan bir xil so'zlar hisoblanmaydi va ularni almashtirib qo'llab ham bo'lmaydi. Nofilologik yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonida pedagogik atamalarni o'rganish bilan birgalikda o'zbek tilining grammatikasi va matn ustida ishlashga ham katta ahamiyat beriladi. Pedagogik atamalar lug'ati bilan ishlashda adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o'qishga va o'zi tanlagan kasbiga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi. Talabalar nafaqat pedagogik atamalarni, balki pedagogikaga oid masalalar yuzasidan fikr bildirish olish, tahlil etish hamda bahs munozaralarga kirishish kabi ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari mumkin.

Pedagogik tushunchalarni ifodalashga xizmat qiladigan so'z yoki so'z birikmalari o'zining aniq definitsiyalari, ya'ni aniqlovchilariga ega. Pedagogikada «atama» tushunchasi ostida ilmiy-amaliy ma'noda pedagogik tushunchalarning aniq ifodalangan

shakli tushuniladi. SHu bois bunday aniqlovchilar ilmiy-pedagogik uslub doirasiga kiradi. Pedagogik atamalar pedagogikaga oid ilmiy tushunchalarni ifodalovchi soʻzlar majmui sanaladi. Ular pedagogika fanining muhim tushunchalarini oʻzida mujassam qilish xususiyatiga ega boʻladi. Qayd etish joizkm, ajdodlarimiz yosh avlod tarbiyasining pedagogik, maʼnaviy-axloqiy asoslarini yaratish jarayonida koʻplab pedagogik atamalarni kashf etishgan. Pedagogik atamalarni Sharqning buyuk mutafakkirlaridan Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy va boshqa qator qomusiy bilimlarga ega boʻlgan allolomalarning ilmiy-maʼnaviy merosi orqali kuzatishimiz mumkin. SHarq allomalari “pedagogika” soʻzidan foydalanmagan boʻlsa-da, unga oid qator tushunchalar, terminlar asosida ilmiy asarlar yaratishgan erishgan. Ushbu manbalardan maʼlum boʻladiki, taʼlim-tarbiyaga oid tushunchalar, yaʼni pedagogik atamalarning paydo boʻlish tarixi uzoq oʻtmishga borib taqalgan, deyishga asos bor.

XIX asrning oxiri XX asrning 20-yillarida dastlabki taʼlimiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega boʻlgan darslik hamda qoʻllanmalarining tarjima qilinishi, yaratilishi bilan bogʻliq holda pedagogik atamalar koʻlami kengaydi. Bunday pedagogik atamalar oʻsha davrning oʻzida yaratilgan dastlabki ilmiy maqola, gazeta va jurnallarda yoritila boshlangan. Biroq pedagogik atamalarni toʻplash va lugʻat shaklida tartibga solish sohasidagi ishlar amalga oshirilmadi. Oʻsha davrlarda pedagogika sohasida koʻplab yangi atamalar rus tilidan oʻzbek tiliga kirib kelgan va oʻzlashtirila boshlangan. Bu atamalar rus tilidan toʻgʻridan-toʻgʻri qabul qilingan va tarjima qilingan holda isteʼmolga kiritish orqali oʻzbek tilining lugʻatidan oʻrin olgan.

Fikrimiz tasdigʻi sifatida,1925–2000 yillarda chop etilgan bir qator lugʻat va pedagogik ahamiyatga ega boʻlgan ensiklopediyalardan oʻzbek pedagog olimlari uzoq yillar mobaynida foydalanib kelishganini qayd etishimiz zarur. Mutaxassislar XX-asrning 90-yillarida rus olimlari tomonidan pedagogikaning alohida sohalari boʻyicha chop etilgan lugʻatlardan unumli foydalanishgan [1; 5]. Biroq, bu lugʻat yaratish sohasida Oʻzbekistonda hech qanday ish amalga oshirilmagan, degan xulosani keltirib chiqarmasligi kerak. Uzoq davrlar mobaynida pedagogikaga oid atamalar turli sohaga oid lugʻatlar tarkibida aralash tarzda berilgan. Hozirgi davrga kelib pedagogikaga oid koʻplab yangi atama, tushuncha va iboralar kirib keldi. Ularning maʼnosi turlicha izohlanib, manbalarda turli-tuman shakllarda berilmoqda. Ushbu atamalar va ulardan

foydalanuvchilarni ba'zi hollarda chalg'itmoqda. Ayrim vaqtlarda esa fikrning yoritilishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois ham pedagogik atamalar mazmuniga yangicha kontekstda yondashish pedagogika fani oldida turgan muhim va dolzarb vazifa hisoblanadi.

Nofilologik yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda pedagogik atamalardan foydalanish va ular mazmunini takomillashtirish, yangi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar bilan integrallashuvini taqozo etadi. Binobarin pedagogik atamalarning yangicha mazmun-mohiyatiga yondashish va bunda mazkur atamalarning boshqa tillarda qo'llanilish shakli, mazmun-mohiyatini o'rganish hamda o'zaro qiyoslash muhim sanaladi. Bugungi kunga qadar turli davrlarda ko'pgina xorijiy mamlakatlarda pedagogik atamalarning mazmuni bo'yicha ko'plab izlanishlar amalga oshirilgan. Pedagogik terminlarning shakllanishi va taraqqiyoti masalalari bo'yicha ozarbayjon, qozoq, qirg'iz kabi pedagog olimlari tomonidan izlanishlar olib borilgan [2]. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, turli davrlarda yaratilgan bir necha variantlarda, rus tilidagi pedagogik lug'at va ensiklopediyalar mavjud. Ularda aynan bir atamaning mazmun jihatdan o'zgarib, kengayganligi tadrijiy tarzda o'z ifodasini topgan. Biroq pedagogik atamalar o'zbek tilida turli davrlarda har xil mazmun mohiyatga ega bo'lib kelayotgan bo'lsa-da, ular maxsus tadqiq etilmagan. Natijada, mutaxassislar tomonidan ayni bir atama turlicha sharhlanmoqda. Aksariyat hollarda esa ularning ma'nosi noto'g'ri talqin etilmoqda. Pedagogik atamalar ilmiy jihatdan to'g'ri tavsiflanishi, ularning barcha ma'nolari izohlanishi zarur. Shu bois ham nofilologik yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda pedagogik atamalarni batafsil o'rganish va tadqiq etish zaruriyati dolzarb masalalardan biridir.

Pedagogika sohasiga oid ilmning rivojlanishi va ommalashishida mazkur pedagogik atamalarga oid tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Atamalar mohiyatida pedagogika fanida barqarorlashgan bilimlar, yondashuvlar, konsepsiyalar o'z ifodasini topishi kerak. Pedagogik atamalarning sharh va izohlari pedagogik ensiklopediya tarzida tizimlashtirilishi lozim. Pedagogik ensiklopediyalar ilmiy, ijtimoiy, pedagogik vazifalarni bajaradi. Bunday ensiklopediyalar bugungi kunda pedagogika va ta'lim-tarbiya sohasida ma'lumot, axborot to'plash hamda uni nofilologik yo'nalishi

talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ular:

- talabalarga muayyan pedagogik hodisa haqida har tomonlama mukammal ma’lumot berish funksiyasiga ega;
- pedagogikaga oid soʻzlar, tushunchalar, atamalar va ularning ilmiy mohiyati, yoʻnalishlari bilan tanishtiradi;
- talabalarning pedagogika va ta’lim-tarbiya sohasidagi soʻz boyligini, bilim doirasini oshiradi.

Mustaqillik yillari Respublikamizda “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, “Tarbiya ensiklopediyasi” kabi qator ensiklopediya va lug‘atlar, shuningdek, tarmoq lug‘atlariga oid manbalar yaratilgan. Ularda ayrim pedagogik atamalar qisman sharhlangan. Shuningdek, O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institutining bir guruh olimlari tomonidan ilmiy muomalada uchraydigan barcha pedagogik atamalarning mazmun-mohiyatini sharhlash maqsadida «Pedagogika ensiklopediya» yaratilgan [4]. O‘zbek xalqining madaniy-ma’rifiy hayotida katta voqea bo‘lgan pedagogik atamalar mazmunini modernizatsiyalash va unifikatsiyalashda ushbu uch jildli “Pedagogika ensiklopediya”ning yaratilishi alohida ahamiyatga ega. Ushbu “Pedagogika ensiklopediya” pedagogika fani, ta’lim-tarbiya, pedagogik psixologiya, pedagogik antropologiya, falsafiy pedagogika, ijtimoiy pedagogika, pedagogik diagnostika, statistik pedagogikaga oid ma’lumotlarni muxtasar tarzda ifodalash bilan birga insoniyat tamaddunining muhim yutuqlari haqidagi bilimlar majmuini o‘z ichiga olgan. Pedagogika va ta’lim-tarbiyaga oid ilmiy ma’lumotlar ensiklopediyaning asosiy kismini tashkil kiladi. Unda mamlakatimiz mustakillikka erishgandan keyingi davrda pedagogika, ta’lim-tarbiya soxasidagi ulkan o‘zgarishlar batafsil yoritiladi.

“Pedagogika ensiklopediya”da o‘zbek xalkining pedagogika va ta’lim-tarbiya soxasidagi tarixiy tajribalari taxlil kilingan. O‘zbekistonda pedagogika fanini rivojlantirishga xissa qo‘shgan mutaxassislarni ilmiy faoliyati, pedagogika soxaga qo‘shgan hissalarini ta’kidlab o‘tilgan. Uning saxifalaridan oila tarbiyasi, mehnat tarbiyasi, xalk pedagogikasi, ta’limiy kadriyatlar, jaxon pedagogikasida erishilgan yutuklar, pedagogika fanining bugungi kundagi xolati, tarixi, metodologik yondashuvlar, atamalarining sharxlari, nomlari kabi ma’lumotlar o‘rin olgan. Mazkur “Pedagogika

ensiklopediya”da mustakil O‘zbekistonning ta’lim-tarbiya va pedagogika sohasidagi xalkaro alokalari bilan bog‘lik mavzular xam yoritilgan.

Oliy ta’lim muassasalarida talabalarni har tomonlama rivojlantirish, ta’lim-tarbiya jarayonlarida pedagogik atamalarning shakillanishi, amaliyotda qo‘llanilishi masalalarida keng ko‘lamli tadqiqotlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, tarixiy yondashuvlar asosida pedagogik atamalarning shakillanish tarixi va amaliyotda qo‘llanilishi masalasi alohida tadqiqot sifatida o‘rganilmagan.

O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalarida nofilologik yo‘nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda pedagogika sohasini rivojlantirish va islohotlar jarayonida ilmiy-intellektual, ilmiy-innovatsion salohiyatdan keng foydalanish, uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish yo‘lini davom ettirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirishni talab etadi. SHuningdek, zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali nofilologik yo‘nalishi kadrlarini tayyorlash, ilmiy hamda innovatsiya yutuqlarni amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish dolzarb vazifa sanaladi. Sohani barqaror taraqqiy ettirish, o‘z navbatida, pedagogik atamalarning shakillanish tarixi va amaliyotda qo‘llashni takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Nofilologik yo‘nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ta’limning integratsiyalashuvi sharoitida pedagogik atamalarni o‘rganish va ulardan amaliyotda foydalanish, qo‘llashni rivojlantirish, chuqur tahlil qilish bilan bog‘liq. Xususan, pedagogikaga oid atamalarning shakillanish tarixi va ulardan amaliyotda foydalanishni takomillashtirish masalalarini tadqiq etish zururiyati mavjud. Mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlar nafaqat pedagogika fanini balki, nofilologik yo‘nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga hissa qo‘shishi va ta’lim sifati samaradorligining oshishida xizmat qiluvchi omil hisoblanadi.

Nofilologik yo‘nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini pedagogik atamalarning shakillanish tarixi va ularni amaliyotda qo‘llash asosida rivojlantirish pedagogik muomaladagi kiyinchiliklarni bartaraf etishga imkon beradi. Shuningdek, qatorda pedagogik mazmundagi matnlarni tushunishni osonlashtiradi va pedagogik xodisa, vaziyatlarni tavsiflashda ushbu atamalardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Ushbu atamalardan foydalanishda ularning xar biri kanday ma’noda iste’mol



kilinishidan kat'i nazar talabalar uchun kulay va tushunarli bo'lishi muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy pedagogikada rang-barang didaktik prinsiplar tan olingan. Xar kanday nutkiy xatoliklarni bartaraf etish xar doim ongli tarzda amalga oshiriladigan jarayon xisoblanadi. Didaktik qonuniyatlar ta'limning asosiy tamoyillarida o'z ifodasini topadi [3]. Mazkur qonuniyatlar ta'lim xamda pedagogik xodisalarning muvaffakiyatini ta'minlash uchun xizmat kiladi. Shu bois oliy ta'lim muassasalarida nofilologik yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda pedagogik atamalarning shakillanishi va ulardan amaliyotda foydalanishni takomillashtirish ilmiylik, tushunarlik, onglilik, faollik, mustakillik, tizimlilik, izchillik, mustaxkamlik va nazariya bilan amaliyotning alokadorligi kabi tamoyillariga tayanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida nofilologik yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini pedagogik atamalar asosida rivojlantirishga qaratilgan ta'lim ochik xarakterdagi jarayon sanaladi. Shu bois xam uni aloxida ko'rsatmalar asosida takomillashtirish mumkin emas. Ta'limniig muvaffakiyatini ta'minlovchi jarayon pedagogik atamalardan amaliyotda foydalanish, qo'llash mazmunining ta'lim jarayoni sub'ektlari uchun tushunarli bo'lishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Кошкина Е.А. Понятийно-терминологический аппарат педагогики как предмет историко-педагогического исследования. / Образование и наука. 2012 № 5 (94) С. 83-95.
2. Оруджалиева А.С. Лингвистические особенности педагогических терминов в Азербайджанском языке: автореферат дис. ... кандидата филологических наук: 10.02.02 / Азерб. пед. ин-т.- , 1990. – 19 с.
3. Оғаев С., Оғаев Х. Дидактик курсларни ўқитишнинг назарий асослари. – Тошкент: “Фан”, 2009. – 251 б.
4. Педагогик атамалар луғати. Тузувчи: Р.Сафарова ва б. – Тошкент: 2016. – 328 б.
5. Романцев Г.М., Федоров В.А., Осипова И.В., Тарасюк О.В. Профессионально-педагогические понятия. – Екатеринбург: Изд-во Рос. гос. проф.-пед. ун-та, 2005 – 456 стр.



THE CULTURE OF RESOURCE SCIENCE IN THE EDUCATIONAL SYSTEM AND THE CHARACTER OF NATIONAL SPIRITUAL PRINCIPLES

Naimov Husniddin

Ismailov Jalaliddin

Namangan State University

Abstract: *This article consists of opinions on the formation of the culture of source studies among young people in the educational system, ensuring the harmony of national and spiritual character in the educational system.*

Key words: *resource studies, national character, spirituality, society, globalization, aura, innovation, idea, ideology, strategy*

Today, people and society as a whole are faced with a number of priority demands and tasks arising from the social environment and character of their time. It is no secret to anyone that innovative ideas and innovations created yesterday are losing their power, influence and importance today. In today's globalized society, the social environment and the intellectual aura are so complex, yet so fluid, that the time demands to act with a systematic program of living with vigilance, vigilance and meticulousness every second and striving for a worthy strategic goal. In all eras, unique methods and tools were used to educate the perfect personality of the time and ensure social stability of the society. The intellectual layer of the population is considered to be the layer that ensures mutual harmony and social balance of the society, and the members of the society start towards good goals and progress.

The role of the education and training system in the life of society and the development and future of the country is incomparable. The head of our state Sh. Mirziyoyev expressed his opinion on this issue: "I repeat the wise words of our famous enlightened grandfather Abdulla Avloni: "Education for us is a matter of life - or death, or salvation - or destruction, or happiness - or disaster." I don't get tired of repeating.

In the following years, this approach to the issue became the criterion of our activity in this field. Indeed, if we change education, education changes people. If a person changes, our whole society changes" [1]. Here it can be said that the process in the center of attention is currently the education and training system.



It is equally necessary and urgent to form competent and mature personnel in all respects and educate them in accordance with the spirit of the times, with strong ideological and ideological immunity, spiritual and national values, loyalty to the homeland and people, broad-mindedness and philosophical thinking. However, it should also be taken into account that today there are many shortcomings in the social strata of the society, especially the perspective of the country and the future youth's pursuit of knowledge, especially in the educational processes, and quality, competitive, generally knowledgeable personnel. causes a number of weaknesses in the field of preparation. In particular, among young people and especially students, there is a lack of source knowledge culture in the use of scientific terms and concrete issues, experience and alternative approaches, words and phenomena, and the ideas that are expressed do not have clear sources and literature, which means that young people, it can be said that it leads to the emergence of a state of social ambivalence in the speaker and the listener, distance from the real reality, and a social gap in the mind regarding this issue. The demand of the time and the fate of the nation, the level of tomorrow's scientific environment in the country also depends on it. At the same time, from the point of view of today, we can see that the educational system and the national-spiritual and moral principles in education, their application and the corresponding character formation are painful points. This is the lack of moral principles in the growing person, first of all, the social stability of the society becomes acute, the distance of the members of the society from the sense of belonging, the phenomenon of active citizenship position loses its significance, the pride of the nation, the heritage of the ancestors and to be proud of the person, to be worthy of them, for the national spirit, the future of the nation and the next day. There is no doubt that it will cause a crisis of national and spiritual character, such as burning people's lives.

To work with young people, to form a culture of resource studies in them, the main focus is to implement a separate science system for all areas within this network, that is, to introduce a network of dealing with sources within the scope of their activities for representatives of all areas of society, to and in an additional way, adding works embodying our national identity and rich history, artistic eternity and world masterpieces to these resources, controlling and analyzing the precise activity



monitoring of this system, and systematically implementing it widely based on the results of the experiment is an effective tool.

In authentic hadiths that have reached us and have not lost their power and importance even after the Surah of Time and Space, it is not for nothing that "there is no salvation except knowledge". The pace and meaning of life, the essence of life can be realized and understood precisely with science. Working with sources and literature, which we mentioned above, makes it possible to have a clear vision and knowledge of life and reality.

The peoples of the East have always been unique in terms of their high moral views, their harmony with education. Ancient thoughts in this regard also confirm our words: "Education cannot be separated from education, and education cannot be separated from education. This oriental view is an oriental philosophy of life" [2]. This is a guarantee of progress and stability of science in society, where social environment is balanced and moral maturity is high. At this point, while expressing his opinion about the youth who are the destiny of the nation, the head of our state expressed his high confidence in them: "We have set before ourselves the great goal of building the foundation of the Third Renaissance in our country, for this the new Khorezms, Berunis, Ibn We need to create the environment and conditions that will educate Sinos, Ulugbeks, Navoi and Babur. In this, first of all, development of education and training, establishment of a healthy lifestyle, promotion of science and innovation should serve as the main pillars of our national idea.

In order to achieve this goal, creating ample opportunities for our young people to set great goals and achieve them, and providing all kinds of support is the most important task for all of us. Only then will our children become a great and powerful force that will realize the age-old dreams of our people" [3].

REFERENCES

1. From the speech of Shavkat Mirziyoyev at the solemn ceremony dedicated to the 30th anniversary of the independence of the Republic of Uzbekistan./31.08.2021/president.uz
2. Islam Karimov. High spirituality is an invincible power. Spirituality. Tashkent 2008



3. Shavkat Mirziyoyev. From the address of the President of the Republic of Uzbekistan to the Oliy Majlis. Tashkent. 29.12.2020

СТРАТЕГИИ ИЗУЧЕНИЯ ЛЕКСИКИ УЧАЩИХСЯ СРЕДНИХ ШКОЛЬНИКОВ

Mamadaliyeva Sarvinoz Azamatjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti talabasi

e-mail: mamadaliyeva0509@gmail.com

Umarxanova Nigora

Namangan davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

***Аннотация.** В статье рассматривается стратегии улучшения словаря учащихся средних школ. Изучение процесса изучения лексики учащиеся средних школ является сегодня одним из самых популярных направлений когнитивной лингвистики. Словарный запас – это набор знакомых слов в языке человека. Словарный запас, который обычно развивается с возрастом, служит полезным и основным инструментом для общения и приобретения знаний. Приобретение обширного словарного запаса является одной из самых больших проблем при изучении второго языка. Стратегия изучения словарного запаса играет важную роль в английском языке приобретение. В этом исследовании описываются стратегии изучения словарного запаса, которые студенты использовали, когда они узнали новые слова. Мы попытались выяснить, является ли словарный запас стратегии обучения различались в зависимости от школьного уровня, пола и групп способностей. обозначены их оценками по английскому языку. В исследовании приняли участие 110 студентов из средняя школа. Данные были собраны с помощью анкеты, разработанной с использованием таксономия, состоящая из метапознания, познания, детерминации и памяти категории. Общие результаты показывают, что учащиеся больше полагаются на стратегии памяти. Эта зависимость от стратегий памяти согласуется по полу, группам способностей и школьным уровням.*

***Ключевые слова:** Словарный запас, второго языка, средняя школа, анкеты, таксономия, метапознания, детерминации.*

Annotation. *The article looks at the strategies for learning vocabulary by secondary school students. Vocabulary learning process by secondary school students is today one of the most popular areas of cognitive linguistics. Vocabulary is a set of familiar words in a person's language. Vocabulary, which usually develops with age, serves as a useful and basic tool for communication and knowledge acquisition. Acquiring an extensive vocabulary is one of the biggest challenges when learning a second language. The vocabulary learning strategy plays an important role in the English language acquisition. This study describes the vocabulary learning strategies students used when they learned new words. We tried to find out whether vocabulary learning strategies differed by school level, gender, and ability groups, indicated by their English grades. The study involved 110 students from the secondary schools. Data were collected using a questionnaire designed using a taxonomy consisting of meta-cognition, cognition, determination, and category memory. The overall results show that students rely more on memory strategies. This dependence on memorising strategies is consistent across gender, ability groups, and school levels.*

Key words: *Vocabulary, second language, secondary school, questionnaires, taxonomy, metacognition, determinations.*

Annotatsiya. *Maqolada o'rta maktab o'quvchilarining so'z boyligini o'rganish strategiyalari ko'rib chiqiladi. O'rta maktab o'quvchilarining lug'atini oshirish jarayonini o'rganish bugungi kunda kognitiv tilshunoslikning eng dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Lug'at - bu kishi tilidagi tanish so'zlar yig'indisidir. Odatda yoshi bilan rivojlanadigan lug'at muloqot va bilimlarni o'zlashtirish uchun foydali va asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Katta so'z boyligiga ega bo'lish ikkinchi tilni o'rganishdagi eng katta qiyinchiliklardan biridir. Ushbu tadqiqot o'quvchilar yangi so'zlarni o'rganishda qo'llagan lug'atni o'rganish strategiyalarini tavsiflaydi. Biz lug'atni o'rganish strategiyalari maktab darajasi, jinsi va qobiliyat guruhlari bo'yicha farqlanishini aniqlashga harakat qildik. Tadqiqotda o'rta maktabning 110 nafar o'quvchisi ishtirok etdi. Ma'lumotlar metakognitsiya, bilish, aniqlash va toifa xotirasidan iborat taksonomiya yordamida ishlab chiqilgan so'rovnoma yordamida to'plangan. Umumiy natijalar shuni ko'rsatadiki, talabalar ko'proq xotirada eslab qolish*



strategiyalariga tayanadilar. Eslab qolish strategiyalariga bog'liqlik jins, qobiliyat guruhleri va maktab darajalarida mos keladi.

***Tayanch so'zlar:** Lug'at, ikkinchi til, o'rta maktab, anketalar, taksonomiya, metakognisiya, aniqlashlar.*

Introduction

"We set the goal of becoming a competitive state. From now on, every graduate of a school, lyceum, college and university must be fluent in at least two foreign languages. The head of each educational institution must turn this requirement into its main principle, create conditions and popularize the study of foreign languages in the field," President Shavkat Mirziyoyev said, announcing the creation of the Agency for the Promotion of Foreign Language Learning under the Cabinet of Ministers. After this decree, the study of a foreign language became even more rapid.[1]

Vocabulary is the collection of words that make up a language, and the significance of vocabulary in reading comprehension cannot be overemphasized. Without a good knowledge of words and their meanings, both written and oral communication will be confusing or poorly understood. Teachers and parents can emphasize reading and verbal communication with children to help them build a strong working vocabulary. Students with poor reading comprehension skills either lack the vocabulary or word recognition abilities to understand the material.

Students with poor reading comprehension tend not to read frequently, which leads them to skip learning new words. Because most classes have written worksheets, articles, or textbooks, limited vocabulary can affect many of their grades.

Literature review

The National Reading Panel (NICHD)[2] identified vocabulary as one of five major components of reading. Its importance to overall school success and more specifically to reading comprehension is widely documented [3]. The National Reading Panel (NRP) stated that vocabulary plays an important role both in learning to read and in comprehending text: readers cannot understand text without knowing what most of the words mean. "Teaching vocabulary will not guarantee success in reading, just as learning to read words will not guarantee success in reading. However, lacking either adequate word identification skills or adequate vocabulary will ensure failure" [4].



Vocabulary is generically defined as the knowledge of words and word meanings. More specifically, we use vocabulary to refer to the kind of words that students must know to read increasingly demanding text with comprehension [5].

Method

This study demonstrates the vocabulary literacy strategies that are used by scholars most and least constantly when they learned new words. It also tried to find out if vocabulary literacy strategies varied across academy situations, gender, and capability groups as indicated by their English grades. thus, the data analysis used descriptive statistics to give answers to the research questions formulated over.

Participants

The participants of this study were students from four senior high schools in Fergana, Uzbekistan, using stratified random sampling technique which produced a total of 4 classes or groups, with 25 to 30 students in each group. The total number of students for the study was 110 with 60 % female and 40 male.

Research instrument

The decision to use an approach to investigate learning strategies depends on the prespecified research questions formulated of a study since learning strategies differed widely. Based on the questions formulated above, it was decided to use a written questionnaire to obtain the data. The framework for the questionnaire for this study was based on the taxonomy of Schmitt (1997)[6] where the items were grouped into four categories: cognitive, metacognitive, memory, and determination categories. The questionnaire items in Appendix A were selected and adapted from Takac (2008) with three Likert Scale options: never , sometimes , always [7]. It was translated into Russian in order to ensure that the items were well understood by the participants. The first part of the questionnaire aimed to obtain personal information of the participants regarding gender, school, and their English grade. Information about these variables were important for analysis to answer the research questions. The second part of the questionnaire aimed to elicit their responses with regard to their strategy in learning vocabulary.

Data collection

In this study, the data were collected by using a closed-ended questionnaire as described in the research instrument. The questionnaire was distributed to the school samples and with the help of the English teachers at the schools, the questionnaire was administered to the students during an English lesson. The completion of the questionnaire took approximately about ten to fifteen minutes. As described above, there were 4 classes selected for the study with a total of 110 students all together. In completing the questionnaire, the students were instructed to select never, sometimes or always. The data from the questionnaire were tabulated and calculated in percentages.

Data analysis


Using the Survey Heart research tool and WPS Office, frequency counts were obtained to see the overall patterns of vocabulary learning strategies (VLS) used by all participants in the study. Then, patterns of individual category of VLS were presented with its questionnaire items and their frequency counts. The next sections in the analysis present comparisons of VLS across gender (male vs. female), ability groups (high, mid, and low), and school grades (9th, 10th and 11th grades) with reference to each category. The purpose of the comparison was to see if there was any difference across variables above in any aspect of the VLS as indicated by differences of the frequency counts. Please note that the difference was not calculated for its statistical significance. The data for the comparison were calculated for the frequencies of choices made by the students with regard to the three scale options for the questionnaire items; never, sometimes, and always.

Findings and discussion

This study was designed to gain answers to the research questions formulated above through a questionnaire that inspired the participants recall of their vocabulary literacy strategies. The results of the study have been reported in the following order First, the overall results of vocabulary literacy strategy is discussed also, follows conversations of each strategy type; cognitive, metacognitive, memory, and determination strategy. Next, the comparisons of strategies by gender, capability position are presented. Eventually, the comparison of strategy types by academy position is reported. Figure 1 presents the general patterns of VLS by the participants(110

pupils) under cognitive, metacognitive, memory, and determination strategies. In terms of those strategy types, the most constantly used strategy was memory strategy(44%), also cognitive strategy(30%), and the least constantly used strategy was determination strategy(26%).

Vocabulary learning strategies questionnaire result:



Conclusion

Although this study involved a few schools in Fergana, some preliminary conclusions can be drawn which could be used as considerations when an analogous study is designed to gain further generalizable findings. In general, the results indicate that the students appear to rely more on memory strategy which is a more accessible way of learning new words through the use of direct translation from English to Russian and bilingual English-Russian dictionaries. This reliance on memory strategy is harmonious across gender where more proportions of students (male and female) used this strategy. The comparison across ability groups also indicates a similar pattern; memory strategy was always used by a larger proportion of students in the three

capability groups (low, mid, and high groups). The results of comparison across school levels show that the majority of the students across school levels used memory strategy. In accordance with the findings of Yang's (2008)[8] study, the students in this study also revealed that they made use of bilingual dictionaries which offer an easier way of memorizing word meanings through translation.

Based on the findings of this study, it would be interesting to see how the teachers in then school samples teach vocabulary and how they help students cope with learning, using, and memorizing new words. Classroom observations could be one technique to use to reveal vocabulary teaching strategies the teachers use in the classroom. The strategies that the students believed they used could be based on how they learned vocabulary in the class and/or their intuition as students. They may not know how to learn new vocabulary unless they are taught by their teachers.

Bibliography

1. <https://yuz.uz/uz/news/prezident-xorijiy-tillarni-orgatish-boyicha-kelajak-uchun-mustahkam-poydevor-boladigan-yangi-tizimni-yolga-qoyish-vaqti-soati-keldi>
2. A RESEARCH SYNTHESIS A Review of the Current Research on Vocabulary Instruction. This document was compiled, written, and edited by Shari Butler, Kelsi Urrutia, Anneta Buenger, Nina Gonzalez, Marla Hunt, and Corinne Eisenhart. Developed by the National Reading Technical Assistance Center, RMC Research Corporation The NRTAC expresses its appreciation to Elizabeth Goldman, C. Ralph Adler, and Robert Kozman of RMC Research Corporation for their editorial and production support. Original design by Lisa T. Noonis. 2010
3. <https://journals.sagepub.com/doi/abs/10.1177/001440290407000303?journalCode=ecxc>
4. https://patternbasedwriting.com/elementary_writing_success/evidence-based-vocabulary-instruction/
5. Teaching and Learning Vocabulary Bringing Research to Practice Edited By Elfrieda H. Hiebert, Michael L. Kamil New York 2005.
6. https://patternbasedwriting.com/elementary_writing_success/evidence-based-vocabulary-instruction/
7. <https://prezi.com/vorgipy6ltj8/vocabulary-journey/?fallback=1>

8. https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&url=https://www.researchgate.net/figure/Taxonomy-of-vocabulary-learning-strategies-Schmitt-1997_fig1_337333273&ved=2ahUKEwjWz9Stsaj7AhWD_CoKNHYOfBtEQFnoECBcQAQ&usg=AOvVaw3r3zGBIKgD2bhEXchjjuD-

ТАСВИРИЙ САНЪАТ УЎҚИТУВЧИСИ ФАОЛИЯТИНИНГ МУСТАКИЛЛИК ЙИЛЛАРИДАГИ РАВНАҚИ

Орипов Бобиржон Бадиржонович

Маълумки, мустақиллигимизгача Республикамиз мактабларида тасвирий санъат ўқитилишига ва ёшларни эстетик жихатдан тарбиялашга эътибор берилган бўлсада, тасвирий санъатни ўқитилиши талаблар даражасига кўтарила олмади. Чунки Ўзбекистонда тасвирий санъатни ўқитилиши бўйича дарслик, ўқув-мэтодик қўлланмалар йўқлиги, ўқув-дидактик ва кўرғазма материалларни мутлоқ ишлаб чиқарилмас эди. Яна бу фанни ўқитиш учун етук- мутахассис – тасвирий санъат ўқитувчисини эшитмаслиги очиқ – ойдин кўриниб турарди.

Хатто, айрим туманларда мутахассис – тасвирий санъат ўқитувчиси топилмас эди. Бу фанни бошқа фан ўқитувчилари ўқитиб келишарди. Ёки уни ўрнига бошқа фанлар ўқитиларди.

Шунинг учун мустақиллигимизнинг дастлабки кунлариданоқ мактабдаги бошқа фанлар қатори тасвирий санъатни ҳам ўқитилишига жиддий эътибор берилиб, уни тубдан ислох қилиш ва дунёнинг етакчи давлатлари мисолида такомиллаштириб ўқитишга киришилди.

Бу фанни талаби даражасида ўқитиш учун барча зарурий ўқув – дидактик материаллар тайёрлаш ва бошқа шарт –шароитларни тайёрлашга киришилди. Яна бу фан бўйича таълим – тарбия ва ўқитишга концепсияси стандарт ва янги ўқув дастурлари тузилди. Улар асосида Давлат таълим стандарти ва такомиллаштирилган, тўла махаллийлаштирилган, наъмунавий ўқув дас миллий дастурлари яратилди.



1997-йилдан Ўзбекистон Республикасида “Таълим тўғрисида” қонунни янги таҳрири яратилди ва “Кадрлар тайёрлаш дастури” ишлаб чиқилди. Бу меъёрий ҳужжатлар Ўзбекистонда мутлоқ янги таълим тизимини яратиб, узлуксиз таълим тизимига ҳам асос солди ва “Янги педагогик технология” мазмунида ўқитиш имкониятларини ҳам асослаб берди.

Натижада мактаб тасвирий санъатни ўқув фани бўйича янги дастурлар яратилиб, уларда ўқувчиларга берилаётган билим-малакаларни кўникмаларга айлантириш вазифаси қўйилади. Бундай талаб ва тақлифларни амалга оширувчи ва бажарувчи амалга оширувчи – тасвирий санъат ўқитувчиси бўлиб, уларни тайёрлаш ҳам ўта жиддий ва мураккаб вазифа бўлиб қолади.

Шу боисдан мамлакатимизда тасвирий санъат ўқитувчиси тайёрлашга алоҳила эътибор берилиб Республикадаги ўқитувчи – педагоглар тасвирий санъат ўқитувчини тайёрлайдиган барча Олий ўқув юртларида тасвирий санъат тайёрлайдиган “Бадий - графика” факультетлари ташкил этилди. Бу факультетда шайётган бўлажак тасвирий санъат ўқитувчилари “Санъат назарияси ва тарихи”, “Қаламтасвир”, “Рангтасвир”, “Композитсия”, “Ҳайкалтарошлик”, “Амалий санъат”, “Дизайн” каби тасвирий санъатнинг монументаль – академик ўқув фанлари билан бир қаторда тасвирий санъат ва фаолиятининг педагогик психологик асоаларини ва тасвирий санъатни ўқитишнинг педагогик технологияси, дидактикаси ва методикасини, ҳатто уларнинг инновацион йўл услубларидан ҳам академик билим ва кўникмалар оладилар.

Бир гап билан айтганда бу факультетни битириб чиққан мутахассис етук педагог рассом, санъатшунос тадқиқотчи, тасвирий санъатнинг ўргатиш сирларини билладиган устоз ўқитувчи, яна санъат ва маданият тарғиботчиси, барча турдаги таълим-тарбия муассасаларини эстетик ва этик фаолиятларини бошқарувчиси ва тасвирий фаолият ўқитувчиси бўлади.

Мактаб тасвирий санъат ўқитувчиси педагогик фаолиятини замон ва ДТС янги дастур талаблари даражасида бўлиши учун у мактаб остонасига қадам қўйиши билан мактабда замон талабидаги “тасвирий санъат” кабинетини ташкил этишга киришиши керак.



Бу кабинетга дастур материаллари асосида ўқув дидактик материаллар (эстали ишланмалар, муляжлар, қушларнинг тулумлари, рўзғор буюмлари) , зарурий дарсликлар, яна бошқа ўқув фанлари (ботаника, меҳнат, адабиёт, тарих, география, физика каби)нинг ўқув қўлланмалари фўйилади. Булар тасвирий санъатнинг кўплаб дарсларида қўлланилади. Яна кабинет тўла электрлаштирилиб, техника воситларидан фойдаланишга шарт-шароит яратади.

Ҳозир қурилаётган мактаб, литцей ва коллеж биноларида “тасвирий санъат” фани учун алоҳида 2 хонали, яна лабораторияси билан қурилиб, уни тўла-туқис жихозлаб берилмоқда.

Мактаб тасвирий санъат дарсларини такомиллаштириш асосида дарслар ва таълим самарадорлигини ошириб борган ҳолатда ўқувчиларга берилаётган билим – малакаларини кўникмаларга айлантириш борасида тасвирий санъат ўқитувчисининг меҳнат ижоди ва педагогик маҳорати алоҳида аҳамият касб этади.

Чунки, тасвирий санъат ўқитувчиси ўзининг илми тафаккури, диққат эътибори, ижодий фантазияси, истедоди, маҳорати, интизоми, бадиий диди ва эътиқоди, нутқ нотиклиги, яна шижоати-жасорати билан ҳар қандай етук шахсдан устун туради. Рассом педагог кўрган, билан, сезган, англаган ва идрок этган нарса ходисаларни бошқалар англамайди, курашмайди ҳам,

Шунинг учун мактабда бораётган тасвирий санъат ўқитувчиси ўз олдида қўйиладиган вазифаларга маъсулятли фаолиятида яхшигина тайёргарлик кўриб олиши ҳам жуда зарур.

Йўналишдаги керакли тушунчалар етарли даражада қўлланилмаганлиги бугунги кунда имконияти чекланган талабаларни ушбу спорт туридаги ҳаракат техникаларини ўзлаштиришга ўз таъсирини кўрсатиб келмоқда. Юқорида зикр этилган педагогик-психологик тушунчаларнинг амалиётда айниқса спорт турлари фаолиятида қўлланилиши асосан таълим фаолияти назарияси (Д.Б.Элжонин, В.В.Давидов) бўлиб, сўнгги пайтларда бир қатор таълим босқичлари дастурларини тузиш ва ўқитишда кенг қўлланилмоқда. Бир қатор тадқиқотчилар (М.М.Абызов, Э.А.Коротков, Г.Н.Кудин, М.Д.Кудрявтсев, К.В.Ливанов, Г.Г.Микулина, З.Н.Полуянов, В.В.Репкин) ишларида самарали таълим жараёнларининг турли муаммоларини ечишнинг назарий ва услубий шартлари кўриб чиқилган бўлиб, аммо оммавий спорт турлари, хусусан, ўтирган ҳолда ўйналадиган волейболда ҳаракатларга ўргатиш техникасини амалга оширишда бир қатор муаммолар пайдо бўлди. Ушбу фаолиятга талабаларни ўргатишда етарлича эътибор қаратилмаганлиги ва уларни амалиёт жиҳатларга жалб этиш масалалари, муаммолари бугунги кунда ўз ечимини топмаганлиги, имконияти чекланган шахслар ўртасида ушбу спорт турини оммалаштириш зарурати тадқиқотимизнинг долзарблиги ҳисобланади.

Тадқиқотни ташкил этиш. Тадқиқотнинг тажриба базаси Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия ва спорт университети "Адаптив жисмоний тарбия ва спорт" кафедраси кесимидаги талабаларда олиб борилди. Бунда ўтирган ҳолда ўйналадиган волейболга ўргатиш услубиятини амалга оширишда асосан ногиронлиги бор талабаларнинг бошланғич тайёргарлик гуруҳларида машғулотлар ташкил этилган бўлиб, ушбу тадқиқот 2019-2022 йиллар ушбу йиллар давомида танланган тадқиқот мавзуси бўйича мавжуд маълумотларни услубий асослаш ва назарий таҳлил қилиш ишлари белгиланган вазифалар ўз ўрнида босқичма-босқич амалга оширилди.

Бу вақтдаги асосий вазифа ўтириб ўйналадиган волейболни талабалар олий ўқув юртида назарий ва амалий жараёнларда ўқув фаолияти назариясидан фойдаланиш имкониятларини ўрганиш ва ушбу назария асосида ҳаракатларни ўргатишнинг янги мазмуни ва ҳаракатларни ривожлантиришга қаратилган методик усулларини ишлаб чиқиш масалалари амалга оширилди.

Педагогик тажриба давомида олинган маълумотларга математик статистик ҳисоблаб чиқилди. Бунда, ҳар бир ўрганилган тест натижалари тўплами учун ўртача арифметик қиймат, стандарт оғиш ва вариация коэффициентлари билан бир қаторда натижаларнинг тажриба давомидаги мутлоқ ва нисбий ўсишлари ҳамда ушбу ўзгаришларнинг белгиланган эркинлик даражаси сони ва аҳамиятлилик даражасидаги статистик ишончилиги Студент критик қийматларини ҳисоблаш асосида баҳоланди.

Тадқиқот гуруҳида машғулотлар ҳафтада 2 марта: сешанба ва шанба кунлари 80 дақиқадан ўтказилди. Ушбу машғулотларнинг моҳияти шундан иборатки, ҳафтада 2 кун машғулот вақтининг 50% жисмоний фаолликка ва 50% махсус машқларга ажратилган:

Имконияти чекланган талабаларни ўтирган ҳолда ҳаракат имкониятларини текшириш мақсадида назорат гуруҳига юқоридаги танланган махсус тестлар танланган бўлиб унда:

Девордан 3 метр узоқликдаги масофада ўтирган ҳолда волейбол тўпини тўғрига узатиш, бунда 10 марта уриниш берилади, шундан аниқликликдаги уринишлар сони ҳисобга олинади.

Махсус волейбол майдонида белгиланган қисмдан туриб, ўтирган ҳолда тўрга тўпни юқоридан йўналтириш, бунда 10 марта уриниш берилади, шундан аниқликликдаги уринишлар сони ҳисобга олинади.

Волейбол майдонида белгиланган қисмдан туриб, ўтирган ҳолда тўпни юқоридан қабул қилиш, бунда 10 марта уриниш берилади, шундан аниқликликдаги уринишлар сони ҳисобга олинади. Волейбол майдонида белгиланган қисмдан туриб, ўтирган ҳолда тўпни пастдан қабул қилиш, бунда 10 марта уриниш берилади, шундан аниқликликдаги уринишлар сони ҳисобга олинади. Ўнг қўлда теннис коптогини деворга отиб ушлаш, бунда 10 марта уриниш берилади, шундан аниқликликдаги уринишлар сони ҳисобга олинади. Чап қўлда теннис коптогини деворга отиб ушлаш, бунда 10 марта уриниш берилади, шундан аниқликликдаги уринишлар сони ҳисобга олинади. Тўпни девордаги махсус марказга йўналтириш: 30 сония ичида тўпни юқоридан қабул қилиш, бунда шу сония ичида неча мартаба юқоридан тўпни қабул қилиш сони

хисобга олинади. Тажрибанинг бошида кўрганимиздек, тақдим этилган жадвалларга (1-2 жадвалларга қаранг) кўра, тадқиқот гуруҳи ва назоратдаги саккизта тест учун ўртача натижалар тахминан тенг эди. Ҳаракат қобилиятларини ошириш методологияси жорий этилгандан сўнг, шуғулланган ТГ билан солиштирганда НГ натижалари сезиларли даражада ошди.

1-жадвал НГ имконияти чекланган талабаларни ўтирган ҳолда ўйналадиган волейболга ўргатишда ҳаракат техникаларини такомиллаштириш бўйича II босқич охиридаги натижаларини статистик таҳлили (n=12)

Тестлар	Тажриба боши			1-босқич охири			Фарқи		t	p
	X	Сигма	V	X	Сигма	V	Абсолют	Нисбий, %		
1	3,58	0,98	27,35	3,76	1,02	27,13	0,18	4,93	0,43	>0,5
2	3,83	0,97	25,30	3,64	0,91	25,00	0,19	5,04	0,50	>0,5
3	3,88	1,11	28,61	4,22	1,19	28,20	0,34	8,76	0,72	>0,4
4	3,02	0,89	29,47	3,25	0,95	29,23	0,23	7,62	0,61	>0,4
5	15,92	4,24	26,64	17,28	4,54	26,27	1,36	8,57	0,76	>0,4
6	16,08	4,72	29,35	17,16	4,96	28,90	1,08	6,69	0,54	>0,5
7	2,67	0,74	27,75	2,89	0,79	27,34	0,22	8,38	0,71	>0,4
8	3,50	1,01	28,86	3,76	1,07	28,46	0,26	7,43	0,61	>0,5

2-жадвал ТГ имконияти чекланган талабаларни ўтирган ҳолда ўйналадиган волейболга ўргатишда ҳаракат техникаларини такомиллаштириш бўйича I босқич охиридаги натижаларини статистик таҳлили (n=12)

Тестлар	Тажриба боши			1-босқич охири			Ўсиши		t	p
	X	Сигма	V	X	Сигма	V	Абсолют	Нисбий, %		
1	3,43	0,95	27,70	3,88	1,06	27,32	0,45	13,12	1,10	>0,2
2	3,98	1,15	28,89	4,77	1,36	28,51	0,79	19,85	1,54	>0,1
3	3,68	0,97	26,36	4,44	1,16	26,13	0,76	20,65	1,74	>0,05
4	2,88	0,81	28,13	3,43	0,95	27,70	0,55	19,10	1,53	>0,1
5	15,78	4,33	27,44	19,26	5,22	27,10	3,48	22,05	1,78	>0,05
6	15,92	4,22	26,51	18,73	4,69	25,04	2,81	17,65	1,54	>0,1
7	2,79	0,82	29,39	3,34	0,96	28,74	0,55	19,71	1,51	>0,1
8	3,36	0,96	28,57	3,81	1,06	27,82	0,45	13,39	1,09	>0,2

Имконияти чекланган талабаларни ўтирган ҳолда ўйналадиган волейболга ўргатишда ҳаракат техникаларини такомиллаштириш бўйича назорат ва тадқиқот гуруҳ иштирокчиларини кўрсаткичларини қиёсий таҳлилида қуйидагича ўзгаришлар кузатилди. Тадқиқот гуруҳда 3 метр оралик масофадан волейбол тўпини тўғрига узатишлар сони бўйича назорат гуруҳига

нисбатан нисбий ўсиш яхшиланди ўсиш кўрсаткичини ишончлилиқ даражаси (>0,2) юқори эканлиги аниқланди. Шунинг билан бирга, ТГ да ва ўрганилган тестлар бўйича нисбий ўсишларнинг ўртачаси 18.9% ни ташкил қилди.

Хулоса. Илмий услубий адабиётлар таҳлили ва имконияти чекланган талабаларни ўтирган ҳолда ўйналадиган волейболга ўргатишда ҳаракат техникаларини такомиллаштириш жараёнида ўтказилган педагогик кузатишлар натижасида мазкур спорт тури билан шуғулланувчиларнинг ёш хусусиятини инобатга олган ҳолда уларнинг жисмоний, функционал техник-тактик ва психологик тайёргарлигида оптимал восита ва усулларни ишлаб чиқиш зарурати мавжудлигидан далолат беради. Юқорида ўтказилган тажрибалардан олинган натижаларга таянган ҳолда улардаги ҳаракат техникаларини такомиллашганлигини кўришимиз мумкин. Тажриба давомида қўлланилган тест машқлари ва пульсометрик қиймати аниқланган тезкорлик машқларини адаптив спорт ўйинларини (волейбол) ўқитиш методикаси машғулотларига жорий этиш амалий аҳамиятга лойиқдир.

Адабиётлар:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 18-maydagi "Paralimpiya harakatini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5114-son Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora –tadbirlari tog'risida"gi qarori
3. Po'latov A.A.Voleybol nazariyasi va uslubiyati Darslik Ch-2020.
4. Собирова Л.Б. Эффективность использования специальных упражнений для предупреждения сколиоза учеников начальных классов *Замонавий таълим (илмий - назарий журнал) № 10, Чирчиқ, 2019 69-74-б*
5. Жиленкова В. П. Адаптивный спорт для лиц с поражением опорно-двигательного аппарата / В.П. Жиленкова - СПб.: Просвещение, 2002.
6. Роль психологической подготовки паралимпийцев пауэрлифтеров высокой квалификации. *Фан – Спортга (илмий – назарий журнал) № 3, Чирчиқ, 2020.*
7. Светличная Н.К. Интегральный подход в оценке функционального состояния занимающихся адаптивной и оздоровительной физической культурой //

Материалы XXVI Международного научного Конгресса «Олимпийский спорт и спорт для всех». – Казань, 2021. – С.412-414..Л.М. Иванова, Г.С.

8. Ковтун Волейбол сидя и баскетбол на колясках как средства реабилитации инвалидов с нарушениями опорно-двигательного аппарата Учебно-методическое пособие 2015.

CHUST MADANIYATI VA UNING TARQALISH HUDUDLARI

Maxsutaliyev Jahongir

Namangan davlat universiteti talabasi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada "Chust madaniyati" ya'ni Farg'ona vodiysidagi ko'hna dehqonchilik madaniyati mil. av. 2ming yillik oxirgi choragi — 1ming yillik boshlarini o'z ichiga olgan Farg'ona vodiysining shimoliy-sharqiy tumanlarida joylashgan bir qator arxeologik yodgorliklar va ularning vodiylar tarixining o'rganilishida tutgan o'rni to'g'risida so'z yuritilgan.*

***Kalit so'z:** madaniyat, sivilizatsiya, yodgorlik, Dalvarzin, Matboboyev, shahriston, mudofaa devoirs.*

Chust madaniyati - Farg'ona vodiysidagi ko'hna dehqonchilik madaniyati (mil. av. 2ming yillik oxirgi choragi — 1ming yillik boshlari). Dehqonlar suv bo'yidagi unumdor yerlarni o'zlashtirilishiga qarab alohida voha yoki guruh tarzida joylashganlar. Chust madaniyati yodgorliklari, asosan, Farg'ona vodiysining shimoliy-sharqiy tumanlarida uchraydi, ularning soni hozirgi 80 dan ortiq. Bu madaniyatga taaluqli yodgorlik 1950-yil toshkentlik arxeologlar M.E.Voronets va V.I.Sprishevskiyar tomonidan hozirgi Chust shahri yaqinidan topilgan. Madaniyat nomi shundan (mahalliy aholi Buvonamozor deb ataydi). 1953-1961 yillarda V. I. Sprishevskiy Chust madaniyatida muntazam arxeologik tekshirish ishlari olib borgan. Chust madaniyatini keyingi o'rganilishida SanktPeterburglik olim Yu.A.Zadneprovskiyning xizmatlari katta bo'lgan. Chust madaniyatining ayrim yodgorliklarida (Dalvarzin, Chuyet) mudofaa inshootlari o'rganilgan[1]. Andijon viloyati, Jalaquduq tumanidagi Dalvarzin vodiysidagi ilk shahar va o'ziga xos markaz bo'lgani (miloddan avvalgi 12— 7-asrlar) arxeologik jihatdan isbot etilgan.

Hozirgi kunda Chust madaniyatida 3 xil turdagi yashash joylari kavlangan: 1) chaylaga o'xshash yengil uylar; 2) yerto'lalar; 3) g'isht-paxsadan qilingan uylar. Chust madaniyati

sohiblari, asosan, ilk sug'orma dehqonchilik (arpa, bug'doy, tariq), chorvachilik, metall (jez)ga ishlov berish, kulolchilik, to'qimachilik bilan shug'ullanganlar; ovchilik, baliq ovlash ham xo'jalikda muhim rol o'ynagan. Bunga arxeologik yodgorliklarni qazish paytida topilgan jez pichoqlar, bigizlar, metallga ishlov berishda ishlatilgan tosh qoliqlar, to'qimachilikda qo'llanilgan suyakdan yasalgan taroqsimon asboblar hamda minglab sopol idishlar guvovlik bermoqda. Uyro'zg'or buyumlari ichida, ayniqsa, naqshindor sopol idishlar ajralib turadi. Naqshlar, asosan, geometrik shaklda qora, jigarrang bo'yoq bilan idish sirtiga berilgan. Ayrim hollarda hayvon tasvirlari (echki) ham uchraydi.

Chust madaniyati aholisi marhumlarni o'zlari yashab turgan joyga (uy ichiga va ostonalarga) dafn etishgan. Alohida ajratilgan qabristonlar bo'lmagan. Marhumlarni yakka va ko'pchilik qilib g'ujanak holda yon tomon bilan ko'mganlar. Faqat Dalvarzintepada odam suyagi va kallasi alohida, ikkilamchi bor ko'milgani qayd etilgan. Bulardan tashqari, uy hayvonlari ham ba'zida odam suyaklari bilan birga ko'milgan[2]. Hozirda Chust madaniyatining o'ziga xos mahalliy xususiyatlari va qo'shni hududlar Toshkent vohasidagi Burg'uluq (Burganli) madaniyati, Janubiy O'zbekistonning Kuchuktepa madaniyati bilan aloqalari (B.X.Matboboyev) o'rganilmoqda.

Chust madaniyati qadimgi Farg'onadagi ilk dehqonchilik madaniyati yodgorligi hisoblanadi. Bu madaniyatni yaratgan aholi dastlab chorvachilik bilan shug'ullangan, keyinchalik esa o'troq hayot tarziga o'tgan.

Chust madaniyati so'nggi bronza va ilk temir davriga oid bo'lib, u mil.avv. II ming yillikning oxiri va I ming yillikning birinchi choragida shakllangan.

Olimlar olib borilgan tadqiqotlar natijasida uning rivojlanish davrini 2 davrga bo'lib ko'rsatadilar.

1. So'nggi bronza davri bo'lib, mil.avv. II ming yillikning oxiri va I ming yillikning birinchi choragidan to mil.avv. VIII davom qilgan.

2. Ilk temir davri bo'lib, mil.avv. VIII – VII asrlarni o'z ichiga oladi[3].

Bugungi kungacha Farg'ona vodiysidan Chust madaniyatga oid 80 dan ortiq yodgorlik topilgan. Shuningdek, uning izlari Namangan, Andijon, Samarqand va Qashqadaryo hududlaridan ham topilgan. Hozirgacha ularning 10dan ortiq yodgorliklarida arxeologik qazishmalar o'tkazilgan.

Chust madaniyatining ikkinchi davrida ilk shaharlar vujudga kela boshlagan. Shaharlar ikki qismdan iborat bo'lib, ark va shaxriston ham mudofaa devori bilan o'ralgan. Mudofaa

devori qoldiqlari Chust qishlog'ida va Ashkaltepadan topilgan. Chustda xom g'ishtdan ishlangan devorning qalinligi 3 metr, uning balandligi 3,5 metrga teng.

Chust madaniyati mil.avv. II ming yillikning oxiri va I ming yillikning birinchi choragida Farg'ona vodiysida qadimgi dehqonchilik madaniyati tarkib topganligini ko'rsatadi. Bu madaniyat aholisi O'rta Osiyoning tub erli axolisi bo'lib, ular jismoniy tuzilishi va antropologik tip jihatdan Yevropa tipiga mansub bo'lgan. Chust madaniyatidan so'ng qadimgi Farg'onada ularning vorislari sifatida Elatan madaniyati shakllandi. Elatan madaniyati ilk temir davriga oid bo'lib, u mil.avv. VII–V asrlarga oiddir. Elatan madaniyatiga doir yodgorliklar Farg'ona vodiysining deyarli barcha hududlaridan topilgan. Ulardan Elatan manzilgohida keng ko'lamli qazish ishlari olib borilgan. Bu manzilgoh uchburchak shaklda bo'lib, mudofaa devori bilan o'ralgan (eni 4m). Mudofaa devorlarining bir necha joyida va darvoza burchagida burjlar aniqlangan. Qurilishda paxsa, xom g'isht va guvaladan foydalanganlar. Chust madaniyatida metall hunarmandchilikgi yaxshi rivojlangan. Tosh va suyakdan yasalgan mehnat qurollari topilgan. Masalan, Dalvarzintepadan 1500 ga yaqin tosh qurollari topilgan. Kulolchilik idishlarini qo'lda yasaganlar.

Chust madaniyatiga oid sopol parchalari Afrosiyobning quyi qatlamidan, Yerqo'rg'onning pastki qatlamidan, Shahrisabz hududida joylashgan ilk o'rta asrlar davriga oid bo'lgan To'rtkultepa yodgorligining quyi qatlamidan va qadimgi Baqtriya hududidagi Kuchuktepa, Bo'yrachi, Qizilcha, Maydatepa kabi yodgorliklardan topilgan.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Сприщевский В.И. Городище Чуст (об истории Ферганы в эпоху бронзы). Автоматический исх. дис... канд. ист. наук. Ташкент, 1963 год.
2. Спринский В.И. Оборонительные сооружения эпохи бронзы на территории Санкт-Петербурга. Узбекистан. //СА, М., 1972, № 3. С. 65-72, 228. Рис. 1, 3.
3. Керамические, бронзовые и каменные изделия Сприщевского В.И. Чустского городища // Знакомство с памятниками истории и культуры. Ташкент, 1973. С.104-105,
4. Заднепровский Ю.А. Чустская культура Ферганы и земель раннего железного века Средней Азии. Автореферат дисс... док. ист. наук. М. 1978, 52
5. Заднепровский Ю.А., Мамбабаев Б.Х. Основные результаты изучения Чустского поселения в Фергане (1950-1982 гг.). // ИМКУ. № 19. Ташкент, 1984. С. 46-71.



UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARINING YOSHGA XOS XUSUSIYATLARIGA TAVSIFI

Suvonaliyev Jo'rabek Xakimbek o'g'li

Namangan davlat universiteti magistranti

Tel: +998945030508

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarining yoshga xos xususiyatlariga tavsif berilgan bo'lib, o'quvchilarning funksional tizimlarining ishlash hususiyatlari bayon etilgan.*

***Kalit so'zlar:** jismoniy rivojlanish, jismoniy tarbiya, funksional tizimlar*

ХАРАКТЕРИСТИКА ВОЗРАСТНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Суваналиев Жорабека Хакимбека угли

Магистрант Наманганский государственный университет

Tel: +998945030508

***Аннотация.** В данной статье описаны возрастные особенности учащихся общеобразовательной школы, описаны особенности функциональных систем учащихся.*

***Ключевые слова:** физическое развитие, физическая подготовка, функциональные системы.*



DESCRIPTION OF THE AGE-SPECIFIC CHARACTERISTICS OF GENERAL SECONDARY SCHOOL STUDENTS

Suvanaliyev Jorabek Khakimbek ugli

Graduate student of Namangan State University

Tel: +998945030508

Annotation. *This article describes the age-specific characteristics of general secondary school students, and describes the characteristics of the students' functional systems.*

Key words: *physical development, physical training, functional systems*

Yoshni davrlash ma'lum darajada shartli va uning o'sish fazalari orasidagi taxminiy chegaralarni o'rnatish imkonini beradi, chunki har bir yosh davrida jismoniy tarbiya o'zining farqli tomonlariga ega.

Organizmning yoshga xos xususiyatlari ko'p jihatdan jismoniy tarbiya mazmuni va usuliyatini belgilab beradi, bu yerda yoshni hisobga olgan holda vositalar tanlanadi, yo'l qo'yiladigan yuklamalar va talab me'yorlari aniqlanadi [5].

Mashg'ulotlarda yuqori ko'rsatkichlarga erishish uchun o'qituvchi maktab o'quvchilari rivojlanishining yosh xususiyatlarini bilishi juda muhimdir.

Avvalo shuni ta'kidlab o'tish kerakki, bolaning rivojlanishi atrof-muhitga, hayotning qanday tashkil etilishiga, tarbiyasiga shu jumladan jismoniy tarbiyasiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Tez bo'yiga o'sish kichik yoshdagi maktab bolalari uchun xosdir. Bolalarning jismoniy tarbiyasining asosi bo'lib, sog'liqni mustahkamlash va to'g'ri jismoniy rivojlantirish hisoblanadi.

Yoshga qarab davrlarga bo'lish hozirgi paytlarda ko'p tarqalgan, uning ichida yangi tug'ilgan, bog'cha, maktabgacha va maktab yoshidagi davrlari, o'z navbatida kichik, o'rta va katta maktab yoshiga bo'linadi [7].

Fiziologiyada mavjud bo'lgan bolalar va o'smirlar yosh davrlariga bo'lish tizimi, rivojlanishning alohida davr bo'limlari maktab yoshidagi bolalar uchun asos

bo'lib hisoblanadi. Pedagogikada maktab yoshi kichik 7-10 yoshga, o'smirlik 11-14 yoshga va o'spirinlik 15-17 yoshlarga bo'lish qabul qilingan [4].

Bolalar organizmining eng muhim xususiyati — buyning tez usishi va tananing hamma organlarida sifat o'zgarishlari bo'lishidir. ayniqsa, oyoqlar tez usadi. Bu tana mutanosibligini o'zgartiradi. Tana og'irligi yiliga o'rtacha ikki kilogramm ko'payadi.

Muskullar va umurtqa paychalari bolalarda kam rivojlangan, umurtqalar orasidagi tog'ay qatlamlari kattalarnikiga qaraganda qalin bo'ladi.

Etti yoshga borib umurtqaning hamma pog'onalari bo'ladi, lekin ular keyinroq (14-15 yoshlarda) qotadi. Umurtqa egiluvchanligi bilan farqlanadi, noqulay sharoitda esa uning shakli o'zgarishi xavfi tug'iladi. Bu yoshda umurtqaning turli xil noto'g'ri usishlari kuzatiladi (skoliozlar, lordozlar, kifozlar).

Bolalarning muskul tuqimalari suvga boy, oqsil moddalari esa unda nisbatan kam bo'ladi. 7-8 yoshda muskul tuqimasi umumiy tana og'irligining faqat 27% ini tashkil etadi, 18 yoshlarda esa - 40% ga yetadi. Muskullar,

ayniqsa, yelka bilan qorin muskullari zaif rivojlangan bo'ladi. Yirik muskullar mayda muskullarga nisbatan yaxshi rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar uchun muskul massasining usishi va qulay sharoitda muskul kuchining rivojlanishi xarakterlidir. Bu davrda bolalar muskulining ish qobiliyati past bo'ladi [2].

Mushak tuzlimasining o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqqan holda uzoq muddatli turg'un holatlarga, bir xil harakatlarga, bir tomonlama yuklamalarga yul qo'ymaslik zarur. Proportsional rivojlanishni, og'irlik mushak guruhlariga to'g'ri taqsimlanishini ta'minlash lozim. Keng ko'lamdagi mashqlar bilan birga kichik mushaklarni rivojlantirishga yordam beruvchi aniq mashqlar ham zarur.

Yuraktomir sistemasining o'ziga xos xususiyatlari tortilish, orirlik kutarish, qarshilikni yengish bilan bog'liq bo'lgan mashqlarni chegaralashni talab qiladi. Bolalarga qiyin, asab mushakni taranglashtiruvchi, yurakni tez urdiruvchi mashqlarni bajartirmaslik kerak.

Modda almashinishi bolalarda kattalarga qaraganda tezroq kechadi. Bolalarning ko'krak qafasi doira shaklida, qovurg'alar esa bir oz bo'g'ik bo'ladi, bu chuqur nafas olishga qulay sharoit yaratadi. Nafas olish tez (minutiga 22 marta),

yuzaki bo'ladi. Nafas yo'llari kattalarnikiga qaraganda nisbatan qisqaroq. Shuning uchun bolalarni chuqur, bir tekisda burun orqali nafas olishga o'rgatish kerak. Mashqlarni bajarish nafas olishga muvofiq ravishda amalga oshiriladi.

Bolalarning yosh xususiyatlari organizmning normal hayot faoliyati uchun juda muhim faktor bo'lgan qomatni to'g'ri shakllantirishga katta e'tibor berishni talab qiladi.

Maktab ta'limiga qadar bolalarda nutq rivojlangan bo'ladi. SHundan so'ng konkret predmet buyicha fikrlashdan asta sekin chalkash tushunchalarni idrok qilishga o'tiladi. Birinchi sinf o'quvchilari chidamsiz va betoqat, diqqati beqaror bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan uxshatishga (imitatsiyaga) moyillik bilan bir qatorda fikrlash, eslab qolish qobiliyati paydo bo'ladi, ixtiyoriy diqqat rivojlanadi. Instinktiv hayajonli harakatlar uz o'rnini asta sekin ongli xatti-harakatga bushatib beradi.

Barcha ichki organlarning normal ishlashi va skelet xamda skelet muskulaturasining rivojlanishi uchun muxim ahamiyatga ega bo'lgan qomatni to'g'ri shakllantirish ustida doimo ishlash kerak. Qaddi-qomat, muskul sistemasi, nafas olish va qon aylanish organlarini esda tutib, organizmga, ayrim alohida muskul guruhlariga, umurtqaga, oyoq va qo'lga haddan ziyod og'irlik tushishiga pul qo'ymaslik lozim. Uzoq muddat kechadigan, yetarli dam olishsiz bajariladigan jismoniy harakatlar yomon oqibatlariga va avvalo, yurak muskulining shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Zo'riqishni, kuch, chidamlilik namoyon etishni talab qiluvchi mashqlarni cheklash zarur. Bunday mashqlar buy va gavdaning shakllanishiga, shuningdek, yurak-tomir sistemasining shakllanishiga salbiy ta'sir etishi mumkin [6].

Bolalarni tarbiyalashda harakat juda zarur. Bolalar harakat orqali hayotni, atrof-muhitni anglaydilar, mehnat malaka va ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Bu harakatlar normal o'sish va rivojlanish uchun yetarli bo'lishi, nagruzka bola organizmi imkoniyatlaridan ortiqcha bo'lmasligi kerak. Bolaning yoshiga xos tabiiy harakat ehtiyojini, katta harakat aktivligini rag'batlantirish va to'g'ri yo'lga solish, harakat rejimini yaratishi lozim.

Umumiy o'rta ta'lim maktablardagi o'quvchilar bilan jismoniy tarbiya darslarini olib borishdagi asosiy yo'nalish hayotiy zarur jarayonlar: yurish,

yugurish, sakrash, uloqtirish, qomatni to'g'ri saqlay olish, tezkorlik, chaqqonlik, mushak tezliklarini tahlil qilish qobiliyatlarini tarbiyalashga qaratib ularni shakllantiradi.

Maktab yoshidagi bolalar bilan jismoniy mashg'ulotlar tizimini to'g'ri olib borish bola organizmining o'sishi va rivojlanishini kuchaytiradi, fiziologik jarayonlarni jonlantiradi [1].

O'quvchilarning jismoniy tarbiya darslari jarayonidagi jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlik darajasi o'ziga xos bo'lib, farqli ravishda individual o'zgarishlarga ega.

Bir xil yoshdagi va bir xil jismoniy rivojlanishga ega bo'lgan bolalarda jismoniy sifatlarning rivojlanishi har xil ekanligi ta'kidlangan. SHu sababli, jismoniy rivojlanishi har xil bo'lgan o'g'il va qizlarda jismoniy sifatlarni tarbiyalash uchun individual dasturlar tuzish, mashqlar majmuasini ishlab chiqish, dars jarayonida har bir guruh uchun samarali yondashgan holda o'rgatishni tashkil qilish jismoniy tarbiya jarayonida dolzarb masalalardan biridir [3].

Bolaning o'sish va rivojlanishi barcha organizmlar, jumladan odam organizmi uchun ham xos xususiyatdir. I.M.Sechenov "Organizm tushunchasiga tashqi muhit tushunchasi ham kiradi" degan edi. CHunki organizm tashqi muhitsuiz yashay olmaydi.

Jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlariga bo'yniing o'sishi, vazn, bosh aylanasi, ko'krak qafasi aylanasi kiradi. 4,5,6 yoshlarda bola vazniga har yili 1,5-2 kg qo'shib boradi. 7 yoshdan boshlab uning vazni tez ortib boradi.

Kichik maktab yoshi [6 yoshdan 11 yoshgacha yoki 7 yoshdan 12 yoshgacha]. Bu davrda skeletning suyaklanishi davom etadi. Tana propoportsiyasi o'zgaradi. Jigar, buyraklar, o'pka, yurak va boshqa organlarning tuzilishi va funktsiyasi murakkablashib boradi.

6-yoshli bolalarda harakat ko'nikmasi va malakalari tez shakllana boshlaydi. Ularda bo'y mushak-kuchi o'sadi, harakat koordinatsiyasi yaxshilanadi, harakat amplitudasi, tezligi, yo'nalishi, maromi, sur'ati, baholash malakasi takomillashadi, harakatni tahlil qilish, undagi ayrim fazilatlarini ajrata olish qobiliyati rivojlanadi.

Bola harakat natijalari uning bajarilish sifatlariga bog'liqligini tushuna boshlaydi, so'ng yaxshi natijalarga erishish maqsadida, harakatlarni chidam, bardosh bilan bajarishga kirishadi. Bularning hammasi asosiy harakatlarni gimnastik va jismoniy mashqlarni bajarish texnikasini o'rgatishga imkon yaratadi [5].

6-7 yoshdagi va 9-10 yoshdagi bolalarda o'pka massasi oshadi, alveolalar soni kattalarnikiga yaqinlashadi, o'pkaning tuzilmaviy o'zgarishi uning tiriklik sig'iminin oshishiga olib keladi.

Shuningdek o'pkaning tiriklik sig'imi 1,40-1,60 litrdan 2,20-2,50 litrgacha oshadi. Tashqi nafas olishning oshishi bilan birgalikda yurak qon-tomir tizimining tinch holatda ham va jismoniy ish vaqtida ham kislorodga talabi ko'rsatkichlarining o'sishi kuzatiladi. Bu o'zgarishlar orqali mushaklarning kislorod bilan ta'minlash xususiyatlari ortadi, energiya almashinish jarayoni takomillashadi. Tayanch-harakat apparati, markaziy va periferik nerv tizimida hamda ichki organlarda morfologik va biokimyoviy o'zgarishlar jismoniy sifatlar rivojlanishining tuzilmaviy xususiyatlari bilan bog'liqdir.

O'quvchining harakat tartibini tuzish, bolalarning sog'lig'ini saqlash hamda mustahkamlash va har tomonlama jismoniy rivojlantirishda faol harakat tartibi asosiy omillardan hisoblanadi. Harakat, ya'ni jismoniy mashqlar, avvalo organizmning barcha sistemalari: asab, yurak-qon tomir, nafas. skelet, muskul va mushak sistemalarining rivojlanishi uchun juda zarur.

Kichik yoshdagi o'quvchilar biologik jihatdan ikkinchi “yaxlitlanish” davrini boshdan kechiradilar. Ularda avvalgi yoshlarga nisbatan bo'y o'sish bir oz sekinlashadi va og'irligi sezilarli ravishda ortadi. Skeleti asta-sekin suyaklanib boradi.

Muskul sistemasi jadal rivojlanib boradi. Qo'lning mayda muskullari rivojlanishi bilan mayda harakatlarni bajarish qobiliyati paydo bo'ladi. Innervatsion apparat yuqori rivojlanish darajasiga erishadi, bular tufayli bola tez yozish malakalarini muvaffaqiyat bilan egallab oladi. Oyoqlarning muskul kuchi ancha ortadi. Bu yoshda yelkaning chuqur muskullari hali kuchsiz, ularning paylari yetarlicha rivojlanmagan bo'ladi.



Bola organizmining barcha to'qimalari o'sish holatida bo'ladi. Ularda gemoglobulin, yog', oqsil, anorganik tuzlar protsenti katta yoshdagi kishilar to'qimalariga qaraganda kam.

Kichik yoshdagi o'quvchilarning harakatchanligi yurak-tomir sistemasi tomonidan qulay sharoit yaratilishi bilan ta'minlanadi; yurakning o'lchami nisbatan katta bo'ladi, yurak teshiklari va qon tomirlari esa katta kenglikka ega bo'ladi. Bu yosh davrining oxiriga kelib qon bosimi katta yoshli kishilarning normasiga yaqinlashib ortadi.

Kichik maktab yoshida nerv sistemasi ham takomillashadi: bosh miya po'stlog'ining analitik va sintetik funksiyalari mukammallashadi, miyaning og'irligi sezilarli ravishda ortadi (1200dan 1400 gacha) va katta yoshli kishi miya og'irligining 90%ga erishadi, qo'zg'alish va tormozlanish o'rtasidagi tabaqalashtirish jarayoni kuchayadi.

Kichik yoshdagi o'quvchilarda tomir-muskul sezgilari 50%ga, ko'rish sezgilari 80%ga, rangni sezuvchanlik 45%ga yaxshilanadi. Bu davr sezgi organlarining barcha jismoniy va aqliy kuchlarni rivojlantirish uchun juda qulay davrdir.

O'quvchilarni qomatini to'g'ri tutishga o'rgatish lozim. Qomatni to'g'ri tutish, bunda gavda va bosh to'g'ri tutiladi; ko'krak qafasi bir oz kerilgan, baravar turgan yelkalar sal orqaga tashlangan, umurtqa normal va tabiiy ravishda egilgan, oyoqlarning tos-son va tizza bo'g'inlari to'la rostlangan bir xil balandlikda turgan kuraklar ko'krakka yaqinlashgan bo'lishi lozim.

Qomatni to'g'ri shakllantirish maktabning 7-10 yoshlilardagi jismoniy tarbiyaning vazifalaridan biri hisoblanadi, shu bois jismoniy tarbiya dasturiga qomatni shakllantirishga oid maxsus mashqlar kiritiladi.

Harakat malakalarini egallashga yo'naltirilgan darslardan o'quvchilar muvaffaqiyatga erishish uchun bolalarning yosh xususiyatlarini har tomonlama hisobga olish kerak.

Yurak bo'shlig'i hajmi 13-15 yoshda 250 sm³ ni, kattalarda esa 250-300 sm³ ni tashkil etdi. Agarda yetti yilda (7 dan 14 yoshgacha) uning hajmi 30-35% ga oshsa, to'rt yil davomida (14dan 18 yoshgacha) 60-70%ga kattalashadi. Yurak bo'shlig'i hajmining oshishi tomir yo'llarining namoyon bo'lishidan oldinroq sodir bo'ladi.



Yurak ko'pincha tananing umumiy o'lchamlarining oshib borishi darajasidan ortda qoladi.

To'qimalarning kislorod bilan ta'minlanishida qonning aylanish tezligi asosiy omillardan biri hisoblanadi. 14-16 yoshda qonning aylanish vaqti 18 sekundni, kattalarda 17-19 sek. ni tashkil etadi (108).

Yurak-qon-tomir tizimini mustahkamlash uchun har tomonlama jismoniy tayyorgarlik, jismoniy yuklamalarni qat'iy me'yorlash va asta-sekin oshirish muhim ahamiyatga ega.

Yosh o'zgarishi bilan respirator nafas olish tizimida ham o'zgarishlar sodir bo'ladi, bu yerda tana o'sishi bilan kislorodga bo'lgan talab oshadi va nafas olish organlari yanada zo'riqish bilan ishlaydi. 14 yoshli o'smirlarda nafas olishning 1 minutli hajmi 1 kg vaznga 110-130 ml.ni tashkil etadi (kattalarda faqat 80-100 ml. bo'ladi), chunki nafas olish apparatining funktsional imkoniyatlari hali yetarli takomillashmagan.

O'pkaning tiriklik sig'imi va maksimal o'pka ventilyatsiyasi kattalarga qaraganda kamroq. Ventilyatsiya hajmi 14-16 yoshda minutiga 45 l., 17-18 yoshda 61 l.ni tashkil etadi [7].

Nafas olish apparatini rivojlantirishda jismoniy tarbiyaning ahamiyati beqiyos. O'qituvchi o'quvchisi ko'krak qafasining to'g'ri shakllanishiga va uning harakatchanligining (ekskursiyasining) oshishiga, nafas olish mushaklarining mustahkamlanishiga e'tiborni kuchaytirishi lozim.

O'quvchilarni to'g'ri nafas olishga o'rgatish, ko'krak va diafragmali (qorin bilan) nafas olishi malakasini egallashda ularga yordam berish zarur. Bunda shuni hisobga olish kerakki, nafas olish tizimining rivojlanishi organizmning boshqa tizimlari rivojlanishi bilan birgalikda sodir bo'ladi, turli xil yosh davrlarida jismoniy sifatlarni rivojlantirishga turlicha talablar qo'yiladi.

Bir xil yoshdagi o'quvchilarning fiziologik imkoniyatlari sezilarli darajada farqlanishi mumkin. Shuning uchun jismoniy tarbiya jarayonida o'quvchilarni jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligiga katta ahamiyat qaratiladi hamda ularni ilmiy asoslangan holda individual yondashuv zarur.



Foydalanilgan adabiyotlar

8. Абдуллаев А. ва бошқ. Жисмоний маданият назарияси ва методикаси. Дарслик. Тошкент., Наврўз нашриёти, 2017 йил - 307 б.
9. Бальсевич В.К., Пьянзин А.И. Организация позитивного контроля за двигательными функциями организма спортсмена. //Теория и практика физической культуры. М. 2004. № 6 – с 32-35.
10. Бондаревский Е.Я., Мамаджанов Н.М. Исследование зависимости результатов физической подготовленности от морфофункциональных особенностей детей школьного возраста // Теория и практика физической культуры / - 1989, - № 10, с.36-38.
11. Вайнбаум Я.С. Дозирование физических нагрузок школьников. – М. Просвещение., - 1991. – 64 с.
12. Курбанов Ш., Сейтхалилов Э.А. Управление качеством образования. Ташкент «Шарк». 2004 - 596 с.
13. Петровский В.В., Крुцевич Т.Ю. Проблемы дифференцированного физического воспитания в средней школе. //Теория и практика физической культуры, № 5. – 1990 г., - с. 47-49.
14. Сейтхалилов Э.А. Педагогические основы оздоровительной направленности учебно-воспитательного процесса в общеобразовательных школах Узбекистана. Дисс.науч.док. док.пед.наук. Ташкент, 2000 – 60 с.

MUNDARIJA

TA'LIMNING DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

1. **Психолингвистик билим ўқувчи шахсини ривожлантирувчи омил сифатида** 3
Юсупова Ш. Ж.
2. **Ўзбек таржимашунослиги: анъаналар; муаммолар, ечим ва истиқболли йўналишлар** 8
Рахимов Х.
3. **Педагогларда хорижий тиллар бўйича касбий компетентликни ривожлантириш** 12
Маматқулов Х.А.
4. **Олий таълим муассасаларида талабаларнинг маънавий қадриятлар ва тарихий тафаккурини ривожлантириш масалалари** 16
Абдуллаева А.А.
5. **Ta'limning dolzarb muammolari va yechimlari** 23
Sharipova Z.Z.
6. **Bolalar va o'smirlarning kam jismoniy faolligi muammosi** 30
Xojimirzayev Sh.D.
7. **Синфдан ташқари спорт машғулотларида ўқувчиларнинг миллий ғурур туйғусини ривожлантириш педагогик муаммо сифатида** 36
Холмирзаев Б.

TA'LIM-TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI

8. **Бошланғич таълимнинг математика дарсларида талабаларнинг мустақил ишларини ташкил этишнинг ўзига хос хусусиятлари** 41
Абдуллаев Т.У.
9. **Yosh avlodni tarbiyalashda sport to'garaklarini o'rni** 46
Ismoilov T., Ismoilov G'.
10. **Бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларининг этномаданий компетентлигини ўлкашуносликка оид миллий-худудий материаллар асосида ошириш** 51
Суяров Н.Т.
11. **Элементар математикани ўқитиш жараёнида олий таълим** 57

- муассасалари талабаларини когнитив компетенциясини ривожлантириш**
Нафасов F. A.
12. **О'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish masalalari** **64**
Nabiyev A.B., Usmonov M.A., Botirjanov A.A.
13. **Дарсинг сифати ва самарадорлигини таъминловчи субъектлар** **71**
Nabiyev A.B., Usmonov M.A., Botirjanov A.A.
14. **Авария-кутқарув ва бошқа кечиктириб бўлмайдиган ишларни бажаришда ёнгин-кутқарув техникаларига таъсир кўрсатадиган фавқулодда вазият турлари** **74**
Тинибеков М.Х., Абдурахмонов Д.
15. **Botanika darsligi uchun qo'llaniladigan pedagogik metodlar** **81**
Matmuratova.G.B, Xolmominova.Z
16. **Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarining yoshga xos xususiyatlariga tavsifi** **85**
Suvonaliyev J.X.
17. **Ўзбек ва немис халқ мақолларида эркаклар образи** **93**
Убайдуллаев Ш. Н.
18. **Бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларини санъатшунослик асосида касбий компетентлигини шакллантириш масалалари** **98**
Рахимов Х.У.
19. **Til o'qitishda korpora tushunchasi** **106**
Dadaboyeva G.A.
20. **Musiqqa amaliyotida orkestr fanining ahamiyati** **111**
Maxkamjanov S.Q.
21. **Notiqlik san'atining jamiyat hayotidagi ahamiyati** **115**
Xayriddinova A. F., Xolmo'minov M.Z.
22. **Madaniyat markazlaridagi aktyorlik to'garaklariga aholini jalb qilishning samarali usullari** **120**
Karimova E.N., Xolmo'minov M.Z.
23. **Бўлажак физика ўқитувчиларининг мантикий компетентлигини ривожлантиришда классификация операциясини қўллаш** **125**
Нафасова Г.Б.
24. **Синфдан ташқари спорт машғулотларида ўқувчиларни миллий ғурур туйғусини ривожлантиришнинг педагогик-психологик хусусиятлари** **129**
Холмирзаев Б.



25. **Бўлажак физика ўқитувчиларининг ўқув адабиётлари билан ишлаш жараёнида мантиқий компетентлигини ривожлантириш** **135**
Нафасова Г.Б.
26. **Жамият ма'naviyatini yuksaltirishda media madaniyatining o'рни** **140**
Samiyev B., Xolmo'minov M.
27. **Кредит-модул тизимида музикавий фанлардан мустақил таълимни ташкил этиш методикаси** **143**
Тошматов Ф.
28. **Kreativlik tushunchasi va uning mazmun-mohiyati** **154**
Ergashaliyeva M.U.
29. **Методы использования информационных технологий в управлении образовательным процессом** **158**
Суяров А. М., Хайриев Э. И., Очилов Ш.Ж.
30. **Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларида креатив компетенцияларни шакллантиришнинг ўзига хос хусусиятлари** **166**
Исақова Г. А.
31. **Развитие силовых качеств у бойцов 15-16 лет группы рукопашного боя** **172**
Хабибуллаев А., Костикова О.В.
32. **О'қувчилар ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda texnologiya fanining ahamiyati** **182**
Nabiyev A.B., Usmonov M.A., Botirjanov A.A
33. **Воспитание силы у детей 14-16 лет** **186**
Дусматов О., Костикова О.В.
34. **Обучение детей 10-11 лет технико-тактическим действиям в вольной борьбе** **196**
Усубжанов Ш., Костикова О.В.
35. **Значение мотивации у детей школьного возраста к занятиям физической культурой и спортом** **206**
Минкин С., Костикова О.В.
36. **Yangi O'zbekiston taraqqiyotida ta'limning o'рни va ahamiyati** **216**
Qo'chqarova N.G'.

TA'LIMDA MENEJMENT

37. **Талабаларни педагогик фаолиятда енежерликка тайёрлаш мазмуни** **220**



- Тожибаева Н. К.*
38. **Boshqaruvda zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish** **229**
- Ashiraliyeva M.Q., Xolmo'minov M.Z.*
39. **Madaniyat markazlarini innovatsion rivojlantirish istiqbollari** **234**
- To'g'onboyeva Z., Xolmo'minov M.*
40. **Temur tuzuklari asarida davlat va xalq boshqaruviga oid fikrlar bayoni** **239**
- Alibekova H., Xolmo'minov M.*
41. **Boshqaruv tizimi hamda rahbarlik jarayoniga funksional yondashuv** **245**
- Mardiyev Sh.A., Xolmo'minov M.*
42. **Texnologiya fanida texnologik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish** **250**
- Abdullayev T. U., Siddiqova R.A.*
43. **Ta'lim tizimda ma'naviy-ma'rifiy ishlar** **255**
- Qosimov X.A., Ismoilov T.I.*

IJTIMOIIY VA MAXSUS PEDAGOGIKA

44. **Имконияти чекланган талабаларни спорт ўйинларига ўргатиш** **260**
- Маматқулов М.*
45. **Значение физической культуры в жизни девушки, женщины** **266**
- Костикова О.В.*
46. **О'quv-tarbiya jarayonida pedagogik diagnostika** **277**
- X.Raxmatova*
47. **Maktab o'quvchilarida huquqiy va axloqiy tarbiya uyg'unligini ta'minlash masalasi** **285**
- Satvoldiyev F.A.*

ILG'OR MILLIY VA XALQARO TAJRIBALAR

48. **Скандинавия усулида юришни мамлакатимиз аҳолисига қўллашда рақамли технологияларнинг методик аҳамияти** **290**
- Керимов Ф.А.*
49. **Олий таълим муассасалари талабаларининг когнитив компетенцияларини ривожлантиришда эвристик масалаларнинг ўрни** **297**
- Нафасов Ф.А., Бозорбойев Ж.А.*
50. **Кредит модул шароитида бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларини индивудал ишлаш кўникмаларини шакллантириш** **303**
- Олимов Б.Ж.*



51. **Ўқувчи ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда маҳалла эзгулик бешиги ва таълим муассасаси чинакам тарбия ўчоғи сифатида** **309**
Қулматов Н. Э., Сулайманбеков О.Д.
52. **Aholi salomatligini saqlashda skandinaviya usulida yurishning ahamiyati** **317**
Azizov M. M.
53. **Boshlang'ich ta'lim sifatini baholash va takomillashtirishda xalqaro tadqiqot dasturlarining o'rni: muammo va yechimlar** **322**
Nuriddinova A.B.
54. **Integrated learning: integration of foreign language, history and fine arts** **328**
Ubaydullayev Sh.N., Suyarov N.T., Yuldashev J.A.
55. **Таълим тизимида виртуал назорат тизимининг ўрни ва амалий ахамияти** **338**
Нафасов Ф. А., Абдураимов Д.Э., Саитмуратов Ў.Н.
56. **Talim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llash** **350**
Mamadjonov D., Xolmurodov A., Murodov K., Botirjonov A.
57. **O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimidagi o'zgarishlar** **353**
Meliboyeva O.T., Siddiqov A.M.
58. **Nofilologik yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini pedagogik atamalar asosida rivojlantirish** **359**
Mavlanov Sh.Y.
59. **The culture of resource science in the educational system and the character of national spiritual principles** **366**
Naimov H., Ismailov J.
60. **Стратегии изучения лексики учащихся средних школьников** **369**
Mamadaliyeva S. A., Umarxanova N.
61. **Тасвирий санъат уқитувчиси фаолиятининг мустақиллик йилларидаги равнақи** **376**
Орипов Б.Б.
62. **Yuqori sinf o'quvchilarining bo'sh vaqtini tashkil etishning nazariy asoslari** **380**
Ibragimova S.O.
63. **Методы улучшения разговорных навыков учащихся средней и старшей школы** **391**
Nabiyeva N.G', Umarxanova N.
64. **Значение книг в развитии культуры речи** **399**
Зокиржанов А.
65. **The use of music teaching techniques in elementary grades** **402**



	basics	
	<i>Mahmudov J. S.</i>	
66.	Эффективность использования дополнительного критического материала на уроках литературы в целях развития критического мышления у учащихся общеобразовательных школ	<u>406</u>
	<i>Меҳрибону Акрамхонова</i>	
67.	Интеграция – график таълим самарадорлигини ошириш омили сифатида	<u>410</u>
	<i>Таджибаев А. Б.</i>	
68.	Духовно-воспитательная работа в системе образования	<u>416</u>
	<i>Мусаева Д.</i>	
69.	Проявление агрессивности и негативности в подростковом возрасте	<u>419</u>
	<i>Шухратжонова Р.Н.</i>	
70.	Имконияти чекланган талабаларни спорт ўйинларига ўргатиш	<u>422</u>
	<i>Маматқулов М.</i>	
71.	Chust madaniyati va uning tarqalish hududlari	<u>429</u>
	<i>Maxsutaliyev J.</i>	
72.	Description of the age-specific characteristics of general secondary school students	<u>433</u>
	<i>Suvanaliev J.K.</i>	



Namangan davlat pedagogika instituti “Ta’lim va taraqqiyot” ilmiy-uslubiy jurnali
2022-yil 1-son

“Ta’lim va taraqqiyot” ilmiy-uslubiy jurnali elektron to’plam sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045 044 raqamli guvohnomasi asosida chop etiladi. “Ta’lim va taraqqiyot” ilmiy-uslubiy jurnali NamDPI Ilmiy-texnikaviy Kengashining 10-dekabr 2022-yildagi 4-sonli kengaytirilgan yig‘ilishida muhokama qilinib, ilmiy to’plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnoma № 4). Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma’lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

Texnik muharrir: R.Tursunov

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko‘chasi, 316-uy.

Pochta indeksi: 160136, Faks: (0369) 227-27-21,

Email: Info@namspi.uz

“Ta’lim va taraqqiyot” ilmiy-uslubiy jurnalining 2022-yil 1-soni 447 sahifadan iborat bo‘lib, 72 ta ilmiy maqoladan tashkil topgan.

Jurnalning elektron holatini har qanday tartibda o‘zgartirish yoki soxtalashtirishga uringan subyekt shaxsan javobgan hisoblanadi.